

# PEDAGOGIK MAHORAT

**1(1)**  
**2025**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**1-son (2025-yil, yanvar)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2025**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2025, № 1

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.  
Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 1, 2025

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*

*Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор*

*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*

*Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор*

*Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор*

*Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*

*Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)*

*Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент*

*Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

*Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal

№ 1, 2025

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*

*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)*

*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

*Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov*

*Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova*

*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev*

*PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev*

*PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova*

**MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>Familiya I.Sh.</b>	<b>Mavzu</b>	<b>Bet</b>
<b>DOLZARB MAVZU</b>			
1.	<i>ISROILOVA Saida Erkinovna</i>	Oiladagi zo‘ravonlik holatlarida jabrlanuvchi ayollar xatti-harakatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	8
<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>			
2.	<i>МУСАЕВА Нодира Низомовна, МУСАЕВА Нафиса Азимжоновна, УСМОНОВА Мадина Каюмовна</i>	Теоретические положения модульного обучения	13
3.	<i>ABDURAKHMONOVA Makhfuza Olimovna</i>	Features of youth psychology and motivation in teaching English in secondary schools	18
4.	<i>ABILOVA Gauhar Orinbekovna</i>	Vebinarlarni tashkil etishning pedagogik-psixologik aspektlari	23
5.	<i>AKILOV Faridun Firdavsovich</i>	Maktab direktori o‘rinbosarlarining kasbiy mahoratini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari	27
6.	<i>ALIMOVA Nargiza Usmanovna</i>	Farzand tarbiyasida shaxs nazorat lokusining ta’siri masalasi	33
7.	<i>BERDIBAYEVA Gulshat Sultamuratovna</i>	Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	38
8.	<i>DAMINOVA Manzura Salimovna</i>	O‘smirlarda gender identiklik shakllanishi murakkab jarayon sifatida	43
9.	<i>DAULETOVA Zamira Abdigapbarovna</i>	Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	47
10.	<i>ISMANOVA Odinaxon To‘lqinboevna</i>	Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan asosiy usullar tahlili	52
11.	<i>JUMANOVA Xafiza Xoliqulovna</i>	O‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omillari	56
12.	<i>MALIKOVA Dilraboxon Maxmudovna</i>	Ta’lim jarayonini gender modellar va yondashuvlar asosida tashkil etishning madaniy muhitga ta’siri	60
13.	<i>MANSUROV Sodiqjon Qahramonovich</i>	Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida axloqiy qadriyatning psixologik omillari	64
14.	<i>ESHNAYEV Nortoji Jumayevich</i>	Mobil mutaxassis tayyorlash innovatsion ta’lim muhitining drayveri hamda ijtimoiy pedagogik-psixologik zarurat ekanligi	69

15.	<b>NAZAROV Fayzullo Maxmadiyarovich, BEKTEMIROVA Gulrux Otabek qizi</b>	Maxsus interaktiv ilovalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirish	75
16.	<b>PRATOV Saidmurod Irgashovich</b>	Bolalarda tolerantlik xususiyatlarini o‘rganish metodikasi	81
17.	<b>RAMAZONOVA Feruza Xudoynazarovna, RAMAZONOVA Mashhura Ulug‘bek qizi</b>	Ta‘lim jarayonida akmeologik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi	85
18.	<b>RO‘ZIBOYEVA Ma‘mura Abdunabiyevna</b>	Pragmatik va pedagogik pragmatik xususiyatlarni o‘quv jarayonida takomillashtirish	89
19.	<b>SALIXOV Shoxrux Mansurovich</b>	Bo‘lajak jismoniy madaniyat fani o‘qituvchilari hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik strukturasi	93
20.	<b>SHADIYEV Feruz Djaxonovich</b>	Zamonaviy ta‘lim muhitida kichik maktab yoshidagi bolalar nutqi shakllanishining psixologik xususiyatlari	97
21.	<b>SHAMURATOVA Nozima Ismoil qizi, KALANDAROVA Sharofat Matkarimovna</b>	Mustaqil ta‘lim ko‘nikmalarini rivojlantirishda sun‘iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati, raqamli innovatsiyalarga ilmiy yondashuv	101
22.	<b>UMAROVA Sitora Muxlisovna, NEMATOVA Nigina Nabiyevna</b>	Bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati	106
23.	<b>РОХИМОВА Нулуфар Эгамберганиевна</b>	Компетенциявий ёндашувга асосланган таълимнинг асосий жиҳатлари	110
24.	<b>JUMANIYAZOVA Sanobar Qadambaevna</b>	O‘quvchilarning mustaqil ta‘lim faoliyatini samarali tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari	114
25.	<b>NURMAMATOV Ramazon Abdirashid o‘g‘li</b>	Talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	119
26.	<b>NORMURODOVA Adiba Alisher qizi</b>	Talabalarda akademik mobillikni rivojlantirishga oid ilg‘or xorijiy tajribalarni amalga oshirish	125
27.	<b>QURBONOVA Asal Dilshod qizi</b>	Ta‘limiy o‘yin faoliyatlarida tarbiyalanuvchilarning bilish ko‘nikmasini rivojlantirishda yondashuvlar tavsifi	130
28.	<b>SOYIMNAZAROV Navro‘zbek Baxtiyor o‘g‘li</b>	Emotsional intellekt o‘smirlar o‘z-o‘zini anglashining psixologik omili sifatida	136
29.	<b>YUNUSOVA Go‘zal Sultonovna</b>	O‘smirlar avtonomiyasi rivojlanishiga tengdoshlar bilan munosabatning ta‘siri	141
30.	<b>MATNIYOZOVA Marhabo Abdug‘apporovna</b>	O‘zbekiston talaba-yoshlarida psixologik yordamning ahamiyati hamda ijtimoiy fikrlar shakllanishining psixologik jihatlari	146
31.	<b>NEGMATOVA Aropat Muxtarovna</b>	Oliy ta‘lim muassalarining o‘quv jarayonidagi o‘rganish texnikasi va strategiyalari: samarali	152

		yondashuvlar	
32.	<i>MUSAYEVA Amina Karamatovna</i>	Oliy ta’lim jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish	156
33.	<i>MARDIYEVA Shaxnoza Amirovna</i>	Tyutorlar yordamida talabalar o’quv faoliyati jarayoniga qiziqish va motivatsiyasini oshirish	164
34.	<i>SULTANOV Alijon Quziyevich</i>	Uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo’naltirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari	168
35.	<i>JUMAYEVA Muxlisa Shokir qizi</i>	Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni	173
36.	<i>TUROPOVA Maxliyo Erkin qizi</i>	Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	179
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA’LIM</b>			
37.	<i>ALMARDANOV Jo’rabek Bobonazarovich</i>	Bolalarda kommunikativ sifatlarning shakllanishi pedagogik muammo sifatida	184
38.	<i>MATBERDIEVA Yulduz Bayramdurdievna</i>	Boshlang’ich sinf o’quvchilarning kognitiv fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida	188
39.	<i>SIDIQOVA Dilora Shavkatovna, RAHMATOVA Mehrangis Hayot qizi</i>	Kognitiv faoliyat tushunchasining nazariy asoslari, uning mazmuni, tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlari	192
40.	<i>XODIYEVA Nilufar Sherzod qizi</i>	Maktabgacha yoshdagi bolalarni raqamli texnologiyalar asosida intellektual rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	197
41.	<i>IBADULLAYEVA Shaxnoza Ilxamovna</i>	Boshlang’ich sinf o’quvchilarining tasviriy san’at darslarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	201
42.	<i>AZIMOVA Nodira Xikmatovna</i>	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xalq og’zaki ijodining kichik janrlardan foydalanish texnologiyasi	207
43.	<i>RASHIDOVA Mehriya Muzafarovna</i>	Boshlang’ich ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	212
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O’RGANISH</b>			
44.	<i>BOZOROVA Viloyat Muzaffarovna</i>	The importance of exercises aiming at analyzing various written text sample in forming students' writing skills in English	216
45.	<i>KAMOLOVA Sevara Baxshullayevna</i>	Theories of bilingualism and its effects on cognitive development	222
46.	<i>ABDULLAEVA Lobar Bazarbaevna</i>	Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari kompetentligini oshirish orqali o’quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish	228

## DOLZARB MAVZU

### OILADAGI ZO‘RAVONLIK HOLATLARIDA JABRLANUVCHI AYOLLAR XATTI-HARAKATLARINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Isroilova Saida Erkinovna,  
Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Mazkur tadqiqotda oilaviy zo‘ravonlik holatlarida jabrlanuvchi ayollarning xatti-harakatlari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida ayollarning ruhiy holati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, motivatsiya va stressga chidamlilik xususiyatlari tahlil qilingan. Jabrlanuvchilar orasida ruhiy va jismoniy zo‘ravonlikning keng tarqalganligi aniqlangan bo‘lib, bu ularning depressiya va xavotirlik darajasining yuqori ekanligi bilan bog‘liq. Shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning past darajasi va ichki motivatsiyaning zaifligi ayollarning rehabilitatsiya jarayoniga ehtiyojini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar:** oilaviy zo‘ravonlik, jabrlanuvchi ayollar, psixologik xususiyatlar, ruhiy holat, depressiya va xavotirlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya, stressga chidamlilik, rehabilitatsiya dasturlari, psixologik yordam, global va milliy tajribalar.

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЕДЕНИЯ ЖЕНЩИН, ПОСТРАДАВШИХ ОТ СЕМЕЙНОГО НАСИЛИЯ

*В данном исследовании изучены особенности поведения и социально-психологические характеристики женщин, пострадавших от семейного насилия. В ходе исследования были проанализированы психическое состояние женщин, уровень социальной поддержки, мотивация и устойчивость к стрессу. Установлено, что среди пострадавших широко распространены психологическое и физическое насилие, что связано с высоким уровнем депрессии и тревожности. Кроме того, низкий уровень социальной поддержки и слабая внутренняя мотивация указывают на необходимость проведения реабилитационных мероприятий.*

**Ключевые слова:** семейное насилие, пострадавшие женщины, психологические характеристики, психическое состояние, депрессия и тревожность, социальная поддержка, мотивация, устойчивость к стрессу, реабилитационные программы, психологическая помощь, глобальный и национальный опыт.

### SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE BEHAVIOR OF WOMEN AFFECTED BY DOMESTIC VIOLENCE

*This study examines the behavioral patterns and socio-psychological characteristics of women affected by domestic violence. The research analyzes the mental state, level of social support, motivation, and stress resilience of the victims. It was found that psychological and physical violence are widespread among the affected women, correlating with high levels of depression and anxiety. Furthermore, the low level of social support and weak intrinsic motivation highlight the need for rehabilitation programs.*

**Keywords:** domestic violence, victimized women, psychological characteristics, mental state, depression and anxiety, social support, motivation, stress resilience, rehabilitation programs, psychological assistance, global and national practices.

**Kirish.** Oilaviy hayot jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida insonlarning psixologik farovonligi va ijtimoiy barqarorligida muhim ahamiyatga ega. Biroq bugungi kunda oilada zo‘ravonlik masalasi global ijtimoiy muammo sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zo‘ravonlikning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ular orasida jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy zo‘ravonlik jabrlanuvchilarning psixologik va ijtimoiy holatiga jiddiy zarar yetkazadi. Xususan, oiladagi zo‘ravonlik ayollar uchun chuqur psixologik jarohatlar va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keluvchi omil sifatida o‘rganiladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har uch ayoldan biri hayoti davomida turli shakllardagi zo‘ravonlikka duch keladi. Shu bilan birga, ko‘plab mamlakatlarda ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashga oid maxsus qonunlar va dasturlar joriy etilgan bo‘lsa-da, muammo o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Zo‘ravonlikka uchragan ayollarning ruhiy holati, ularning

ijtimoiy o‘z-o‘zini anglashlari va oilaviy munosabatlardagi o‘rmini tahlil qilish bugungi kun psixologiya va sotsiologiya fanlarining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Oilaviy zo‘ravonlik shaxsning ruhiy, ijtimoiy va jismoniy salomatligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadigan omil hisoblanadi. Jabrlanuvchi ayollarda o‘z-o‘zini anglash va baholash darajasining pasayishi, ichki qarama-qarshiliklarning kuchayishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi kabi psixologik holatlar kuzatiladi. Ushbu holatlar ularda xavotirlik, depressiya, o‘z-o‘ziga zarar yetkazish tendensiyalarining kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlik jabrlanuvchilarining ko‘pchiligi jamiyatdagi o‘z ijtimoiy mavqeini pasaytirgan holda, izolyatsiya holatiga tushib qoladi.

Ijtimoiy jihatlar va jamiyatdagi stereotiplar. Oilaviy zo‘ravonlik masalasi ko‘pincha jamiyatda mavjud bo‘lgan patriarxal qarashlar, gender stereotiplari va an’anaviy oila tushunchalaridan kelib chiqadi. Ayrim jamiyatlarda ayollarni oila ichidagi bo‘ysunuvchi shaxs sifatida qabul qilish odati zo‘ravonlikning tabiiy qabul qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa, jabrlanuvchi ayollarning zo‘ravonlikka duch kelganda, o‘z ovozi ochiq ayta olmasligi, himoyasiz holatda qolishi va muammoni yashirishiga olib keladi. Xususan, iqtisodiy mustaqillikka ega bo‘lmagan ayollar uchun bu vaziyat yanada murakkablashadi.

Jabrlanuvchi ayollarning xatti-harakatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Oiladagi zo‘ravonlikka duch kelgan ayollarning xatti-harakatlari va psixologik holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular ko‘pincha o‘zlarini aybdor his qilishadi, zo‘ravonlikni qabul qilishga majbur bo‘lishadi va bu holatni o‘zgartirish uchun faol harakat qila olmaydilar. Bu, o‘z navbatida, “qurbon sindromi” deb ataluvchi holatni shakllantiradi. Ushbu sindrom doirasida ayollar o‘z imkoniyatlarini qadrlamaydi, o‘z huquqlarini himoya qilishga qodir emas va zo‘ravonlikdan chiqish yo‘llarini topa olmaydi.

Dunyo bo‘ylab oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha qator chora-tadbirlar ko‘rilmogda. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida oilaviy zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan kompleks yondashuvlar samarali natija bermoqda. Ular orasida jabrlanuvchi ayollarga bepul huquqiy yordam ko‘rsatish, psixologik maslahat xonalarini tashkil etish va reabilitatsiya markazlarini ochish ishlari o‘z samarasini bermoqda. O‘zbekiston misolida esa, “Ayollar daftari” loyihasi doirasida oilaviy zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollarni ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilgan dasturlar amalga oshirilmogda.

Mazkur ishida oiladagi zo‘ravonlik holatlarida jabrlanuvchi ayollarning xatti-harakatlari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish maqsad qilingan. Ushbu masala bugungi kunda ijtimoiy-psixologik jihatdan dolzarb bo‘lib, uni chuqur o‘rganish orqali jabrlanuvchi ayollarga yordam ko‘rsatish va zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Ushbu maqolada psixologik diagnostika, global va milliy tajribalar, reabilitatsiya dasturlari hamda jabrlanuvchi ayollarning xatti-harakatlarini boshqarish bo‘yicha psixologik mexanizmlarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Ushbu masala jamiyatda ayollar huquqlarini himoya qilish, oilaviy barqarorlikni ta‘minlash va shaxsiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oiladagi zo‘ravonlik masalasini o‘rganish ijtimoiy-psixologik ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu masala jamiyatda gender tenglik, huquqiy himoya va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Quyida mazkur mavzuga oid muhim nazariy va empirik tadqiqotlar tahlil qilinadi.

G.V.Tarasova (2008) o‘z tadqiqotlarida oilaviy zo‘ravonlikning asosiy omillari va jabrlanuvchi shaxsning xulq-atvoriga ta‘sir qiluvchi psixologik mexanizmlarni tahlil qiladi. Uning fikricha, zo‘ravonlik jabrlanuvchida o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, o‘zini aybdor his qilish va o‘zini qurbon sifatida qabul qilish singari hissiyotlarni kuchaytiradi.

E.Giddens (1992) zo‘ravonlikning ijtimoiy jihatlarini o‘rganib, gender tengsizlik va patriarxal jamiyatdagi an’anaviy oila tuzilishining zo‘ravonlikni yuzaga keltiruvchi asosiy sabab ekanligini ta‘kidlaydi. Walker L.E. (1979) tomonidan ishlab chiqilgan "qurbon sindromi" nazariyasi jabrlanuvchilarning zo‘ravonlikni qabul qilishga va undan chiqishga ojizligini tushuntiradi. Bu nazariya, jabrlanuvchi ayollar ko‘pincha zo‘ravonlikni o‘z hayotining tabiiy qismi sifatida qabul qilishlarini ko‘rsatadi.

A.Bandura (1977) o‘zining ijtimoiy o‘rganish nazariyasida oilaviy zo‘ravonlikning generativ tabiatini tushuntiradi. U bolalikda zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan shaxslar katta bo‘lganda o‘sha xatti-harakatlarni qaytarishga moyil ekanligini qayd etadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) (2021) ma‘lumotlariga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollar uchun ijtimoiy yordam va reabilitatsiya dasturlari mavjudligi muhim omil hisoblanadi. Zo‘ravonlikka qarshi kurashda milliy qonunchilikni kuchaytirish va jabrlanuvchilarga bepul psixologik yordam ko‘rsatish muhimligi ta‘kidlanadi.

S.Rubinstein (2003) psixologik stress va uning shaxs xulq-atvoriga ta‘sirini tahlil qiladi. U, zo‘ravonlikka uchragan shaxslarning ruhiy va emotsional zaifligini yengish uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish kerakligini ta‘kidlaydi.

Sh. Sh. Mardonova (2020) O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlik muammosini o‘rganib, zo‘ravonlikka uchragan ayollarda o‘z-o‘zini anglash darajasi va psixologik barqarorlikni oshirish uchun ma‘naviy va psixologik treninglar samaradorligini ta‘kidlagan.

“Ayollar daftari” loyihasi O‘zbekiston tajribasida oilaviy zo‘ravonlik qurbonlariga iqtisodiy yordam va psixologik reabilitatsiya dasturlari orqali ularga hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oilaviy zo‘ravonlik masalasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Uning sabablari patriarxal jamiyatdagi stereotiplar, iqtisodiy qaramlik va ruhiy travmalarga bog‘liq. Ushbu masalani hal qilish uchun ijtimoiy yordam dasturlari, reabilitatsiya markazlari va qonunchilikdagi islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik yondashuvlar jabrlanuvchi ayollarning o‘zini anglash, motivatsiya va stressga qarshi kurashish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

### Asosiy qism. 1. Oilaviy zo‘ravonlikning mohiyati va turlari

Oilaviy zo‘ravonlik shaxslar o‘rtasidagi kuch ishlatish, tahdid qilish, ruhiy bosim yoki iqtisodiy qaramlikka asoslangan zo‘ravonlik shakllarini o‘z ichiga oladi. Bu hodisa nafaqat oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni buzadi, balki jamiyatdagi umumiy barqarorlikka ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

**Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)** zo‘ravonlikni quyidagi asosiy turlarga ajratadi:

• **Jismoniy zo‘ravonlik:** jabrlanuvchiga tan jarohati yetkazish yoki hayotiga xavf soluvchi kuch ishlatish holatlari.

• **Ruhiy zo‘ravonlik:** qichqiriq, haqorat, kamsitish va tahqirlash orqali jabrlanuvchining psixologik holatini izdan chiqarish.

• **Iqtisodiy zo‘ravonlik:** moliyaviy erkinlikni cheklash, ayollarning daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qilish.

• **Jinsiy zo‘ravonlik:** jabrlanuvchining roziligisiz jinsiy munosabatga majburlash.

Ushbu turlar o‘rtasida ruhiy va iqtisodiy zo‘ravonlik ko‘pincha yashirin shaklda davom etib, uzoq muddatli psixologik travmalarga olib keladi.

### 2. Jabrlanuvchi ayollarning psixologik holati va xatti-harakatlari

Zo‘ravonlikka uchragan ayollarda quyidagi psixologik va xatti-harakat xususiyatlari kuzatiladi:

• **Qurbonlik sindromi:** Jabrlanuvchilar o‘zlarini zaif va ojiz his qilishadi, ular zo‘ravonlikni qabul qilgan holda undan chiqish yo‘llarini ko‘rmaydilar.

• **Depressiya va xavotirlik:** Zo‘ravonlik natijasida ayollarda xavotirlik, o‘z joniga qasd qilish fikrlari va stressga chidamsizlik kuchayadi.

• **O‘z-o‘zini anglash darajasining pasayishi:** Jabrlanuvchi ayollar ko‘pincha o‘z qadr-qimmatini yo‘qotib, o‘zlarini jamiyatdan ajratib qo‘yishadi.

• **Ruhiy va jismoniy salomatlikning yomonlashishi:** Zo‘ravonlik ayollarda nafaqat ruhiy, balki jismoniy kasalliklarni (qon bosimi, yurak xastaligi) keltirib chiqaradi.

**Walker L.E. nazariyasiga** ko‘ra, ayollarning zo‘ravonlikka duch kelgach, zo‘ravonlikni davom ettiruvchi holatlarni qabul qilishiga sabab sifatida o‘zini aybdor his qilish va o‘z huquqlarini bilmaslik yotadi.

### 3. Oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy-psixologik sabablari

Oilaviy zo‘ravonlikning kelib chiqishiga ta‘sir qiluvchi sabablar ikki guruhga bo‘linadi:

#### • Ijtimoiy omillar:

- Patriarxal madaniyat va gender tengsizlik.
- Jamiyatdagi zo‘ravonlikni yashirish yoki ijobiy baholashga moyillik.
- Ayollarning iqtisodiy qaramligi va huquqiy savodxonligining pastligi.

#### • Psixologik omillar:

○ Zo‘ravonlikning transgeneratsion tabiatda davom etishi (bolaligida zo‘ravonlikni ko‘rgan shaxslar kattalar hayotida shunday xatti-harakatlarni davom ettirishi).

- Shaxsning impulsivligi va agressivligi.
- O‘zini boshqara olmaslik va stressga nisbatan zaiflik.

### 4. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollar uchun reabilitatsiya va yordam mexanizmlari

Jabrlanuvchi ayollar uchun reabilitatsiya jarayonlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Psixologik yordam:** Jabrlanuvchilarga psixoterapiya va guruh mashg‘ulotlari orqali stressni boshqarish va o‘zini anglashni rivojlantirish.

2. **Ijtimoiy yordam:** Reabilitatsiya markazlari orqali turar joy, moliyaviy yordam va huquqiy maslahatlar bilan ta‘minlash.

3. **Huquqiy himoya:** Zo‘ravonlikka qarshi maxsus qonunlarni joriy etish va jabrlanuvchilar uchun tezkor yordam xizmatlarini tashkil qilish.

4. **Reintegratsiya:** Jabrlanuvchilarni mehnat bozoriga qaytarish, iqtisodiy mustaqilligini tiklashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish.

**Global tajribalar:** Skandinaviya mamlakatlarida oilaviy zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish uchun bepul xizmatlar tizimi joriy qilingan. O‘zbekistonda esa “Ayollar daftari” va rehabilitatsiya markazlari orqali jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatilmoqda.

**5. Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha psixologik yondashuvlar**

Oilaviy zo‘ravonlikni oldini olishda profilaktika ishlari katta ahamiyatga ega. Bu jarayon quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- **Ta‘lim va xabardorlikni oshirish:** Ayollarning huquqiy va psixologik savodxonligini oshirish bo‘yicha dasturlarni joriy etish.

- **Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash:** Oiladagi konfliktlarni boshqarish bo‘yicha treninglar va maslahat xizmatlarini tashkil qilish.

- **Jamoatchilik ishtiroki:** Jamiyatni gender tenglik va oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashishga jalb etish.

Oilaviy zo‘ravonlik masalasining asosiy jihatlari, jabrlanuvchilarning psixologik va ijtimoiy xususiyatlari, shuningdek, rehabilitatsiya va profilaktika mexanizmlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlar zo‘ravonlikni kamaytirish va jabrlanuvchi ayollarni ijtimoiy hayotga qaytarishga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot **obyekti** sifatida oilaviy zo‘ravonlikka duch kelgan 18-45 yoshdagi ayollar tanlab olindi.

**Tadqiqot predmeti:** Oilaviy zo‘ravonlik holatlarida jabrlanuvchi ayollarning xatti-harakatlari, ruhiy holati va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.

**Tadqiqot maqsadi:** Jabrlanuvchi ayollarning oilaviy zo‘ravonlikdan keyingi psixologik va ijtimoiy holatini o‘rganish, zo‘ravonlikning ularning xulq-atvoriga ta‘sirini aniqlash hamda rehabilitatsiya jarayonida samarali psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Jabrlanuvchi ayollarning duch kelgan zo‘ravonlik turlarini tahlil qilish va ularning tarqalish darajasini aniqlash.

2. Ayollarning ruhiy holatini baholash (depressiya, xavotirlik, stressga chidamlilik darajalari).

3. Jabrlanuvchilarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan foydalanish darajasi va resurslarini o‘rganish.

4. Ayollarning ichki va tashqi motivatsiyasini, o‘zini anglash va boshqarish darajasini tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- Jabrlanuvchi ayollarning zo‘ravonlikdan keyingi psixologik xususiyatlari, jumladan, depressiya, xavotirlik va ijtimoiy izolyatsiya darajasi ilk marotaba kompleks ravishda tahlil qilinadi.

- Rehabilitatsiya jarayonida ichki motivatsiyani oshirishga qaratilgan amaliy dasturlar taklif etiladi.

So‘rovnoma savollari va tahlillari

So‘rovnoma orqali quyidagi ma‘lumotlar yig‘ildi va tahlil qilindi:

1. Zo‘ravonlik turlarining tarqalish darajasi

Zo‘ravonlik turi	Respondentlar ulushi (%)
<b>Jismoniy zo‘ravonlik</b>	45%
<b>Ruhiy zo‘ravonlik</b>	60%
<b>Iqtisodiy zo‘ravonlik</b>	30%
<b>Jinsiy zo‘ravonlik</b>	15%

Ushbu jadval jabrlanuvchi ayollar qanday turdagi zo‘ravonlikka duch kelganliklarini ko‘rsatadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra:

- **Ruhiy zo‘ravonlik (60%)** eng keng tarqalgan, ya‘ni haqorat, bosim va tahqirlash ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

- **Jismoniy zo‘ravonlik (45%)** respondentlarning yarmiga yaqini duch kelgan.

- **Iqtisodiy zo‘ravonlik (30%)** ko‘pincha moliyaviy qaramlik yoki mablag‘lardan mahrum qilish shaklida uchraydi.

- **Jinsiy zo‘ravonlik (15%)** nisbatan kamroq tarqalgan, ammo bu turdagi zo‘ravonlik jiddiy psixologik va jismoniy zararlarga olib keladi.

2. Ruhiy holat tahlili (depressiya va xavotirlik darajalari)

Ruhiy holat turi	Yuqori daraja (%)	O‘rtacha daraja (%)	Past daraja (%)
<b>Depressiya</b>	55%	35%	10%
<b>Xavotirlik</b>	65%	30%	5%

Bu jadval jabrlanuvchi ayollarning depressiya va xavotirlik darajasini aks ettiradi:

- **Depressiya (55%)** yuqori darajada, ya'ni ko'pchilik respondentlar ruhiy siqilish va tushkunlikka duch kelgan.
  - **Xavotirlik (65%)** o'ta keng tarqalgan bo'lib, bu ayollarning doimiy stress va noqulaylik holatida yashashini ko'rsatadi.
  - **O'rtacha va past darajadagi holatlar** jabrlanuvchilarning nisbatan kam qismida qayd etilgan, bu esa muammolarning chuqurligini tasdiqlaydi.
3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi

Qo'llab-quvvatlash darajasi	Respondentlar ulushi (%)
<b>Yaxshi qo'llab-quvvatlash</b>	20%
<b>O'rtacha qo'llab-quvvatlash</b>	40%
<b>Past qo'llab-quvvatlash</b>	40%

Bu jadval zo'rvonlikka uchragan ayollar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasini ko'rsatadi:

- **Past qo'llab-quvvatlash (40%)** respondentlarning sezilarli qismida aniqlangan bo'lib, bu ularga ko'rsatilayotgan yordamning yetarli emasligini anglatadi.
  - **O'rtacha daraja (40%)** ijtimoiy yordamning cheklanganligini ko'rsatadi.
  - **Yaxshi qo'llab-quvvatlash (20%)** faqatgina kichik guruhda mavjud bo'lib, bu ularga jamiyat va yaqinlarining e'tibori yetarliligini bildiradi.
5. Motivatsiya va o'zini anglash darajasi

Motivatsiya turi	Yuqori daraja (%)	O'rtacha daraja (%)	Past daraja (%)
<b>Ichki motivatsiya</b>	25%	50%	25%
<b>Tashqi motivatsiya</b>	60%	30%	10%

Bu jadval respondentlarning ichki va tashqi motivatsiya darajasini baholaydi:

- **Ichki motivatsiya (25%)** nisbatan past bo'lib, bu zo'rvonlikka uchragan ayollarning o'zlarini rivojlantirishga qiziqishlari zaifligini bildiradi.
- **Tashqi motivatsiya (60%)** yuqori darajada bo'lib, ayollar ko'proq tashqi omillar (boshqalarning fikri, yordam yoki qo'llab-quvvatlash) bilan harakat qilishlarini ko'rsatadi.
- **O'rtacha darajalar** ayollarning bir qismini o'zini anglash yo'lida ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot davomida oilaviy zo'rvonlik holatlarida jabrlanuvchi ayollarning xatti-harakatlari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

1. **Zo'rvonlik turlarining keng tarqalishi:** Jabrlanuvchilar orasida ruhiy va jismoniy zo'rvonlik eng ko'p uchraydi, bu esa jabrlanuvchilarning ruhiy holatiga chuqur ta'sir qilmoqda.
  2. **Ruhiy va emotsional zaiflik:** Jabrlanuvchi ayollarning katta qismi depressiya va xavotirlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi, bu esa ularda ijtimoiy izolyatsiya va o'ziga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi.
  3. **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning past darajasi:** Respondentlarning aksariyati jamiyatdan yetarli yordam olmaganligi aniqlanib, bu holat ulardagi psixologik muammolarni yanada kuchaytirgan.
  4. **Ichki motivatsiyaning zaifligi:** Zo'rvonlikka uchragan ayollarning ichki motivatsiyasi past bo'lib, ular o'z hayotini o'zgartirishga faol harakat qilmaydi va tashqi qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi.
  5. **Tashqi omillarning kuchli ta'siri:** Ayollarning ko'pchiligi qaror qabul qilishda tashqi bosim yoki omillarga ko'proq tayanadi, bu esa ularda mustaqil hayotga intilish darajasini pasaytiradi.
- Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'rvonlik nafaqat jabrlanuvchi shaxsning ruhiy va jismoniy salomatligiga, balki jamiyatdagi umumiy ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar:

1. Выготский, Л.С. (1984). Психология развития ребенка. Москва: Просвещение.
2. Уокер, Л.Е. (1979). Синдром жертвы домашнего насилия. Нью-Йорк: Harper & Row.
3. Андреева, Г.М. (1998). Социальная психология. Москва: Аспект Пресс.
4. Макарова, В.И. (2012). Социально-психологическая адаптация женщин. Санкт-Петербург: Речь.
5. Walker, L.E. (1989). Terrifying Love: Why Battered Women Stay in Abusive Relationships. New York: Harper Collins.
6. Марсиа, Дж. (1996). Психологические кризисы и идентичность. Москва: Прогресс.

## PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОЛОЖЕНИЯ МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

*Мусаева Нодира Низомовна,*

*профессор Бухарского государственного университета,*

*доктор педагогических наук*

*Мусаева Нафиса Азимжоновна,*

*преподаватель Бухарского государственного педагогического института*

*Усмонова Мадина Каюмовна,*

*студентка группы 2 КИМ(рус)-21*

*Бухарского государственного университета*

*В статье раскрыты теоретические основы модульного обучения, при котором создаются все необходимые условия для получения обучаемыми знаний в соответствии со своими способностями.*

**Ключевые слова:** *модульное обучение, принцип деятельностного подхода, принцип паритетности, принцип технологичности, принцип системного квантования, принцип мотивации, принцип модульности, принцип проблемности, принцип когнитивной визуальности, принцип опоры на ошибки, принцип экономии учебного времени.*

### MODULLI O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Maqolada o‘quvchilarning o‘z qobiliyatiga muvofiq bilim olishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan modulli o‘qitishning nazariy asoslari ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *modulli o‘qitish, faoliyatlik yondoshuv tamoyili, teng huquqlik tamoyili, texnologik tamoyili, tizimli kvantlash tamoyili, motivatsiya tamoyili, modullik tamoyili, muammolik tamoyili, kognitiv vizuallik tamoyil, xatoliklarga tayanish tamoyili, o‘quv vaqtini tejash tamoyili.*

### THEORETICAL PROVISIONS OF MODULAR LEARNING

*The article reveals the theoretical foundations of modular training, in which all the necessary conditions are created for students to obtain knowledge in accordance with their abilities.*

**Keywords:** *modular learning, the principle of the activity approach, the principle of parity, the principle of manufacturability, the principle of system quantization, the principle of motivation, the principle of modularity, the principle of problemativeness, the principle of cognitive visuality, the principle of relying on errors, the principle of saving study time.*

**Введение.** Модульное обучения является эффективной перспективной системой обучения, вследствие того, что оно наилучшим образом адаптировано к системе восприятия головного мозга человека.

Модульное обучения исходит из общей теории функциональных систем, нейрофизиологии мышления, психологии и педагогики.

Результаты исследований в этих областях показали, что человеческий мозг, кора которого имеет модульную организацию, наилучшим образом воспринимает информацию в виде квантов (определённых порций) [3].

Востребованность модульного обучения характеризуется тем, что оно позволяет решать современные задачи непрерывного профессионального образования, такие как:

- осуществление деятельностного подхода при разработке учебного процесса, оптимизация и структурирование содержания обучения, гибкое изменение учебных программ;
- индивидуализация образовательных программ, их дифференцирование на полную, сокращённую, углублённую;
- реализация индивидуализированного и дифференцированного обучения;
- обучение практической деятельности и контроль успешности обучения на уровне оценки наблюдаемых действий;
- обеспечение непрерывности и интенсификации обучения;

– активизация, самостоятельность и максимальная реализация возможностей обучаемых.

В современной теории и практики модульного обучения можно выделить два подхода: предметно-деятельностный и системно-деятельностный.

На базе этих подходов модульного обучения разработан ряд концепций подготовки специалистов. В основе всех концепций лежит деятельностный подход, с позиций которого процесс обучения целиком или в рамках конкретной образовательной дисциплины (дисциплин) ориентирован на последовательное усвоение обучаемым элементов профессиональной деятельности в соответствии с содержанием модульной образовательной программы.

Модульное обучение, являясь одной из форм организации учебного процесса, означает пошаговое или поэтапное усвоение логически завершённых единиц учебного материала – модулей.

**Основная часть.** Технология модульного обучения разрабатывается на основе принятых принципов [4]: принцип деятельностного подхода, принцип паритетности, технологичности, принцип системного квантования, принцип мотивации, принцип модульности, принцип проблемности, принцип когнитивной визуальности, принцип опоры на ошибки, принцип экономии учебного времени (Рис.1.).

1. Принцип деятельностного подхода означает, что формирование модулей производится в соответствии с содержанием деятельности специалиста. Формирование модулей можно осуществлять, как на предметно-деятельностном, так и на системно-деятельностном подходе.

2. Принцип паритетности означает, что взаимодействие педагога и обучаемого в учебном процессе носит субъект – субъектный характер, так как модульное обучение относится к личностно-ориентированным технологиям обучения. Последнему присущи такие основополагающие принципы, как гуманизм, сотрудничество и свободное воспитание. Эти достоинства позволяют технологии модульного обучения максимально адаптироваться к индивидуально-психологическим особенностям личности.

3. Принцип технологичности – это осуществление системного модульного подхода к созданию и реализации возобновляемого учебного процесса, способствующее гарантируемому достижению обучаемым запланированных результатов обучения.

Данный принцип обеспечивается следующим:

- выработкой максимально уточнённых учебных целей, подбором критериев их измерения и оценки;
- разработкой и точным описанием процесса обучения, направленной на достижение поставленных учебных целей;
- ориентацией учебных целей, всего учебного процесса на гарантированное достижение результатов обучения;
- оперативной оценкой результатов обучения и коррекцией обучения;
- итоговой оценкой результатов обучения.

4. Принцип системного квантования - базируется на требованиях теории сжатия информации и концепции инженерии знаний, теории укрупнения дидактических единиц. Этот принцип предполагает учёт следующих психолого-педагогических закономерностей: учебный материал большого объёма запоминается с трудом и нежеланием; учебный материал, представленный компактно в определённой системе, облегчает восприятие; выделение в учебном материале базовых мест и понятий способствует повышению эффективности запоминания.

При этом основой учебного материала должна быть научность и фундаментальность.

На усвоение учебного материала оказывает существенное значение то, на сколько во время занятий показана практическая значимость модуля, связь содержания модуля с другими модулями, анализа типичных ошибок студентов при освоении материала данного модуля.

5. Принцип мотивации означает стимулирование учебно-познавательной деятельности студента. Это основополагающее положение.

Познание, прежде всего, процесс, связанный с личностью. Оно реализуется через личные интересы и личную мотивацию. Под мотивацией понимаются факторы, приводящие к действию, пробуждающие интерес.

3. Факторы связанные с процессом обучения:

- деятельностный подход в обучении;
- отношения педагога и обучаемого в учебном процессе;
- физическое состояние обучаемого;
- использование проблемных ситуаций;
- использование интересной информации;

- мотивирующее поведение педагога.

Возбуждение интереса к учебному материалу модуля, стимулирование к познанию, к активному творческому мышлению на занятии достигается путём реализации исторического и проблемного элементов модуля.




Рисунок 1. Блок-схема модульного обучения

6. Принцип модульности – способствует индивидуализации обучения: Во-первых, динамическая структура модуля позволяет представлять содержание курса в трёх различных вариантах: полном, сокращённом, углубленном. Выбор этих вариантов зависит от способностей обучаемого.

Во-вторых, модульность проявляется в вариативности методов и форм, усвоения содержания каждого модуля. Это могут быть активные формы и методы обучения (диалог, самообучение, деловые и имитационные игры и др.), а также проблемные лекции, семинары, консультации.

В-третьих, модульность обеспечивается за счёт ступенчатости при формировании модулей и освоении нового материала, когда обучение идёт от простого к сложному по каждому модулю, по каждой образовательной дисциплине.

В-четвёртых, гибкость учебных элементов, входящих в модуль позволяет периодически обновлять учебный материал.

7. Принцип проблемности – способствует повышению эффективности усвоения материала, вследствие введения проблемных ситуаций и практической направленности занятий. Во время занятий формируется гипотеза, затем с участием аудитории решается выдвинутая проблема. Современный преподаватель на занятии не должен только констатировать факты, обязан показывать и объяснять методику изучения вопроса, ход решения поставленной им самим проблемы, особенности эксперимента, его результат и т.д., т.е. он выступает, как исследователь.

В первую очередь, именно это заинтриговывает студента, вырабатывает у него творческое мышление и активность.

8. Принцип когнитивной визуальности – вытекает из психолого-педагогической закономерности, согласно которой эффективность усвоения повышается, если наглядность в обучении выполняет не только иллюстративную, но и когнитивную функцию (от. лат. *cognitio*-знание). Именно поэтому зародилось: «когнитивная графика» - новая проблемная область в теории искусственного интеллекта; представление сложных объектов в виде компьютерных картинок. Исходя из этого, составными компонентами модуля являются когнитивно-графические учебные элементы (блок рисунки,...), выполненные в цвете. Таким образом, рисунки являются главным элементом модуля.

Во-первых, повышает эффективность обучения, так как зрительная информация: существеннее, она доставляет до 90 % всей воспринимаемой информации, а вербальная 10 %; является одновременной, что сокращает время усвоения информации в 5-6 раз, которое используется для индивидуальной и самостоятельной работы обучающихся; более достоверная - «Лучше один раз увидеть, чем 100 раз услышать», создаёт условия для дифференцированного по времени восприятия, что является важным при индивидуализированном обучении.

Во-вторых, развивает зрительное и пространственное мышление, так как к процессу обучения подключается богатый потенциал образного правого полушария мозга, способствующий развитию интуиции у обучаемых

В-третьих, рисунок, компактно иллюстрирующий содержание учебного материала, способствует формированию у студента системности знания.

В-четвёртых, рисунок в цвете повышает эффективность восприятия и запоминания учебной информации и является средством эстетического воспитания студентов.

9. Принцип опоры на ошибки – этот принцип направлен на систематическое создание в процессе обучения ситуаций на поиск ошибок, на разработку дидактических материалов и средств, ориентированных на формирование аппарата предвосхищения в структуре функциональной системы психической деятельности студентов.

Это способствует развитию критичности мышления у студента.

10. Принцип экономии учебного времени – служит для обеспечения резерва учебного времени, используемого для индивидуальной и самостоятельной работы обучающихся. Правильная организация модульного обучения приносит до 30 % и более экономии учебного времени. Это может быть достигнуто за счёт полной реализации всех принципов модульного обучения, компьютеризации учебного процесса, согласования учебных программ смежных образовательных дисциплин.

Ilmiy tadqiqotning maqsadi: Yurtimizda faoliyat umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan direktor o'rinbosarlarini kasbiy mahoratini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini mazmun-mohiyatini zamonaviy yondashuvlar asosida yoritib berish orqali boshqaruv jarayonlarini ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatini boshqaruv jarayonlariga joriy etishdan iborat.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishini dolzarbligini va maqsadidan kelib chiqib hal etilishi zarur bo'lgan quyidagi vazifalar belgilab olindi. Ular:

1. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tizimi direktori o'rinbosarlarini ijtimoiy-psixologik sifatlarini rivojlantirishning ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyatini tizimli tahlil qilish asosida yoritib berishga erishish.

2. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan maktab direktorlari o'rinbosarlarining boshqaruv faoliyatini yanada samaradorligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik va kasbiy-kreativlik, kasbiy mahorat kabi sifatlarini rivojlantirishning xususiyatlarini nazariy va amaliy ahamiyatini o'rgatishga qaratilgan ilmiy dalillardan foydalanish.

3. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruv faoliyati hamda kasbiy mahoratini sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy usullar, vositalar, ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni asoslarini yaratish.

4. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruvga oid sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli yoritib berishga qaratilgan takliflar, tavsiyalar va ilmiy xulosalar ishlab chiqish.

Maqolada nazarda tutilgan ilmiy tadqiqotning predmeti – maktab direktori o'rinbosarlarining boshqaruvga doir ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini va kasbiy mahoratlilik darajasini rivojlantirishning ilmiy, nazariy va amaliy tomondan yoritilishga qaratilgan.

Ilmiy tadqiqotning obyekti – maktab direktori o'rinbosarlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish orqali ularning kasbiy mahoratini shakllantirish, pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni sifat jihatdan samaradorligini oshirishni ta'minlashdan iborat.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yurtimizda olib borilayotgan oqilona siyosati va barcha izchil islohatlarning zamirida ta'limga bo'lgan jiddiy e'tibor, sifatli kadrlarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar turganligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2022- yil 3-fevraldagi F-22-son Farmoyishini amaliyotga tadbir etilishi, xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan ko'plab soha rahbarlari va pedagog-xodimlaridan ijodiy yondashuvlarni talab etadi. Joriy yilning 12- may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev “2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida” farmon va “Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”

qaror imzoladi. Xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda mamlakatni 2030- yilgacha rivojlantirishga mo’ljallangan strategiyasi to’g’risidagi qonunning ijrosini ta’minlash maqsadida yurtimizda maktab ta’lim tizimi doirasida ko’plab islohatlar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi qaror va farmonlarni ijtimoiy munosabatlar tizimida qo’llanilishi davlat va jamiyat rivojlanishini asosi bo’lgan umumta’lim tizimini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Darhaqiqat Yangi O’zbekistonda zamonaviy o’qituvchilarning faoliyatini qo’llab-quvvatlash, ularga tegishli shart-sharoitlarni yaratib berish, kasbiy shakllanish bosqichlarini muntazamligini va samaradorligini ta’minlash, yangicha yondashuvlar asosida pedagogik jamoaning faoliyatini sifatlilik darajasini oshirib borish asosan maktab direktori o’rinbosarlari zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.

Ushbu islohatlardan asosiy ko’zlangan maqsad xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish, sohaga doir yangi tashabbuslarni ilgari surish va ularni qo’llab-quvvatlash, ta’lim va tarbiya sifatiga bevosita va bilvosita ta’sir qilishi mumkin bo’lgan masalalarni hal qilish, umumta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik darajasini takomillashtirish, sohani rivojlantirishga mos keluvchi yuksak bilim, ko’nikma va malakaga ega bo’lgan raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlash kabilarni nazarda tutadi.

Ta’lim jarayonini yanada isloh qilish, zamonaviy ta’lim tizimi boshqaruvini tizimli tahlil qilish, maktab direktori o’rinbosarlarini haqiqiy rahbar kadrlar sifatida shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli boshqaruv jarayonlariga singdirish, direktor o’rinbosarlaridagi boshqaruvchanlik mahoratini kasbiy sifatlariga uyg’lashtirish orqali ularning islohatlari markazida bo’lishini ta’minlash, yosh avlodga har tomonlama ta’lim-tarbiya berish, azaliy qadriyatlar asosida zamonaviy boshqaruv uslublarini ishlab chiqish, jahon standartlariga mos keluvchi sifatli boshqaruv andozalarini yaratish bugungi kunda ta’lim tizimni oldida turgan dolzarb masalalardan biriga hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligidan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, maktablarni rivojlanishi asosan to’g’ri va maqsadli boshqaruv asosida amalga oshiriladi. Bu esa o’z navbatida rahbarlardan zamonaviy qiyofani va kreativ fikrlashni, kasbiy salohiyatni hamda ijtimoiy-psixologik bilimdonlikni talab etadi. Bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim tizimini rivojlantirishdan ko’zlangan asosiy maqsad davlat va jamiyat uchun zarur bo’lgan maktablarning boshqaruv faoliyatini zamonaviylashtirish, pedagogik jamoani ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish, maktab direktori o’rinbosarlarining kasbiy mahoratlilik darajasini oshirish, ilmiy yondashuvlar asosida kasbiy kompetentlikka ega bo’lgan rahbar kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Olib borilgan ilmiy izlanishlardan va yuqorida keltirib o’tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo’lsak, har tomonlama rivojlangan, zamon talablariga mos keluvchi, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o’z ustida tinimsiz mehnat qila oladigan, aqliy va axloqiy saviyaga ega bo’lgan maktab direktori o’rinbosarlarini tayyorlash bu albatta ijtimoiy talablarni qondirishga asos bo’ladi. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda hamda ularni yurt manfaatlariga mos keluvchi kadrlar sifatida tayyorlashda umumta’lim tizimi rahbarlari va pedagoglarning kasbiy mahoratlilik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib boshqaruv jarayonlari hamda pedagogika va psixologiya fanlari negizida kasbiy mahorat tushunchasi kirib keldi va zamonaviy tushuncha sifatida qo’llanila boshlandi.

Shu o’rinda savol tug’iladi kasbiy va mahorat o’zi qanday tushuncha? Ushbu tushunchalarning jamiyat hayoti uchun qanday ijtimoiy-psixologik ahamiyati bor?.

Kasb (lotincha: *professio* – rasmiy ko’rsatilgan mashg’ulot, ixtisoslik) – maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko’nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi.

Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg’uloti turi hisoblanadi va muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (masalan, shifokorlik kasbida xirurg, oftalmolog, dermatolog va boshqa yo’nalishlari mavjud). Kasb, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Dunyoda har bir kasbning o’ziga yarasha mashaqqati, mehnati bor. Har bir inson o’z qiziqishlariga qarab o’zi uchun kasb tanlaydi. Barcha sohani rivojlantirishga qodir bo’lgan va buyuk kasblardan biri bu o’qituvchilik kasbi hisoblanadi. Shu boisdan o’qituvchilik kasbi o’zining boy tarixiy taraqqiyotiga egaligi bilan bir qatorda keng qamrovli ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida yosh avlodni har tomonlama yetuk kadrlar bo’lib yetishishlari hamda davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan alohida ahamiyat kasb etadigan kasb turi hisoblanadi. Ayniqsa ta’lim-tarbiya jarayonini mahoratlilik asosida tashkil etilishi uning yanada sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda dunyo bo’yicha ko’plab kasb turlari mavjud bo’lib, ularning o’ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari xavflilik darajasi, og’irlilik darajasi, motivatsion xususiyatga egalik xususiyatlari, erkak va ayol jinsiga moslik darajalariga qarab alohida ajralib turadi. Bugungi kunda zamonaviy kasblarning ko’plab turlari jamiyat hayotiga kirib kelmoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, barcha soha va tarmoqlarni harakatga keltiruvchi kuchga ega bo’lgan kasblardan biri bu o’qituvchilik kasbi hisoblanadi. O’qituvchilik bir tomondan ta’lim-tarbiya berishga yo’naltirilgan bo’lsa,

ikkinchi tomondan ilm-fan sohasini rivojlantiruvchi kuch hisoblanadi, uchinchi tomondan ziyo tarqatuvchi hisoblanadi. O‘qituvchilik kasbi murakkab va sharaflilik kasb hisoblanadi.

Biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, yoki mohirlik bu mahorat deb yuritiladi. Bunga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Jumladan, ijodiy mahorat, bu ijodkorning yillar davomida shakllangan ustalik bilan bajargan ishi hisoblanadi. Yozuvchilik mahorati, bu yozuvchining ijodiy yondashuvlari asosida hosil qilingan aqliy salohiyatining qog‘ozga tushirilishi, yoki turli xil ijodiy ishlarini ham aytib o‘tish mumkin hisoblanadi. Shu tariqa har bir kasb turlarida uchraydigan kasbiy mahorat shakli, turi va xususiyatlariga qarab alohidalanadi. Aslini olganda kasbiy mahoratga shu kasb egasi tomonidan erishiladi bu o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun tinimsiz mehnat va kreativ fikrlash zarur hisoblanadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunga kelib, boshqaruv jarayoni har bir rahbar shaxsidan o‘ziga xos jiddiy mas’uliyat, qat’iy tartib-inizom va shaxsiy javobgarlikni talab etmoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimi doirasida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarni oldiga bir qancha hal etilishi lozim bo‘lgan zamonaviy ko‘rinishdagi vazifalarni yuklaydi. Shuning uchun ham yurtimizdagi mavjud ta’lim tizimi va turlarining fundamental bosqichi va asosi bo‘lgan umumta’lim tizimi va ularning rahbar kadrlarini zamon talablariga moslashtirishga doir bir qator vazifalarni hal etish lozim deb topildi. Xususan: individual, istiqbolli, pedagogik, psixologik, didaktik, kasbiy, mahoratlik, ijtimoiy-psixologik, notiqlik va boshqa ko‘plab vazifalarni hal etmoq‘i lozim.

Yuqoridagi hal etilishi nazarda tutilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, davlat va jamiyat ehtiyojlariga tayanib maktab direktorlarini zamonaviy boshqaruv uslublariga ega bo‘lishi, ularning rahbar sifatida zamon talablariga mos holda rivojlanishi, individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik yondashuvlarga ega bo‘lishi, boshqaruvga doir zukkolik, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy mahorat sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan quydagi xarakterdagi kasbiy-malakaviy tavsiyalarlar ishlab chiqildi. Ular:

- maktab direktori o‘rinbosarlarining kasbiy mahoratini rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy-psixologik bilimdonligini ko‘nikmalarini shakllantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining kasbiy mahoratini oshirish orqali o‘quv jarayonini samaradorligini ta‘minlashga erishish;
- direktor o‘rinbosarlari faoliyatini ongli maqsad asosida sifatli boshqaruvning barqarorligini ta‘minlashni yo‘lga qo‘yish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining boshqaruvga oid individual psixologik malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining istiqbolli rejalashtirish malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining pedagogik bilishga doir malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining ijtimoiy-psixologik bilishga oid malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining mutaxassislik bilimlari va didaktik malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga oid malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining tashabbuskorlik, ijodiy yondashuvchanlik malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlariga doir malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining o‘z-o‘zini texnik-texnologik malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining kasbiy, metodik, informatsion, kreativ va innovatsion malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish malakalarini shakllantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining salbiy odatlarni bartaraf etish malakalarini rivojlantirish;
- umumta’lim maktabi o‘rinbosarlarining ijobiy sifat va xususiyatlariga oid malakalarini rivojlantirish;
- maktab direktori o‘rinbosarlarining ijtimoiy ongni shakllantirish, yuqori muloqat va madaniyatiga ega bo‘lishi malakalari kabilarni rivojlantirish.

Ushbu keltirilgan kasbiy va malakaviy sifatlarini maktab direktori o‘rinbosarlarida shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy rahbar sifatida shakllanishi va kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan va maktab direktori o‘rinbosarlarining boshqaruv madaniyatini aks ettiruvchi hamda ularning mehnat samaradorligini belgilab beruvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar quydagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Maktab direktori o‘rinbosarlarini boshqaruv faoliyatini tizimli tahlil qilish asosida erishgan yutuq va kamchiliklarini aniqlashi va ularni o‘z vaqtida bartaraf qilishi.

2. O‘z faoliyatida erishgan yutuq va muvofaqiyatlarini boyitib borish.

3. Faoliyatidagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq qaror qabul qilish.

4. O‘z faoliyatini izchil tartibga solish borasida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishni ta‘minlash.

5. Kundalik faoliyati davomida o‘z-o‘ziga hisob berish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, iroda kuchiga tayanish va o‘z-o‘zini baholash tizimini yo‘lga qo‘yishni ta‘minlay bilishi.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan barcha turdagi umumta‘lim maktablari direktorlarini faoliyatini zamonaviylashtirish, ularni boshqaruv qobiyatlarini aniqlash, zaxira rahbar kadrlarni boshqaruvga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish zamon talablariga moslashish ayni paytda davr talabi hisoblanadi.

**Xulosa** sifatida aytadigan bo‘lsak, boshqaruv bu kasb emas, balki boshqaruv yo‘naltirilgan rahbarlik qobiliyatidir. Maktab direktori o‘rinbosarlarining boshqaruv faoliyatini rivojlantirish orqali ularning kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish, ta‘lim sohasiga doir tarixiy taraqqiyotning har bir davrda o‘ziga xos boshqaruv uslublariga ega bo‘lingan, bugungi kungacha ijtimoiy tajribalarga tayangan holda maktablarni boshqarish muhim ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida qaraladi.

Maktab direktori o‘rinbosarlarining boshqaruvga doir shakllanishi va ularning kasbiy mahoratga ega bo‘lishi o‘zini-o‘zi tahlil qila olishi va bu orqali rahbar o‘zidagi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur hisoblanadi. Zero, maktab direktori o‘rinbosarlarining kasbiy mahorati, boshqaruv kompetentligi, hamda ularning ijtimoiy-psixologik sifatlariga ega bo‘lishi ularning o‘z-o‘zini baholash malakalarini yaratilishiga imkon beradi.

Darhaqiqat, bugungi kunda zamonaviy ta‘lim tizimi rahbarlari yuqori bilimdonlik, kasbiy mahorat, ilmiy salohiyat, samarali boshqaruv qobiliyatiga ega bo‘lgandagina uni zamonaviy deb aytish mumkin bo‘ladi. Aks holda boshqaruv jarayoni ijtimoiy-psixologik tomondan o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Bularning barchasi rahbarlarning kasbiy mahoratlilik saviyasini belgilab beradi va shu orqali maktab direktori o‘rinbosarlarining aniq va teran fikirlay oladigan bo‘lishlarini ta‘minlab beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”-T.: O‘zbekiston, 9-sentabr 2021. – 23 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi. - [https://stat.uz.](https://stat.uz), [https://stat.edu.uz/.](https://stat.edu.uz/), [lex.uz.](https://lex.uz)

2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya/ Darslik. Pedagogika oliygo‘hrlari talabalari uchun. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2007. – 176 b.

3. Karimova V.M., Hayitov O.E, Djalalova S.M.. Boshqaruv psixologiyasi. “O‘quv qo‘llanma”. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – 2010-211 b.

4. Shonazarov A.M. “Maxsus iqtisodiy zonalar rahbarlarining ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. – //Psixologiya ilmiy jurnal 2024 yil, ISSN 2181-5291. № 3, SON. 227-234 betlar. [www.psixologiyabuxdu.uz](http://www.psixologiyabuxdu.uz).

5. Shonazarov A.M. Kasb psixologiyasi. – “O‘quv qo‘llanma” – Samarqand. SamDU Nashr-matbaa markazi, 2023 yil, 337 bet.

6. Shonazarov A.M. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarish va ularni samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari “Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi” ilmiy-amaliy jurnal, ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E), (№4, 2024) <http://buxpxti.uz> 180-185 betlar.

7. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi: Darslik. – T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2021. - 234 b.

8. Axmedjanov K.B. A.X.Xolov. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma // Toshkent. - “Tafakkur qanoti”, 2020. 96 bet

9. To‘ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma // Toshkent. - “Navro‘z” nashriyoti, 2020. 148 bet.

10. Shonazarov A.M. Maxsus iqtisodiy zonalar boshqarishning uslubiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari “Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi” ilmiy-amaliy jurnal, ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E), (№5, 2024) <http://buxpxti.uz> 87-94 betlar.

11. Shonazarov A.M. Ta‘lim tizimi rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllanishiga oid nazariy-metodologik yondashuvlar. // Zamonaviy ta‘lim ilmiy-amaliy jurnal. № 9 (130) 2023. ISSN 2181-6514. [www.itm.uz](http://www.itm.uz). DOI: 10.34920/SO/VOL. 2023. ISSUE. 9.5

12. Shonazarov A.M. Zamonaviy rahbar kadrlarini tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. // “Pedagogik mahorat” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 10, (2023-yil, noyabr). 97-102 betlar.

13. Shonazarov A.M. Development of socio-psychological competence of school principals of the general secondary education system. // Science and innovation international scientific journal volume 1, issue 8 uif-2022.

14. Shonazarov A.M. Socio-psychological characteristics of competent general education system leaders. // Science and innovation international scientific journal, volume 2, issue 12 december 2023 uif-2022.

## FARZAND TARBIYASIDA SHAXS NAZORAT LOKUSINING TA’SIRI MASALASI

*Alimova Nargiza Usmanovna,  
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Mazkur maqola ota-onalar nazorat lokusining farzand tarbiyasiga ta’sirini o’rganish masalasi tadqiqotlari yuzasidan qo’llanilgan psixologik metodika va uning natijalari tahliliga bag’ishlangan. Maqolada jamiyatda insonning ruhiy salomatligi muammosining ijtimoiy ahamiyati, ruhiy salomatlikning muhim mezonlari, ularni diagnostikasi va psixokorreksiyasi bilan bog’liq jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, shaxsning bir nechta yo’nalish bo’yicha nazorat lokusi, jumladan, umumiy internallik nazorat lokusi, muvaffaqiyatga nisbatan internallik, muvaffaqiyatsizlikka nisbatan internallik, oilaviy munosabatlarga nisbatan internallik, hayotiy vaziyatlariga nisbatan internallik, shaxslararo munosabatlarga nisbatan internallik, sog’lik va kasallikka nisbatan internallik shkalalari xususida ma’lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so’zlar:** ota-ona, farzand, tarbiya, ta’lim, eksternallik, internallik, mas’uliyat, umumiy internallik.

## ПРОБЛЕМА ВЛИЯНИЯ ЛОКУСА КОНТРОЛЯ ЛИЧНОСТИ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ

*Данная статья посвящена анализу психологической методологии, используемой при исследовании влияния родительского локуса контроля на воспитание детей и его результаты. В статье анализируются социальная значимость проблемы психического здоровья в обществе, важные критерии психического здоровья, их диагностика и психокоррекция. Также представлены типы локуса контроля личности в нескольких направлениях, включая локус контроля общей интернальности, интернальности к успеху, интернальности к неудаче, интернальности к семейным отношениям, интернальности к жизненным ситуациям, интернальности к межличностным отношениям, интернальности к здоровью и болезни.*

**Ключевые слова:** родитель, ребёнок, воспитание, образование, экстернальность, интернальность, ответственность, общая интернальность.

## THE INFLUENCE OF PERSONAL LOCUS OF CONTROL IN CHILDREN'S UPBRINGING

*This article is devoted to the analysis of psychological methodology used in the study of the influence of parental locus of control on the upbringing of children and its results. The article analyzes the social significance of the problem of mental health in society, important criteria of mental health, their diagnostics and psycho-correction. Also, the types of locus of control of the personality in several directions are presented, including the locus of control of general internality, internality to success, internality to failure, internality to family relationships, internality to life situations, internality to interpersonal relationships, internality to health and illness.*

**Keywords:** parent, child, upbringing, education, externality, internality, responsibility, general internality.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat bir qator, jumladan, diniy, ma’naviy, psixologik va milliy chuqur inqirozli vaziyatlarni boshdan kechirmoqda. Faqat mutahassislarning sa’yi harakatlari dunyoni bu kabi inqirozlardan qutqarish yo’llarini topishga har taraflama xizmat qilishi mumkinligi tan olinmoqda. Agar inson umumiy salomatligi buzilsa, ijtimoiy taraqqiyotning izdan chishi shubhasizdir. 1997- yilda B.S.Bratus odamlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotida kuchayib borayotgan tendentsiyalarga aniq baho berdi: inson butunlay ruhiy jihatdan sog’lom bo’lishi mumkin (yodlash va yaxshi o’ylash, o’z oldiga murakkab maqsadlar qo’yish, faol bo’lish, ongli motivlarga amal qilish, muvaffaqiyatga erishish, muvaffaqiyatsizliklardan qochish va hokazo) va shu bilan birga - shaxsan nuqsonli, shaxsi buzilgan (munosabatlarni muvofiqlashtirmaslik, inson hayotini mohiyatga erishishga yo’naltirmaslik, undan uzilib qolish va hokazo). Tan olish kerakki, ruhiy sog’lom, lekin shaxsi buzilgan holat tobora ko’proq kishilar uchun odatiy holga aylanib bormoqda [2].

Farzandlarni to’g’ri tarbiyalash - bu qoidalar asosida qurilgan va to’g’ri yo’ldan borishdan iborat jarayon bo’lib, farzandlar hayot qoidalarini, ota-onalar esa tarbiya qoidalarini bilishlarini talab etadi. Farzandlarning jismoniy, aqliy va ruhiy kamolotini ta’minlashda ota-onalarda faollikni shakllantirish,

ularning jismoniy va psixologik jihatdan sogʻlom, maʼnaviy barkamol, mehnatga tayyor shaxsni shakllantirib berishdagi masʼuliyatini oshirish, shuningdek, ularda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga boʻlgan intilish, ijtimoiy faollikning ortishida ota-onalarning samarali ishtirok etishiga masʼullikni oshirish yuzasidan ishlarni tashkil etish muhim va dolzarbdir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida uning ichki faoliyati va sodir boʻlayotgan voqealar uchun javobgarlik hissi katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar masʼuliyatni shaxsiy xususiyat sifatida koʻrib chiqadilar va nazorat oʻchogʻining namoyon boʻlish xususiyatlarini oʻrganadilar. Maʼlum boʻlgan ikkita nazorat oʻchogʻi mavjud: tashqi - tashqi boshqaruv oʻchogʻi, ichki - ichki nazorat lokusi [1]. V.M.Bizova shaxsning nazorat oʻchogʻining namoyon boʻlish xususiyatlarini etnik kelib chiqishi bilan bogʻliq holda oʻrgangan [3]. Tadqiqotchi shunday xulosaga keladi: “... shaxsiy oʻsish jarayonida subyektiv nazorat darajasining xususiyatlarini, uning hayot tsikliga bogʻliqligini etnik omillarni hisobga olgan holda aniqlash istiqbollidir.” – deb taʼkidlaydi.

**Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar.** Tadqiqot ishimizda farzand tarbiyasida ota-ona masʼuliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini oʻrganish maqsadida Dj.Rotterning “Subyektiv lokus nazoratini oʻrganish” metodikasining E.F.Bajin, E.A.Golinkina, A.M.Etkindlar tomonidan moslashtirilgan “Shaxs internallik va eksternallik pozitsiyalarining diagnostikasi” usulidan foydalandik.

Mazkur metodikaning maqsadi shaxs lokus nazoratiining qismlari shakllarini oʻrganishdan iborat. Shaxs oʻz-oʻzini anglashining eng muhim xususiyatlaridan biri, masʼuliyat hissi, faoliyatga tayyorlik va "men" tajribasini uygʻotuvchi shaxsning sifati boʻlib, bu shaxsning nazorat lokusi deb ataladi. Nazorat lokusining ikkita ekstremal turi mavjud boʻlib, ular internallik-eksternallik pozitsiyalaridir [4].

Mazkur metodika shaxsning bir nechta yoʻnalish boʻyicha nazorat lokusini aniqlash imkonini beradi. Bular: - umumiy internallik nazorat lokusi, - muvaffaqiyatga nisbatan internallik shkalasi, - muvaffaqiyatsizlikka nisbatan internallik shkalasi, - oilaviy munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi, - hayotiy vaziyatlariga nisbatan internallik shkalasi, -shaxslararo munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi, - sogʻlik va kasallikka nisbatan internallik shkalasi boʻlib, ularning har biri alohida mazmunga ega. Jumladan,

**Umumiy internallik nazorat lokusi.** Ushbu shkala boʻyicha yuqori ball hissiy jihatdan ijobiy voqealar va vaziyatlarni subyektiv nazorat qilishning yuqori darajasini koʻrsatadi Umumiy internallik nazorat lokusi ustun kishilar hayotidagi muhim voqealarning aksariyati oʻz harakatlarining natijasi boʻlganiga ishonishadi. Ular oʻz harakatlarini nazorat qila oladilar va shuning uchun mazkur voqealar, hayotlari har qanday kechishi uchun oʻzlarining masʼulliklarini his qiladilar. Aksincha, umumiy internallik nazorat lokusi shkalasi boʻyicha past ball subyektiv nazoratning past darajasini koʻrsatadi va bunday kishilar oʻzlarining xatti-harakatlari bilan oʻzlari uchun muhim boʻlgan hayotiy voqealar oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrmaydilar. Oʻzlarini ularning kechishini boshqarishga qodir emas deb hisoblaydilar. Shu tufayli ularning aksariyati hayotidagi barcha yutug va kamchiliklarni tasodif yoki boshqa odamlarning taʼsiri natijasi deb hisoblaydilar.

**Muvaffaqiyatga nisbatan internallik shkalasi.** Shaxsning ushbu shkala boʻyicha yuqori koʻrsatkichlari hissiy jihatdan ijobiy voqealar va vaziyatlarni subyektiv nazorat qilishning yuqori darajasiga mos kelib, ular oʻzlari bilan sodir boʻlgan va hayotlarida barcha yaxshi narsalarga erishganliklariga va kelajakda oʻz maqsadlariga muvaffaqiyatli erisha olishlariga ishonishadi. Mazkur shkala boʻyicha past koʻrsatkich aksincha, inson oʻz muvaffaqiyatlari, yutuqlari va quvonchlarini tashqi sharoitlar - omad yoki boshqalarning yordami bilan bogʻlashini koʻrsatadi.

**Muvaffaqiyatsizlikka nisbatan internallik shkalasi.** Ushbu shkala boʻyicha yuqori ball shaxs hayotidagi salbiy hodisalar va vaziyatlarga nisbatan subyektiv nazoratning rivojlangan tuygʻusini koʻrsatkichi boʻlib, turli muvaffaqiyatsizliklar, muammolar va qiyinchiliklar uchun oʻzini ayblash tendentsiyasida namoyon boʻladi. Aksincha, past ballar shaxsning bunday hodisalar uchun javobgarlikni boshqa odamlarga yuklashi yoki ularni omadsizlik natijasi deb bilishga moyilligini koʻrsatadi.

**Oilaviy munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi.** Mazkur shkala boʻyicha yuqori ball, inson oʻzini oilaviy hayot voqealari uchun javobgar deb hisoblashini bildiradi va hayoti shu qoidaga muvofiq quriladi. Ushbu shkala boʻyicha past ball aksincha, oilasida yuzaga keladigan muhim vaziyatlarning sababchisi deb subyektning oʻzini emas, balki uning sheriklarini bilishini anglatadi.

**Hayotiy vaziyatlariga nisbatan internallik shkalasi.** Ushbu shkala boʻyicha yuqori koʻrsatkich shaxs oʻz hayotiy faoliyatini tashkil etishda, jamoada munosabatlarni rivojlantirishda, oʻz taraqqiyotida va hokazolarda oʻz harakatlarini muhim omil deb bilishini koʻrsatadi. Mazkur shkala boʻyicha past ball shundan dalolat beradiki, subyekt hayotdagi omadsizliklariga tashqi sharoitlar - boshqaruv, hamkasblar, omad - muhimroq ahamiyat berishga moyilligini bildiradi.

**Shaxslararo munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi.** Mazkur shkala boʻyicha yuqori koʻrsatkich, shaxsning oʻzini boshqalar bilan norasmiy munosabatlarini boshqarishga, hurmat va gʻamhoʻrlik

bildirishga qodir ekanligini ko'rsatadi. Shaxslararo munosabatlarga nisbatan internallik shkalasining past ko'rsatkichi, aksincha, shaxs o'zining ijtimoiy doirasini faol ravishda shakllantirishga qodir emas deb hisoblamasligini o'z munosabatlariga sheriklari sabab deb hisoblashga moyilligini ko'rsatadi.

**Sog'lik va kasallikka nisbatan internallik shkalasi.** Ushbu shkalada yuqori ko'rsatkich agar u kasal bo'lsa, u o'zini buning uchun ayblaydi va tiklanish ko'p jihatdan uning harakatlariga bog'liq deb hisoblashini bildiradi va shaxsning o'zini sog'lig'i uchun yuqori darajada o'zini javobgar deb bilishini ko'rsatadi. Aksincha past ball olgan kishi o'z salomatligini boshqa odamlarning, ayniqsa shifokorlarning harakatlari natijasida tuzalib ketishiga umid qiladi. Salomatlik va kasallikni tasodif natijasi deb hisoblaydi.

**Jadval 1.**

**E.F.Bajin, E.A.Golinkina, A.M.Etkind “Shaxs internallik va eksternallik pozitsiyalarining diagnostikasi” metodikasi so'rovnomasinin javob varaqasi.**

Savollar	To'liq qo'shilmayman	-3	-2	-1	0	1	2	3	To'liq qo'shilaman
1									
2									
.....									

Metodikaning so'rovnomasi tarkibiga 46 ta hukmlar kiritilgan bo'lib, respondentlar har bir hukmning ularning voqea-hodisalarga munosabatlaridan kelib chiqib, ikki qutbdan biridan foydalanib javob berishlari lozim bo'ladi.

E.F.Bajin, E.A.Golinkina, A.M.Etkind “Shaxs internallik va eksternallik pozitsiyalarining diagnostikasi” metodikasi ettita shkaladan iborat bo'lib, ushbu shkalalarga taalluqli savollar 46 ta hukmlar tarkibiga kirgan.

**Jadval 2.**

**“Shaxs internallik va eksternallik pozitsiyalarining diagnostikasi” metodikasi shkalalarining savollari**

<i>Umumiy internallik shkalasi</i>	
+	2, 4, 11, 12, 13, 15, 16, 17, 19, 20, 22, 25, 27, 29, 31, 32, 34, 36, 37, 39
-	1, 3, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 14, 16, 21, 23, 24, 26, 28, 30, 33, 35, 38, 40
<i>Muvaffaqiyatga nisbatan internallik shkalasi</i>	
+	12, 15, 27, 32, 36, 37
-	1, 5, 6, 14, 26, 43
<i>Muvaffaqiyatsizlikka nisbatan internallik shkalasi</i>	
+	2, 4, 20, 31, 42, 44
-	7, 24, 33, 38, 40, 41
<i>Oilaviy munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi</i>	
+	2, 16, 20, 32, 37
-	7, 14, 26, 28, 41
<i>Hayotiy vaziyatlariga nisbatan internallik shkalasi</i>	
+	19, 22, 25, 42
-	1, 9, 10, 30
<i>Shaxslararo munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi</i>	
+	4, 27
-	6, 38
<i>Sog'lik va kasallikka nisbatan internallik shkalasi.</i>	
+	13, 34
-	3, 23

O'smirlik yosh davri o'ta murakkabliklarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu davrda ota-onalardan farzand tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan yondoshish talab etiladi. O'smirlarda yuzaga kelgan kattalik hissi va uning turlicha namoyon bo'lishi ayrim o'smirlarning ota-onalarida o'ziga xos reaksiyalarni shakllantiradi, Masalan, ayrim ota-onalar “farzandin endi katta bo'ldi, o'z ishiga o'zi javob bera oladi” deb hisoblab ularni o'z holiga tashlab qo'yishi. Ularga katta ishonch bildirish bilan birga mas'uliyatni o'zlaridan farzandiga tashlab qo'yish holatlari kuzatiladi. Yana bir toifa ota-onalar esa, ularning har bir qadamini nazorat qilish, farzandlarining biron nojo'ya ish qilib qo'yishidan qo'rquv bilan qaraydilar. Har ikkala holatda ham ota-

onalatning o‘zlarining o‘smir yoshdagi farzandlari tarbiyasidagi mas’uliyatida noadekvat harakatlar mavjud. Chunki, har bir yoshning o‘ziga hos rivojlanish xususiyatlarini tarbiyada alohida hisobga olish muhim hisoblanadi. Tadqiqot ishimizda ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatni o‘rganishda 86 nafar o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ota-onalarida tadqiqot olib bordik va quyidagi natijalarni oldik.


**Olingan natijalar va ularning tahlili.** 3 jadbaldan “Shaxs internallik va eksternallik pozitsiyalarining diagnostikasi” metodikasi ota-onalarning “Muvaffaqiyatga nisbatan internallik shkalasi” hamda “Oilaviy munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi” bo‘yicha eksternal nazorat lokusi ustunligi aniqlandi. Mazkur holat ota-onalarning o‘z hayotidagi erishadigan muvaffaqiyatlarini tasodif va omad bilan bog‘lashga intiladilar, Bu esa ularning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishda muvaffaqiyat qozonishi uchun astoydil harakat qilishlariga to‘sqinlik qiladi.

Jadval 3.

“Shaxs internallik va eksternallik pozitsiyalarining diagnostikasi” metodikasi ko‘rsatkichlari (N=186)

Nazorat lokusi	Umumiy internallik shkalasi		Muvaffaqiyatga nisbatan internallik shkalasi		Shaxslararo munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi		Oilaviy munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi	
	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol
Eksternal	46	42	44	34	41	37	43	35
Internal	48	40	71	37	52	56	73	41

“Oilaviy munosabatlarga nisbatan internallik shkalasi” bo‘yicha eksternal nazorat lokusining ota-onalar farzand tarbiyasi va boshqa oilaviy munosabatlarga nisbatan shaxsiy mas’uliyatining pasayishiga olib keladi.



1-rasm. “Shaxs internallik va eksternallik pozitsiyalarining diagnostikasi” metodikasi

Internallik nazorat lokusi ustun bo‘lganda, inson o‘zi bilan sodir bo‘layotgan voqea va hodisalar o‘zining shaxsiy fazilatlariga bog‘liq deb biladi. Shu tufauli ular hayotidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizliklarni o‘z faoliyatining tabiiy natijasi ekanligiga ishonch hosil qiladi. Eksternallik nazorat lokusida esa shaxs o‘zining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari sababini tashqi kuchlar masalan, omad, tasodif, atrof-muhit bosimi, boshqa koshilar tufayli sodir bo‘layotganligiga ishonch hosil qiladi. Hayotda har qanday kishi o‘z hayoti va munosabatlarini boshqaruvida ushbu nazorat lokusi turlari bilan belgilanadigan kontinumda ma‘lum bir pozitsiyani egallaydi deb qaraladi.

**Xulosa.** Oilada shaxslararo munosabatlarga nisbatan o‘smir yoshdagi o‘quvchilar ota-onalarining internallik nazorat lokusi ustun bo‘lishi ularning farzand tarbiyasida mas’ulligiga salbiy ta’sirini bartaraf etishda amaliyotchi psixologlarning faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha samarali ishlashlariga bog‘liq jarayonlar samaradorligini oshirish ijobiy natija bera oladi. Bunda asosiy e’tiborni amaliyotchi psixologlarning psixoprofilaktik, ma’rifiy-oqartuv, psixodiagnostika, psixokorreksiyaga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning nazaramizda, insonning har tomonlama kamoloti, uning sog‘lom ijtimoiy munosabatlari qaror topishi bevosita u o‘sayotgan jamiyat, oila muhiti, eng muhimi, ota-onalarning farzand tarbiyasida mas’ulliklarini

to'g'ri his etishlariga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, har qanday ta'sirlarni ichki prizmadan adekvat parchalangan holda o'tishiga erishish orqaligini jamiyatda odamlarning sog'lom va barqaror bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

**Adabiyotlar:**

1. Андреева Л.А. Психологические особенности детско-родительских отношений в этносе, проживающем в диаспоре и на исконной территории: автореф. дисс. ... канд. психол. наук. -М., 2000. - 16 с.
2. Братусь Б. С. Образ человека в психологии // Психология с человеческим лицом: гуманистическая перспектива в психологии / Д. А. Леонтьева, В. Г. Щур, ред. М., 1997. С. 67-91.
3. Андреева Л. А. Психологические особенности детско-родительских отношений в этносе, проживающем в диаспоре и на исконной территории: автореф. дисс. ... канд. психол. наук. -М., 2000. - 16 с.
4. Бизова В.М. Локус контроля у представителей коми и русского этносов // Психологический журнал. - 1995. - Т. 6. - № 6. -С. 111-121.
5. Муздыбаев К. Психология ответственности. - Л.: Наука, 1983. - 240 с.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK BIOLOGIYA FANI  
O'QITUVCHILARINING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING  
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*Berdibayeva Gulshat Sultamuratovna,*

*O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya sport universiteti Nukus filiali*

*“Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrası assistent o'qituvchisi*

*berdibaeva.1986@gmail.com*

*Jahonda tobora keskinlashib borayotgan ekologik vaziyat insoniyat oldiga jiddiy savollarni qo'ymoqda. Ular haqida o'rinli mulohaza yuritish bugun har birimizning zimmamizga turli mas'uliyatlar yuklaydi. Hozirda barcha nufuzli xalqaro tashkilotlar dasturlarida, mamlakatlararo diplomatik munosabatlarda ekologik xavfsizlik hamda yashil taraqqiyot g'oyasi yuqori o'ringa chiqdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimiz ham ana shu muhim jarayonning bir a'zosi sifatida ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi bir qancha xalqaro bitimlarga qo'shilgani sohadagi hamkorlikning o'ziga xos takomili uchun asos bo'lmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi, bir qator qonunlar va qonunosti hujjatlarida ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi zaruriy huquqiy normalar belgilab olinganligi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Shuningdek, respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalarida, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish masalalari ham dolzarblik kasb etadi.*

*Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, ekologik ta'limning dolzarbliigi, talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi muhim vazifalar hamda ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlarini yoritilgan. Shuningdek, ekologik ta'lim-tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan determinantalarni yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *biologiya ta'limi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ekologik toza jamiyat, ekologik savodxonlik, atrof - muhitga mas'uliyatli munosabat, pedagogik yondashuv, determinanta, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylik, pedagogik imkoniyatlar.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ  
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ В ВУЗАХ

*Всё более напряжённая экологическая ситуация в мире ставит перед человечеством серьёзные вопросы. Разумное их рассмотрение сегодня налагает на каждого из нас различные обязанности. Не будет преувеличением сказать, что идея экологической безопасности и зелёного развития заняла высокое место в программах всех престижных международных организаций и дипломатических отношениях между странами. Тот факт, что наша страна как участница этого важного процесса присоединилась к ряду международных соглашений по обеспечению экологической безопасности и стабильности, является основой уникального улучшения сотрудничества в этой сфере. Кроме того, особого внимания заслуживает тот факт, что обновлённая Конституция Республики Узбекистан, ряд законов и нормативных документов определили необходимые правовые нормы, служащие обеспечению экологической стабильности. Также актуальными становятся вопросы развития экологической культуры студентов во всех учебных заведениях нашей республики, включая высшие учебные заведения.*

*Данная статья посвящена научно-теоретическим основам развития экологической культуры будущих учителей биологии в высших учебных заведениях, актуальности экологического образования, важным задачам в развитии экологической культуры у студентов, а также основным качествам экологических знаний и экологическая культура выделяется. Также выделены детерминанты, направленные на развитие механизмов экологического образования и обучения.*

**Ключевые слова:** *биологическое образование, экологическая культура, экологическое образование, экологически чистое общество, экологическая грамотность, ответственное отношение к окружающей среде, педагогический подход, детерминанта, гармония природы и общества, педагогические возможности.*

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING THE ECOLOGICAL CULTURE OF FUTURE BIOLOGY TEACHERS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*The increasingly tense environmental situation in the world poses serious questions to humanity. Reasonable reflection on them today places various responsibilities on each of us. It is no exaggeration to say that the idea of ecological security and green development has now taken a leading place in the programs of all influential international organizations and in diplomatic relations between countries. The fact that our country, as a member of this important process, has joined a number of international agreements on ensuring ecological security and stability is the basis for a specific improvement in cooperation in this area. In addition, it is worth noting that the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan, a number of laws and by-laws stipulate the necessary legal norms that serve to ensure ecological stability. Also, the issues of developing the ecological culture of students in all educational institutions of our republic, including higher education institutions, are also relevant.*

*This article is devoted to the scientific and theoretical foundations of the development of the ecological culture of future biology teachers in higher educational institutions, highlighting the relevance of ecological education, important tasks in the development of ecological culture in students, as well as the basic qualities of ecological knowledge and ecological culture. It also highlights the determinants aimed at developing mechanisms for ecological education and upbringing.*

**Keywords:** *biology education, ecological culture, ecological education, ecologically clean society, ecological literacy, responsible attitude towards the environment, pedagogical approach, determinants, the connection between nature and society, pedagogical opportunities.*

**Kirish.** Dunyodagi globallashuv va ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish tabiat, jamiyat, madaniyat va inson ongining barqaror rivojlanishiga erishishga imkon beradi. Oliy ta'lim muassasalari biologiya ta'limida talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish - ekologik toza jamiyatni barpo etishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Talim tizimini modernizatsiyalashga doir zamonaviy dasturlarda o'quv mashg'ulotlarining mahsuldor o'qitishga transformatsiyasi biologiya darslariga ham daxldor bo'lib, shu asosda ta'lim oluvchilarning har tomonlama kamolotga erishishi Yevropa komissiyasining “Barqaror rivojlanish uchun ta'lim bo'yicha strategiya”sida o'z aksini topgan.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida aholi o'rtasida sog'lomlashtirish ona tabiatga raxna solmaslik, yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish ekologik tarbiyaning muhim potensial imkoniyatlarini amalga oshirish orqali insoniyat oldida turgan ekologik muammolarning ilmiy-amaliy yechimida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonlariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning ekologik ongi, ekologik savodxonlik darajasi va ekologik madaniyatini rivojlantirishga doir islohatlar amalga oshirilib, oliy ta'lim muassasalari biologiya ta'limida mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash imkoniyatlari keng hisoblanadi. Zero, muhtaram Prezidentimiz ushbu masalaga to'xtalib, “O'zbek xalqining benihoyat boy va rang-barang madaniyati necha ming yillar davomida yorqin tarixiy voqealar silsilasida, o'lkamizning betakror tabiati va turli madaniyatlarning bir-biriga ilhom baxsh ta'siri natijasida shakllanib, ravnaq topib kelmoqda” [1] deya ta'kidlaganlar.

**Asosiy qism.** Ekologik ta'lim-tarbiya masalalari hamda ekologik ta'lim dasturlariga bag'ishlangan izlanishlar xorijiy olimlardan J.B.Zedler [3], W.O.Dwer, B.E.Porter, M.C.Cobern [4]larning tadqiqotlarida yoritilgan.

Shuningdek, xorijiy davlatlarda ekologik madaniyat atrofida ilmiy gipotezalar yaratilib, ularni shakllantirish masalalariga doir pedagogik yondashuv asosidagi ilmiy tadqiqotlar hamda ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirishning muammolarini to'liq yorituvchi tadqiqotlar ayniqsa, rus ilmiy doiralarida talaygina. Jumladan, N.F.Vinokurova [5], S.N.Glazachev [6], G.S.Kamerilova [7], V.V.Nikolina [8], O.N.Ponomaryova [9] larning ilmiy tadqiqot ishlari ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyati, ekologik savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ularda ekologik madaniyatning faoliyat jihatlari ko'proq o'rganilgan va “ekologik madaniyat” tushunchasi ta'lim oluvchilar tomonidan nafaqat atrof-muhit bo'yicha ko'p qirrali bilimlarni o'zlashtirish, tabiat bilan doimiy aloqada bo'lish zarurati, balki tabiatni muhofaza qilish harakatida bevosita ishtirok etish bilan ham bog'liqligi ta'kidlanib, ekologik bilimlarning hayotiy ahamiyati qayd etilgan.

A.Zaxlebniyning tadqiqotida [10] ekologik ta'lim mazmunini aniqlashning asosiy qoidalari aniqlangan, uning tuzilishi ishlab chiqilgan, jumladan, kognitiv, qadriyat, meyoriy, faoliyat komponentlari, modulli ta'limda ekologik tarkibni amalga oshirish asoslari yoritilgan. I.Zverev ta'kidlashicha, “atrof -

muhitga mas’uliyatli munosabat shaxsning o’zi, uning ijtimoiy munosabatlar madaniyati tabiatga, jamiyatga, qadriyatlariga, boshqa shaxslarga va o’ziga ijtimoiy mavjudot sifatida yuqori darajadagi umumiy ijtimoiy va ma’naviy madaniyatga erishish bilan uzviy bog’liqdir” [11]. L.Pechko tadqiqotlarida [12] shaxsning tabiatga axloqiy va estetik munosabatini shakllantirish va uning shaxsga ta’siri muammolariga yetakchi o’rin berilgan. U tabiiy hodisalarning go’zalligi va ekspressivligini rivojlantirish, ularning qadr-qimmatini, o’ziga xosligini anglash orqali estetik idrok, baholash, hukm, didni shakllantirishga asoslangan ekologik ta’limga yangi yondashuv taklif qilgan.

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo’llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko’rsatkichi, ongli va ma’suliyatli yondashuvdir. Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlarini quyidagilar hisoblanadi:

1) Axloqiy-ekologik onglilik shaxsning muhim madaniyatlik sifati bo’lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyaklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo’yicha amaliy ko’nikmalarga ega bo’lishi lozimligini nazarda tutadi;

2) Ekologik ma’suliyatlik shaxsda munosabat va mas’ullikni tarbiyalashda namoyon bo’ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o’ylamay tabiatga ko’rsatgan salbiy ta’siri oqibatlarini anglash va bunday ta’sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi;

3) Ekologik irodaviylik shaxsning o’zi va o’zgalarning atrof – muhitdagi hattiharakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat’iyatlik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog’liq.

Talabalarning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya’ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho’llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo’g’liq.

**Muhokama va natijalar.** Ekologik muammolar mamlakatimiz siyosatini eng muhim ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi-ki, keyingi yillarda atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, tabiat ne’matlariga oqilona munosabat, aholini ekologik madaniyatini oshirish, yoshlar o’rtasida ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ma’rifat masalalariga alohida e’tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o’ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo’shishi zarurligi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan aniq maqsad va vazifalarni hamda yo’nalishlarni nazarda tutuvchi O’zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ekologik ta’lim tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi [2]. Mazkur Konsepsiyada ekologik ta’limni uzluksiz ta’limni barcha bosqichlarida amalga oshirish belgilab qo’yilgan.

Jumladan, ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirish bo’yicha bir qator vazifalar belgilangan. Bu borada ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko’nikma va malakalarni ta’lim mazmuniga keng singdirish, ekologik bilimlar ta’lim oluvchilarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sinflar darajasida farqlanishi asosida tashkil etilishi, bunda bilim berish “oddiydan murakkabga”, “uzviylik va uzluksizlik” kabi pedagogik tamoyillarga tayangan holda nazariy va amaliy bilimlar uyg’unligiga, ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyat hamda tarbiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini ta’minlaydigan maqsadli tizimga aylanishi kerakligi, ekologiyaning nazariy asoslariga oid bilimlar va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko’nikma va malakalar mavjud o’quv fanlari mazmunida uzviylik asosida berilishi va bir butun kompleks tarzda ifodalanishi belgilab qo’yilgan.

Natijada ta’lim muassasasini tamomlagan shaxs minimal darajada ekologik tushunchalar, xulq-atvor qoidalari (ekologik madaniyat) to’g’risida bilimga ega bo’lishi ta’kidlangan. Shu o’rinda aytish joizki, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ekologik dunyoqarashini rivojlantirish nafaqat bo’lajak biologiya fani o’qituvchilarida, balki, barcha yo’nalishda tahsil olayotgan talabalarda shakllantirish zarurdir.

Bizga ma’lumki, determinantalar – shaxsning rivojlanishi bilan bog’liq bo’lgan ekologik shartlar, sabablar, omillardir. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda determinantalarga shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitda o’zaro faoliyat va muloqot jarayonida egallagan alohida sifati deb baho beriladi. Ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan ekologik tarbiya determinantalari sirasiga quyidagilar kiradi:

– ekologik tarbiya – tabiat haqidagi bilim va intellektual salohiyatini oshirishga maqsadli yo’naltirilgan, ona tabiat va uning ne’matlariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan jarayon;

– ekologik ta’lim – tahsil oluvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirish, ijodiy qobiliyatlari va ekologik qarashlarini rivojlantirishdagi faol o’quv va bilish faoliyatini tashkil etish va rag’batlantirishning maqsadli pedagogik jarayoni;

– ekologik ong – barcha fuqarolarning, shu jumladan, yoshlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo’naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi.

Ekologik ong insonning tabiat bilan o’zaro ta’siri sohasidagi bilim va e’tiqodini mujassam etadi;

– ekologik madaniyat – insonning tabiat va uning ne’matlariga ongli munosabati, ona zamin uchun tabiat muhofazasi borasidagi faol hayotiy nuqtai nazarining shakllanganligi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir;

– ekologik kompetentlik – ekologik ongni, madaniyatni shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni egallash, tabiat, yer, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar haqida tushunchalarga ega bo’lish va ular haqida xabarlar bera olish, tabiatga nisbatan e’zozda bo’lish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalana olish, ekologik ta’lim va ekologik tarbiya yo’nalishida madaniyma’rifiy ishlarning barcha samarali shakllari va uslublaridan, jumladan, ommaviy axborot vositalaridan, og’zaki, ko’rgazmali va texnika vositalaridan keng foydalanish malakalariga ega bo’lish;

– ekologik xavfsizlik – bu faoliyatning holati bo’lib, ma’lum ehtimollikda ekologik xavflarning kelib chiqishini bartaraf qilishga qaratilgan maqsaddir. Tabiiy muhit va insonning hayotiy muhim manfaatlarining tabiiy hamda texnogen tushadagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini extimoliy salbiy ta’siridan himoyalanganlik holati [13].

Tadqiqotlar natijasidan ayon bo’lishicha, ekologik ta’lim va ekologik tarbiya tabiat va jamiyat o’rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashga yo’naltirilgan definitiyalar sifatida qaralar ekan, ularni alohida kategoriya sifatida sharhlash maqsadga muvofiqligi inobatga olindi va oliy ta’lim muassasalarida “ekologik tarbiya” istilohiga kam e’tibor berilayotganligi ma’lum bo’ldi.

Fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalari biologiya ta’limida ekologik madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- biologiya ta’limiga zamonaviy ekologik yondashuvlarni, talabalarda ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik tarbiyani rivojlantirishni innovatsion usullarini joriy etish; - talabalarda ekologik masalalarga ongli munosabat bildirish; - ta’sirchan va samarali yangi ekologik targ’ibot vositalarini ommalashtirish; - har bir ta’lim muassasasida ekologik xavfsiz o’quv sharoitlarini yaratish; - talabalarda inson va tabiat o’rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni anglash va mavjud muammolarni bartaraf etish yo’llarini aniqlashga yo’naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; maktab biologiya fani o’quv materiallarini ekologiya va atrof muhit bilan bog’liq materiallar bilan yanada boyitish; talabalarni internet ma’lumotlari, sohaga doir yangiliklarni o’rganish, shuningdek, ekologiya va atrof-muhit masalalariga oid me’yoriy hujjatlar (qonun, kodeks, farmon, qaror, farmoyish va hokazo) mazmun mohiyatini bilishga undash va boshqalar.

**Xulosa.** Jamiyatning ekologik madaniyati yuksalishida tez natija beruvchi usul oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak mutaxassislarining ekologik bilim va ko’nikmalarini takomillashtirish, ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishdan iboratdir. Zero, bugungi talaba ertaga jamiyatning yetakchi ziyoli qatlami sifatida yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishdek sharafli va mas’uliyatli kasbni egallaydi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, zamonaviy ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda zamonaviy mutaxassisning ekologik kompetentligiga asos bo’ladigan ekologik tayyorgarlikning pedagogik modelini yaratish maqsadga muvofiq.

Barqaror rivojlanish ta’limi ekologik bilimlar ustiga qurilishi lozim bo’lgan binodir. Uning asosiy tayanch ustunlari esa ekologik kompetentlik bo’lib, mukammal barqaror rivojlanish ta’limiga erishish uchun talabalarga beriladigan ekologik bilimlar barcha fanlar bilan uzviy aloqada bo’lishi lozim.

### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti ulug’ va kelajagi farovon bo’ladi. - Toshkent: O’zbekiston, 3-jild. 2019. B. 276.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O’zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi 434-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/4354743>.
3. Zedler J.B., Callaway J.C. Restoration ecology. Combining the teachin of principles with group experiments and native plant restoration on the SDSU campus. // ESA Bulletin. 1997. -v. 78. -p. 67-69.

4. Dwyer W.O., Porter B.E., Cobern M.K. Outcome research in environmental education. a critical review. // J. Col. Sci. Teach. 1993. 24 (4). - p. 8-21.
5. Винокурова Н.Ф. Культурно-экологический подход в модернизации географического образования: теоретико-методологические основы и методика реализации // Теория и методика обучения географии: история и современные направления развития. - СПб., 2004. - С. 18-25.
6. Глазачаев С.Н. Глобальные вызовы современности и миссия образования // Вестник Международной Академии Наук (Русская секция). - № 1.-2010.-С. 29-32.
7. Камерилова Г.С. Теоретические основы урбоэкологии как вариативной школьной дисциплины школьного географического образования: Автореф. дисс... докт. пед. наук / Г.С. Камерилова. - СПб, 2001. - 43 с.
8. Николина В.В. Культурологические смыслы школьного географического образования // Актуальные проблемы современной географии: сборник статей. - Н. Новгород: Деловая полиграфия, 2010. - С. 216 - 222.
9. Пономарёва О.Н. Методическая система обучения экологии в средней школе: Автореф. дисс... докт. пед. наук - Пенза, 2000.
10. Захлебный А.Н. Содержание экологического образования в средней общеобразовательной школе: теоретическое обоснование и пути реализации: Автореф. дисс. докт. пед. наук - М., 1986. -32 с.
11. Зверев И.Д. Приоритеты экологического образования // Экологическое образование: проблемы и перспективы: Межвузовский сборник научных трудов. - Н. Новгород, 1998. – Б. 11-13.
12. Печко Л.П. Эстетическое освоение природы в процессе формирования личности: Автореф. дисс... докт. филос. наук - М, 1994. - 50 с.
13. Mamajonov.Sh.A. Determinants of environmental education aimed at the development of mechanisms of environmental education in higher education // International Scientific and Practical Conference: “The role of science and Innovation in the modern world”. London, United Kingdom. 2022. P. 38-46.

**O‘SMIRLARDA GENDER IDENTIKLIK SHAKLLANISHI MURAKKAB JARAYON SIFATIDA**

**Daminova Manzura Salimovna,**  
*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Qarshi filiali assistenti*

*Ushbu maqolada o‘smirlarda gender identiklik shakllanishining o‘ziga xos nazariy asoslari haqida so‘z boradi. Muallif ilmiy ma’lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida o‘smirlarda gender identiklik shakllanishining o‘ziga xos nazariy asoslari bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan va tahlil qilgan.*

**Kalit so‘zlar:** o‘smirlar, gender identiklik, shakllanish, nazariy asoslar.

**ФОРМИРОВАНИЕ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У ПОДРОСТКОВ В КАЧЕСТВЕ СЛОЖНОГО ПРОЦЕССА**

*В статье рассматриваются конкретные теоретические основы формирования гендерной идентичности у подростков. Автор, опираясь на научные данные и имеющуюся литературу, изучил и проанализировал особенности формирования гендерной идентичности у подростков на основе собственных теоретических основ.*

**Ключевые слова:** подростки, гендерная идентичность, формирование, теоретические основы.

**FORMATION OF GENDER IDENTITY IN ADOLESCENTS AS A COMPLEX PROCESS**

*The article deals with specific theoretical foundations of gender identity formation in adolescents. The author, based on scientific data and available literature, studied and analysed the features of gender identity formation in adolescents on the basis of his own theoretical framework.*

**Keywords:** adolescents, gender identity, formation, theoretical foundations.

**Kirish.** “Yoshlar strategiyasi” XXI asr rivojlanish sohasida BMT maqsadlariga erishish borasida prinsipial jihatdan ahamiyatli omildir. Shunga muvofiq tarzda, yosh davrlari doirasida gender yondashuvlarning takomillashtirilishi va joriy etilishi ijtimoiy adolat, inson rivojlanishining teng huquqliligi va barqarorligiga erishish yo‘lida asosiy masala bo‘lib qolmoqda. BMT tomonidan qo‘yilgan masalalarni samarali tarzda ijro etish yo‘llarini izlash yangi gender yondashuvlarni ishlab chiqishga olib keldi. Xususan, Gender mainstreaming (ba‘zan «gender majmuaviy yondashuv» deb tarjima qilinadigan) kabi yangi yondashuv har qanday rejalashtirilayotgan tadbirni baholash jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu har qanday rejalashtirilayotgan tadbir, jumladan sohalarda va barcha darajalarda qonun loyihalarini, strategiyalar va dasturlarni ularning xotin-qizlar va erkaklarga ehtimol ta’siri nuqtayi nazaridan ishlab chiqilishini qamrab oladi.

Hozirgi zamonda jahon bo‘ylab globallashuv jarayonlari keskinlashayotgan, postindustrial jamiyatda integratsiya va kommunikatsiya jarayonlari kuchayotgan bir paytda milliy identiklikni o‘rganish muammosi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu munosabat bilan milliy identiklikning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan falsafiy-tarixiy, nazariy-metodologik tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bugungi kunda jahon ilmiy tadqiqotlarida identiklik hodisasi, milliy identiklik, milliy o‘zlikni anglash, mentalitetni tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida milliy an‘analarni yanada boyitish, milliy qadriyatlarni qayta tiklash, milliy identiklikni shakllantirish va mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Identiklik deganda “Men kimman (yoki nimaman), meni o‘zgalardan nima ajratadi?” degan savol ko‘zda tutiladi. Demak, identiklik – “Men”ni va atrofdagi olamni bir-biridan ajratish imkonini beradigan model. Identiklikni ta’rif sifatida ko‘rishda, birinchi navbatda, lotincha “idem” – “aynan o‘sha” so‘zidan kelib chiqqanini nazarda tutish kerak. Shuningdek, mazkur tushunchaga tegishli inglizcha “identity” so‘zi ham bir nechta ma’noga ega, bular: aynanlik, bir xillik, individuallikdir. Ta’kidlash joizki, “identiklik” va “identifikatsiya” tushunchalarini farqlash lozim, chunki identifikatsiya – jarayon, identiklik esa – mazkur jarayonning natijasi hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sh.Madayeva tomonidan identiklik hodisasining nazariy-metodologik tadqiqi amalga oshirilgan. Z.Odinayeva esa falsafiy-konseptual yondashuv orqali o‘zbek milliy identikligining

aksiologik tamoyil va qonuniyatlarini o‘rgangan. Z.Odinayeva o‘zbek xalqi tarixida “milliy identiklik”, “milliy identifikatsiya” tushunchalarini aksiologik nuqtayi nazardan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida ochib bergan.

O‘zbek xalqi etnogenezining shakllanishi muammosi taniqli tarixchilar A.Asqarov, V.Bartold, A.Ilhomov, A.Yakubovskiy, K.Shoniyozov asarlarida tadqiq etilgan. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida o‘zbek milliy identikligining o‘ziga xos xususiyatlari M.Asqarov asarlarida etnografik yondashuv prizmasi orqali ko‘rib chiqilgan. Respublika olimlari Sh.Madayeva, A.Ashirov, M.Quronov, M.Bekmurodovlarning ilmiy qiziqishlari milliy mentalitet rivojiga qaratilgan.

Yuqorida qayd etilgan asarlar, asosan, milliy mentalitetni, uning mustaqillik sharoitida shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, ular milliy identiklikni saqlashga muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida milliy identiklikning shakllanishi va saqlanishida milliy o‘z-o‘zini anglashning determinatsiya qiluvchi roli S.Otamuratov, U.Saidov, N.Nazarov, I.Xo‘jamurodov, J.Tulenov asarlarida o‘rganilgan. Etnik va milliy identiklikning sotsiologik tadqiqotlari M.G‘anieva va X.Qodirova ishlarida ko‘rib chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘smirlarning tengdoshlari bilan munosabatlari fonida ularning oilasi bilan munosabatlari mavjud. O‘smirlarning tengdoshlariga munosabati ular o‘sgan madaniyatning urf-odatlar va madaniy an‘analari bilan bog‘liq. Bu urf-odat va an‘analar oilaning jamiyatdagi mavqei belgilovchi qator omillar bilan bog‘liq. Do‘stona munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati asosan oilada olinadi, oilaviy munosabatlar va o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjud. 15-17 yoshli qizlarni kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ularning oila a‘zolariga nisbatan yaqinlik hissi tengdoshlari bilan bevosita aloqa qilish darajasiga ta‘sir qiladi. O‘smirlar o‘z ota-onalari bilan yaqin aloqani his qilsalar, boshqa insonlarga nisbatan do‘stlik munosabatlarini o‘rnatishga muvaffaq bo‘lishadi. Ota-ona yordamidan mahrum bo‘lganlar bilan do‘stlik o‘rnatish qiyin kechadi. Darhaqiqat, o‘smirlik - bu bolalarning mustaqillikka intila boshlagan davri. Qaror qabul qilish va o‘z taqdiri uchun javobgar bo‘lish qobiliyatisiz o‘smir yetuk shaxs bo‘la olmaydi. Oiladagi muloqot uslubi va bolaning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjud. Alekseeva, oiladagi muloqot uslubining o‘quvchilar faolligiga, ularning muloqot qobiliyatiga va o‘zini o‘zi qadrlashiga ta‘sirini o‘rgangan. Oila ichidagi munosabatlar bolaning shaxsiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shaxsning gender sotsializatsiyasi bilan bog‘liq holda, oilaviy munosabatlarning quyidagi tizimlarini ajratish mumkin: turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi ota-ona va bola munosabatlari tizimini o‘z ichiga oladi. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, maxsus tadqiqotlar singari, oiladagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik omillar bolaning psixosotsial rivojlanishida, xususan, gender sotsializatsiyasida alohida ahamiyatga ega. Oilada eng muhim va asosiy narsa er-xotin o‘rtasidagi munosabatlardir. Gender roli, muayyan xatti-harakatlarda bolalarning gender identikligini aniqlashning eng keng tarqalgan mexanizmlaridan biri sifatida, ota-onalar bilan muloqot va faoliyatda o‘zining mustahkamlanishi va aniqligini topadi. Aynan ota-ona munosabatlari butun oilani yagona jamoaga bog‘laydigan ma‘naviy aloqalarning samimiyatini belgilaydi. Ular bolaning xavfsizligini, shuningdek, dunyodagi o‘rnini qanday his qilishini aniqlaydi. Ko‘pgina psixologlar bolaning rivojlanishidagi asosiy narsa uning mehrga bo‘lgan ehtiyojini qondirish ekanligiga e‘tibor berishadi. Va bu faqat ota-onalar o‘rtasida kelishuv mavjud bo‘lgan farovon oilada sodir bo‘lishi mumkin.

Ota-ona va bola munosabatlari tizimida hissiy munosabatlar bolaning gender ijtimoiylashuvida muhim rol o‘ynaydi. Psixologik tadqiqotlar ota-onalar va bolalar o‘rtasida kuchli ma‘naviy aloqalarni shakllantirishga yordam beradigan, gender sotsializatsiya jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillarga e‘tibor qaratadi. “Ota-onalar va bolalar” munosabatlari tizimini gender sotsializatsiyasi omili sifatida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. I.Kon quyidagi mexanizmlarni qayd etadi:

a) mustahkamlash: ota-onalar to‘g‘ri deb hisoblaydigan xatti-harakatlarni rag‘batlantirish va jazolash orqali ota-onalar bolaning ongiga ma‘lum me‘yorlar tizimini kiritadilar, unga rioya qilish bolalar uchun odat tusiga kiradi.

b) aniqlash: bola ota-onasiga taqlid qiladi, ular kabi bo‘lishga intiladi;

v) tushunish: bolaning ichki dunyosini bilish va uning ehtiyojlariga javob berish, ota-onalar shu bilan uning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi;

d) rolning bir-birini to‘ldiruvchiligi: masalan, oilada ota-ona hech qanday sifatlarga ega bo‘lmasa, shart-sharoit talab qilsa, bu fazilatlar bolada hosil bo‘ladi;

e) psixologik qarama-qarshilik mexanizmi: erkinligi keskin cheklangan bolada mustaqillikka intilish kuchayishi mumkin va hamma narsaga ruxsat berilgan bola qaram bo‘lib o‘sishi mumkin. Demak, oila shaxsning gender sotsializatsiyasi omili sifatida doimo ichki dinamika holatida bo‘ladi va turli ijtimoiy vaziyatlarda ma‘lum bir yangilik va dolzarblikka ega bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar.** Oilada o‘smirlarning gender o‘ziga xosligini shakllantirishning xususiyatlarini o‘rganishda o‘rta maktabning 12 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan 56 nafar maktab o‘quvchilari ishtirok etdi. O‘quvchilar so‘rovidan olingan ma’lumotlar yosh kabi omillarga qarab guruhlariga bo‘lingan: kichik o‘smirlar (12-14 yosh) va kattaroq o‘smirlar (15-17 yosh) va jins (ayol va erkak). Tadqiqotning borishi: S. Bem Erkaklik-Ayollik Metodologiyasi (BSRI) yordamida olingan natijalarni tahlil qilib, biz quyidagi xulosalarga keldik:

So‘rov natijalarini hisoblash shuni ko‘rsatdiki, bizning tanlovimizdagi respondentlarning katta qismi (80%) androgenlar bo‘lib, ularning aksariyati (46,8%) erkaklar guruhlarida, 37,2% ayollar orasida.

Androgenlar - bu ayollik va erkaklik fazilatlarini bir xil darajada yuqori bo‘lganlar. Qizlar va o‘g‘il bolalarning androgen turlari an’anaviy jins turiga ega bo‘lgan shaxslarga qaraganda ancha moslashuvchan xulq-atvorni namoyish etadi. Ular turli xil hayotiy vaziyatlarga ko‘proq moslashgandek taassurot qoldiradilar. Androgen tipidagi odamlar umumiy til topish va boshqa odamlar bilan samarali hamkorlik qilishni yaxshi ko‘radi.

1-jadval.

Butun namunaga nisbatan jins turlarining ko‘rsatkichlari

Gender turlari	Ko‘rsatkichlar
	%
Erkaklik	5,4
Ayollik	13,5
Yuqori androginiya	24,3
O‘rtacha androginiya	56,7
Past androginiya	0,9

Jadvalda ko‘rsatilganidek, androgenlarning katta qismi o‘rtacha androginiya ballariga ega ekanligi aniqlandi

2-jadval.

Jinsga qarab jins turlarining ko‘rsatkichlari

Gender turlari	Yigitlar		Qizlar	
	butun namunaga nisbatan %	jinsga nisbatan % guruhlar	butun namunaga nisbatan %	jinsga nisbatan % guruhlar
Erkaklik	4,5	8,5	0,9	1,9
Ayollik	1,8	3,4	11,7	25
Yuqori androginiya	14,4	27,1	9,9	21,1
O‘rtacha androginiya	31,5	59,3	24,3	51,9
Past androginiya	0,9	1,7	–	–

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rtacha ballga ega bo‘lgan androgenlarning aksariyati erkaklar guruhlarida. Agar yoshga qarab olingan ma’lumotlarni hisobga oladigan bo‘lsak, androgenlarning ko‘pchiligi yosh o‘g‘il bolalar guruhlarida ekanligi ma’lum bo‘ladi (2-jadvalga qarang).

3-jadval.

Yoshga qarab jins turlarining ko‘rsatkichlari

Gender turlari	Yoshi kichik		Yoshi kattaroq	
	namunaga nisbatan %	yoshga nisbatan % guruhlar	namunaga nisbatan %	yoshga nisbatan % guruhlar
Erkaklik	1,8	3,7	3,6	7
Ayollik	4,5	9,3	9	15,8
Yuqori androginiya	10,8	22,2	13,5	26,3
O‘rtacha androginiya	31,5	64,8	24,3	47,3
Past androginiya	–	–	0,9	1,7

Olingan ma'lumotlar gender ko'rsatkichlarining o'rtacha androginiya darajasini shakllantirish tomon o'zgarishini tasdiqladi, bu qizlarda va o'g'il bolalarda turli xil o'zgarishlar bo'yicha erkaklik va ayollik muvozanati sifatida amalga oshiriladi. Shunday qilib, bizning tadqiqotimizdan xulosa qilishimiz mumkinki, o'smirlarning oiladagi gender sotsializatsiyasining o'ziga xos xususiyati - androgin jinsi shaxs turini shakllantirish tendentsiyasi sifatida tahlil qilindi.

**Xulosa.** Gender sotsializatsiyasi omillari orasida oila eng muhim va ta'sirchan hisoblanadi. Oila va oilaviy munosabatlar inson rivojlanishining barcha bosqichlarida uning gender identikligini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Oilaning ulkan ahamiyati oilaviy muloqotning davomiyligi va chastotasi, uning o'z-o'zidan va qarindoshligi, faoliyat motivlarining birligi, oila a'zolariga munosabat, maqsad va niyatlarning birligi, ular xatti-harakatlarining muvofiqligi va eng muhimi, o'zaro intim munosabatlar bilan belgilanadi. Oila - bu inson hayoti davomida doimiy aloqada bo'lgan asosiy ijtimoiy muhit hisoblanadi. Oila insonning samimiy, shaxsiy dunyosini tashkil qiladi. Oila ham jamiyatning birlamchi bo'g'ini, ham ijtimoiy psixologik joyi hisoblanadi. Oila sharoitlari, jumladan, ijtimoiy mavqeyi, ota-onalarning moddiy va ma'naviy darajasi, oilaning psixologik iqlimi - bularning barchasi insonning o'ziga xosligini shakllantirishga, uning hayot yo'lini belgilashga ta'sir qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Аникеева Н.П. Психологические основа гендерного воспитания. Новосибирск, 2008.
2. Абдусатторова О.А. Оила мухитида ўсмирларда шаклландиган жинсий идентификациянинг гендер хусусиятлари. Тошкент. – 2007.
3. Nishonova Z., Abdullayeva D., Baykunosova G. O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. T.: - 2015.
4. Райс.Ф. Ўсмирлик ва ёшлик психологияси / Ф.Райс – Санкт-Петербург: Питер, 2000. - 624 б.

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI  
O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING  
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

***Dauletova Zamira Abdigapbarovna,***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali  
“Zooinjeneriya” kafedrasida katta o‘qituvchisi  
zamira555@gmail.com*

*Dunyo ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib fanlarning metodik ta’minotini takomillashtirish hamda talabalarga faoliyat sohalari bo‘yicha zamonaviy bilim berish, ularda kasbiy ko‘nikma va malakalarni doimiy takomillashtirib borish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Shuningdek, dunyo hamjamiyati tomonidan tabiiy fanlarni, jumladan, biologiya fanini o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar talabalarining o‘zlashtirish darajasini, kasbiy tayyorgarligini har tomonlama rivojlanishini ta’minlash maqsadida innovatsion ta’lim muhitini joriy etishga ustuvorlik berish hamda talabalarining kasbiy salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.*

*Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari hamda bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy faolligini oshirish orqali erishiladigan ijobiy natijalar xususida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bitiruvchi talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar va asosiy vazifalar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, bo‘lajak mutaxassislar, biologiya ta’limi, innovatsion yondoshuv, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy faollik, ta’lim muassasalari, yaratuvchanlik qobiliyati, kasbiy kompetentlik, umumiy talablar, innovatsion ta’lim texnologiyalari.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ  
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО  
ПОДХОДА**

*В мировой системе образования приоритетом является развитие профессиональной подготовки будущих специалистов на основе инновационных подходов, совершенствование методического обеспечения предметов с использованием современных образовательных технологий, обеспечение студентов современными знаниями в сферах деятельности, а также постоянно совершенствовать свои профессиональные навыки и квалификацию, включённые в перечень задач. Также удовлетворены требования мирового сообщества к преподаванию естественных наук, в том числе биологии, в целях обеспечения всестороннего развития уровня мастерства студентов, профессиональной подготовки, приоритетного внедрения инновационной образовательной среды и развития профессионального потенциала студентов.*

*В данной статье рассматриваются реформы, проводимые нашим правительством по совершенствованию профессиональной подготовки будущих учителей биологии в высших учебных заведениях, педагогические условия подготовки студентов к профессиональной деятельности, а также положительные результаты, достигнутые за счёт повышения профессиональной активности будущих специалистов. Также выделены общие требования и основные задачи к уровню профессиональной подготовки выпускников бакалавриата высшего образования по направлениям подготовки.*

***Ключевые слова:** образовательная система, будущие специалисты, биологическое образование, инновационный подход, профессиональная подготовка, профессиональная деятельность, образовательные учреждения, творчество, профессиональная компетентность, общие требования, инновационные образовательные технологии.*

## PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE BIOLOGICAL SCIENCE TEACHERS BASED ON THE INNOVATION APPROACH

*In the world education system, the development of professional training of future specialists based on innovative approaches, the improvement of methodological support of disciplines using modern educational technologies, and the provision of modern knowledge to students in their fields of activity, as well as the continuous improvement of professional skills and qualifications in them are among the priority tasks. In addition, the requirements imposed by the world community on the teaching of natural sciences, including biology, require prioritizing the introduction of an innovative educational environment in order to ensure the comprehensive development of students' mastery and professional training, as well as conducting research on the development of students' professional potential.*

*This article presents opinions on the reforms being carried out by our government to improve the professional training of future biology teachers in higher education institutions, the pedagogical conditions for preparing students for professional activity, and the positive results that can be achieved by increasing the professional activity of future specialists. It also covers the general requirements and main tasks for the level of professional training of students graduating from bachelor's degree programs in higher education.*

**Keywords:** *education system, future specialists, biology education, innovative approach, professional training, professional activity, educational institutions, creative ability, professional competence, general requirements, innovative educational technologies.*

**Kirish.** Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish, ta'lim jarayonlarini zamonaviy usullar vositasida tashkil etish va samaradorlikka erishish hamda zamonaviy, malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Shuningdek, izchil islohatlar natijasida oliy ta'lim tizimida innovatsion ta'lim muhitini joriy etish bo'yicha ilg'or tajribalarga asoslangan o'quv muhiti joriy etilmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qancha huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur Farmonning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish” yo'nalishida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish [1] vazifasi belgilab qo'yilgan.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda xalqaro miqyosda biologiya ta'limining sifat va samaradorligini oshirish hamda talabalarlarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar va axborot texnologiyalarni tatdbiq etish mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmonida “Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish; Oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan [2].

Bugungi kunda jahonning ta'lim tizimi taraqqiy etgan yetakchi davlatlarida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak kasb egalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonlarida ta'lim, ishlab chiqarish va fanlar integratsiyasini amalga oshirishga hamda bu jarayonlarda innovatsion ta'lim muhitidan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ko'pchilik mamlakatlarda bu borada ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etilib, ularning Massive Open Online Course (AQSh), Universarium (Rossiya), Coursera kabi ochiq elektron ta'lim tizimlari hamda malakali mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda Digital Britain, Degreed, Global Education va Second Life kabi virtual ta'lim platformalarida samarali faoliyat olib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar majmui ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi asosida belgilanadi. Ya'ni bo'lajak o'qituvchilarning psixologik, psixofiziologik, jismoniy tayyorgarligi, shuningdek, ilmiy-nazariy va amaliy qobiliyatlarining shakllanganlik darajasi hisoblanadi. Bu borada O.A.Qo'ysinovning ilmiy ishlarda o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablarning uch guruhi ajratib ko'rsatiladi: umuminsoniy

xususiyatlar, o‘qituvchi kasbining alohida jihatlarini belgilovchi xususiyatlar, fan bo‘yicha maxsus bilimlar va ko‘nikmalar alohida ajratib ko‘rsatilgan [3].

N.Azizxodjayeva ham ta‘lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish masalalariga to‘xtalib, “Kasbiy tayyorgarlik - shaxsning aniq kasbiy faoliyat turi bilan shug‘ullanishiga imkon beruvchi nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zlashtirish jarayonidir”, deya ta‘kidlaydi [4].

Shuningdek, R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirv hamda A.Pardayevlar kasbiy tayyorgarlik negizida “bo‘lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy nazariy va amaliy tayyorgarligi” aks etish kerakligini ta‘kidlaydilar [5].

E.F.Zeer tomonidan zamonaviy axborotlashgan sharoitlarda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligining psixologik jihatlari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, u kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi [6].

T.M.Sorokinaning tadqiqotlarida esa o‘qituvchining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi sifatida talqin etiladi. Uning yondashuviga ko‘ra o‘qituvchilik kompetensiyasi o‘qituvchining pedagogik faoliyatining asosi bo‘lgan professionallikning bosqichlaridan biri hisoblanadi [7].

G.M.Kodjaspirovaning fikricha, “o‘qituvchi malakali o‘qituvchi bo‘lishi uchun muayyan pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishi kerak” [8].

M.I.Lukyanova o‘qituvchining psixologik-pedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o‘quv jarayonida talabalar bilan samarali o‘zaro munosabatlarga ega bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadi. Psixologik va pedagogik kompetensiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo‘nalishlarning bloklarini ko‘rib chiqadi [9].

**Muhokama va natijalar.** Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faolligini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- bo‘lajak kasb egalarining kasbiy kompetentlik darajasining ortishi;
- kasbiy faoliyatidagi faolligi va tashabbuskorligini rivojlanishi;
- psixologik xususiyatlarining (diqqat, idrok, tahlil, anliz-sintez) rivojlanishi;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- o‘zaro interaktiv faoliyat, muloqotga kirishuvchanlikning rivojlanishi;
- kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvning rivojlanishi;
- pedagogik tajribaning ortishi va boshqalar.

V.A.Skakun pedagogik tajribani “amaliyotni quvvatlantiruvchi” va pedagogika fanining “quvvatlantiruvchi muhitini yaratuvchi” pedagogik amaliyotning “oltin fondi”ga qiyoslaydi [10]. Bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik tajribasini rivojlantirish ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish imkonini beruvchi innovatsiyalardan foydalana olish mahoratining shakllanishiga asos bo‘ladi.

L.M.Mitina pedagogik tayyorgarlik va kompetentlik masalalariga to‘xtalib, uni quyidagicha tasvirlaydi:

- faoliyatli (bilim, malaka, kasbiy mahorat hamda pedagogik faoliyatni mas’uliyatli va mustaqil amalga oshirishning individual usullari);
- kommunikativ (pedagogik muloqotni amalga oshirishning ijodiy yo‘llari);
- shaxsiy (o‘z ustida ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish ko‘nikmasi) [11].

Shuningdek, tadqiqotchi B.Nazarova ham o‘z tadqiqot ishlarida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalariga to‘xtalib, adi va pedagogga xos kasbiy tayyorgarlik va kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar turishini ta‘kidlaydi:

- kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish;
- kasbiy kompetentlikni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas’ullik;
- o‘zini ijtimoiykasbiy rivojlantira olish;
- kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tuta olish.

Har tomonlama universal, ijodiy, rivojlanayotgan bo‘lajak mutaxassis (professional) shaxsi faqat ajralmas pedagogik jarayon sharoitlarida shakllanishi mumkin [12]. Shuning uchun yaratilgan qulay innovatsion ta‘lim muhiti pedagogik oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini oshirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu o‘rinda bo‘lajak biolohiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta‘lim sifatiga, shaxsga yo‘naltirilganligiga, demokratik tamoyillarning ustuvorligiga ahamiyat qaratish lozim.

Ilmiy manbaalar tahliliga ko‘ra, bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida biologiya yo‘nalishidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha bitiruvchi talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga quyidagi umumiy talablar qo‘yiladi:

- ma‘naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lishi, bu borada o‘z fikrlarini ilmiy asoslay olishi, milliy istiqloq g‘oyasiga asoslangan kasbiy faoliyatini yo‘lga qo‘ya olishi;

- ta‘lim tizimi bilan bog‘liq huquqiy-me‘yoriy hujjatlardan xabardor bo‘lishi, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy jarayonlar bo‘yicha o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lishi;

- tabiatda sodir bo‘layotgan jarayonlar, voqea-hodisalar, o‘zgarishlar bo‘yicha ma‘lumotlardan xabardor bo‘lib borishi, tabiat va insoniyat o‘rtasidagi aloqalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish, kasbiy faoliyatlarida ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha izlanishlar olib borishi;

- insoniyatning atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatini belgilovchi huquqiy – nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, ma‘naviy mezolarni o‘zlashtirgan bo‘lishi, pedagogik faoliyatida ularni hisobga olishi;

- axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini bilish, pedagogik faoliyatlarida axborotlar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishi;

- o‘z kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadrlar talablariga javob bera olishi;

- biologiya fanining eng so‘ngi yutuqlaridan muntazam xabardor bo‘lib borishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, yangiliklarni kasbiy faoliyatlariga tadbiiq etishi va pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil eta olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- sog‘lom turmush-tarziga amal qilishi, jismonan sog‘lom, ma‘nan yetuk, barkamol shaxs sifatida kasbiy faoliyatining yutuqlariga erishishi.

Kasbiy sifatlar pedagogik faoliyat muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri bo‘lib, ular maqsadga intiluvchanlik, qat‘iyatlik, diqqatni taqsimlay olish, tirishqoqlik, kuzatuvchanlik, pedagogik takt va pedagogik xayolning rivojlanganligi, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, shaxsiy namuna ko‘rsatish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yanada boyitishga bevosita hissa qo‘shish kabi jihatlardan tavsiflanadi.

Bu esa o‘z navbatida innovatsion ta‘lim muhitida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy moslashtirish jarayoni samaradorligini oshirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruratini keltirib chiqaradi:

- bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy moslashtirish mazmunini pedagog mutaxassislar tayyorlashga qo‘yiladigan mehnat bozorining zamonaviy talab va takliflariga asoslanib belgilash;

- kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni sifatli o‘zlashtirishning innovatsion potensialini shakllantiruvchi pedagogik-psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniqlash;

- tizimli yondoshuv asosida ijodiy hamkorlik muhitiga asoslangan kasbiy moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash va amaliyotga tadbiiq etish;

- bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari, nazariy masalalari va talabalarning mustaqil ta‘limi uchun xizmat qiluvchi yangicha nashrlar, elektron darliklar, o‘quv-metodik majmualar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish.

Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi natijalarini ularni oliy ta‘lim muassasasini tamomlaganlaridan keyin tashkilotga borganda ish faoliyatiga kirishganda ko‘rish mumkin. Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligidagi asosiy o‘zgarishlar quyidagilar bilan bog‘liq bo‘ladi, deb taxmin qilish mumkin:

- uni individuallashtirish, bu har bir talaba uchun kasbiy va shaxsiy muammolarni hal qilishda noyob amaliy tajribaga ega bo‘lish,

- qiziqishlar, ehtiyojlar va boshqalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- universitetning ta‘lim maydonining kengayishi hisobiga uning amaliy yo‘nalishini, o‘zgaruvchanligini kuchaytirish.

**Xulosa.** Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida ulardan o‘z bilimlarini muntazam boyitib borish, fanga doir yangi axborotlar bilan tanishib borish, pedagogik faoliyat uchun eng muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni saralash hamda ulardan o‘z pedagogik faoliyatlarida foydalana olish hamda ilg‘or xorijiy ta‘lim resurslaridan samarali foydalana olishni taqozo etadi.

Bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga doir pedagog-olimlarning fikr-mulohazalarini umumlashtirib, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligining rivojlantirilishi ularda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va

malakalarning o‘zlashtirilishi va ulardan zarur sharoitlarda, kasbiy faoliyatlarida samarali foydalana olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. (44-maqсад).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Qo‘ysinov O.A. Ta‘lim sifati va samaradorligini ta‘minlashda o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan kasbiy talablar. 2021-yil.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. B– 84.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste‘dod” jamg‘armasi, 2008. – B. 16-18
6. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – М.: «Академия», 2013.
7. Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания. // Начальная школа. – 2004. – №2. – С. 110-114.
8. Коджаспирова Г.М.. Педагогика. Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: “Гардарики”, 2004. – 528 с
9. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10. – С. 56-61.
10. Скакун В.А. Организация и методика профессионального обучения. // Учебное пособие для студентов образовательных учреждений среднего профессионального образования. – М.: «Форум», ИНФРА-М, 2007. –С. 137.
11. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя. Учебн. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М., 2004. -С.75.
12. Vanitha A., Latha K., Balan S. Exploring Antecedents for Knowledge Management on Work Place Commitment among College Teachers with the Mediating Role of Competency Enhancement. International Journal of Advanced Science and Technology. Vol.28, No.7, (2019), pp. 279-293.

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN ASOSIY USULLAR TAHLILI

*Ismanova Odinaxon To'iqinboevna,  
Namangan davlat universiteti dotsenti  
ismanovaodina79@gmail.com*

*Ushbu ishda oliy ta'lim tizimida zamonaviy mutaxassislar tayyorlashda ta'lim sifatini oshirish usullari yoritilgan. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayoniga tatbiq etilayotgan asosiy pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Asosan muammoli o'qitish, Case study, loyihaviy faoliyat usullarining imkoniyatlari, yutuq va kamchilik tomonlari alohida tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, bilim, ta'lim obyekti, kreativlik, pedagogik texnologiya, SWOT-tahlil, muammoli o'qitish usuli, loyihaviy faoliyat, Case study usuli, ta'lim sifati, fizika - matematika.*

### АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ МЕТОДОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В ВУЗАХ

*В работе освещаются методы повышения качества образования при подготовке современных специалистов в системе высшего образования. Проанализированы основные педагогические технологии, применяемые в настоящее время в образовательном процессе в системе высшего образования. Отдельно анализировались возможности, преимущества и недостатки проблемно-ориентированного обучения, тематических исследований и проектных методов.*

***Ключевые слова:** высшее образование, знание, объект образования, творчество, педагогическая технология, SWOT-анализ, проблемный метод обучения, проектная работа, метод Case study, качество образования, физика - математика.*

### ANALYSIS OF THE MAIN METHODS USED IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*The paper highlights the methods of improving the quality of education in the training of modern specialists in higher education. The main pedagogical technologies currently used in the educational process in the higher education system are analysed. The possibilities, advantages and disadvantages of problem-oriented learning, case studies and project methods were analysed separately.*

***Keywords:** higher education, knowledge, object of education, creativity, pedagogical technology, SWOT analysis, problem-based method of teaching, project work, case study method, quality of education, physics - mathematics.*

**Kirish.** Hozirda zamonaviy texnologiyalarni tez sur'atlarda rivojlanishida ixtiyoriy korxonani, muassasani, jarayonni, shuningdek ta'lim jarayonini raqobatbardoshligini ta'minlashda eng ahamiyatli inson kapitali hisoblanmoqda. Har bir insonda yashiringan potensial yaratuvchanlikni, ya'ni kreativlikni ro'yobga chiqarib to'g'ri yo'naltirilsa nafaqat alohida muassasani yoki ishlab chiqarish korxonasini, balki hatto alohida biror davlatni ham rivojlanishiga asosiy sabablardan biri sifatida qarash mumkin [1].

Ushbudan kelib chiqadigan bo'lsak zamonaviy ta'limni, asosan oliy ta'limni asosiy vazifasi fan-texnikadagi, ishlab chiqarishdagi va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga tez moslashuvchi, egiluvchan va kreativ kompetensiyaga ega bo'lgan keng doiradagi yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Shuni hisobga olgan respublikamiz oliy ta'lim tizimida jadal islohotlar olib borilmoqda. Jumladan prezidentimiz topshiriqlariga ko'ra bakalavriat tizimidagi maydalab tashlangan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar birlashtirishi hisobiga taxminan 40% ga qisqartirildi. Bunday o'zgarishlar esa oliy ta'limdagi professor-o'qituvchilar oldiga yanada yangi talablarni qo'yimoqda, ya'ni talabalarga faqatgina bilim beribgina qolmasdan balki bilim olishni o'rgatish va olingan bilimlar asosida o'zi uchun yangi bilim va ko'nikmalarni yaratish kabi kreativlik xususiyatlarini talabalarda rivojlantirishni taqazo qilmoqda. Zamonaviy ta'limga bunday yondashuv esa professor-o'qituvchilarni o'quv jarayoniga yangi va yangi usullarni ijodiy yondashgan holda kreativ pedagogika xususiyatidan kelib chiqqan holda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi [2].

**Asosiy qism.** Oliy ta’limda biron bir ilg’or usulni ta’lim jarayoniga qo’llash uchun zaruriy va yetarli pedagogik sharoitlar bo’lishi kerak. Zarurli pedagogik sharoitlar asosan professor – o’qituvchi faoliyati bilan bog’liq, ya’ni o’qituvchi hozirgi zamonda oliy ta’limda qo’llaniladigan usullar bilan tanish bo’lishi va o’qitish malakasiga ega bo’lishi lozim. Adabiyotlar tahliliga ko’ra asosan oliy ta’limda quyidagi uchta usuldan ta’lim jarayonida keng foydalanilmoqda:

1. Muammoli o’qitish usuli
2. Loyihaviy faoliyat usuli
3. Case –study usuli

Turli pedagogik texnologiyalarni o’rta va oliy ta’limga tatbiq qilib ta’lim sifatini oshirishga oid ilmiy-metodik maqolalar tahliliga ko’ra har qanday yangi pedagogik texnologiyani ta’limga to’g’ridan to’g’ri qo’llash doim ham ijobiy natija bermasligi mumkin. Shu holatdan kelib chiqib yangi pedagogik texnologiya yoki yangi usul yordamida yuqori samaradorlikka erishish uchun avvalambor yangi usulni va ta’lim muassasasidagi ta’lim beruvchi va oluvchilarni holatini obyektiv tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Turli tashkilot, korxonalar va muassasalarni rivojlantirish strategiyasini tahlil qilishda so’nggi yillarda SWOT-tahlil usulidan qo’llaniladi [3]. Ta’lim muassasalarida SWOT-tahlil usulidan asosan asrimizning birinchi o’n yilligidan keng foydalanishni boshlandi.

SWOT-tahlilni afzaligi uning lug’aviy ma’nosidan ham kelib chiqadi (Strengths, Weaknesses, Opportunities and Threats), ya’ni tahlil qilinadigan obyektning “kuchli tomoni”, “kuchsiz tomoni”, “imkoniyati” va “xavflar” ko’rsatib o’tiladi. SWOT-tahlil barcha sohalar va ulardagi jarayonlarga deyarli qo’llash imkoniyatini mavjudligi bilan ajralib turadi.

Ta’lim jarayoniga SWOT-tahlilni avval ta’limni sifatini ko’tarishga qaratilgan pedagogik texnologiyani tahlil qilishga qo’llansa, so’ngra pedagogik texnologiya qo’llaniladigan ta’lim obyekti ustida SWOT-tahlil o’tkaziladi. Shundan so’ng har ikkisi asosida bajariladigan ishlar, mashg’ulotlarda foydalaniladigan materiallar aniqlashtiriladi.

Adabiyotlar tahliliga ko’ra yuqorida keltirilgan har uchta usulni umumiy yutuqlari va har biriga xos alohida yutuq va kamchiliklari mavjudligini ko’rish mumkin.

Umumiy yutuqlar, ya’ni kuchli tomoni (strengths) sifatida quyidagilarni sanab o’tish mumkin:

-Talabalarni o’zlarini shaxsiy imkoniyatlarini o’rganayotgan predmetga nisbatan ijobiy baholay boshlashadi

-Talabalar o’rganilayotgan predmetni yanada o’zlari va inson hayoti uchun kerakli va ahamiyatli ekanligini xis qila boshlashadi.

-Talabalaridagi motivatsiyani mazmunini o’zgartirmagan holda ularda motivatsiyani kuchaytirishga samaraliroq ta’sir ko’rsatadi.

Har bir usulni “kuchsiz tomonlari”, ya’ni kamchiliklarini alohida sanab o’tamiz:

1. Case study usulini ta’lim jarayoniga qo’llanilganda namoyon bo’ladigan asosiy kuchsiz tomonlari:

-Metodik jihatdan puxta tayorlanish uchun talaba va o’qituvchidan uzoq vaqt talab qiladi

-Mashg’ulotlarda o’rganilayotgan jarayon yoki xolat to’g’risida talabalarga ko’p ma’lumotlar taqdim qilingani uchun tadqiqotchilikka zarurat tug’ilmaydi.

-Oddiy narsani o’rganish uchun keyslar tayorlash ko’p vaqt talab qiladi

-Case study usulini matematika va fizikadan olib borilayotgan barcha mashg’ulotlarga qo’llash orqali yuqori samaradorlikka erishib bo’lmaydi

-Case study usulini qo’llash uchun har bir mashg’ulotga alohida-alohida tayorgarlik ko’rish lozim

Case study usulini imkoniyatlari:

-Olingan nazariy bilimlarni masalalar yechishga qo’llash imkoniyatini talabalarda tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi va tahlil ko’nikmalarini rivojlantiradi

-Muammoni turli nuqtai nazardan ko’rishni shakllantiradi

-Case study usulini ta’limga qo’llashdagi asosiy xavf professor-o’qituvchini mahoratiga qattiq bog’langani va o’rganilayotgan muammolarni tahlil qilishdagi uzviy bog’liqlikni ta’minlash murakkabligi [4].

2. Muammoli o’qitish usuli ham avval boshda sanab o’tilgan “yutuqlar” bilan birga yana o’ziga xos quyidagi ikkita ustivorlikka ega

-Talabalarni mustaqilligini yuqori darajada ta’minlaydi

-Talabalarni dialektik fikrlashini rivojlantiradi.

Muammoli o’qitish usulini ham Case study usuliga o’xshash “yutqiziqchlari”, ya’ni “kamchiliklari” mavjud bo’lib, ulardan bir nechta asosiylarini keltirib o’tamiz.

-Har bir mashg’ulotda mo’ljallangan mavzu uchun muammoni ifodalash imkoni bo’lmaydi

- Fizika va matematikadan o‘qitiladigan amaliy mashg‘ulotlarda muammo qo‘yilgan bo‘ladi va uni yechimi faqat bitta bo‘ladi. Turli variantlarni har doim ko‘rishga talabalarni imkoniyati yo‘l qo‘ymaydi
  - Har bir mashg‘ulotga tayorgarlik ko‘rish o‘qituvchidan ko‘p vaqt talab qiladi
  - Amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga katta yordam bermaydi.
- Muammoli o‘qitish usulini imkoniyatlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:
- Talabalar o‘rganilayotgan xodisani tez tafakkur qiladi va javobni asoslaydi, gipotezani o‘zlari ilgari surishadi va isbotlashadi
  - Talabalarda kuzatuvchanlik, umumlashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi
  - Talabalarda muammoni hal qilishidagi bilim va ko‘nikmalar a‘naviy ta‘limga nisbatan yaxshi o‘zlashtiriladi va mustahkamlanadi.
- Muammoli o‘qitishdagi xavflardan biri va asosiysi quyidagidan iborat:
- Mashg‘ulot olib boruvchi professor-o‘qituvchilarni mahorati yuqori bo‘lishi, yuzaga keladigan vaziyatni mantiqiy hal qilishi va talabalarga ilmiy tarzda asoslay olishi kerak [5].
- Loyihaviy usul yuqorida keltirib o‘tilgan umumiy “yutuqlar”dan tashqari o‘z xususiyatidan kelib chiqib adabiyotlarda quyidagi asosiy “yutuqlari” sanab o‘tilgan:
- ijtimoiy hayotda va tabiatda ro‘y berayotgan jarayonlarni real modelini o‘rganishga yaqinlashtiradi;
  - fan yoki predmetni o‘rganish uchun barcha turdagi mashg‘ulotlar uchun kompleks yondashuvni ta‘minlaydi;
  - mashg‘ulotlarda foydalaniladigan darslik yoki o‘quv qo‘llanmalariga katta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni talab qilinmaydi;
  - ko‘p predmetlilik, ya‘ni talaba loyiha bajarishda loyiha xususiyatidan kelib chiqib turdosh va iqtisodiy fanlarni bog‘liq o‘rganishi;
  - ma‘lumotlar to‘plash va ularni tahlil qilish asosida yangi ilmiy, texnik, ijtimoiy muammoni sezish va uni hal qilish;
  - loyihaviy faoliyat natijasida qandaydir mahsulot yoki o‘rganuvchi uchun yangi ilmiy yangilik yaratiladi;
  - loyihaviy faoliyat tabaqalashtirilgan yondashuv imkoniyatini yaratadi.
- Loyihaviy usulni asosiy “yutqizig‘i” yoki kamchiligi:
- Loyihaviy usul asosan talabalarni produktiv faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirilgani uchun reproduktiv faoliyat uchun yo‘naltirilganda ko‘zlangan natija bermasdan, loyihaviy usul haqida ijobiy munosabat shakllantirmaydi, chunki loyihaviy usul yoki loyihaviy faoliyat yaratuvchanlikka yo‘naltirilgan [6].
- Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib loyihaviy usulni “imkoniyati”ni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:
- Loyihaviy ta‘lim talabaga muhim ko‘nikmalarni egallashi bilan birga o‘zi jamiyat uchun foydali bo‘lgan nimadir yaratish imkoniyatini beradi;
  - Loyihaviy ta‘limdagi asosiy tashqi xavf fanlararo va kurslararo barcha professor-o‘qituvchilar tomonidan uzviy bog‘liqlikni saqlanishini ta‘minlanmasligi;
  - Loyihaviy faoliyatda barcha o‘qituvchilar hamjihatligi.
- SWOT –tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki “Loyihaviy ta‘lim” talabalar uchun eng samarali ta‘lim usullaridan biri ekan.
- Bundan tashqari har uchta ta‘lim usulini maqsadiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak loyihaviy ta‘limni maqsadi muammoli o‘qitish va Case study ta‘lim usullaridan umumiy ekanini ko‘rish mumkin. Chunki loyihaviy ta‘limni qo‘llashdan maqsad talabalarni mustaqil bilim olish, tashabbuskorlik va yaratuvchanlik kabi xususiyatlarini rivojlantirish bo‘lsa, muammoli o‘qitish va Case study usulini bosh maqsadi mos ravishda yangi bilimlarni faol mustaqil izlanish olib borish va o‘zaro fikr almashib nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, amaliy masalalar ishlashga qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi.
- SWOT -tahlil natijalari va ta‘lim usullarini maqsadidan kelib chiqadigan bo‘lsak qolgan zamonaviy texnologiyalarni inkor qilmagan holda loyihaviy ta‘lim usulini oliy ta‘limga qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishib hozir va kelajak talab qiladigan mutaxassislar tayyorlashga asos yaratamiz, zero ki akademik G.Bordovskiy aytganidek, “Biz bugun kecha yozilgan darslik asosida ertangi kun uchun mutaxassis tayyorlaymiz”.
- Bundan tashqari XXI asr oliy ta‘limini o‘quv dasturlari va ta‘lim berish transformatsiyasi haqida bir qator fikrlar bildirishmoqda, chunki fan sohalari va ishlab chiqarish texnologiyalarni tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada tezlik bilan rivojlanishi natijasida yangi mutaxassisliklar paydo bo‘lishi bilan turli fan sohalariga tegishli bir necha mutaxassisliklarni qo‘shilib ketishiga olib kelmoqda. Shuning uchun oliy ta‘limning tor mutaxassisliklar tayyorlashni an‘naviy usuli talabga javob bermay qo‘ydi.

Ushbu holatdan kelib chiqib xorijiy davlatlar OTM larini o‘quv dasturlari va ta’lim maqsadini transformatsiya qilish boshlandi. Zamonaviy oliy ta’limda asosiy e’tibor turli fanlardan fundamental bilimlarni talabalar egallagan holda tor mutaxassisliklarni o‘zlari mustaqil ravishda o‘rganib ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilmoqda. Ushbu ko‘nikmalar tufayli oliy ma’lumotli shaxs qisqa muddat ichida yangi mutaxassislikni egallash imkoniyati ortadi [7].

Amerikalik psixolog va pedagog Djon Dyu aytganidek “Ta’lim-bu shaxsni kelgusi hayotga tayyorlash emas, balki har bir shaxsning hayotiy jarayoniga aylanishidir”.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak hozircha loyihaviy usul yordamida ta’limda yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Loyihaviy ta’limni o‘quv jarayoniga tatbiq qilishda har bir fanni o‘ziga hos xususiyatidan kelib chiqib turli ilmiy guruhlar tomonidan o‘tkazilgan pedagogik tajribalarni tahlil qilish va kompleks o‘quv dasturi ishlab chiqishni taqazo qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития: инновационный курс. Книга 1. Казань. Издательство Казанского университета, 1996 г. -567 с.
2. Сабитов А.Ю., Парамонова А.Ю., Кузьмин С.Ю. Креативная личность студента в условиях креативной образовательной среды // Успехи современного естествознания. – 2013. – № 10. – С. 147-147.
3. Гвозденко А.Н. Использование методики многофакторного SWOT-анализа для разработки стратегических направлений деятельности / А.Н. Гвозденко. // Маркетинг и маркетинговые исследования. 2006. – № 4. – С. 13-16.
4. Долгоруков А. “Метод Case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения”- М., “Владос”, 2008 г., с. 22.
5. Железный О.В., Москолева Е.А., Сычев И.В. Использование проблемного обучения на занятиях физики в вузе // Молодой ученый 2015 №22 (102) с. 780-784
6. Жукова Н.М Предметные компетенции: проблемы проектирования / Вестник ФГОУ ВПОМГАУ 2008г. №6.(1) с.18-23.
7. Ismanova O.T. The importance of designing activities in the formation of creativity characteristics of physics students. European Journal of Education and Applied Psychology. Scientific Journal 2023. №4. <https://doi.org/10.29013/EJEAP-23-4-72-76>.

## O‘QUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

*Jumanova Xafiza Xoliqulovna,*  
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti  
jumanovaxafiza5@gmail.com

*Ushbu maqolada kompetensiya va huquqiy kompetensiya tushunchalari mazmun mohiyati ko‘rib chiqilgan. O‘quvchi-yoshlar uchun huquqiy kompetensiyaning shakllanishining asosiy bosqichlari: huquqiy bilimlarni o‘rganish, huquqiy mas‘uliyatni tushunish, huquqiy ongni shakllantirish va amaliyotda huquqiy bilimlarni qo‘llashga doir fikr yuritilgan. Huquqiy kompetensiyaning komponentlari va ularning mazmuni ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, huquqiy kompetentlik, ma‘lumot, o‘qituvchi, o‘quvchilar, munosabat, kognitiv, motivatsion-qadriyatli, xulq-atvor.

### ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПРАВОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

*В данной статье рассматривается значение понятий правомочность и правоспособность. Основные этапы формирования правовой компетентности студентов: усвоение юридических знаний, понимание юридической ответственности, формирование правосознания и применение юридических знаний на практике. Раскрыты компоненты правоспособности и их содержание.*

**Ключевые слова:** компетентность, правовая компетентность, информация, учитель, учащиеся, отношение, познавательное, мотивационно-ценностное, поведение.

### MAIN FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF LEGAL COMPETENCES IN STUDENTS

*This article examines the meaning of the concepts of competence and legal competence. The main stages of the formation of legal competence for students: learning legal knowledge, understanding legal responsibility, formation of legal consciousness and application of legal knowledge in practice. The components of legal competence and their content are revealed.*

**Keywords:** competence, legal competence, information, teacher, students, attitude, cognitive, motivational-value, behavior.

**Kirish.** "Huquqiy kompetensiya" tushunchasining mazmunini aniqlash va uning tuzilishini ajratib ko‘rsatish uchun kompetensiya nima ekanligini tushunib olish zarur. Hozirgi kunda pedagogikada "kompetensiya" tushunchasi keng qo‘llaniladi, shu bilan birga, unga o‘xshash "kompetentlik" tushunchasi ham ishlatiladi. Ba‘zi mualliflar bu tushunchalarni sinonim deb hisoblasa, boshqalari ularni farqlaydi. Masalan, L.P. Krisin "kompetentlik" tushunchasini shunday ta‘riflaydi: "insonning tegishli kompetensiyaga egaligi va uni o‘zlashtirishi, bu kompetensiya o‘z ichiga shaxsning unga va o‘z faoliyati predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatini ham qamrab oladi." [1] I.A. Zimnyaning fikricha, "kompetentlik" — bu insonning intellektual va shaxsiy jihatdan asoslangan ijtimoiy-kasbiy faoliyat tajribasi bo‘lib, u shu bilimlar asosida kompetensiyalardan foydalana oladi.[2]

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari orasidagi farqni aniqroq ko‘rsatish muhimdir. Kompetensiya shaxsning ma‘lum bir faoliyat sohasida bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Bu, o‘z navbatida, shaxsga o‘z faoliyatini samarali tarzda amalga oshirishga yordam beradi. I.A. Zimnyaya kompetensiyani "ba‘zi ichki, potensial psixologik yangi tuzilmalar (tasavvurlar, bilimlar, qadriyatlar tizimi, harakatlar ketma-ketligi) bo‘lib, keyinchalik insonning kompetentligida dolzarb, faoliyatga yo‘naltirilgan namoyon bo‘lishlar sifatida yuzaga chiqadi," deb ta‘riflaydi.[2]

A.V. Xutorskiyning fikricha, kompetensiya shaxsning o‘zaro bog‘liq sifatleri (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, faoliyat usullari) majmuasini o‘z ichiga oladi, bu sifatlar muayyan predmetlar va jarayonlar doirasiga nisbatan belgilanadi. Yana bir ta‘rifda, kompetensiya, umumiy turdagi masalalarni hal etishda amaliy tajriba asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini anglatadi.[3]

**Asosiy qism.** "Huquqiy kompetensiya" atamasi ikki fan — pedagogika va yurisprudensiya tutashgan joyda joylashgan. Bu atama ko‘pincha pedagoglar tomonidan qo‘llaniladi, lekin huquqshunoslikda ham huquqiy ong va huquqiy madaniyat masalalariga murojaat qilinadi. Yurisprudensiyada "kompetensiya"

ko‘pincha shaxsning huquqlari, majburiyatlari va vakolatlari yig‘indisi sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, huquqiy kompetensiya yuridik sohaga xos bo‘lib, ko‘pincha shaxsning huquqiy bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi.

A.V. Korotunning ta‘rifiga ko‘ra, huquqiy kompetensiya — bu huquqiy qadriyatlarni tan olishga asoslangan shaxsning integral xususiyati bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishda huquqiy bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiradi. Bunda, huquqiy kompetensiya shaxsning o‘z huquqlarini himoya qilish, jamiyatda faol ishtirok etish va huquqiy masalalarni samarali hal qilish imkoniyatlarini yaratadi.[4]

A.V. Korotun o‘z ilmiy ishlari doirasida huquqiy kompetensiyaning tuzilmasini to‘rt asosiy komponentdan iborat deb ajratadi: motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ va faoliyatli-reflektiv.

1. Motivatsion-qadriy komponent. Motivatsion-qadriy komponent huquqiy maydonda faoliyat yuritishga rag‘batlantiruvchi va ijobiy munosabatni shakllantiruvchi huquqiy qadriyatlar tizimidan iborat. U huquqning jamiyat uchun ahamiyatini anglashni ta‘minlaydi. Huquqiy qadriyatlar deganda huquqning inson uchun muhim bo‘lgan xususiyatlari tushuniladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- qonun va huquqqa hurmat;
- boshqa insonlarning huquq va erkinliklariga hurmat;
- insonlar tengligi;
- adolat;
- qonuniylik;
- shaxsning o‘z burchlarini bajarishi va boshqa jihatlar.

2. Kognitiv komponent. Kognitiv komponent huquqiy bilimlar tizimidan iborat bo‘lib, amaldagi qonunchilik, huquqiy normalar va ularni to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini qamrab oladi. Huquqiy bilimlar insonning asosiy qonuniy tushunchalarni anglash, yodda saqlash va nazariy xulosalar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ular qonunchilik me‘yorlarini hayotda qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

3. Kommunikativ komponent. Kommunikativ komponent shaxslararo muloqot qobiliyatlari va muloqotning samarali uslublarini tanlashni anglatadi. Bu komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- muloqot jarayonida hamkorlik o‘rnatish;
- huquq subyektlari bilan o‘zaro harakatlarni muvofiqlashtirish;
- ochiq va samarali aloqalarni ta‘minlash.

4. Faoliyatli-reflektiv komponent. Faoliyatli-reflektiv komponent huquqiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va shaxsiy sifatlarini o‘z ichiga oladi.

Yurisprudensiyada huquqiy kompetensiya tushunchasi ko‘pincha biron-bir shaxsning vakolatlari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligining yig‘indisi sifatida tushuniladi. Garchi huquq nazariyasida ushbu tushuncha bo‘yicha yagona fikr mavjud bo‘lmasa-da, yurisprudensiyada huquqiy kompetensiya aksariyat hollarda subyektning turli me‘yoriy hujjatlarda mustahkamlangan vakolatlar majmuasi sifatida qaraladi. S.V. Gurin [5] ham shu nuqtayi nazarni ilgari suradi. Shunday qilib, huquqiy kompetensiya deganda biz shaxsning huquqiy bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda, hayotiy vaziyatlarda, shu jumladan huquqiy masalalarni hal qilishda qo‘llay olish qobiliyatini tushunamiz. O‘quvchi-yoshlar uchun huquqiy kompetensiyaga ega bo‘lish juda muhimdir, chunki ular hissiy jihatdan tez qo‘zg‘aluvchan, hayotiy hodisalarning chuqur ma‘nosini tushunmasalar-da, mustaqil fikr yuritish va harakat qilishga intiladilar. Ularning huquqiy kompetensiyasini shakllantirish, huquqiy ong va qadriyatlarni singdirish, mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.

**Muhokama va natijalar.** Huquqiy kompetensiyani shakllantirishda pedagogik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Asosiy ta‘lim doirasida o‘quvchilarda huquqni tushunish, ijtimoiy me‘yorlar tizimidagi o‘rmini anglash kerak. Bunda kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq qilish, ya‘ni ta‘lim jarayonida bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni rivojlantirishdan ko‘ra, o‘quvchilarda umumiy kompetensiyalarni (masalan, huquqiy, fuqarolik, axborot-kommunikativ kompetensiyalar) shakllantirish muhimdir. Bu yondashuv, o‘quvchilarning huquqiy masalalarni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi va ularni faol fuqaro bo‘lishga tayyorlaydi. Shunday qilib, huquqiy kompetensiya o‘quvchi-yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular o‘z huquqlarini anglash, jamiyatda faol ishtirok etish va huquqiy masalalarni hal qilishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Huquqiy kompetensiyaning shakllanishi esa nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajriba va pedagogik metodlar yordamida amalga oshirilishi lozim. Bu jarayon o‘smirlarni ijtimoiy-huquqiy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi va ularning kelajakdagi faoliyatida muhim omil bo‘lishi mumkin. Huquqiy kompetensiyaning komponentlari va ularning mazmuni quyidagi jadvalda berilgan.

Huquqiy kompetensiyaning komponentlari va ularning mazmuni

Komponent	Mazmuni
Kognitiv komponent	- Turli huquq sohalari bo'yicha bilimlar (konstitutsion, mehnat, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik, ta'lim, oilaviy huquq)
	- Inson huquqlari va erkinliklari haqida bilim
	- Inson huquqlarini xalqaro-huquqiy himoya qilish organlari va usullari haqida bilim
	- Jinoyat va ma'muriy huquq tomonidan belgilangan ijtimoiy tartibsizliklar uchun javobgarlik haqida bilim
	- Jamoat joylaridagi xulq-atvor qoidalari, muassasada tartibni saqlash zaruriyati haqida bilim
Motivatsion-qadriyatli komponent	- Huquqqa qadriyat sifatida munosabat
	- Qonunga hurmat
	- Boshqalar huquqlariga hurmat
	- Ijobiy huquqiy qarashlar, qonunga rioya qilish va to'g'ri xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash
Xulq-atvor komponenti	- Ijtimoiy-huquqiy hujjatlar bilan ishlay olish, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, ijtimoiy jihatdan muhim muammolarni hal qilish va boshqalar
	- Shaxsiy huquqiy vaziyatlarni hal qilishda huquqiy bilimlarni amalda qo'llay olish
	- O'z huquqlaridan ongli ravishda foydalanish va majburiyatlarni bajarish
	- Huquqiy xulq-atvor natijalarini ongli ravishda nazorat qila olish
	- Boshqalarning xulq-atvorini huquqiy me'yorlar nuqtayi nazaridan baholay olish, huquqiy masalalarni hal qilish uchun mexanizmlar va vositalarni qo'llay olish, shu jumladan boshqalarga huquqiy ta'sir ko'rsatish.

Huquqiy kompetensiyaning shakllanishi o'smirlarning huquqiy ongini, huquqiy mas'uliyatini va qonunga bo'lgan hurmatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'smirlarning huquqiy ta'limi orqali amalga oshiriladi va ularning shaxsiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Huquqiy kompetensiya nafaqat bilimlarni egallashni, balki o'z huquq va majburiyatlarini bilish va ularga rioya qilishni ham anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, huquqiy kompetensiyaning shakllanishi ta'lim jarayonida asosiy e'tibor o'smirlarni huquqiy bilimlar bilan ta'minlashga qaratilishi kerak. Bu jarayon o'smirlarga o'z huquqlarini himoya qilish, jamiyatda huquqiy normalarga rioya qilish va qonunlarga hurmat qilishni o'rgatadi.

O'quvchi-yoshlar uchun huquqiy kompetensiyaning shakllanishi quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi:

Huquqiy bilimlarni o'rganish: O'quvchi-yoshlar huquqiy fanlar orqali huquqiy tizim, qonunlar, huquqlar va majburiyatlar haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishadi. Ular huquqiy masalalar, qonunlar va qoidalar bilan tanishadilar. Bu bosqichda o'smirlar, asosan, huquqiy bilimlarni olishadi va bu bilimlar ularda huquqiy savodxonlikni shakllantiradi.

Huquqiy mas'uliyatni tushunish: O'quvchi-yoshlar o'z huquq va majburiyatlarini bilib, ularni amalda qo'llashni o'rganadilar. Bu bosqichda huquqiy normalarga rioya qilish va ularga e'tibor berish zarurligi o'rgatiladi. O'quvchi-yoshlar jamiyatdagi huquqiy tizimni anglab, ularning huquqiy ta'siri va ijtimoiy muhitdagi roli haqida bilim olishadi.

Huquqiy ongni shakllantirish: O'smirlarning huquqiy ongini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va huquqiy masalalarga oid ishlar muhim ahamiyatga ega. O'quvchi-yoshlar huquqiy savodxonlikni nafaqat nazariy bilimlarni o'rganish orqali, balki amaliyotda qo'llashni ham o'rganadilar. Shu tariqa, o'smirlarning huquqiy kompetensiyasi yanada mustahkamlanadi.

Amaliyotda huquqiy bilimlarni qo'llash: Huquqiy bilimlar nafaqat nazariy bilimlar sifatida, balki amaliyotda qo'llanadigan vosita sifatida shakllanadi. O'quvchi-yoshlar o'z huquqlarini himoya qilishda, shuningdek, jamiyatda o'z vazifalarini bajarishda huquqiy masalalarni hal qilishda amaliyotga tayyor bo'lishlari kerak. Bu, o'smirlarning huquqiy kompetensiyasining amaliy shakllanishining muhim qismidir.

Ijtimoiy tajriba va huquqiy faoliyat: O'quvchi-yoshlar jamiyatda huquqiy masalalarni hal qilishda o'zlarining huquqiy bilimlarini amalda qo'llashadi. Buning uchun ular o'z huquqlarini anglash, ijtimoiy

vaziyatlarda qonunlarga amal qilish va o‘z majburiyatlarini bajarish zarurligini tushinishlari kerak. O‘smirlarning huquqiy kompetensiyasining shakllanishi ijtimoiy faoliyatda va huquqiy muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, huquqiy kompetensiya o‘quvchi-yoshlar uchun huquqiy ongni rivojlantirish, jamiyatda huquqiy normalarga rioya qilish va o‘z huquqlarini himoya qilishga yordam beruvchi muhim vosita hisoblanadi. O‘smirlarning huquqiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali pedagogik metodlar, huquqiy bilimlar va amaliyotning muvofiq qo‘llanilishi ularning jamiyatdagi faol fuqarolar bo‘lishiga zamin yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. Крысин, Л.П. Толковый словарь иноязычных слов// Л.П.Крысин. М.: Рус.яз., 1998. 848 с
2. Зимняя, И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования [Текст] / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. 2003.№ 5.С. 34-42.
3. Хуторской, А.В. Ключевые компетенции как компонент личностноориентированной парадигмы образования / А.В. Хуторской// Народное образование. 2003.№2. С. 58-64
4. Коротун, А.В. Правовая компетенция социального педагога: теория и практика формирования в вузе: монография / А. В. Коро-тун; Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург : [б. и.], 2014. 210 с
5. Гурин, С.В. Формирование правовой компетентности будущего учителя в учебно-воспитательном процессе вуза: автореф. дис. ... канд. пед. наук :13.00.01 / С.В. Гурин ; Мурман. гос. пед. ун-т. Мурманск, 2004. 23 с.
6. Qorayev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
7. Вопленко, Н. Н. Правосознание и правовая культура / Н. Н. Вопленко. - Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2000.
8. Tadjixanov U., Caidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. –Toshkent: T.2. O‘zR IIV Akademiyasi. 1998. –B.181-182.
9. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish davr talabi /Uslubiy qo‘llanma. Farg‘ona. 2007. 64 b.
10. Sharipov A. Yoshlarning huquqiy madaniyati //Huquq -Pravo. 1998. №4. В-В. 16-19.
11. Дружилов, С. А. Профессиональная компетентность и профессионализм педагога: психологический подход / С. А. Дружилов // Сибирь. Философия. Образование. Научно-публицистический альманах: СО РАО, ИПК, Новокузнецк. - 2005. - № 8. - С. 26-28.

TA'LIM JARAYONINI GENDER MODELLAR VA YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING MADANIY MUHITGA TA'SIRI

*Malikova Dilraxon Maxmudovna,*

*Qori Niyoziy nomidagi*

*Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi,*

*pedagogka fanlari bo'yicha PhD*

*Ushbu maqolada mamlakatimizda gender yondashuvi bo'yicha ta'lim muassasalari tashkil etishning yutuqlari va kamchiliklari haqida mulohazali fikrlar aks ettirilgan. Birgalikdagi tahsil jarayoni o'quvchilar orasida raqobatni keltirishi, bu esa, o'quvchilarning ilm olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, natijada ijtimoiy va madaniy rivojlanishga sabab bo'lishi, o'quvchilar jamiyatdagi mavjud ta'lim yutuqlarini hamjihatlikda egallashlari, alohida o'qitishning afzalliklari va birgalikda ta'limning ustun jihatlari ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *gender, ta'lim, alohida ta'lim, birgalikdagi ta'lim, gender yondashuv, o'g'il bolalar, qiz bolalar, ta'lim tizimi.*

ВЛИЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНЫХ МОДЕЛЕЙ И ПОДХОДОВ НА КУЛЬТУРНУЮ СРЕДУ

*В данной статье отражены критические мысли о достижениях и недостатках создания образовательных учреждений на основе гендерного подхода в нашей стране. Совместный образовательный процесс создаёт конкуренцию среди учащихся, что положительно влияет на обучение учащихся, в результате чего происходит социальное и культурное развитие, учащиеся могут совместно осваивать имеющиеся в обществе образовательные достижения, рассматриваются преимущества раздельного обучения и преимущества совместного обучения.*

**Ключевые слова:** *гендер, образование, специальное образование, совместное обучение, гендерный подход, мальчики, девочки, система образования.*

THE IMPACT OF ORGANISING THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON GENDER MODELS AND APPROACHES ON THE CULTURAL ENVIRONMENT

*This article reflects critical thoughts on the achievements and shortcomings of gender-based educational institutions in our country. Joint educational process creates competition among students, which has a positive impact on students' learning, resulting in social and cultural development, students can jointly master the educational achievements available in society, the advantages of separate education and the advantages of joint education are discussed.*

**Keywords:** *gender, education, special education, co-education, gender approach, boys, girls, education system.*

**Kirish.** Oilada farzand tug'ilishidan oldin uni intiq kutishadi, agar tug'iladigan bolaning jinsi aniqlansa, unga atab kiyim-kechak va boshqa jihozlar xarid qiladilar. Bola taxminan uch yoshidan boshlab o'zining kimligini anglashini psixologlar o'rganib chiqqanlar. G'arb olamida o'g'il bolalar mardlik va jasorat timsoli, ular bilan faqat ijobiy voqeliklarni tasavvur qiladilar. Qizlar esa, negativ, ya'ni salbiy hodisotlarning jamlanishi deb qabul qilinadi. Inkvizitsiya davri, ayollarning ilk gunohi va boshqa qarashlar shular jumlasidandir.

Sharq allomalari ayolga nozik xilqat sifatida qarab kelganlar, ularni begona ko'zlardan avaylab-asraganlar. O'g'il bolalarga kichikligidan or-nomus tushunchasi chuqur singdirilgan holda tarbiyalangan. Qizlar oilada bo'lajak beka sifatida hunar o'rganib, xonadon sha'nini saqlaganlar. Ammo farzandning jinsidan qat'iy nazar ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Shahar va qishloqdagi masjidlar qoshida yoki mahalladagi savodli kishilar xonadonida o'g'il bolalar uchun maktablar mavjud edi. Otinlar, oymullolar, xalfa ayollar tomonidan qizlar uchun ham maktablar ochilgan edi. To'g'ri, bunday maktablarda diniy bilimlar berilgan, ammo shu bilan birga hisob, yozuv, shoirlar ijodiyotiga ham vaqt ajratilgan. Madrasalarda fanlar ko'paygan va ta'lim sifati ham oshgan. Biz bundan kelib chiqib shuni anglaymizki, O'rta Osiyo hududida qadimdan ta'lim va tarbiya har doim uyg'unlikda, bir-biridan ajratilmagan tarzda tashkil etilgan.

Jamiyatdagi turli-tuman madaniyatlarda tarixiy jihatdan shakllangan milliy xarakterdagi modellar mavjud. O‘zbekiston jamiyatida garchand o‘zbek illatiga xos bo‘lgan gender model mikrosotsiumning asosini tashkil etsada, boshqa gender modellarga nisbatan tolerant yondashuv amalga oshirilmogda. O‘quvchi hamda talaba yoshlarni ham xuddi mana shu yondashuvga asoslangan holda tarbiyalash natijasida O‘zbekiston jamiyatida gender madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Gender modellarga asoslangan ta’limda o‘quvchilarning jinslarga ko‘ra rollarini shakllantirish hamda jismoniy rivojlanishini nazarda tutishi kerak. Shu bilan bir qatorda uyg‘un tarzda rivojlangan shaxsni shakllantirish, gender stereotiplarning ildizlarini bartaraf etishdan iborat. Shuning uchun ham o‘quvchi hamda talaba yoshlarda gender madaniyatni shakllantirish O‘zbekiston jamiyatidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim muassasalarida o‘quvchilar jinsidan qat’iy nazar bir sinfda o‘qitiladi. O‘quvchilar qobiliyati va fanlarni o‘zlashtirishiga qarab baholanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘g‘il va qizlarning alohida xususiyatlari darrov ko‘zga tashlanadi, qizaloqlar necha yoshda bo‘lsalar ham o‘zlarining nazokatini unutmeydilar. O‘g‘il bolalar esa, kuchli va yengilmas ekanliklarini his etib turadilar. O‘quvchilarni birgalikda o‘qitish samaradorligi inkor qilinmagan holda ajratib, alohida o‘qitishning ham afzalliklari ta’kidlanmogda. O‘g‘il va qizlarning bir maktabda boshqa-boshqa sinf xonalarida o‘qitish oqibatida ularning imkoniyatlari yanada ko‘proq ochiladi degan mulohazalar olimlar o‘rtasida tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda.

**Metodika.** Xo‘sh, ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarni qay tarzda o‘qitish ma’kul?

Yuqorida qayd qilinganidek, ajdodlarimiz bolalarni hamisha alohida o‘qitganlar va bu o‘z natijasini bergan. O‘g‘il bolalar xulq-atvorida ularning oila boshlig‘i, opa-singillarining, ayollarining va qizlarining, ayniqsa, onalarining himoyachisi bo‘lish tushunchalari kattalar tomonidan singdirib borilgan. Qizlarga kelajakda oilada tutadigan o‘rinlari, ularning bo‘lajak ona, uy bekasi va erkakning hamfikir yo‘ldoshi bo‘lish g‘oyasi uqtirilgan. Bu jihatlarning ayrimlari bugungi kun qarashlariga ziddek, ammo ba’zi qirralardan biz ham foydalanishimiz zarurligi tobora ayon bo‘lib bormogda.

Bir qator o‘ziga xos qiyinchiliklar gender modelning xususiyatlari bilan bog‘liq holda vujudga keladi. Bunday vaziyatda o‘qituvchilar, maktab psixologlari, sinf rahbarlari va ota-onalar hamkorlikda gender model duch kelayotgan qiyinchiliklar, muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab

chiqishlari, o‘smirlik davridagi qiyinchiliklarni yengishga ularga ko‘maklashishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi qiz bolalarning bo‘lajak ayol, o‘g‘il bolalarning esa bo‘lajak erkak sifatida shakllanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmogdaki, o‘g‘il bolalarning erkak sifatida shakllanishiga ta’lim muassasasi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Gender modellarning gender xususiyatlarini egallashida pedagogik jamoaning tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Qiz bolalar ta’lim-tarbiya ta’sirida bir qator funksiyalarni bajaradilar. Ular bo‘lajak ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uy bekasi va rahbar kabilar shular jumlasidandir. Bu jarayonda o‘qituvchilar gender modellarning o‘ziga xos xususiyatlar va funksiyalarga ega bo‘lishidagi to‘siqlarni

ham o‘z vaqtida aniqlab bartaraf etishlari lozim. Buning uchun kuchli emotsional-kognitiv xarakterdagi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish talab qilinadi.

*Birgalikdagi tahsil jarayoni o‘quvchilar orasida raqobatni keltiradi, bu esa, o‘quvchilarning ilm olishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy va madaniy rivojlanishga sabab bo‘ladi, o‘quvchilar jamiyatdagi mavjud ta’lim yutuqlarini hamjihatlikda egallaydilar.*

Pedagog mahorati o‘quvchilarning har bir predmet yuzasidan qay darajada o‘zlashtirishiga ta’sir qiladi. Egallangan bilimlar bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasida tanlovlar o‘tkazilganida, o‘g‘il va qiz bolalarning o‘zlashtirish foizini hisobga olish - maktabdagi fanlar mutaxassisleri malakasini bildiradi. Ta’lim muassasalarida bilim olayotgan o‘quvchilarning 51 foizini o‘g‘il bolalar, 49 foizini qiz bolalar tashkil etadi. Mamlakatimizda mavjud 10500 dan ortiq maktabning deyarli 22 foiz qishloq maktablarida nafaqat suv yo‘qligi, ularda sanitariya sharoitlari umuman yaratilmagani bois, qiz bolalarning ta’lim olishida muammolar yuzaga kelmogda.

Xalqaro maktablararo o‘tkaziladigan PIRLS sinovlarida 4-sinf o‘quvchilari ishtirok etishdi va matnni o‘qib, tushunish borasida 57 mamlakat orasida 49-o‘rinni egalladilar, ammo shuni ta’kidlash joizki, qizlar o‘g‘il bolalarga nisbatan yaxshiroq natijaga erishdilar. Maktablarda o‘qitishni alohida olib borishning ham o‘ziga hos tomonlari bo‘lib, shularga to‘xtalib o‘tamiz.

*Maktab o‘quvchilari alohida o‘qitilishi, biroq ovqatlanish va tadbirlar tashkil qilinadigan joylar umumiy bo‘lishi mumkin. Umumiy foydalanish ob’ektlarida o‘quvchilar o‘zlarini qanday tutishlariga qarab, ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga baho berish mumkin.*

O‘quvchilar madaniy saviyasini oshirishda hamda jamoat joylarida tarbiyadagi nuqsonlarini kuzatish maqsadida hamkorlikdagi tadbirlar uyushtirish, o‘g‘il va qizlarning yashirin imkoniyatlarini ochib

ko‘rsatadigan qirralarni ko‘zdan qochirmaslikni tavsiya etamiz. Duet qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari, she‘riy kompozitsiyalar o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini namoyon etish bilan birga ularning bilimlarini oshirishga ham xizmat qiladi.

Aniq fanlarni o‘zlashtirishda ko‘pincha, o‘g‘il bolalarning qiz bolalardan ustunligini e‘tirof etishadi, biroq qizlar orasida ham aniq va tabiiy fanlarni yuqori baholarga biladiganlar oz emas. Axborot texnologiyalarini o‘rganayotgan qizlar ham kun sayin ortib bormoqda. Turli tashkilotlar ajratgan grandlar asosida o‘qib, ilmini oshirayotgan qizlar dasturiy ta‘minot sohasida muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Shuningdek, aniq va tabiiy fanlar sohasida ham qizlar ko‘zga ko‘rinarli ishlarni amalga oshirmoqdalar, xalqaro matematika va kimyo olimpiadalarida mamlakatimiz qizlari yigitlar kabi medallarga egalik qilmoqdalar. O‘g‘il va qizlarga teng bilim berilishi har yili o‘tkazib kelinayotgan yosh kitobxon tanlovlari natijasi misolida ham ko‘rinmoqda. Ko‘plab mutolaa etuvchilar nafaqat kitob o‘qiyaptilar, balki bu orqali o‘zlarining madaniy onglarini ham rivojlantirmoqdalar.

Tarixiy haqiqatdan ko‘z yuma olmaymiz, bizning o‘tmishimizda ham qizlarning ilm olishiga, savod chiqarishiga qarshiliklar bo‘lgan va afsuski, hozir ham mavjud. ammo hadisi sharifda *“Har bir muslim va muslima ilm talab qilmoqqa haqli”*, deyilgan savodsiz va ilmsiz ota-onalardan qanday qilib bilimdon farzand dunyoga kelsin?

Shu bois yosh avlodning tarbiyasigagina emas, balki ta‘limiga ham chuqur e‘tibor qaratish lozim. Oilada bosh tarbiyachi ona bo‘lgani sababli, qizlar tahsiliga diqqat qaratish shart. Tadqiqotchilar tavsiya qilayotgan o‘qitishga gender yondashuv darslarni turlaicha tuzishni taqozo etadi. Ratsional fikrlaydigan o‘g‘il bolalar o‘qiydigan sinflarda fanlar ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va turli grafikalar yordamida olib borilgani ma‘qulroq. Emotsional fikrlashga moslashgan ta‘sirchan qizlar sinflarida, hissiyotga asoslangan tarzda o‘qitishni tashkil qilish talab qilinadi. Qizlarning o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talab, bu ularning shogirdlariga o‘z fikrlarini himoya qilishni o‘rgatishdir. Tanaffus, kutubxona va raqs o‘quvchilar hamkorligini ta‘minlaydi. Etiket ya‘ni o‘zini tutish to‘g‘risidagi dars soatlari ham ba‘zi paytlarda birgalikda olib borilishi mumkin. Ammo gender bo‘yicha yondashilgan maktablardagi asosiy darslar alohida sinflarda o‘qitilishi aniq. Bu sohada boy tarixiy merosimizga murojaat qilishimiz tabiiy hol. Jadid ma‘rifatparvarlari tashkil etgan maktablardagi tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘g‘il bolalarni qiz bolalardan batamom ajratib o‘qitish o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy moslashishida murakkabliklarga olib keladi. Chunki oliy o‘quv yurtlari va umuman, jamiyatning ko‘plab tashkilotlarida barcha insonlar birgalikda tahsil olishadi, mehnat qiladilar. Ta‘lim tizimini qayta ishlab chiqish jarayonida gender modeli maktablar bo‘yicha alohida dastur ishlab, taqdim etish, tajribali pedagoglar hamda ota-onalar, olimlar va jamoat vakillari orasida muhokama qilish talab qilinadi. O‘tgan asrda ta‘limning bir necha bor isloh etilishi, o‘ziga xos qiyinchiliklarga olib keldi, avval alohida o‘qitish joriy qilingan maktablarda vaqt o‘tib hamkorlikdagi o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Ta‘lim sifatiga esa zarar yetdi. Birgalikdagi ta‘limni targ‘ib etayotganlar raqobat paydo bo‘lishi, natijada ta‘lim sifati oshishi haqida aytsalar, alohida ta‘lim tarafdorlari o‘g‘il bolalar ayrim hollarda qiz bolaga teng bo‘lishdan or qilib, o‘qishga e‘tiborni susaytirib, o‘zlarining kuchlarini ko‘rsatishga urinishlarini ta‘kidlaydilar. Hamkorlikdagi o‘qitish jarayonida qizlarning uyaliq, darslar davomida o‘z salohiyatlarini to‘liq ko‘rsata olmasliklari ham birgalikdagi ta‘limning kamchiligi deyiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, har qanday ta‘limni tashkil etishda ham uning ustun jihatlarni qo‘llashimiz va kamchiliklarni bartaraf etish lozim, ya‘ni o‘quvchilarni butunlay ajratib o‘qitmasdan, sinflarni ajratib, umumiy foydalanish hududlarini avvalgidek qoldirish muhim ahamiyatga ega. Dars soatlarini ham tahlil qilib, ba‘zi mavzular yoki predmetlarni birgalikda tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday maktablarda o‘g‘il bolalar dars vaqtida o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochib ko‘rsatadilar, umumiy foydalanish joylarida esa odob-axloqlarini namoyish etadilar. Qizlar ham dars mobaynida tortinchoqliklarini unutadilar, umumiy foydalanish maskanlarida axloq normalariga rioya qiladilar.

Mamlakatimiz ta‘lim tarixida alohida o‘qitish va birgalikdagi o‘qitish tajribasi yetarli, shu sabab, tadqiqotchi pedagoglar har tomonlama o‘rganib tavsiyalarini bayon etganlari ma‘qul. Hatto, birgalikdagi ta‘lim to‘liq tadbir etilgan davrda ham alohida o‘qitish elementlari mavjud bo‘lgan, masalan, harbiy ta‘lim muassasalari, mehnat va jismoniy tarbiya darslari alohida tashkil etilgan. Ayrim davlatlarda haligacha alohida ta‘lim amal qilmoqda, shu kabi mamlakatlar tajribasini ham o‘rganib chiqish foydadan xoli emas.

**Xulosa** qiladigan bo‘lsak, alohida ta‘limning ham istiqbolli tomonlari bor va ulardan aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi. Masalan, o‘g‘il va qiz bolalarning ochilmagan qirralari namoyon bo‘ladi, o‘g‘il bolalar o‘z tengdoshlaridan ortda qolmaslik uchun o‘qishga jiddiy e‘tibor qaratadilar, mamlakat kelajagi uchun qayg‘ura boshlaydilar. Qizlar tortinishni bir chetga qo‘yib, ilm olishga harakat qiladilar, fikrlarini himoya qiladilar, nafaqat hunar, balki bilim ham egallaydilar. Umumiy foydalanish maskanlarida har ikki guruh ham

obro‘lariga yarashmaydigan jihatlardan qochadilar, o‘zlarini odob doirasida tutadilar, bir-birlarining hamiyatini ayaydilar, hurmat bilan munosabatda bo‘ladilar.

**Tavsiyalar:**

1. Gender yondashuvga asoslangan maktablar tashkil etish;
2. Maktablarda pedagoglardan tashqari psixologlar va ota-onalar hamkorligini ta’minlash;
3. Ta’limni tashkil etishda o‘g‘il va qiz bolalarning alohida tomonlarini, xususiyatlarini, qobiliyatlarini hisobga olish;
4. Ta’lim jarayonini tashkil etishda tarixiy tajribalarni atroflicha o‘rganish.

**Adabiyotlar:**

1. Zulfiya Xolmatova. O‘zbekistonda gender tarbiya - oila mustahkamligi mezoni // “Jamiyat va innovatsiyalar”, 9-son – 2021.

2. Каримуллаева Э.М., Дамаданова Х.Д. Проблемы перспективы гендерного обучения в современной системе образования. // «Учёные записки университета им. П.Ф. Лесгафта», 2011.

3. Tojiboyeva X.M. Gender madaniyatning zamonaviy shakllarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro davlat universiteti, 2022. – №1. B.178-182.

4. Шатон Г.И. Гендерные аспекты образования // Гендерные аспекты образования: Сб. науч. докладов преподавателей и студентов жен. негос. ин-та «Энвила». – Мн., 1998.

## MILLIY Gvardiya Harbiy Xizmatchilarida Axloqiy Qadriyatning Psixologik Omillari

*Mansurov Sodiqjon Qahramonovich,*

*Milliy gvardiya Buxoro viloyati bo'yicha boshqarma boshlig'ining  
o'rinbosari, ilmiy izlanuvchi, podpolkovnik*

*Mazkur maqola milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida axloqiy qadriyatning psixologik asoslariga bag'ishlangan bo'lib, harbiy xizmatchilarning kasbiy va psixologik tayyorgarligini o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqola mazmunida harbiy xizmatchilarining individual psixologik xususiyatlari, shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasi va axloqiy qadriyat shakllanishining psixologik jihatlarini yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmatchi, axloqiy qadriyat, harbiy xizmat, mudofaa, harbiy psixolog, harbiy intizom, xavfsizlik, kasbiy tayyorgarlik, jasorat.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ НРАВСТВЕННОЙ ЦЕННОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ

*Данная статья посвящена психологическим основам моральных ценностей военнослужащих Национальной гвардии и включает профессионально-психологическую подготовку военнослужащих. Также в содержании статьи освещены индивидуально-психологические особенности военнослужащих, социально-психологический образ личности и психологические аспекты формирования моральных ценностей.*

**Ключевые слова:** военнослужащий, нравственная ценность, военная служба, оборона, военный психолог, военная дисциплина, безопасность, профессиональная подготовка, мужество.

## PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MORAL VALUE IN NATIONAL GUARD MILITARY SERVANTS

*This article is devoted to the psychological foundations of moral values of the National Guard servicemen and includes professional and psychological training of servicemen. The content of the article also highlights the individual psychological characteristics of servicemen, the socio-psychological image of the individual and the psychological aspects of the formation of moral values.*

**Keywords:** military serviceman, moral value, military service, defense, military psychologist, military discipline, security, professional training, courage

**Kirish.** Respublikamizda fuqarolarimizning xavfsiz hayotini ta'minlash sohasi zamon talablari darajasida shakllandi. Bundan tashqari, zamonaviy milliy gvardiya harbiy xizmatchisi va unga xos axloqiy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlarga qo'yiladigan ijtimoiy-psixologik talablar, turli jinoyatchiliklarga qarshi kurashish va ularning oldini olish eng ustuvor vazifalardan biridir. O'z o'rnida inson omilining ma'naviy-axloqiy qadriyatlari milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy holati mazmun-mohiyatining asosi hisoblanadi, uning axloqiy xulqi-ruhiy (hissiy-irodaviy) barqarorlik va ruhiy boshqaruvchanlikda namoyon bo'ladi. Shu bois, mahalliy psixologik tadqiqotlarda, milliy gvardiya xodimlarida axloqiy qadriyatlar shakllanishining psixologik jihatlarini baholash ishlari, o'ta muhim masalalardan biridir.

Prezidentimiz – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi” asarida – “Bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda” deya ta'kidlaydilar[1]. Darhaqiqat, bugun O'zbekiston harbiylari tomonidan erishilgan yutuqlar e'tirof etishga arziydigan natijalar ko'rsatmoqda va tom ma'noda yoshlarimiz ongida, qalbida harbiy sohaga havas, faxr va vatanparvarlik hislarini shakllantirishga, mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qadriyat kishilarning fe'l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Axloq normalari jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan shaxs fe'l-atvoriga qo'yiladigan talabdir. Bu normalar shaxsning jamiyatga-vatan, davlat, millat, guruhga munosabatini, shuningdek, shaxsning turmushdagi, ayrim kishilarga, kasbi-koriga, mutaxassisligiga, hatto o'z-o'ziga

bo‘lgan munosabatlardagi xatti-harakatni ham o‘z ichiga oladi. Bu hol kishining hamma ishiga, jumladan, uning axloqiy qiyofasiga ham bevosita o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, uning yurish-turishiga nisbatan muayyan tarbiyaviy-ma‘naviy talablar qo‘yadi.

Axloqiy qadriyatning ijtimoiyligi shundaki, kishilarning axloq-odobi, fe‘l-atvori, muomalasi, yuksak ma‘naviy fazilatlarini ijtimoiy hayotdan tashqarida, insonlar o‘rtasida munosabatlardan chetda shakllanishi va rivojlanishi mumkin emas. Chunki, insonga xos psixologik xususiyat va axloqiy qadriyat ko‘rinishlari, shaxslilik xususiyatlarini bilmay turib, axloqiy tushunchalar va shaxs qadriyati haqida gapirish haqiqatdan yiroq sanaladi. Ya‘ni bugungi kunda har bir soha fidoiy, yetakchi, tashabbuskor, axloqiy jihatdan boy, ijtimoiy faol, yangicha kasbiy bilimdonlik amaliyotiga ega bo‘lgan, optimist, mustqil fikrga ega, o‘ziga ishongan kabi sifatlarga ega kadrlarni talab qilmoqda. Bu holat harbiy faoliyatda xizmat olib borayotgan xodimlar uchun muhim sanalib, harbiy kadr uchun har qanday sharoitda ham axloqiy qadriyatning utsunligi muhim sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotchi K.Rodjersning ta‘kidlashicha, Axloqiy qadriyat tushunchasi psixologik fenomen sifatida ko‘rilishi shunda bilinadiki, u insonlarni boshqaruvchi, o‘tmish, hozir hamda kelajak hayotga bevosita o‘z ta‘sirini ko‘rsatuvchi, hatto inson hayotining mazmunini tashkil qiluvchisiga aylanadi. Motivlar va maqsadlar axloqiy qadriyatlarning determinantlaridir. Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, axloqiy qadriyat yoki qadriyatlar tizimi insonning ruhiy-ma‘naviy kamolotini, farovon turmush-tarzi, umri mazmunini ta‘minlaydi. Agar insonda axloqiy qadriyatlar bo‘lmasa u o‘z “men”ini yo‘qotib qo‘yishi, o‘zligini to‘liq anglay olmay qolishi mumkin. Axloqiy qadriyatlar esa inson xulqini boshqaradi ya‘ni regulatorlik vazifasini o‘taydi. Shu bilan birgalikda, qadriyatlar insonlarni komil shaxs bo‘lib shakllanishida muhim rol o‘ynaydi[2,416]. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar uchun shart sanalgan kommunikativ qadriyat turi ham farqlanib, bizningcha uni yaxshi o‘zlashtirmasdan hech bir muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Odatda, bizning qadriyatlarimiz 12 yoshgacha ota-onalarimiz, o‘qituvchilarimiz, madaniyat ta‘sirida shakllanadi. Agar shaxsning ustunlik ierarxiyasiga qarasa, ko‘pchilik odamlar uchun, avvalo, sevgi, erkinlik, taraqqiyot kabi tushunchalar yotadi. Lekin ularning har biri bularni o‘zlaricha tushunadilar.

“Xulq” odamlarning amaliy xatti-harakatlari, odamlar o‘rtasidagi amaliy munosabatlar, ya‘ni axloq ijtimoiy ong bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur xatti-harakat printsiplari va normalarining axloq talablari shaklida ifodalab berilganidir, etika bo‘lsa axloq prinsiplari va normalarining izohlab va asoslab berish demakdir, ya‘ni axloq haqidagi nazariyadir [3]. Demak, qadriyat kishilarning fe‘l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solib turadi.

Rus psixologi V.Manilovning ta‘kidlashicha, axloqiy qadriyatlar harbiy xizmatchining “Men”ini himoya qilishda va uni yaxshilashga katta yordam beradi. Axloqiy qadriyatlar tufayli u o‘zini samarali, yaxshi ijtimoiy munosabatlarga ega, harbiy jamoaning tartibli a‘zosi sifatida idrok etishi natijasida o‘z “Men”ini himoyalaydi. Oqibatda, harbiy xizmatchida o‘zini himoya qilish strategiyasi vujudga keladi [4,29]. Demak, harbiy xizmatchining o‘ziga nisbatan bahosi ortadi, o‘zini jamiyatning boshqa a‘zolari bilan solishtiradi, yutuq va kamchiliklarini ko‘radi, natijada, yaxshi tomonlari kuchayib, yomon taraflari esa, aksincha, kamayib borishi mumkin.

Ma‘lumki, jamiyat rivojida qadriyatlar katta integrativ quvvatga ega. Shu ma‘noda, jamiyat va qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, moddiy taraqqiyot dinamikasidagi egriliklarga ko‘ra birmuncha xatarlidir. Qolaversa an‘ana va qadriyatlar makon bilan zamonda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ushbu voqelik an‘analarda rivojlanish transformatsiyasini tadqiq etishda muhimdir. Chunki bu jarayonda jamiyatdagi me‘yoriy norma va odatlar ziddiyatlar ta‘sirida asl mazmunidan uzoqlashadi, yangi voqelikdagi tafakkur hali to‘la yetilib ulgurmagani uchun ijtimoiy ongda noaniqliklar, “milliy makon”da esa begona g‘oya va qadriyatlar yuzaga keladi [5,798].

Tadqiqotchi D.A.Po‘latova ta‘kidlashicha qadriyat atamasi ilmiy bilimlar sohasiga XIX asrning 2-yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi G.Lapi tomonidan kiritilgan[6,192]. Matbua Ahmedova umumiy tahriri ostida nashr qilingan “Falsafa” kitobida quyidagicha ta‘rif keltirilgan “Qadriyatlar – voqelikdagi muayyan hodisalarning qimmatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo‘lib, u mazkur hodisaning subyekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo‘ladi”.

Qadriyatlar olami plyuralistik mohiyatga egadir. Shaxs hayotining barcha sohalarini ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu jarayonda an‘ana va jamiyat o‘zaro uyg‘undir, har bir ijtimoiy taraqqiyot o‘z an‘ana va axloqi asosiga quriladi, ushbu qoida har bir jamiyat davomiyligini belgilovchi mezon hisoblanadi. XX asrning oxirlariga kelib, fan sohalaridagi ulkan yutuqlar, ma‘lum ma‘noda ularning oqibati sifatida paydo bo‘lgan global muammolar umumsayyoriy tafakkur zaruratini taqozo etadi. Xususan, G‘arbdagi falsafiy ta‘limotlar umumplanetar ongda ilmiy transformatsiyani boshlab berdi[7,163].

Hozirgi kunda aksiosfera sohasidagi ba’zi tushunchalar narsa va hodisalarning real hayotdagi ma’no-mazmuniga mos holda tadqiq etilgani yo’q. Avvallari moddiy va ma’naviy qadriyatlarni qiyoslashga obyektiv yondashilgan bo’lsa, hozirda bu ikki tushunchaning ziddiyatli tomonlarini emas, balki o’zaro bog’liqlik xususiyatlariga ko’proq e’tibor berilmoqda[8,156].

Chet el nazariyotchilarning qadriyatga bergan izohlarini umumlashtirgan holda, Shvarz va Bilski quyidagi asosiy xususiyatlarni keltirib o’tadilar (Schwartz & Bilsky, 1987)[9,23]:

Qadriyatlar – bu e’tiqod (qarash). Lekin ular obyektiv bo’lmagan sovuq g’oyalar. Agar ular faollasha hissiyot bilan aralashadi va ularga rang beradi.

Qadriyatlar – bu inson xohlaydigan maqsadlar (masalan, tenglik) va xulq shakli bo’lib, ular maqsadga erishish yo’lini amalga oshiradilar. Masalan, halollik, yordam berishga moyillik.

Qadriyatlar ma’lum harakatlar yoki vaziyatlar bilan chegaralanmaydi (ya’ni transendent). Masalan, bo’ysunish ishga, maktabga, sportga, biznesga, oilaga, do’stlarga va begona odamlarga taalluqli bo’ladi.

Qadriyatlar standart ya’ni mezonlar sifatida bo’lib, ular harakatlarga, odamlarga, voqealarga baho berish va tanlashni boshqaradi.

Qadriyatlar muhimligiga qarab nisbatan tartiblanadi. Qadriyatlarni tartiblangan to’plami qadriyaviy ustunliklar tizimini tashkil qiladi. Turli insonlar va madaniyatlar qadriyaviy ustunliklar tizimlariga ko’ra farqlanadilar.

Tadqiqotchi N.Batakovaning ta’kidlashicha, qadriyatlarni jamiyat va inson hayoti uchun ahamiyatidan kelib chiqqan holda, quyidagi uch guruhga bo’lgan[10,248]:

1. Ikkilamchi ahamiyatga ega qadriyatlar. Ushbu qadriyatlersiz jamiyat va inson hayotining normal funksiyasi buzilmaydi.

2. Kundalik hayot va talabga tegishli qadriyatlar. Ushbu guruhga moddiy va ma’naviy qadriyatlarning aksariyati kiradi. Bularga inson ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun, shuningdek, jamiyat amal qilishi va rivojlanishi uchun kerakli barcha narsalar kiradi.

3. An’anaviy qadriyatlar – muayyan etnik birlik (yoki istalgan ijtimoiy tuzilma shakli) a’zolari o’rtasidagi munosabatlar va ehtiyojlarni o’zida aks etuvchi, eng yuksak ahamiyatga ega qadriyatlaridir. Demak, an’anaviy qadriyatlar vositasida odam shaxsga aylanishi, jamiyat hayoti bir maromda kechishi mumkin. An’anaviy qadriyatlar mavjudligi va barqarorligi har doim individ o’z hayoti doirasidan chiqishi bilan bog’liqdir. Ularga itoat etib yashash orqali inson o’zligiga, o’z “Men”iga erishadi. Shu ma’noda, an’anaviy qadriyatlar, odatda, umuminsoniy xarakterga egadir.

Tadqiqotchi V.Skakunning fikricha, jamiyat rivojida qadriyatlar katta integrativ quvvatga ega. Shu ma’noda, jamiyat va qadriyatlar o’rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, moddiy taraqqiyot dinamikasidagi egriliklarga ko’ra birmuncha xatarlidir. Qolaversa, an’ana va qadriyatlar makon bilan zamonda o’zaro bog’liq bo’lib, ushbu voqelik an’analar rivojlanish transformatsiyasini tadqiq etishda muhimdir. Chunki bu jarayonda jamiyatdagi me’yoriy norma va odatlar ziddiyatlar ta’sirida asl mazmunidan uzoqlashadi, yangi voqelikdagi tafakkur hali to’la yetilib ulgurmagan uchun ijtimoiy ongda noaniqliklar, “milliy makon”da esa begona g’oya va qadriyatlar yuzaga keladi[11,798]. Bu esa, “milliy makon” qadriyatlarini qadsizlanishiga sabab bo’lib, yangicha qadriyatlarni shakllantirish zaruriyatini paydo qiladi. Voqelikdagi qadriyatlar qayta shakllanish davri ijtimoiy ongni tanazzulga olib kelganda, jamiyat hayotida milliy an’ana, axloq va urf-odatlar o’rnida moddiy hayotni ulug’lovchi soxta qadriyatlar paydo bo’lishi ehtimoldan holi emas.

Tadqiqotchi J.M.Kuper shaxs psixologik holatlarini tahlil qilar ekan, axloqiy qadriyatni ma’lum bir vaqt va muayyan sharoitlarda axloqiy ong va psixologik hodisalarning namoyon bo’lishining ijtimoiy sharti, umumiy xarakteristikasi sifatida ta’riflaydi[12,73]. Harbiy tadqiqotchi J.Knobening qarashlarida axloqiy qadriyat holat har bir harbiy xizmatchining individual ruhiy holati yoki ma’lum bir vaqtda, muayyan vaziyatda, jangovar (xizmat) faoliyatida namoyon bo’ladigan psixologiyasi sifatida tavsiflanadi [13,357]. Demak, axloqiy qadriyat – bu harbiy xizmatchilarning jangovar (xizmat) faoliyatida namoyon bo’ladigan ma’lum bir vaqtda va ma’lum bir vaziyatda harbiy xizmatchining individual ruhiy holati yoki harbiy jamoaning psixologiyasi, ularning jangovar harakatlarga tayyorligini belgilaydi.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini turli ekstremal vaziyatlarda axloqiy qadriyatida erishilgan darajasini aniqlash bo’yicha o’lchov mezoni va uslubiyatini aniqlashtirish va amalda joriy etish, strategik va operativ-taktik vazifalarni bajarish darajasini aniqlashda ularning axloqiy qadriyatini aniqlash uchun o’lchov mezoni va uslublarini aniqlashtirish va yo’lga quyish, harbiy xizmatchining olgan ruhiy talofatlari darajasi, xarakteri o’lchovi va uslubini aniqlash va joriy etish muhim ahamiyatga ega sanaladi. Tadqiqotni amalga oshirishda Marlou-Kraun tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxsning axloqiy-etik qadriyat darajasini o’rganish” so’rovnomasi, Xvostovning “Axloqiy xulq-atvor sabablarini o’rganish” so’rovnomasi, Rokichning

“Qadriyatlar darajasini baholash” so‘rovnomasi hamda Stolin va Pantelevlarning “Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash” kabi metodikalardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Shuningdek, milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida o‘z-o‘ziga munosabat darajasi xususiyatlarini baholash so‘rovnomasidan quyidagi natijalar olindi.

1-jadval.

**Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarda o‘z-o‘ziga munosabat darajasi xususiyatlarini baholash so‘rovnomasining natijalari**

Shkalalar	Guruhlar		
	Muddatli harbiy xizmatchilar	Shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar	Ofitserlar
Samimiylik	31%	33%	36%
O‘z-o‘ziga ishonch	28%	30%	42%
O‘z-o‘zini idora qilish	25%	28%	47%
O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi	23%	27%	50%
O‘z-o‘zini qadrlash	29%	34%	37%
O‘z-o‘zini qabul qilish	22%	31%	47%
O‘zini cheklash	36%	34%	30%
Ichki ziddiyat	39%	36%	25%
O‘z-o‘zini ayblash	37%	35%	28%

Shaxsning o‘z-o‘zini baholash xususiyatlarini aniqlash metodikasi o‘zini idora qilishning maxsus va operatsional komponentlari bajarish sur‘atini aniqlashga imkon beradi. Mazkur metodika ham individual, ham guruhliy tarzda o‘tkazilishi mumkin. O‘z-o‘ziga munosabatni baholash orqali shaxs intellektual topshiriqlarni tanlov usuli yordamida, ya‘ni to‘g‘ri javobni topishda noto‘g‘ri variantni olib tashlash orqali amalga oshiradi. O‘zini baholash orqali esa inson intellektual vazifalarni abstrakt obyektlar (so‘zlar, obrazlar) transformatsiyasidan foydalangan holda yechadi hamda abstrakt obyektlar orasidagi yangi assotsiativ bog‘lanishlarni topadi.

Psixologik jihatdan qaralganda, o‘z-o‘ziga munosabat sinalluvchining shaxsiy «Men»i ma‘nosi haqidagi tasavvurini aks ettiradi. O‘z-o‘ziga munosabat ma‘lum darajada o‘z boshidan kechirgan shaxsiy qadriyatlar bilan aniqlanadi. U hissiyotlarning juda keng qamrovi orqali namoyon bo‘ladi. Shaxsning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash motivatsiyasini, o‘ziga tanqidiy munosabatini, o‘z-o‘zini chuqur anglab etganligini, pok dil va «ko‘ngli ochiq» inson ekanligini anglatadi.

Shaxsning o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar, muddatli harbiy xizmatchi askarlar, shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar va ofitserlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarida o‘rtacha ko‘rsatkichni tashkil etgan.

**Xulosa** qilib aytganda, yuqori axloqiy qadriyatga ega bo‘lgan milliy gvardiya harbiy xizmatchilari, turli sharoitlarda o‘zining funksional vazifalarini barqaror va samarali bajaradilar. Milliy gvardiya harbiy xizmatchining axloqiy qadriyatga erishish darajasi barcha tarkibiy qismlari bilan bog‘liq sanalib, u tarbiyaviy ishlardagi faollik, xizmat faoliyatidagi samarali mehnat olib borish ishlari bilan izohlanadi.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev SH. “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”. “O‘zbekiston”. Toshkent -2022.
2. Роджерс К. Становление личности: Взгляд на психотерапию [Текст] / К.Роджерс. - М.: Эксмо-Пресс, 2001. – С. 416.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Манилов В.Л., Национальная безопасность: ценности, интересы и цели // Военная мысль. 1995. - № 6. – С. 29-40.
5. Скакун В.М. Ценность. Новейший философский словарь. - Мн.: 1998. - С. 798.
6. Po‘latova D.A. Falsafa.Toshkent:”JAHON PRINT”, 2011. 192-228 b.
7. Артемов В.М. Ценности нового века: свобода и нравственность // Социально-гуманитарные знания. 2002. - №4. — С. 163-175.
8. Бакштановский В.И. Моральный выбор личности: цели, средства, результаты. Томск: ТГУ, 1977. – С. 156.

9. Васильченко И.Ф. Проблемы научного управления нравственным воспитанием курсантов военных училищ: Автореф. дис. канд. филос. наук. -М., 1987. – С. 23.
10. Батакова Н.В., Формирование духовно-нравственных ценностей у одаренных подростков в процессе воспитания: дис... канд. пед. наук: 13.00.01 / Батакова Наталья Владимировна. - Киров, 2010. – С. 248.
11. Скакун В.М., Ценность. Новейший философский словарь. - Мн.: В.М.Скакун. 1998. - С.798.
12. Cooper J.M., Reason and emotion: Essays on ancient moral psychology and ethical theory. – Princeton University Press, 1999. P. 73.
13. Knobe J., Theory of mind and moral cognition: Exploring the connections // Trends in cognitive sciences. – 2005. – Т. 9. – №. 8. – P. 357-359.

**MOBIL MUTAXASSIS TAYYORLASH INNOVATSION TA'LIM MUHITINING  
DRAYVERI HAMDA IJTIMOY PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ZARURAT EKANLIGI**

*Eshnayevo Nortojo Jumayevich,*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti  
eshnayevo8080@gmail.com*

*Mazkur maqolada mobil mutaxassis tayyorlash ta'lim tizimining muhim jihati ekanligi, innovatsion pedagogik ta'lim jarayonida talaba shaxsiga xos bo'lgan kasbiy psixologik mobillikning gorizont va vertikal jihatlarini aniqlashtirish, ta'lim va tarbiyaning zamonaviy omillarini muvofiqlashtirishning asosini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi hamda an'anaviy ta'lim va zamonaviy innovatsion dasturlar transformatsion kesishuvda deformatsion omillarni ijtimoiy psixologik jihatlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ilmiy tadqiqot, muvofiq mobillik sifatlari, kasbiy yo'nalganlik, individual qobiliyat, mobillilik, talaba shaxsi, mobil mutaxassis, ta'lim tizimi, zamonaviy innovatsion dastur, transformatsion kesishuv, ijtimoiy psixologik yondashuv.*

**ПОДГОТОВКА МОБИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ – ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОЙ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ И СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ,  
ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ**

*В данной статье показано, что подготовка мобильных специалистов является важным аспектом образовательной системы, она является важным фактором выяснения горизонтальных и вертикальных аспектов профессиональной психологической мобильности, характерной для студента в процессе инновационного педагогического образования, а также с педагогической точки зрения анализируются создание основы для координации современных факторов образования и воспитания и социально-психологические аспекты факторов деформации на трансформационном стыке традиционного образования и современных инновационных программ.*

**Ключевые слова:** *научное исследование, соответствующие качества мобильности, профессиональная направленность, индивидуальные способности, мобильность, личность студента, мобильный специалист, система образования, современная инновационная программа, трансформационное пересечение, социально-психологический подход.*

**MOBILE SPECIALIST TRAINING IS A DRIVER OF INNOVATIVE EDUCATIONAL  
ENVIRONMENT AS WELL AS A SOCIAL PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NEED**

*This article shows that the training of a mobile specialist is an important aspect of the education system, that it serves as an important factor in clarifying the horizontal and vertical aspects of professional psychological mobility inherent in the student's personality in the process of innovative pedagogical education, creating the basis for coordinating modern factors of education and upbringing, and that the socio-psychological aspects of deformation factors at the transformational intersection of traditional education and modern innovative programs are analyzed from a pedagogical point of view.*

**Keywords:** *scientific research, qualities of appropriate mobility, professional orientation, individual abilities, mobility, student personality, mobile specialist, education system, modern innovative program, transformational intersection, social psychological approach.*

**Kirish.** Bugungi kunda maqsadli tashkil etilayotgan ta'lim har bir davlatning dunyodagi o'rnini hamda insonning jamiyatdagi mavqeyini belgilab bersa, oliy o'quv yurtlarida talabalarni tayyorlash darajasi esa mamlakatning keyingi texnologik yutuq'i uchun sarmoyaviy jozibadorligi namoyon etib, ichki va tashqi mehnat bozori uchun mobil raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyatini oshiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz OTMLarida zamonaviy talablar doirasida kadrlar tayyorlash masalasi kun tartibidagi asosiy masala sifatida e'tirof etilib, bugungi kunda mobil mutaxassislarni tayyorlash va buning uchun zarur bo'lgan barcha ta'lim resurslarini maqsadli muvofiqlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, OTMLarda kadrlarni tayyorlash tushunchasidan mutaxassis tayyorlash tamoyiliga ustuvorlik berilib, uning kasbiy mobillilik sifatlarini rivojlantirishga hamda intellektual salohiyatidan maqsadli foydalanishga ustuvorlik berilmoqda. Bunda asosan inson kapitalini shakllantirish jarayoniga

e'tibor qaratilib, mazkur yondashuvni davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi mezonlardan biri sifatida baholanmoqda.

Zamonaviy ta'limga ilmiy nuqtayi nazardan hamda ijtimoiy qadriyat sifatida yondashish, har bir davlat va jamiyatning milliy manfaatlarini o'zida ifodalab, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan reformatik yondashuv hamda mobil mutaxassislarni tayyorlashning texnologiya va usullari ta'lim mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. OTMLar ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasida mobil mutaxassis tayyorlash tizimini pedagogik-psixologik jihatdan qo'lab-qo'vvatlanishi bugungi kunda muhim o'rin tutadi. Mobil mutaxassis tayyorlash ta'lim tizimi bir qator barqaror xususiyatlarga ega bo'lib, an'anaviy ta'lim va zamonaviy innovatsion dasturlar bilan transformatsion kesishuvda deformatsion omillarni inkor etmagan holda maqsadli muvofiqlashgan pedagogik dasturlarni yangi avlodini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, ta'limda mobillikning o'ziga xosligin e'tirof etish va ilmiy tahlil etish maqsadga muvofiq. Ta'limda mobillik - bu zamonaviy ta'limda tezkor bilim olish va muqobil kasb tanlash jarayonida tezkor harakat qilish, jamiyat hayotida ro'y beradigan vaziyatlarni oldidan kasbiy va ilmiy prognozlashtirish, kasbiy faoliyatda professional manyovrlarni bajarish qobiliyatini talabalar shaxsida shakllantirish bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ta'limda mobillik talaba shaxsida ijtimoiy psixologik va individual xususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya muvofiqlashuvini o'zida aks ettirgan innovatsion pedagogik jarayonning mahsuli hamdir.


**Asosiy qism.** Innovatsion pedagogik jarayon ta'limda mobillikning gorizontal va vertikal jahatlarini aniqlashtirishga xizmat qilib, ta'lim va tarbiyani zamonaviy omillarini muvofiqlashtirishning asosini yaratadi. Gorizontal harakatchanlik, talabani ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan barcha psixologik va pedagogik omillarni ular shaxsida shakllantirish dasturlarini ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirishga xizmat qilsa, vertikal harakatchanlik, talabani o'zlashtirish jarayonida bilmilarni olish, ijtimoiy maqomini jamiyaga ko'z o'ngida yuqoriga yoki pastga harakatlanishiga olib kelishini pedagogik – psixologik omillarini aniqlashtirishga asos bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, talaba shaxsida shaklangan mobillik sifati, o'zlashtirilgan bilim va kasbiy ko'nikmalarni tezlik bilan amaliy jarayonga qo'llash olish ko'nikmasini shakllantirish, maqsad sari harakatlanish, samarasiz faoliyatga nisbatan harakatlanmaslik, faoliyatni nazorat qilish malakasini barqarorlashtirish va uni rivojlantirib borishning individualligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, mobillik, talabani ta'lim olish jarayonida ortiqcha ruhiy va aqliy zo'riqishi hamda jismoniy toliqishini kamaytiruvchi omil bo'lib, psixologik “jarohatlar” ehtimolini kamaytiradi hamda motivatsion yondashuv metodlarini klassifikatsiyalashtirishning o'ziga xos afzalliklarni namoyon etish imkoniyatini oshirib, ijtimoiy mobillik sifatlarini shakllantiradi.

Ijtimoiy mobillik, talabani ijtimoiy tuzilmadagi o'rnini o'zgartirishga yo'naltiruvchi omildir. Bunda har bir talaba kelib chiqishi va ijtimoiy maqomidan qat'iy nazar yaxshi ta'lim olib kasiy ko'nikmalarni mutaxassis sifatida egallashi yuqori daromadli ishga ishlashi va jamiyatning eng faol shaxsiga aylanishini kafolatlaydi. Shuningdek, ijtimoiy mobillik, talabani xulq-atvori va moslashuviga ta'sir qilish vositasi bo'lib, bu har bir individual ijtimoiy maqomga xos bo'lgan ma'lum bir namunaning mavjudligi, shuningdek, talabani ijtimoiy sharoitdagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini yuzaga chiqarib uni rovojlantirish imkoniyatlarini oshiradi.

Kasbiy faoliyatga nisbatan mobillik, talabani ishga joylashish imkoniyatlarini baholash, qobiliyatlarini aniqlashtirish, yo'naltirish, har qanaqa sharoitda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirish, yangi mehnat sharoitlariga moslashishning adaptiv sifatlarini va emotsional holatlari barqarorlashtirish bilan tavsiflanadi.

**Institut talabalarining emotsional holatlari 1-kurs**




Mazkur masalani ilmiy tadqiq etish uchun 2021-yilning mart oyida TVChDPI pedagogik Ilmiy Kengash qaroriga muvofiq “Talabalarining ijtimoiy-psixologik portretini yaratish” dasturi asosida 1,2,3-kurs talabarlari o‘rtasida psixologik test-so‘rov o‘tkazildi.

Olingan natijalar ilmiy nuqtia nazardan pedagogi-psixologik jihatdan tahlil etilib o‘rganildi.

1-kursda tahsil olayotgan talabalarining 17% da bezovtalik yuqori natijani qayd etgan bo‘lsa, frustratsiyaning yuqori darajasi (rejalarni buzilishi yoki istaklar mos kelmaydigan vaziyatda paydo bo‘ladigan ruhiy holat) 23%, agressiyaning yuqoriligi 14%, rigidlikning yuqoriligi 15%, stressga bardoshlilikning past darajasi 24% ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin. Bu albatta 1-kurs talabalarida emotsional holat barqaror degani emas. Bu borada o‘z vaqtida psixoprofilaktik ishlarni olib borish lozimligini taqozo etadi.

### 2-kurs




2-kursda tahsil olayotgan talabalarining 20% da bezovtalik yuqori natijani qayd etgan bo‘lsa, frustratsiyaning yuqori darajasi (rejalarni buzilishi yoki istaklar mos kelmaydigan vaziyatda paydo bo‘ladigan ruhiy holat) 22%, agressiyaning yuqoriligi 21%, rigidlikning yuqoriligi 16%, stressga bardoshlilikning past darajasi 25% ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin. Bu albatta 2-kurs talabalarida emotsional holat barqaror degani emas. Bu borada o‘z vaqtida psixoprofilaktik ishlarni olib borish borasida chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishni taqozo etadi.

### 3-kurs

3-kursda tahsil olayotgan talabalarining 23% da bezovtalik yuqori natijani qayd etgan bo‘lsa, frustratsiyaning yuqori darajasi (rejalarni buzilishi yoki istaklar mos kelmaydigan vaziyatda paydo bo‘ladigan ruhiy holat) 27%, agressiyaning yuqoriligi 19%, rigidlikning yuqoriligi 19%, stressga bardoshlilikning past darajasi 22% ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin. Bu albatta 3-kurs talabalarida emotsional holat barqaror degani emas. Bu borada o‘z vaqtida psixoprofilaktik ishlarni olib borish lozimligini taqozo etadi.

Institut kesimida bezovtalikning yuqoriligi o‘rtacha 20%, frustratsiyaning yuqori darajasi o‘rtacha 24%, agressiyaning yuqoriligi o‘rtacha 18% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatgich talabalar emotsional holat qoniqarli yoki barqaror deb bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ularning emotsiyasiga doimiy ta’sir etib kelayotgan psixologik omillarni obyektiv va subyektiv jihatlarini psixologik diognostika qilish zarur.



**Bu toifadagi talabalar bilan psixologik diagnostik ishlarni amalga oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:**

- Bezovtalik va emotsional beqarorlik omillarini o’rganish hamda uning tabiati va dinamikasini tahlil qilish;

-surinkali psixoemotsional taranglik va baqaror xavotir hamda qo’rquvni manbasini diagnostika qilish;

-shaxsiy yoki yaqinlari bilan bog’liq muammolarining mavjudligi;

-oliy ta’limda yoshiga va aqliga nisbatan materiallarning ko’pligi yoki mukammalligi, murakkabligi neroemotsional yukni ortishiga olib kelganligi;

-o’quv ma’lumotlari hajmining doimiy ravishda ortib borishi, uxlash uchun vaqt yetmasligi, vazifalarni topshirish va baholanish borasida doimiy o’y-xayolning domenantligini negativ omillari;

-bezovtalik tahdid soluvchi, bezovta qiladigan his-tuyg’ularning ongsiz ravishda kelib chiqadigan ichki emotsional to’qnashuvi ekanligi;

-xavotir paydo bo’lishi bilan xulq-atvorda salbiy emotsional holatning kuchayishini yuz berishi;

- xulq-atvordagi salbiy emotsional holatning faoliyatga ta’sirini ortishi va mavjud shart-sharoitga (dezadaptatsiya) nisbatan negativ yondashuvning paydo qilishi;

-bezavoatalik nevrotik jarayonlarni xurij qilishiga olib kelishi;

-bezovtalik anglanmagan norozilikni yuzaga keltirishi va faoliyatga tahdid sifatida qabul qilishi;

-bezovtalik kundalik turmush tarzida nimanidir yetishmasligi hamda samarasiz faoliyat turi sifatida baholanishi hamda stress sindromini shakllantirishi;

-bezovtalik ruhiy zo’riqish bilan birikishi–ekstremal sharoitda ratsional yondashuvni izdan chiqarishi.

**Rigidlikning yuqoriligi o’rtacha 15,6% ko’rsatgichini namoyon qildi. Bu toifadagi talabalarda:**

- Qotib qolishning mavjudligi, ya’ni tashqi ta’sirning elementar jihatlariga ham deformatsion psixologik holatni namoyon etaolmasligi (ijobiy va munosib javob reaksiyasini tormozlanishining doimiy domenantligi);

- qaysarlikni haddan oshib ketishi oqibatida, o’z ruhiy holati va individual sifatlaridagi kamchiliklarni ko’rmaslik;

- eskicha fikr va mulohazalarni dominant sifatida tutib turish hamda analitik va optimistik mulohazali tahlilga ega emaslik;

- turg’unlik va bir tomonlaman yondashuvni faoliyat turiga aylanib qolishi;

- o’zini hissiy jihatdan o’rganishda qiyinchiliklarning mavjudligi, buning oqibatida guruh va ijtimoiy jamiyatda qarshiliklarga ko’p uchrashi, oqibatda boshqalarni ayblash hissining yuqoriligini ortib ketishi;

- o’z faoliyati hamda ma’lum vaziyat va holatdagi muvaffaqiyatsizlikning omilini boshqalarni aybdor sifatida baholashi kuzatiladi.

Shuni ta’kidlash mumkinki, ayrim toifadagi talabalarning o’qish faoliyati, sog’ligi, moddiy-ma’naviy holti va o’zlariga ma’lum bo’lgan boshqa psixologik holatlar bilan bog’liq bo’lgan ruhiyatiga ta’sir etuvchi nostandart holatlar ta’sirida ekanligini kuzatish mumkin. Stressga bardoshlilik darajasining 23,7% da past ko’rsatkichni qayd etilganligi, bu toifadagi talabalar o’zlari bilan sodir bo’lishi mumkin bo’lgan ko’ngilsiz holatlarga nisbatan irodasizlikni namoyon etish va oqibatda ular o’zlariga nisbatan zarar yetkazadigan faoliyatni anglamagan holda amalga oshirish ehtimolligi mavjud. Ushbu 23,7% talabalar stressga tez tushishi, ma’lum vaqt ichida ularda deperessiya simptomlari kuzatilishi yoki unga o’tib qolishi sutsidal holat, o’z faoliyatiga va xatti-harakatiga javob beraolmay qoladigan darajadagi psixologik anglanmagan harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Ushu masalalar bilan bog’liq muammolarni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan taklif:

- Psixologiya kafedra va institut (hozirgi universitet) psixologi hamkorlikda bezovtalik va emotsional beqarorlik omillarini o’rganish yuzasidan psixologik testlar blokini yaratish va uni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishi;

-surinkali psixoemotsional taranglik va baqaror xavotir hamda qo’rquvni bartaraf etish yuzasidan psixologik korrreksiyani amalga oshirish yuzasidan individual va guruhviy ishlash yuzasidan chora-tadbirlar dasturi va “Yo’l xaritasini” ishlab chiqish;

- guruh murabbiylari (tyutor) va institut (hozirgi universitet) psixolgi hamad psixologiya kafedra tizimli hamkorlikni maqsadli dasturini ishlab chiqish va chora-tadbirlar rejasini dinamik xususiyatga ega bo’lgan variantini nostandart va mobillik asosida yaratishi;

- institut (hozirgi universitet) xotin-qizlar qo’mitasi, institut yoshlar ittifoqi yetakchisi, institut murabbiylar kenganshi rais, institut besh tashabbus mas’uli, talabalar turar joyi tarbiyachisi va institut psixologi o’zaro faoliyat hamkorlik dasturini yaratishi hamda amalda to’liq ishlaydigan mexanizmni ishlab chiqish;

- yoshlar bilan ishlash borasidagi dekan o‘rinbosarlari, murabbiylar kengashi va psixologiya kafedra murabbiylarni talabalar bilan ishlash yuzasidan psixologik seminar darslarini tashkil etishi;
- psixologiya kafedra, institut professor-o‘qituvchilarga talabalarda bezovtalik, agressiya va frustratsiyani vujudga keltiradigan muomala va munosabatni psixologik omillari yuzasidan psixologik konsulm va treninglar o‘tib berishi;
- har bir fan o‘qituvchisi talabada nostandart fikrlashga shart-sharoit yaratib berishning zamonaviy mexanizmidan individual holda foydalanish mahorati va ko‘nikmasini kasbiy kompetentligiga aylantirish;
- pedagogik innovatsion ta‘lim klasteri asosida pedagogika va psixologiya kafedralari maktabda eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirgan holda, o‘quvchida mavjud rigidlikni bartaraf etish va deformatsion xarakter xususiyatni vujudga keltirish borasida hamkorlik qo‘shma dasturini ishlab chiqishi (bunda MTM, oila va maktabni klaster sxemasiga kiritishi, sababi, rigidlikning keltirib chiqaruvchi manba oila, MTM va maktab muhitidaga nafaol va nostandart yondashuv mahsuli hisoblanadi);
- pedagogik innovatsion ta‘lim klasteri doirasida MTM, maktab va oila mexanizmi asosida bola emotsiyasiga ta‘sir o‘tkazish orqali, unda kreativ fikrlashni ro‘yobga chiqarishning manfaatli tizimini yaratish;
- har xil psixologik o‘yin (surunkali va dominant bo‘lmaydigan ta‘sir doiraga ega bo‘lgan) faoliyati bilan bolada sun‘iy stresslarni yuzaga keltirish va uni bartaraf etishga xos bo‘lga individual irodaviy bardoshlilikini o‘rganish, psixologik maslahatlar berish;
- stressga bardoshlilik darajasini oshirish borasida ijtimoiy psixologik treninglarni tashkil etish;
- institut (hozirgi universitet) miqyosida ushbu masalani doimiy va tizimli tadqiq etish yuzasidan yilda 2 marta psixologik tes-so‘rovlarni amalga oshirib borish va natijasiga ko‘ra chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

**Xulosa** qilib aytganda, mamlakatimizda mobil mutaxassis tayyorlash bilan bog‘liq ta‘limni rivojlantirish strategiyasiga doir keng ko‘lamli ta‘lim xizmatlarini rivojlantirish, OTMda tahsil oluvchi talabalarda mobil funksiyani qaror toptirishning ijtimoiy pedagogik va psixologik omillarini rivojlantirish bilan tavsiflanadi. Mazkur masalalarni ijobiy hal etishda mobillik omillarini klassifikatsiyalashda etnopsixologik, ijtimoiy psixologiya, yosh davrlar psixologiyasi va kreativlik psixologiyasi metodlari (tarixiy, madaniy va ma‘naviy omillari, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish hamda demografik - yosh, jins, tug‘ilish darajasi, nikoh darajasi, o‘lim darajasi, ajralish masalalariga e‘tibor qaratish)dan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, zamonaviy psixologik yondashuvlarni pedagogik texnologiyalar bilan amaliyotda uyg‘unligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, talabalarining axborot bilan ishlash kompetentligini shakllantirishda informatsion mobillik omillaridan maqsadli foydalanish lozim. Informatsion mobillik, talabalarining axborotni olish va o‘zlashtirishga bo‘lgan qobiliyati, undan faol foydalanishga yo‘naltirish, ma‘lumotni qo‘yilgan vazifalarga muvofiq moslashtirish, informatsion oqimlar tezligi va rang-barangligiga barqaror sog‘lom yondashuv kompetentligini shakllantirishga nisbatan ko‘nikmalarni zamonaviy talabaning shaxs xususiyatiga aylantirishni psixologik omillarini ta‘lim mazmunga singdirilganligi bilan tavsiflanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Eshnaev N.J. Character as an individual and psychological feature // Fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasi. 2021. № 2.
2. Eshnaev N.J. Negative impact of discriminatory factors on mobile and adaptive relationships of students // Science and innovation international scientific journal, volume 2, issue 5, may 2023 Uif-2022: 8.2
3. Заславская Т.И., Рывкина Р.В. (ред.) Трудовая мобильность как предмет экономико-социологического исследования. Методологические проблемы социологического исследования мобильности трудовых ресурсов. Новосибирск, 1974.
4. Zeer E.F., Kormilseva M.V. Sotsialnolichnostnie kompetensii i professionalnaya mobilnost kak selevaya orientatsiya obrazovaniya // Sibirskiy pedagogicheskiy jurnal, 2009, no. 10, s. 72-78.
5. Игошев Б.М. Организационно-педагогическая система подготовки профессионально мобильных специалистов в педагогическом университете. Москва, ВЛАДОС, 2008. 201 с.
6. Никитина Е.А. Педагогические условия формирования профессиональной мобильности будущего педагога. Дис. Иркутск, 2007.
7. Панкова Т.Н. Профессиональная мобильность как неотъемлемая характеристика современного специалиста в системе непрерывного профессионального образования // Вестник Воронеж. гос. унта. Сер.: Проблемы высшего образования, 2013, №. 1, с. 99-102.
8. Солоненко В.А. Формирование профессиональной мобильности будущих экономистов-

менеджеров в образовательном процессе вуза. Дис. Брянск, 2010.

9. Стариченко Б.Е. Синхронная и асинхронная организация учебного процесса в вузе на основе информационно-технологической модели обучения // Педагогическое образование в России, 2013, №. 3, с. 23-31.

10. Eshnaev N. J. Bo‘lajak pedagog mutaxassislarining kasbiy mobilliligini shakllantiruvchi omillarni ilmiy-nazariy tahlili / Mug‘allim ham yzliksiz bilimlendirio‘. 3/2-san. 2023.-B.102-108.

11. Eshnaev N.J. OTMda zamonaviy mobil mutaxassis tayyorlashning ijtimoiy pedagogik-psixologik omillari / Kasb-hunar ta’limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. 3-son, 2023. –B.221-225.

12. Eshnaev N.J. OTMda mobil mutaxassis tayyorlash kasbiy yo‘nalganlikning ijtimoiy pedagogik kafolati ekanligi / Uzluksiz ta’lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. Maxsus son, 2023. –B.78-81.

## MAXSUS INTERAKTIV ILOVALAR VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING DASTURLASHGA DOIR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Nazarov Fayzullo Maxmadiyarovich,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti  
fayzulla-samsu@mail.ru*

*Bektemirova Gulrux Otabek qizi,*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi  
gulruxbektemirova07@gmail.com*

*Raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish sifatini yaxshilashga olib kelmoqda. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish asosiy usullardan biri hisoblanadi. Bundan kelib chiqib mazkur tadqiqot ishida maxsus interaktiv ilovalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik yechimlari tadqiq qilingan. Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun dasturiy vositalar va kreativ usullar hamda ulardan foydalanish jarayoni batafsil yoritib berilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun dars mashg‘ulotlarini amalga oshirishning metodikasi ishlab chiqildi va tajriba natijalarining tahlili keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, interaktiv ilovalar, dasturlashga doir ko‘nikmalar, dasturiy vositalar, kreativ usullar, onlayn platformalar, kontest tizimlari.*

## РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ СПЕЦИАЛЬНЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ

*Стремительное развитие цифровых технологий приводит к повышению качества управления социально-экономическими процессами. Развитие навыков программирования является одним из ключевых способов эффективного использования цифровых технологий. Исходя из этого, в данном исследовании были изучены педагогические решения по развитию навыков программирования будущих учителей с помощью специальных интерактивных приложений. В исследовании подробно описаны программные средства и творческие методы, а также процесс их использования для развития навыков программирования будущих учителей. Разработана методика проведения занятий по развитию навыков программирования будущих учителей и представлен анализ результатов эксперимента.*

***Ключевые слова:** цифровые технологии, интерактивные приложения, навыки программирования, программные средства, креативные методы, онлайн-платформы, контекстные системы.*

## DEVELOPMENT OF PROGRAMMING SKILLS OF FUTURE TEACHERS THROUGH SPECIAL INTERACTIVE APPLICATIONS

*The rapid development of digital technologies leads to the improvement of the quality of management of socio-economic processes. Developing programming skills is one of the key ways to use digital technologies effectively. Based on this, pedagogical solutions for developing the programming skills of future teachers with the help of special interactive applications were studied in this research. The study describes in detail the software tools and creative methods and the process of using them to develop the programming skills of future teachers. The methodology of the implementation of lessons for the development of programming skills of future teachers was developed and the analysis of the results of the experiment was presented.*

***Keywords:** digital technologies, interactive applications, programming skills, software tools, creative methods, online platforms, contest systems.*

***Kirish.** Hozirgi vaqtda barcha jarayonlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash samarali natijalarni berib kelmoqda. Bundan kelib chiqib raqamlashtirishni jadallashtirish uchun dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy ta‘lim tizimining*

muhim jihatlardan biridir. Dasturlash, nafaqat informatika fanlarini o‘qitishda, balki boshqa fanlarni o‘qitishda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin [1,2]. O‘qituvchilarda dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning 76ontest76c yondashuvlarini rivojlantirish va ta‘lim texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun alabatta ta‘lim olishda shaxsning ijodkorlik xususiyatlarini oshirish kerak bo‘ladi. Ta‘limda shaxsni ijodkorligini oshirishda kreativ usullar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi [3,4]. Dasturlash texnologiyalarini o‘zlashtirish va uni rivojlantirish ijodiy fikrlash talab etadi. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun kreativ usullarning bir qancha imkoniyatlari mavjud. Kreativ usullar mavjud bilimlar asosida yangi bilim natijalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan usullardan hisoblanadi. Kreativlikni rivojlantirish asosida dasturlash ko‘nikmalarini oshirish uchun maxsus interaktiv ilovalar va onlayn 76ontest tizimlari samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari.** Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirishda maxsus interaktiv ilovalar va onlayn kontest tizimlarining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Bugungi kunda dasturlash tillarining bir qancha turlari mavjud, bu dasturlash tillaridan foydalanishda yaratiladigan dasturning imkoniyatlariga qarab tanlanadi. Hozirgi vaqtda o‘rganish qulay bo‘lgan bir qancha dasturlash tillari mavjud.

Blockly dasturlash tili Google tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu vizual dasturlash muhiti hisoblanadi. Bunda o‘qituvchilarga kodlashni bloklar orqali o‘rgatish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, u o‘quvchilarga dasturlashni aniq tushunishga yordam beradi [2,11].

Scratch dasturlash tili vizual dasturlash tili bo‘lib, ayniqsa boshlang‘ich va o‘rta yoshdagi talabalar uchun qulay hisoblanadi. U bo‘lajak o‘qituvchilarga dasturlashning asosiy konseptlarini, ya‘ni loyihalar yaratish, algoritmlar tuzish kabi bosqichlarni o‘rgatishga yordam beradi

Alice dasturlash tili 3D grafikada o‘yinlar va interaktiv hikoyalar yaratishga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘qituvchilarni kreativ yondashuvga va ko‘rgazmali tushuntirishlarga o‘rgatishda foydali hisoblanadi.

Python dasturlash tili o‘zining soddaligi va keng qo‘llanilishi sababli, o‘qituvchilarga dasturlashni o‘rganishda juda qulay hisoblanadi. U dasturlash asoslarini tushunishga yordam beradi va keyingi bosqichlarda murakkabroq fanlar uchun foydalidir.

Java dasturlash tili grafik, vizual dasturlash tili bo‘lib, asosan amaliy, web ilovali, o‘yin dasturlarini yaratishga mo‘ljallangan. Bu dasturlash tili sinf rejimi asosida dastur yaratish konsepsiyasiga asoslangan bo‘lib yosh dasturchilarga dasturlashni oson o‘rganish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirishda maxsus interaktiv ilovalar, onlayn platformalarning o‘rni ham beqiyos hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dasturlashni o‘rganish bo‘yicha vaqtda bir qancha samarali hisoblangan onlayn platformalar mavjud.

Codecademy, Coursera, Udemy bu platformalar bo‘lajak o‘qituvchilarga dasturlashning turli tarmoqlarini masalan, veb-dasturlash, sun‘iy intellekt, ma‘lumotlar tahlilini o‘rganishga imkon beradi.

edX onlayn platformasi global universitetlardan onlayn kurslarni taklif qiladi. Bu kurslar o‘qituvchilarni dasturlashga doir chuqur bilimlar bilan ta‘minlaydi.

Khan Academy onlayn platformasi dasturlash va kompyuter fanlari bo‘yicha bepul interaktiv kurslarni taklif qiladi. Bu resurslar bo‘lajak o‘qituvchilar uchun juda foydali, chunki u o‘qitish metodologiyasini o‘rganishda ham yordam beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirishda kreativ usullarning o‘rni ham beqiyos hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun bir qancha kreativ usullar mavjud.

Slosson testi katta yoshlilar hamda bolalarning aqliy qobiliyatini o‘lchashga xizmat qilib ko‘pincha Slosson Intelligence Test (SIT) iqtidorli bolalarni tekshirish uchun ishlatiladi. Berilayotgan barcha testlarga javoblar og‘zaki yoki turli ishoralar yordamida beriladi. Kichik yoshli yoki ilk maktab yoshidagi bolalarga berilyotgan qiziqarli topshiriqlarning deyarli barchasi bolalar tomonidan turli harakatlar ya‘ni (qog‘oz, qalam yoki ruchkalar)dan foydalanib javob berilishiga oiddir [4,6].


Vekslerov shkalasi intellektni rivojlanish darajasini o‘lchash shkalasiga asoslangan hisoblanadi. Vekslerov shkalasi aqliy qobiliyatni aniqlashga imkon beruvchi individual test hisoblanadi. U ikki qismdan iborat: Og‘zaki shkala ma‘lum materialni o‘zlashtirish, uning mazmunini tushunish, arifmetik topshiriqlarni bajarish, o‘zaro o‘xshashliklarni topish, lug‘at boyligiga egalikni namoyish etish kabi beshta ko‘rsatkich bo‘yicha baholanadi; Harakat shkalasi kubiklardan konstruksiyalar yaratish, labirintlarni topish, chizilayotgan suratni yakuniga yetkazish, tavsiya etilayotgan kodlar mohiyatini ochib berish holat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi [5,7].

Torrens (I) testi yozma shaklda bo‘lib, talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdan oldin sinfda qulay muhitni yaratib olish kerakligini ta‘kidlaydi. Kreativ muhitda ta‘lim olayotgan talaba asta-

sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega bo‘lib ta‘lim olayotgan talabani kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo‘ladi [8,9].

Kontest tizimlar dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun onlayn kompyutorlar yordamida real vaqt rejimida dastur tuzish va xatoliklarini bartaraf etish imkonini beradi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun vositalardan foydalanishning quyidagi 1-rasm ko‘risinishidagi boshqaruv sxemasi ishlab chiqildi.



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirishning usullari

Yuqoridagi sxemada keltirilgan usullar asosida bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

**Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodikasi.** Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish usullaridan samarali foydalanish uchun dars mashg‘ulotlarining noan‘anaviy o‘qitish metodikasini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Taklif etilayotgan noan‘anaviy o‘qitish metodikasida ta‘lim jarayoni markazida talaba shaxsi bo‘lib, bunda talabalarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e‘tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy, dars tuzilmasi esa o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘ladi. Bunda, kreativ ishlashni oshirish orqali mavzuning murakkab jarayonlarining ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko‘rinishini zamonaviy dasturiy vositalar yordamida bajarish, ularni talabalarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta‘lim olishini ko‘zda tutadi [10]. Noan‘anaviy o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta‘minlash, mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirish orqali ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratiladi. Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun dasturlashni o‘rgatishda talabalar 2 guruhga bo‘linadi va talabalarga dars jarayonini quyidagicha tashkil qilinadi:



2-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun darsni tashkil qilish bo‘limlari

*Dars mashg‘ulotlarining nazariy qismi quyidagicha tashkil qilinadi:*

Dastlab oldingi darsda o‘tilgan mavzu qisqacha savol-javob orqali tahlil qilib olinadi.

Mavzu bayoni ochiladi bunda ma'lumotlar multimediali interaktiv ilovalar, interfaol metodlar orqali qisqa aqliy hujumga asoslangan savol javob ketma-ketligida tushuntiriladi. Bu jarayon quyidagi qadamlarda amalga oshiriladi.

- o'tgan dars savol-javob qilinadi, aqliy hujum metodi qo'llaniladi;
- darsning asosiy mazmuni tushuntiriladi, multimediali interaktiv ilovalar va interfaol metodlar qo'llaniladi;
- vaqtga qarab bir yoki ikkita dasturlar onlayn kontest tizimidan tuzib ko'rsatiladi;
- talabani bilim-ko'nikmasi tekshiriladi;
- topshiriqlar, fodali saytlarning manzillari va adabiyotlar ro'yxati beriladi.

*Dars mashg'ulotlarining amaliy qismi quyidagicha tashkil qilinadi:*

Mashg'ulot davomida o'tgan darsda berilgan topshiriqlarning natijasi test dasturlari orqali tekshiritiladi va bugun o'tgan mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlarning dasturlari kontest tizimlarida (robocontest.uz, algo.ubtuit.uz va boshqalar...) bajariladi. Bu jarayon quyidagi qadamlarda amalga oshiriladi.

- nazariy qism savol-javob qilinadi, aqliy hujum metodi qo'llaniladi;
- amaliy topshiriqlarning dasturlari to'g'ridan-to'g'ri robocontest.uz, algo.ubtuit.uz, neerch.ifmo.ru onlayn kontest tizimlari orqali tuziladi;
- talabalarning amaliy topshiriqlar bo'yicha bilim-ko'nikmasi Slosson va Torrens testlari orqali tekshiriladi.

*Dars mashg'ulotlarining nazorat qismi quyidagicha tashkil qilinadi:*

Nazoratlar 3 xil usulda olinadi:

- to'g'ridan to'g'ri kontest tizimidagi amaliy topshiriqlarga murojaat qilish orqali;
- nazariy bilimlar Slosson testi, Torrens testi va oddiy test orqali;
- variantda qiyinlik darajasi asosida tuzilgan yozma ishlar orqali;
- og'zaki savol-javob orqali.

Bo'lajak o'qituvchining dasturlashga doir ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan noan'anaviy o'qitish metodikasi asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

- talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;
- talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini istiqbolli rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
- talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbolli rejasi(maqsadli dasturi)ni shakllantirish.

Ishlab chiqilgan noan'anaviy o'qitish metodikasi yordamida bo'lajak o'qituvchining dasturlashga doir ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

**Tajriba natijalari.** Tadqiqot ishi natijasida tajriba ishlari amalga oshirildi, tajriba ishlari Samarqand davlat universitetida tashkil qilindi. Tajriba-sinov ishlari “TF-Java dasturlash tili” fanining Samarqand davlat universitetidagi talabalarning dasturlashga doir ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida tashkillashtirildi. Tadqiqot ishining maqsadidan kelib chiqqan holda asosiy e'tibor tajriba-sinov ishlarining tashkillashtirish bosqichlariga qaratildi va quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- tashxis va bashorat qilish;
- tashkiliy- tayyorgarlik;
- amaliy-umumlashtiruvchi.

Tajribada tajriba-sinov va nazorat guruhleri olindi hamda natijalar quyidagicha shakllantirildi.


**1-jadval.**

**Tajriba-sinov va nazorat guruhlarining o'zlashtirish va sifat ko'rsatkichlari.**

Talabalar soni	Darsda ishtirok etgan o'quvchilar soni	Baholan-ganlar soni	Nazorat		Tajriba-sinov	
			O'zlashtirish (%)	Sifat ko'rsatkichi (%)	O'zlashtirish (%)	Sifat ko'rsatkichi (%)
15	15	7	47	35	67	60
15	15	9	60	47	80	73
15	15	11	73	67	86	73
15	15	9	46	40	100	100

Tadqiqot ishi natijasida tajriba-sinov va nazorat guruhlarining o'zlashtirish va sifat ko'rsatkichlarining diagrammasi 3-rasm ko'rinishida tasvirlanadi.

Tadqiqot ishi natijasida olib borilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, noan’anaviy o‘qitish metodikasi yordamida bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.



3-rasm. Tajriba-sinov va nazorat guruhlarining o‘zlashtirish va sifat ko‘rsatkichlari

**Xulosa.** Bajarilgan tadqiqot ishida bo‘lajak o‘qituvchilarda dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning pedagogik yondashuvlarini rivojlantirish va ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish masalasining pedagogik yechimlari tadqiq qilindi. Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun dasturiy vositalar va kreativ usullar hamda ulardan foydalanish jarayoni batafsil keltirib o‘tilgan. Bo‘lajak o‘qituvchining dasturlashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida dars mashg‘ulotlarini amalga oshirishning metodikasi ishlab chiqildi va tajriba natijalari olindi.

#### Adabiyotlar:

1. Heuser B. “Creativity and Identity Formation in Adolescence: A Developmental Perspective”, in *The Creative Self*, Elsevier, <http://dx.doi.org/10.1016/b978-0-12-809790-8.00005-4> (2017).
2. Fayzullo N., BGO Qizi. Methods and algorithms for using creative methods in learning programming technologies. // *Artificial Intelligence and Information Technologies*, 226-231.2024.
3. Kaufman J. “Toward a broader conception of creativity: a case for "mini-c" creativity”, // *Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts*, Vol. 1/2, pp. 73-79, <http://dx.doi.org/10.1037/1931-3896.1.2.73>. (2007),
4. Kaufman J., “Classroom contexts for creativity”, // *High Ability Studies*, Vol. 25/1, pp. 53-69, <http://dx.doi.org/10.1080/13598139.2014.905247>.
5. Nazarov F., Pardayev M., Salimova M., Esanov O. Learning Fundamentals of Programming and Innovative Technologies of Program Creation. // *International Journal of Mathematical Theory and Computer Science Issues* 1.2024.
6. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov Q. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. - T.: Innovatsiya-ziyo. 2019.
7. Pratt M. “The dynamic componential model of creativity and innovation in organizations”: Making progress, making meaning, <http://dx.doi.org/10.1016/j.riob.2016.10.001>. (2016),
8. Ibragimova G.N. *Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish*. / Monografiya. -T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. -B. 77.
9. Аминов И., Назаров Ф.М. Использование современных электронных средств в обучении информатики // *Ученый XXI века Международный научный журнал*.-2017.№ (2). Москва. [69-73] б.

10. Аминов И., Назаров Ф.М. Использование интерактивных методов обучения в преподавании информатики // Ученый XXI века Международный научный журнал. - 2018. № (12). Москва. [31-34] б.

11. Nazarov F. Recommendations for the development of the Olympic program. // Scientific-methodical journal of physics, mathematics and computer science. Toshkent. 2017 (3).

## BOLALARDA TOLERANTLIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH METODIKASI

*Pratov Saidmurod Irgashovich,  
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi*

*Maqolada bolalarda tolerantlik xususiyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy zarurati, maktabgacha ta’lim muassasasida tolerantlikni tarbiyalash imkoniyatlari, bolalarda tolerantlik xususiyatlarini rivojlantirish metodikasi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik xususiyatlarini aniqlash maqsadida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining psixolog bilan hamkorlikda olib boradigan diagnostik ishlar mazmuni yoritilgan. “Bolalar tolerantligini aniqlash metodikasi” ning qismlari; “do’stlar orasida bag’rikenglik”; “atrofimizdagi olamga bag’rikenglik”; “uydagi bag’rikenglik” bo’yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** tolerantlik, "do'stlar orasida bag'rikenglik", "atrofimizdagi olamga bag'rikenglik", "uydagi bag'rikenglik".

## МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ОСОБЕННОСТЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ДЕТЕЙ

*В данной статье, посвящённой методике изучения особенностей толерантности у детей, представлены сведения о социальной необходимости развития особенностей толерантности у детей, возможностях воспитания толерантности в дошкольном образовательном учреждении, а также методике развития особенностей толерантности у детей. Также освещено содержание диагностической работы, проводимой воспитателем ДОО совместно с психологом с целью определения особенностей толерантности у детей дошкольного возраста. Представлены результаты исследования по разделам «Методика определения детской толерантности»; «Толерантность среди друзей»; «Толерантность к окружающему миру»; «Толерантность в домашних условиях».*

**Ключевые слова:** толерантность, «толерантность среди друзей», «толерантность к окружающему миру», «толерантность дома».

## METHODOLOGY FOR STUDYING THE CHARACTERISTICS OF TOLERANCE IN CHILDREN

*The article provides information on the social necessity of developing tolerance in children, the possibilities of educating tolerance in a preschool educational institution, and the methodology for developing tolerance in children. It also covers the content of diagnostic work carried out by a preschool educational organization educator in collaboration with a psychologist to identify tolerance in preschool children. The parts of the “Methodology for Determining Children's Tolerance”; “Tolerance among friends”; “Tolerance to the world around us”; “Tolerance at home” are presented.*

**Keywords:** tolerance, "tolerance among friends", "tolerance towards the surrounding world", "tolerance at home".

**Kirish.** Dunyoda kechayotgan global o‘zgarishlar davrida bag‘rikenglik masalalari nafaqat mintaqaviy va davlat, balki xalqaro miqyosdagi muammolardan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayon boshqalarga, ya’ni o‘zgacha o‘ylaydigan, fikrlaydigan, kiyinadigan, qo‘shiq aytadigan, ovqatlanadigan hamda boshqacha ko‘rinishdagi kishilarga nisbatan murosasizlikning kuchayib borayotgani bilan bog‘liq bo‘lib, bu kabi holatlarning kuchayishi turli, to‘qnashuvlar, agressiyalar, zo‘ravonlik va shafqatsizliklarga olib keladi [2]. Shu tufayli bolalarda tolerantlikni tarbiyalash jamiyat hayotida dolzarb mavzu hisoblanib, faqat tolerantlik shakllangan shaxsgina o‘z qadriyatlariga, o‘z manfaatlariga va o‘z asoslariga ega bo‘ladi hamda har qanday vaziyatlarda o‘z harakatlariga javob bera oladi.

Maktabgacha yosh davrida rivojlanishning ijtimoiy holati bolaning va kattalarning birgalikdagi faoliyatining o‘zgarishi, hatto buzilishi bilan tavsiflanadi. Chunki bu davrda bola rolli o‘yinlar orqali o‘zi uchun insoniy munosabatlar dunyosini kashf etib, o‘yinda bola kattalarning harakatlarini takrorlaydi va shu bilan kattalar kabi bo‘lish va harakat qilish tendentsiyasini tushunadi. Bolalar uchun ahamiyatli shaxslar doirasining kengayib borishi bevosita ularning o‘z tengdoshlarni o‘yin sheriklari sifatida qabul qilishlari bilan bog‘liq [1].

Tolerantlik fazilatining shakllanishi bolalik davrida oila va ta'lim muassasalari ta'sirida sodir bo'ladi va uning rivojlanishi tarsiya orqali butun umr davom etadi. Albatta, tolerantlikni rivojlantirish uchun maktabgacha ta'limda muhim rol o'ynash lozim chunki, tolerantlik, hurmat, qabul qilish va dunyo madaniyatlarini to'g'ri tushunishni bolalikdan singdirish uchun xizmat qiladi. Bolalarga dunyoda tinch yashash qoidalarini tushuntirishda turli millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning qadr-qimmatini va huquqlari tengligini bolalar qalbiga singdirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi eng qulay sharoitdir. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlikni rivojlantirish bo'yicha ishlar samarali bo'lishi uchun maktabgacha yoshdagi bolalar uchun keng ko'lamli tadbirlar va turli xil faoliyat turlarini jalb qilish lozim bo'ladi. Bunday tadbirlarga: - bolalarni o'z xalqi va dunyo xalqlarining madaniyati va an'analari bilan tanishtirish maqsadida bayramlarni o'tkazish; ular bilan dunyo xalqlarining ertaklariga asoslangan stsenariylar bo'yicha teatrlashtirilgan faoliyatni amalga oshirish; turli xalqlarning milliy o'yinlarini o'rgatish; eng yaqin qo'shni mamlakatlarning xalq bayramlarini o'rgatish; bolalarni turli mamlakatlar xalqlarining an'analari bilan tanishtirish; turli ertaklar bo'yicha yaratilgan, ertak vaziyatlarda shaxslararo o'zaro ta'sir muammolarini hal qilish uchun o'yin-faoliyatini tashkil etish kabilar shilar jumlasidandir.

Bolalarda tolerantlik xususiyatlarini singdirishning muhim elementlaridan yana biri - tarbiyachilar va ota-onalarning o'zaro munosabati hisoblanib, bolaning tolerantlik ongi va xulq-atvorini shakllantirishda oilaning ahamiyati katta bo'lsada hamma oilada munosabatlar tolerantlikka asoslangan deb bo'lmaydi.[3] Ota-onalar bolalarning birinchi va asosiy tarbiyachilari bo'lib, agar ular bu muammoni hal qilishda tarbiyachilarning yordamchisi bo'lmasa, boshqa har qanday sifat kabi bolada tolerantlikni rivojlantirish mushkul. Oilaviy munosabatlar muhiti, ota-onalar, qarindoshlar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uslubi bolada tolerantlikni shakllantirishga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'zaro ishonch va hurmat, o'zaro yordam, bir-biriga nisbatan sabr-toqat va bag'rikenglik tamoyillariga asoslanishi zarur. Zero, maktabgacha yoshdagi bolalarda bag'rikenglik xulq-atvorini shakllantirish, ta'lim jarayonini bola, ota-ona va jamiyat o'rtasidagi haqiqiy o'zaro munosabatlarni ta'minlashda oila bilan hamkorlik ustuvor hisoblanadi.[4]

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik xususiyatlarini aniqlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi psixolog bilan hamkorlikda bolalar bilan diagnostik ishlarni ham amalga oshirishi muhimdir. Bunda bolalarning yoshiga mos vositalarni qo'llash yaxshi samara beradi. Ushbu maqsadda Yunesko materiallari asosidagi, Dominik de Sent Marsning bolalar tolerantligini aniqlash metodikasidan ham foydalanish mumkin.

Metodika materiali uchta qismdan iborat. Metodikaning har bir qismi bola hayotining sohalaridan biriga tegishli:

**Birinchi qism** - "Do'stlar orasida bag'rikenglik";

**Ikkinchi qism** - "Atrofimizdagi olamga bag'rikenglik";

**Uchinchi qism** - "Uydagi bag'rikenglik".

Metodikaning har bir qismida sakkizta tugallanmagan jumla mavjud bo'lib, har bir vaziyatda jumlaning yakunlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ikkita javob varianti mavjud. Katta maktabgacha yoshidagi bolalardan ikkita javob variantidan o'zlariga mos keladiganini tanlash va o'z tanlovini ko'rsatish so'raladi.

Bolalarda tolerantlik darajasini aniqlash uchun har bir bosqichdagi mavzu bo'yicha qancha tolerantlik tanlovini oshirganini hisoblanadi. Alohida mavzuning umumiy tolerantlik darajasi va har bir sohada tolerantlik darajasini aniqlash imkoni bo'ladi. Bunda har bir bolaning ismi-sharifi yozilgan maxsus blank qo'llaniladi.

“Bolalar tolerantligini aniqlash metodikasi” savolnomasi tuzilishi quyidagicha:

**Birinchi qism** - "Do'stlar orasida bag'rikenglik";

**1. Maftunaning kiyimi chiroyli emas... 1.** Men u bilan o'ynayveraman. 2. Bolalar bilan uni masxara qilasiz.

**2. Sizga tanish bola boshqa millat, xalqining urf-odatlariga amal qiladi... 1.** Unga bu kulgili ekanligini aytaman. 2. Undan bu haqda Menga aytib berishini so'rayman.

**3. Timning terisi rangi sizni teringiz bilan bir xil rangda emas... 1.** Men u bilan yaqinroq tanishishga harakat qilaman. 2. Siz unga o'xshash rangli odamlarini yoqtirmasligingizni aytasiz

**4. Oldinda bir qari chol juda sekin yurib ketyapti... 1.** Uni tezda turtib o'tishga majbur bo'laman. 2. U kishining o'tishi uchun eshikni ushlab turaman..

**5. O'g'il bolasan, seni bir qiz bilan bir partaga o'tirg'izdi... 1.** Men hamma qizlarni ahmoq deyman. 2. Men u bilan suhbatlashaman.

**6. Qiz bolasan, seni bir o'g'il bola bilan bir partaga o'tirg'izdi... 1.** Men hamma o'g'il bolalar ahmoq, deyman. 2. Men u bilan suhbatlashaman.

**7. Kimnidir kaltaklayotganini ko'rib qolding ...** 1. Men uni darrov himoya qilaman 2. O'zimni hech narsa ko'rmagandek ko'rsataman

**8. Seni faqat nogironlar aravachasida harakatlana oladigan bola bilan tanishtiradi...**

1. Men u bilan huddi boshqalar bilan gaplashganimdek gaplashaman. 2. Men uni sezmagandek bo'laman.

**Ikkinchi qism** - "Atrofimizdagi olamga bag'rikenglik";

**1. Insoniyatning butun tarixi urushlar bilan birga keladi...** 1. Biz nima uchun urushlar bo'lishini sababini tushunishimiz kerak. 2. Biz hech narsa qila olmaymiz

**2. Urushlardan aziyat chekkan bolalar bilan tanishganda...** 1. Men ularga hamdard bo'laman. 2. Menga baribir.

**3. Odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat va tushunish haqida gapirishganda ...** 1. Meni qiziqitirmaydi. 2. Men bu haqda ko'proq bilishni xohlayman.

**4. Kim bilandir kelishmayapsan ...** 1. Men uni tinglashga harakat qilaman. 2. Men unga gapirish imkoniyatini bermayman.

**5. Yomonlikni yengishning eng yaxshi yo'li nima...** 1. Kuch ishlatish. 2. Boshqalar bilan birlashaman va yomonlikka yo'l qo'ymayman

**6. Sen mashg'ulotda gapirib bo'lgansan ...** 1. Men yana qo'limni ko'taraman. 2. Men boshqalar gapirishiga imkon beraman.

**7. Bir do'sting seni urdi ...** 1. Men uni nima usun bunday qilganini so'rayman. 2. Men ham uni urishga harakat qilaman.

**8. Boshqa shahardan kelgan tanishing bor...** 1. U o'z ta'surotlarini aytishini xohlayman 2. Meni qiziqitirmaydi

**3. Uchinchi qism** - "Uydagi bag'rikenglik".

**1. Kichkina ukang (singling) o'yinchoqingni sindirib tashladi...** 1. Men uni kechiraman, u buni tasodifan qilgan. 2. Men uni kaltaklayman

**2. Oilada kim kuchli bo'lsa, o'sha buyuradi...** 1. Men ham xuddi shunday qilmaysan. 2. Qaror qabul qilishda men ham xuddi shunday qilaman

**3. Bolalarga har doim ko'proq sovg'alar va e'tibor beriladi ...** 1. Men o'zimni hech kimga keraksiz deb aytaman. 2. Nimani his qilayotganimni kimgadir aytaman va o'zimni baxtsiz his qilaman.

**4. Opang (akang) bilan janjallashib qolding...** 1. Men unga o'z fikrimni tushuntirishga harakat qilaman. 2. Men nafasimni yutib ketaman.

**5. Kimdir senga qo'pol muomala qiladi...** 1. Men xuddi shunday javob beraman. 2. Uning menga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga harakat qilaman.

**6. Siz o'zingizdan mamnun emassiz ...** 1. Men "hammaning kamchiliklari bor" deyman. 2. Men hammadan noroziman

**7. Biror kishi haqida yomon gap aytilganini eshitasiz ...** 1. Bu haqiqat yoki yo'qligini bilib olaman. 2. Bu haqda kimgadir darhol aytib beraman.

**8. Oilaviy sayrga chiqqanda...** 1. Men hunar chiqaraman. Men undan ko'ra qiziqroq narsani taklif qilaman.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** “Bolalar tolerantligini aniqlash metodikasi” savolnomasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tadqiqot olib bordik. Tadqiqot davomida 58 nafar tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari ishtirok etdilar. Biz bolalarning so'rovlari bergan javoblari asosida 3 qism bo'yicha 3-guruhga ajratdik. 1-guruh “tolerantlik darajasi yuqori”; 2-guruh “tolerantlik darajasi o'rtacha”; 3-guruh “tolerantlik darajasi past”.

**Jadval 1.**

**“Bolalar tolerantligini aniqlash metodikasi” ko'rsatkichlari (N=58)**

Metodika qismlari	“tolerantlik darajasi yuqori”		“tolerantlik darajasi o'rtacha”		“tolerantlik darajasi past”	
	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
"Do'stlar orasida bag'rikenglik"	18	31%	26	44,8%	14	24,2%
"Atrofimizdagi olamga bag'rikenglik"	16	27,6%	32	55 %	10	17,4%
"Uydagi bag'rikenglik"	19	32,7%	28	48,2%	11	19,1%

Bolalar tolerantligini rivojlantirish maqsadida quyidagi o'yin mashqlarini qo'llash mumkin.

**"Ismlar" o'yin mashqi**

Tarbiyachi bolalardan birma-bir "Ismingizni qanday o'zgartirishni istaysiz? Uydagi mehribonlaringiz chaqiradigan ismingiz nima? Sizni kima deb atashlarini xohlaysiz? deb so'raydi va bolalarning jaboblarini

muhokama qilib boradi. Bolalar shu tariqa o‘zlariga nima yoqishi yoki nima yoqmasligini his qilib boshlaydilar.

**"Men kim haqida gapirayotganimni bilib oling." mashqi.**

Tarbiyachi bolalardan birining tashqi qiyofasini tasvirlaydi va bolalar katta oynaga qarab, ular kim haqida gapirayotganini taxmin qilishadi. Shu tariqa bolalarda boshqalar odamlarni ta’riflashlari haqida bilib oladilar.

**"O'zingizni maqtang" mashqi**

Bolalar aylana bo‘lib o‘tirishadi, tarbiyachining qo‘lida to‘pni bolalarni aylana bo‘ylab uzatib, o‘zlarini maqtashni taklif qiladi. Siz go‘zallik, yaxshi ishlar, yaxshi xarakter xususiyatlarini maqtashini so‘raydi, masalan, men mehribonman, men hamdardman, men rahmdilman va boshqalar. O‘yindan keyin – muhokama bolalarning holati muhokama qilinadi. O‘zingizni maqtash oson bo‘lganmi? - Sizga kimni maqtash osonroq, o‘zingizni yoki boshqalarni? - Sizni kim maqtayapti? - Sizni maqtashganda o‘zingizni qanday his qilasiz? - Boshqalarni maqtashni yoqtirasizmi?

**Xulosa.** Tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar orasida tolerantlik darajasi yuqori va o‘rta darajadagi bolalar ko‘pchilikni tashkil etsa-da, ularning ichida tolerantlik darajasi past bolalarning ham ulushi kattagina foizni tashkil etmoqda. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tolerantlikni rivojlantirish uchun jiddiy ishlarni olib boorish lozim. Bizning nazarimizda, bolalar bilan maxsus tolerantlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yin mashqlarini olib borish orqali tolerantlik darajasi past bolalarni yuqori darajaga ko‘tarish mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Ильинская Е.А. Психолого-педагогическое обоснование необходимости формирования толерантности в старшем дошкольном возрасте // Материалы межвузовской научнопрактической конференции «Социальная психология сегодня: наука и практика». - СПб.: СПбГУП, 2008. - С. 130-132.
2. Смирнова Е.О. Развитие толерантности в раннем и дошкольном детстве / Возрастные особенности формирования толерантности. М.: ЦСО, 2003.-С 64-130.
3. Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. -Т.: Ўзбекистон, 2000.
4. Қўшақова Г. Ўзбек миллий кадриятларида бағрикенглик тушунчаларининг ифодаланиши // Халқ таълими. Илмий –методик журнал. –Тошкент, 2011. – № 1. –Б. 78-80.

## TA'LIM JARAYONIDA AKMEOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI

*Ramazonova Feruza Xudoynazarovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, (PhD)*

*Ramazonova Mashhura Ulug'bek qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Pedagogika nazariyasi va tarixi  
(faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

*Ushbu maqolada akmeologik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari o'rganilib, ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish usullari e'tirof etilgan. Tadqiqotda akmeologik kompetentlikning o'quv jarayonidagi o'rni, uning bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalar uchun eng samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, akmeologiya, pedagogik akmeologiya, pedagogik faoliyat, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, innovatsion texnologiyalar, reflektiv o'qitish (reflective learning), kreativlik.

## ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*В данной статье изучены технологии развития акмеологической компетентности и признаны методы их эффективного использования в образовательном процессе. В исследовании анализируется роль акмеологической компетентности в образовательном процессе, её влияние на личностное и профессиональное развитие будущего учителя. Также показаны пути разработки наиболее эффективных технологий для студентов и их внедрения.*

**Ключевые слова:** система образования, акмеология, педагогическая акмеология, педагогическая деятельность, лично-ориентированная образовательная технология, инновационные технологии, рефлексивное обучение, творчество.

## TECHNOLOGY OF DEVELOPING ACMEOLOGY COMPETENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*In this article, the technologies of development of acmeological competence are studied, and methods of their effective use in the educational process are recognized. The research analyzes the role of acmeological competence in the educational process, its impact on the future teacher's personal and professional development. Also, the ways of developing the most effective technologies for students and their implementation are shown.*

**Keywords:** educational system, acmeology, pedagogical acmeology, pedagogical activity, person-oriented educational technology, innovative technologies, reflective learning, creativity.

**Kirish.** Jahonda mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash zamonaviy tendensiyalardan biri bo'lib kelmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 70 yillik yubiley sessiyasida qabul qilingan “Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)” hamda “Yevropa oliy ta'lim makoni» (EHEA) konsepsiyalari mazmunida “kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda kompetensiyalarga asoslangan ta'lim (competence-based learning) modelini joriy etish, ta'limni insonparvarlashtirish asosida kasbiy malakalarni uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish” strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Bu esa bo'lajak pedagoglarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalarini boshqaruv va ta'lim jarayoniga integrasiyalashuvini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim tizimi oldida bo'lajak kasb egalariga nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma'naviy, intellektual va kasbiy jihatdan rivojlanishini ta'minlash kabi muhim vazifalar turibdi. Bugungi kun ta'lim tizimi talabalarning nafaqat bilim olishi, balki shaxs sifatida rivojlanishi, ijtimoiy va kasbiy hayotga moslashishi uchun kerakli kompetensiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini yanada yuqori bosqichga ko’tarish va bu borada ilg’or tajribalarni jalb etishning huquqiy-me’yoriy asoslari takomillashtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1], 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taminlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari[2] 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[3], “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-son Farmonlari[4] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda ta’limda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** “Akmeologiya—(grekcha "akme" - cho‘qqi, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr ma’nolarini anglatadi) u insonni o‘z taraqqiyot dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarni namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadi.”[5] Qisqa qilib aytganda, akmeologiya – insonning eng yuqori rivojlanish cho‘qqisiga (akme) erishish jarayonini o‘rganuvchi fan.

Pedagogik akmeologiya asa, pedagogik faoliyatda shaxsning professional va shaxsiy rivojlanishining yuqori cho‘qqilariga erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi soha bo‘lib, uning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1-bosqich. Akmeologiyaning paydo bo‘lishi:

Akmeologiya atamasi dastlab XX asrning 20-yillarida Rossiyada psixologik izlanishlar natijasida shakllangan bo‘lib, insonning yetuklik davrini o‘rganishga qaratilgan. Bu fan shaxsning professional va shaxsiy rivojlanishining eng yuqori bosqichlarini o‘rganadi. Akmeologiyaning asosiy maqsadi insonning o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishga ko‘maklashishdir.

2-bosqich. Pedagogik akmeologiyaning shakllanishi:

Pedagogik akmeologiya pedagogik faoliyatga tatbiq etilishi natijasida shakllangan bo‘lib, pedagoglarning professional mahoratini oshirish, ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Pedagogik akmeologiya o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish, refleksiya va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘rganadigan fan hisoblanadi.

Akmeologik kompetentlik — bu shaxsning o‘zining maksimal imkoniyatlarini amalga oshirishda maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshirishga, shuningdek, o‘zining ruhiy va jismoniy salohiyatini to‘liq ishlatishga qodir bo‘lish qobiliyatidir. Shu bois, akmeologik kompetentlik ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu mavzu zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda chuqur o‘rganilmoqda.

Shuningdek, akmeologik kompetentlikni rivojlantirish — bu nafaqat ilmiy-tadqiqot, balki o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham dolzarb masala hisoblanadi. O‘quv jarayonida bo‘ljak pedagoglarning rivojlantirish texnologiyalarining samarasini oshirish uchun ta’lim jarayoniga yangi yondashuvlar va innovatsion metodlarni joriy etish zarur. Akmeologik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari orqali talabalarga o‘z maqsadlariga erishishda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish va shaxs sifatida o‘z sishga yordam berish mumkin.

Bugungi kunda, pedagogik akmeologiya sohasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, N.V. Kuzmina pedagoglarning professional faoliyatini akmeologik nuqtai nazardan o‘rgangan[11]. Uning tadqiqotlari pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, A.A.Derkach pedagogik akmeologiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqib, uni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatgan[8] bo‘lsa, V.G.Zazykin akmeologiyani ta’lim jarayonlariga qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilib, uni pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish vositasi sifatida tadqiq etgan[9]. V.N. Drujin akmeologiya va pedagogika sohasini birlashtirishga katta e’tibor qaratgan, shaxsning yetuklik davriga erishish jarayonlari va professional rivojlanish masalalari batafsil yoritilgan[10].

Hozirgi kunda pedagogik akmeologiya ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy va professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Shuningdek, pedagogik akmeologiya ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar bilan ham shug‘ullanadi.

**Tahlil va natijalar.** Pedagogik akmeologiya fanining maqsadi o‘qituvchilarning kompetentligini turli yondashuvlar yordamida oshirishdan iborat hisoblanadi. Kompetentlik –shaxsning ma’lum faoliyat doirasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari majmuasi. Akmeologik kompetentlik esa, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan o‘zini o‘zi anglash, rejalashtirish va o‘z ustida ishlash qobiliyatidir. Pedagoglarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirishning

bir qancha yondashuvlari mavjud bo'lsada, ular orasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion texnologiyalardan yetarlicha foydalanish ko'nikmasini yaratish, reflektiv o'qitish (reflective learning) va kreativlikka urg'u berish samarali usullardan biri bo'lishi mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi— bu har bir talabaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu ta'lim texnologiyasi talabalarni o'zini o'zi rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga va individual yondashuv asosida bilim olishga rag'batlantiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat

1. Individualizatsiya: Har bir talabaning o'z qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos o'quv rejasi ishlab chiqiladi.

2. Moslashuvchanlik: O'quv materiallari va metodlari talabaning rivojlanish darajasiga mos ravishda o'zgartiriladi.

3. Faollik va mustaqillik: Talabalarni faollikka chorlash va mustaqil o'qitishni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Reflektiv o'qitish (Reflective Learning) – bu ta'lim jarayonida shaxsning o'z tajribasini chuqur tahlil qilishi, anglab yetishi va undan kelajakda foydalanish uchun saboq chiqarishga asoslangan o'qitish usuli. Bu yondashuv nafaqat kasbga yo'naltirilgan bilim olishi, balki tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini baholash va o'z faoliyatini yaxshilash ko'nikmalarini rivojlantirishni ham ta'minlaydi.

Asosiy xususiyatlari:

1. O'z-o'zini tahlil qilish: Talaba o'z fikr va harakatlarini tahlil qilish orqali tajribalarini yanada chuqurroq tushunadi.

2. Tanqidiy fikrlash: Muammolarni turli jihatdan ko'rib chiqish va yechimlarni topishda ijodiy yondashuvni talab qiladi.

3. Faol ishtirok: Talaba o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda mustaqil fikrlaydi va o'z tajribasidan foydalanadi.

4. Amaliy tajribaga asoslanish: Talaba o'rgangan bilimlarni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga tatbiq etadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga undash hamda sifatli bilim berishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etib, o'quvchilarni yanada faolroq va motivatsiyalangan ishtirokchiga aylantiradi.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari quyidagilar iborat

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

2. Interaktiv texnologiyalar

3. Robototexnika va sun'iy intellekt

4. STEAM-ta'lim (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics)

5. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR)

Kreativ yondashuv ta'lim jarayonida yangi va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodologiya bo'lib, o'quvchilarni mavjud bilimlarni o'zgacha tarzda qo'llashga, yangiliklar yaratishga va yangi g'oyalar ishlab chiqishga undaydi. Ushbu yondashuv nafaqat o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, balki ularda o'zini o'zi ifodalash, mustaqil fikrlash va innovatsion yechimlarni topish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativ yondashuvning ta'limdagi afzalliklari:

1. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi: Talabalarni oddiy muammolardan chiqib, yangi g'oyalar ishlab chiqishga undaydi.

2. Mustaqil o'rganish qobiliyatini oshiradi: Talabalarni faqat yodlashdan ko'ra, o'z bilimlarini o'zlashtirishga va yaratishga rag'batlantiradi.

3. Muammolarni hal qilishga yordam beradi: Talabalarni muammoni yangi, noyob usullar bilan hal qilishga o'rgatadi.

4. Shaxsiy va professional rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi: Kreativ fikrlash talabalarni nafaqat ta'limda, balki kelajakdagi professional faoliyatda ham muvaffaqiyatga erishish uchun tayyorlaydi.

5. Ta'limni qiziqarli va samarali qiladi: Talabalarni o'rganish jarayoniga faol jalb etadi, bu esa ularda bilim olishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Yuqoridagi yondashuvlar talabalarning akmeologik kompetentligini oshirib, shaxsiy va professional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, pedagogik texnologiyalar talabalarning shaxsiy individual qobiliyatlarini ochish va rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak pedagoglarning shaxsiy rivojlanishiga, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlarga va o'z-o'zini boshqarishga alohida e'tibor

qaratilgan. Eksperimentlar natijasida akmeologik kompetentlik darajasining o‘shishi aniq kuzatiladi, o‘z-o‘zini anglash, o‘z qobiliyatlarini aniqlash va o‘zlarini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Akmeologik kompetentlikka qaratilgan texnologiyalar, talabalarga o‘z maqsadlariga erishishda jarayonni va ularni samarali boshqarishni o‘rgatadi, bu esa, talabalarining o‘z kasbiy ko‘nikmalari va shaxsiy malakalari rivojladi. Shuningdek, o‘quv jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish va boshqalar bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorligini oshiradi.

Akmeologik kompetentlikni rivojlantirish talabalarining o‘zgarishlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llab, o‘zlarining muvaffaqiyatlariga erishish uchun kerakli metodlarni o‘rganadilar. Boshqalar bilan hamkorlik qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va muvaffaqiyatga erishish bo‘yicha ijobiy natijalar yuzaga keladi. Bu texnologiyalar talabalarga o‘z faoliyatlarini samarali boshqarishni o‘rgatadi, shuningdek, ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishishda yordam beradi.

Bundan tashqari, akmeologik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish nafaqat talabalarining individual rivojlanishiga, balki ularning o‘quv muassasalariga va kasbiy sohalarga moslashuvchanligini oshirishga yordam beradi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarga zamonaviy ish bozorining talablari va o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashishda muhim yordamchi omil bo‘ladi.

**Xulosa** qilib aytganda, kelajakda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini ta’lim jarayonida kengaytirish va joriy etish, talabalarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini davom ettirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari tomonidan yanada chuqurroq tadqiq etish va takomillashtirish zarur bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taminlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaror.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. Xodjiyeva F.O., Hamdamova L.O. Ta’lim jarayonida pedagogik akmeologiya fanining o‘rni va ahamiyati.// yosh olim va talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. Qo‘qon universiteti.2023-y.
6. Tillayeva G.H. Akmeologiya asoslari: o‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: «Tafakkur Bo‘stoni», 2014.
7. Ramazonova M.U. Akmeologik kompetentlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati // Oliy ta’lim sifati – yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili. - respublika ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro. 2024
8. Деркач А.А. (1994). Акмеология: пути профессионального развития личности. Москва: РАГС.
9. В.Г.Зацыкин (2001). Акмеология в образовании: технологии профессионального роста. Москва: РАГС.
10. В.Н. Дружин (2007) Акмеология: личностное и профессиональное развитие. Санкт-Петербург: Речь.
11. Н.В.Кузьмина (1972). Акмеологические аспекты профессиональной деятельности педагогов. Москва: Педагогика.

## PRAGMATIK VA PEDAGOGIK PRAGMATIK XUSUSIYATLARNI O‘QUV JARAYONIDA TAKOMILLASHTIRISH

*Ro‘ziboyeva Ma‘mura Abdunabiyevna,  
University of economics and pedagogy  
Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti v.b.*

*Bugungi kunda yuqori malakali pedagoglarni tayyorlashda pragmatik yondashuvdan foydalanish zaruriyati kuchaymoqda. Pragmatik pedagogika o‘zida pedagogik jarayonlarni isloh qilish vazifasini mujassamlashtiradi. Pedagogikaning ushbu yo‘nalishi doirasida ta‘lim-tarbiyaga oid falsafiy yondashuvlar o‘z ifodasini topadi. Shu bilan bir qatorda pedagogik instrumentlar, didaktik konstruksiyalar, eksperimentlar nazariyasi, didaktik jarayonlar taraqqiyoti, ta‘lim-tarbiyaning amaliy yo‘nalishlarini rivojlantirishga oid nazariyalar, talabaning faol harakatlanishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan o‘qitish metodikalari pragmatik pedagogikaning obyekti hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** pragmatik, pedagogik xususiyatlar, oliy ta‘lim, o‘qitish metodikasi, zamonaviy o‘qitish talablari, o‘quv topshiriqlari, nutqiy kompetensiya.*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЧЕБНОМ В ПРОЦЕССЕ

*Сегодня возрастает необходимость использования прагматического подхода в подготовке педагогов высшей квалификации. Прагматическая педагогика воплощает в себе задачу реформирования педагогических процессов. В рамках этого направления педагогики выражаются философские подходы к образованию. Кроме того, это связано с разработкой педагогического инструментария, дидактических конструкций, теории эксперимента, разработки дидактических процессов, практических направлений обучения. Теории, методы обучения, направленные на обеспечение активного движения обучающегося, являются объектами прагматической педагогики.*

***Ключевые слова:** прагматика, педагогические особенности, высшее образование, методика преподавания, современные требования к обучению, учебные задачи, речевая компетентность.*

## IMPROVEMENT OF PRAGMATIC AND PEDAGOGICAL PRAGMATIC PROPERTIES IN THE LEARNING PROCESS

*Today, there is a growing need to use a pragmatic approach in training highly qualified teachers. Pragmatic pedagogy embodies the task of reforming pedagogical processes. Within the framework of this area of pedagogy, philosophical approaches to education are expressed. In addition, this is associated with the development of pedagogical tools, didactic designs, experimental theory, development of didactic processes, practical areas of training. Theories, teaching methods aimed at ensuring the active movement of the student are the objects of pragmatic pedagogy.*

***Keywords:** pragmatics, pedagogical features, higher education, teaching methods, modern requirements for education, educational tasks, speech competence.*

**Kirish.** Hozir oliy ta‘lim tizimida o‘qitilayotgan 20 dan ortiq pedagogik turkum fanlar bo‘yicha didaktik talqinlarni o‘zbekona (substansial) talqin usullariga ko‘chirib, birinchidan, OTMda beriladigan talqinlarni uyg‘unlashtirishga, ikkinchidan, jahon pedagogikasi silsilasida o‘zbek didaktik maktabi o‘rnini barqarorlashtirishga real imkoniyatlar mavjud. Bu oliy pedagogik ta‘limda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi. Jahon pedagogikasida o‘quv topshiriqlarning metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug‘ullangan. Shuni ta‘kidlash joizki, g‘arb pedagogikasi amaliylikka asosiy e‘tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g‘oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyui tomonidan ishlab chiqilgan. Fanda taraqqiyotni belgilovchi va davlatni, millatni, bunyodkorlarini jahonga mashhur qiladigan ilmiy maktab-u yo‘nalishlar tadqiq manbaiga yangicha talqin etishning qat‘iy metodologik tamoyillari asosida yondashish natijasi o‘laroq shakllanadi va rivojlanadi. "Ta‘lim to‘g‘risida"gi qonun bilan o‘zbek pedagogikasining yevropaviy shablonlar asosida formal talqin etish asoratidan qutulib, hozir jahon pedagogikasi diqqatiga ham sazovor bo‘layotgan substansial tahlil metodologiyasi asoslariga - tom ma‘noda o‘zbekona metodologik usullarga - to‘la ko‘chirildi. Oliy pedagogik ta‘lim sohasida modul-kredit tizimi joriy etilishi, mustaqil ta‘lim topshiriqlariga e‘tibor kuchaytirishni ko‘rsatadi. Davlat ta‘lim standartlari va milliy baholash mexanizmlariga muvofiq tarzda pedagogika fanlarini o‘qitishda mustaqil ta‘lim topshiriqlari, savollar,

mashqlar va topshiriqlar mazmunini tanqidiy o‘rganish, ularni bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va baholash nuqtayi nazaridan tavsiflash va tasniflash zarurati mavjud. "Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmoni va 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ2909-son qaror va farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Pragmatik pedagogika g‘oyasiga ko‘ra ta’lim oluvchilarning rivojlanishiga ko‘maklashadigan barcha g‘oyalar samarali, foydali hisoblanadi. Mazkur g‘oyalar birinchi navbatda talabalarnitng pedagogik faoiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pragmatik pedagogik g‘oyasiga ko‘ra jamiyat hayotini tubdan o‘zgartirish uchun ta’lim-tarbiya tizimini tubdan qo‘zgartirish lozim. Ta’lim jarayoni shaxsni intellektual jihatdan rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak. Chunki jamiyat hayotining rivojlanishi uchun intellektual jihatdan yetuk mutaxassislar zarur. Ular taraqqiyotga turtki berib, tendensiyalarni jadallashtiradi va ijtimoiy tajriba ko‘lamini kengaytiradi. Mazkur tendensiyalar ta’lim oluvchilar faoliyatini jadallashtirish ularda kreativ fikrlashga yo‘naltirishga asos bo‘lishi kerak. Bilimlarni tizimli o‘zlashtirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy faollik, muvaffaqiyat qozonishga intilish, o‘quvchilar bilan hamkorlikka kirishish tajribasining tarkib toptirishi muhiti ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra bo‘lajak o‘qituvchilarga taqdim etiladigan bilimlar ularni ijtimoiy pedagogik faoliyat va hayotga xizmat qiishga tayyorlashi lozim. Ta’lim muassasalarining oldida turgan asosiy vazifalardan biri yoshlarga bilim berish va ularni tarbiyalash orqali ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Rus pedagoglari A.N.Leontiyev, J.A. Ponomarev, S.L.Rubenshteyn o‘quv topshiriqlari va ularning didaktikada o‘rnini, vazifalari haqida kuzatishlar olib borganlar[12;576]. Jumladan, Leontiyev "topshiriq" tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi: "Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib oldinga qo‘yilgan maqsaddir". Kreativ qobiliyatni o‘zlashtirish muvaffaqiyati motivatsion omillar va talabning umumiy ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish darajasiga bog‘liqdir. M.B.Elkonin konsepsiyasiga ko‘ra, bolani rivojlantirish jarayonida, avvalo, faoliyatning motivatsion tomonini, keyin esa texnik jarayonni o‘zlashtirish amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, olimlar quyidagi omillarni ham ajratib ko‘rsatadilar:

- ijtimoiy-siyosiy (tilning davlatga xosligi, maktabda o‘qish majburiyati);
- kasbiy qiymat (kasbga o‘qitish davlat tilida olib boriladi);
- ijtimoiy obro‘, jamoaviy mas’ullik;
- kommunikativ (ona tilida muloqot qilish zaruriyati);
- o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj, o‘zini takomillashtirish istagi bilan bog‘liq sabablar;
- utilitar (ma’lum hayotiy manfaatlarga erishish vositasi sifatida tilni bilish zarurati);
- xavotirlanish sabablari (auditoriyani orqaga tortmaslik, past baho olmaslik);
- ona tili va adabiyoti o‘qituvchisiga hurmat motivi.

Buni ham mazmun mohiyatini o‘zgartirish kerak. Bo‘lajak pedagogning shakllanish darajasiga ta’sir qiluvchi psixologik shartlar orasida kasbiy qobiliyat alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, pedagogik shakllanish faqatgina oliy ta’lim jarayoni bilan cheklanib qolmaydi, balki insonning butun ongli hayotida davom etadi. Ko‘pchilik zamonaviy olimlar “kompetensiya” tushunchasining tuzilish tarkibiga quyidagilarni kiritadilar:

- kasbiy kompetensiyasi;
- didaktik kompetensiyasi;
- fan kompetensiyasi;
- pragmatik kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya;
- insonning ma’naviy boyligi – doimiy ma’naviy rivojlanish, axloqiy me’yorlar, avvalo, muloqot me’yoriga rioya qilish;
- doimiy intellektual rivojlanish: ruhiy jarayonlar (xotira - vizual va eshitish, fikrlash – mavhum va majoziy, kuzatish, tasavvur – reproduktiv va ijodiy).

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Vilyam Kilpatrik pedagogik pragmatika doriasida loyiha metodini ishlab chiqdi. Loyiha metodi yordamida ta’lim maqsadli tarzda amalga oshiriladi. O‘quv faoliyatini amalga oshirish jarayonida ta’lim oluvchilar aniq didaktik topshiriqlarni rejasini tuzadilar, o‘quvchilarning qiziqishlari va mavjud tajribasini hisobga olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar L.S.Vigotskiy, I.Ya.Zimnyaya, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteynlarning psixologik tadqiqotlar tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog‘liqligi haqida gapirishga imkon beradi. “Fanning rivojlanishi” iborasi I.Ya.Zimnyayaning fikricha, quyidagilarni ta’minlaydigan murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rib chiqilishi kerak:

- fan haqida tushuncha hajmi;

- fan qoidalarini egallashning mohirlik darajasi;
- umumiy dunyoqarash;
- fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati, suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan bilish darajasi;
- ko‘rsatkichi o‘qish sur‘ati bo‘lgan o‘qish texnologiyasi darajasi;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darajasi, kognitiv qiziqishlarini shakllantirish darajasi.

Mazkur talablarni amalga oshirish uchun pedagogika ta‘limida pragmatik yondashuvga asoslangan o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish lozim. Buning uchun turli vaziyatga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta‘limning afzalliklarini o‘rganib chiqish kerak bo‘ladi. Muloqot davomida odatda savollarga to‘g‘ri javob bergani uchun talabalarga rag‘bat yoki noto‘g‘ri javob bergan taqdirda ularga dashnom beriladi. Darsda talabani savol berishga undash mumkinmi, ko‘p hollarda bunga e‘tibor berilmaydi, imkoniyat yaratilmaydi. Talabalar tomonidan o‘qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag‘batlantirilmaydi. Pedagogika fanlari mashg‘ulotlarida va boshqa fanlarda ham talabalar, asosan, javob beruvchidir. Aslida talabaga ko‘proq savol berishni o‘rgatish lozim. Muloqot jarayonida javob savolning qanday berilganiga bog‘liq bo‘ladi. Fikrlash qobiliyati faqat savollarga javob berish qobiliyati bilan emas, balki ularni so‘rash qobiliyati bilan ham belgilanadi. Talabalarda to‘g‘ri va mantiqli savol bera olish ko‘nikmasini hosil qilish zarur. Bu kelajakda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan fikrlovchi kishilarni tarbiyalash uchun juda muhimdir. Bu borada G‘arb pedagogikasi mo‘tadillik, amaliylik va erishuvchanlik tamoyillariga tayanadi. Pragmatizm – ta‘limni hayotga yaqinlashtirish, ta‘lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo‘lgan falsafiy-pedagogik yo‘nalishdir. Pragmatik falsafa asoschilari Ch.Pierz va Jeyms idealizm va materializmdan tashqarida turgan yangi falsafani yaratishni talab qilishdi. Dastlabki pragmatistlarning g‘oyalari amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyui tomonidan ishlab chiqilgan. Pragmatik pedagogika hayotdan olingan maqsadlarni himoya qiladi. Amerika maktabi pragmatik ta‘lim zarurligini isbotlay olgan va umumiy aholining taraqqiyoti va manfaatlariga mos keladigan ta‘lim maqsadlarini taklif qila olgan. Ta‘lim, D.Dyuning fikricha, insonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o‘zi. Tarbiya odamlarni birlashtirishi, yoshlarni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalash lozim. D.Dyui ta‘lim tizimi ijtimoiy muhitni yaxshilash, jamiyat turini inqilobiy o‘zgarishlarsiz o‘zgartirishning hal qiluvchi vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv maqsadlari D.Dyuning uslubiy ko‘rsatmalari zamonaviy nazariyalar bilan hamohang. Bu nazariyotchilarning fikrlarini umumlashtirib, pragmatik pedagogikani tarbiyalashning umumiy maqsadi shaxsning o‘z-o‘zini tasdiqlashi, tan olishi, degan xulosaga kelish mumkin. Uning fikriga ko‘ra, ta‘lim hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o‘rgatishi kerak. Pedagogika fanlarini o‘qitishda, pedagogik ta‘limida har bir dars mashg‘ulot orqali beriladigan savol, topshiriq va mashqlar ham xuddi shunday talabanning hayotiy muammolarini yechishga yo‘naltirishi lozim. Bu borada o‘zbek pedagogikasida olib borilayotgan tadqiqotlardan ham foydalanish lozim. Pragmatika (yun. pragma, pragmatos) pedagogikaning muloqot belgisi jarayonida amal qilishini o‘rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i. Pragmatika haqidagi asosiy g‘oya amerikalik olim Ch.Pirs tomonidan o‘rtaga tashlangan; yana bir amerikalik olim Ch.Morris ushbu g‘oyani rivojlantirgan va “Pragmatika” terminini semiotika bo‘limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

**Tahlil va natijalar.** Pedagogika ta‘limiga, xususan, o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishga yordam beradigan jihati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Masalan, fikrning oshkora va yashirin maqsadlari (fikrni yetkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va‘da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat va b.); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so‘zlashish qoidalari; so‘zlovchining maqsadi; so‘zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar savol berish, topshiriq bajarish, o‘zaro muloqotda muhim ahamiyatga egadir. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Didaktik pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi sub‘ekt, adresat, ularning aloqaaralashuvdagi o‘zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi. Shu o‘rinda – topshiriq usullari – talabanning real amaliy harakatlarini ta‘minlovchi, uning ichki munosabatini mujassamlashtiruvchi, munosabatni moddiylashtiruvchi, ikkinchisiga ko‘rinadigan ta‘sirlar turidir. Topshiriqlar yordamida talabalarining faolligi tashkil etiladi va uning ijobiy motivlari (ishtiyoq) (topshiriqlar, talablar, musobaqalar shaklida alohida va guruh faoliyati uchun turli xil vazifalar, namunalar va misollar ko‘rsatish, muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish) rag‘batlantiriladi. Ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalovchi darsning asosini fikrlashga yo‘naltiruvchi o‘quv topshiriqlari tashkil qiladi. Bunday zamonaviy dars javob berishi kerak bo‘lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

- Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta’lim jarayoni savol-javob asosida dars tashkil qilish;
- Darsni o’quv topshiriqlaridan o’rinli va maqsadli foydalangan holda amalga tashkil qilish;
- Talabalarning bilish faoliyati uchun tegishli bo’lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda matnga yoki mavzuga o’quv topshiriqlari ishlab chiqish;
- Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog’lanishlarni e’tiborda tutish.

Ma’lumki, har bir dars uch maqsadga erishishga qaratilgan: o’rgatish, tarbiyalash va rivojlantirish. Pedagogika ta’limida, asosan, didaktik bilimlarni rivojlantirish nazarda tutildi. To’g’ri, pedagogikasiz dars ham, darslik ham bo’lmaydi, biroq me’yorida bo’lishi kerak. Pedagogikani o’rganishni murakkab jarayonga aylantirib qo’yanmiz, kabiylar alohida masala, nega pedagogika o’qituvchilarining bilimi past baholanmoqda, chunki biz noto’g’ri o’lchayapmiz. Maktab o’qituvchisidan fanning bilim va ko’nikmasini so’ralmaydi, aslida olimlar ham fanning kichkina bir sohasini biladi xolos. O’qituvchidan pedagogikaning hamma sohasini bilishni talab qilish noto’g’ri, albatta. Bugun talabaga OTMda taqdim etilayotgan test savollariga tadqiqotchi, pedagoglar ham qoniqarli javob bera olmaydi, chunki o’quv topshiriqlari noto’g’ri shakllantirilgan. Aslida, pedagogik qoidalar emas, mavzu bilan ishlashga o’tish, rejada nima demoqchiligini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tizimini yaratish, talabaning darsliklarga mehr qo’yishini ta’minlaydi. Pedagogika nazariyalar – qoliqlardir, pedagogika ularga sig’maydi. Biz tilning ichki va tashqi imkoniyatlarini ko’rsatib berishimiz kerak, bu imkoniyatlar faqat savol berish bilan o’lchanmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida aytish kerakki, OTMda pedagogika fanlarini o’qitishda o’quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, topshiriq turlari, savol va topshiriqlarning vazifaviy farqlanishlari, pedagogika va metodikalardagi o’rni, tuzilgan o’quv topshiriqlarining tanlangan mavzu, shuningdek ta’lim maqsadiga mosligi, bo’lajak mutaxassislarning topshiriq tuzish ko’nikma va malakalarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqish masalalari muhim ahamiyatga ega. Pedagogika ta’lim tizimining pedagogika fanlarini metodik o’quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, xususan, OTMda pedagogika fanlarini o’qitish metodikasi dars mashg’ulotlarida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashga mo’ljallangan o’quv adabiyotlarida savol, topshiriqlarning berilishi tahliliy o’rganilishi, shuningdek, o’quv topshiriqlarini pedagogik va pragmatik jihatdan takomillashtirish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Pedagogika fanlarini o’qitishda o’quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, xususan, oliy ta’lim tizimida dars mashg’ulotlarida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashga mo’ljallangan o’quv adabiyotlarida savol va topshiriqlarning berilishi tahliliy o’rganildi, shuningdek, keyingi yillarda o’quv topshiriqlarini takomillashtirish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlarga qisman munosabat bildirildi.

#### Adabiyotlar:

1. Safarova R.G. Mechanisms of applying the cultural science approach to the didactic process based on the integration of pedagogical subjects. // International scientific journal, volume 2, issue 9, september 2023 uif-2022: 8.2
2. Смирнова Е.О. Педагогические системы и программы дошкольного воспитания. – М.: Владос, 2006. – 119 с.
3. Психология самосознания: хрестоматия. – Самара, 2000. 672 с.
4. Masharipova N.R. Ajdodlarimiz pedagogik qarashlari vositasida o’quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tomonidan o’tkazilgan “Yangi O’zbekiston - Uchinchi Renessans” shiyori ostida xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan o’quv materiallarini uzluksiz ta’lim tizimiga keng joriy etishni optimallashtirish” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi. – Nukus, 2023-yil 15-aprel
5. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi // O’zMU XABARLARI. - Toshkent, 2022. - №1/2/1. – B. 95-97. ISSN 2181-7324. <https://science.nuu.uz/>.
6. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Toshkent - 2022. 173 bet.
7. Axmedova M.E. Oliy ta’lim darslik va qo’llanmalarida o’quv topshiriqlari tadqiq va qo’llanilishi // O’zbekiston milliy axborot agentligi – O’ O’ZA Ilm-fan bo’limi (elektron jurnal). - Toshkent, 2022. - №3. - B 58-71.
8. Sharipov Sh.S.Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. O’quv qo’llanma. – T.: TDPU, 2011.

**BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT FANI O‘QITUVCHILARI HISSIY-IRODAVIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK STRUKTURASI**

*Salixov Shoxrux Mansurovich,*

*Buxoro davlat universiteti Psixogiya kafedrasida o‘qituvchisi,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*salikhovshoxrux@gmail.com*

*<https://orcid.org/0000-0001-7520-6498>*

*Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy madaniyat fani o‘qituvchilarining shaxsiy sifatleri shakllanishida ijtimoiy muhit hamda psixologik faktorlarning o‘rni tahlili keltirilgan. Bundan tashqari har bir sportchida rivojlantirish zarur bo‘lgan irodaviy sifatlar, hissiy boshqaruvchanlik kabi jarayonlarning amaliy natijalari asoslab berilgan. Bo‘lajak jismoniy madaniyat fani o‘qituvchilarida shaxsiy sifatleri shakllanishi psixologik omillarga bog‘liq ekanligi va bu holat juda muhim psixologik omil ekanligi jadvallarda o‘z aksini topgan.*

***Kalit so‘zlar:** ijtimoiy muhit, irodaviy sifatlar, sport faoliyati, psixologik omillar, pedagogik jarayon, o‘quv faoliyati, ijtimoiy psixologik motivlar.*

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**

*В данной статье анализируется роль социальной среды и психологических факторов в формировании личностных качеств будущих учителей физической культуры. Кроме того, обоснованы практические результаты таких процессов, как сила воли и эмоциональный контроль, которые необходимо развивать у каждого спортсмена. Из таблиц видно, что формирование личностных качеств будущих учителей физической культуры зависит от психологических факторов и что данная ситуация является очень важным психологическим фактором.*

***Ключевые слова:** социальная среда, волевые качества, спортивная деятельность, психологические факторы, педагогический процесс, воспитательная деятельность, социально-психологические мотивы.*

**SOCIAL-PSYCHOLOGICAL STRUCTURE OF THE FORMATION OF EMOTIONAL-VOLITIONAL QUALITIES OF FUTURE PHYSICAL CULTURE TEACHERS**

*This article analyzes the role of the social environment and psychological factors in the formation of personal qualities of future physical education teachers. In addition, the practical results of such processes as willpower and emotional control, which need to be developed in every athlete, are substantiated. The tables show that the formation of personal qualities of future physical education teachers depends on psychological factors and that this situation is a very important psychological factor.*

***Keywords:** social environment, volitional qualities, sports activity, psychological factors, pedagogical process, educational activities, social and psychological motives.*

**Kirish.** Har bir jamiyat o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetishishidan manfaatdordir. Buning uchun ma‘lum shart-sharoitlar yaratib berilishi kerak.

Jismoniy tarbiya va sport davlatimizda ta‘limning ajralmas qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, maktablarda turli sport to‘garaklari ishlab turishi hamda tinimsiz sport musobaqalarining uyushtirilishi bugungi kunda Respublikamiz sportining juda ko‘p sohalari bo‘yicha jahon miqyosi darajasiga ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan: boks, kurash, futbol, engil atletika, dzyudo va shu kabi sport turlarida.

Jismoniy tarbiya va sport rivojlanib borgan sari bu sohaga psixologiyani ham nechog‘lik lozimligi va zarurligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Sportda psixologiya bilan bog‘liq masalalar qadimgi vaqtlarda ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, qadimgi Gretsiyada jismoniy baquvvat qullar tanlab olinib, ularni hayot-mamot jangiga nafaqat jismoniy, balki psixologik tomonlama ham tayyorlashgan. Qolaversa Gretsiyada olimpiada o‘yinlari tashkil etilgan. Lekin bu ishlar o‘sha vaqtlarda ilmiy asosda olib borilmagan.

Sport bilan shug‘ullanish jismoniy baquvvat bo‘lishdan tashqari insonlarning ruhiyatiga ham, mehnat samaradorligining o‘sishiga ham yordam beradi. Ayniqsa, aqliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilar o‘z

faoliyatlarini jismoniy mashqlar, harakatlar bilan almashtirib turishlari zarur. Bu psixologik tomondan olib ko‘rilganda ham foydalidir.

Sportchilarda hissiy-irodaviy sifatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari o‘rganish va u bilan bog‘liq ilmiy asoslarni ishlab chiqish bugungi kunda davlatimiz sportchilarini har tomonlama o‘z ustida ishlovchan sportchilar bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi.

Ma‘lumki, sportchilar faoliyati natijalari uchun mas‘uliyatni tashqi kuchlarda va sharoitlarda qayd qilish, shuningdek, shaxsiy kuch va g‘ayratiga, qobiliyatiga moyillikni aniqlaydigan mezonlar nazorat lokusi (lotincha lotus o‘rnashgan joy va fransuzcha controle- tekshirish degan ma‘no anglatadi) deb ataladi. O‘z xulq-atvori va o‘z faoliyati sabablarini tashqi omillardan deb tushunishga moyil sportchilar mavjud.

Rossiya psixologlarining ko‘pgina eksperimental va amaliy monografiyalaridan irodaning har xil aspektlariga doir muammoga bo‘lgan qiziqishining susayganligiga guvoh bo‘lamiz.

Xorijiy psixologiyada esa o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab, aksincha iroda haqidagi tushunchalarning susayganligi bois, shu muammoga bo‘lgan qiziqishlar ortib bormoqda.

Dunyo psixologiyasidagi bunday ahvol ushbu muammoga doir savollarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni ko‘payishiga undaydi. Bunga javoban psixologik kategoriyalar tizimida iroda haqidagi tasavvurlarning rivojlanish tendensiyasi, iroda tushunchasi tarkibidagi o‘zgarishlar uning o‘rni va rolini aniqlashni talab qiladi.

Psixologiya fanida nazoratni lokallashtirish deganda shaxsning individual faoliyati natijalari uchun mas‘uliyatni tashqi kuchlarda va sharoitlarda qayd qilishni, shuningdek, ularning kuch-g‘ayratiga, qobiliyatiga moyilligini belgilaydigan sifatlar majmuasi tushuniladi. Nazoratni lokallashtirish tashqi (eksternal) hamda ichki internal turlariga ajratiladi.

Insonning hissiy irodaviy harakatlari va bunday harakatlarga qobilligi mehnat hamda ijtimoiy faoliyatda, ta‘lim jarayonida yuzaga kelgan. Ijtimoiy turmush sharoitlari, tobora o‘sib boruvchi turli xususiyatli ehtiyojlar odamlardan bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida borliqni o‘rganish, o‘zlashtirish va uni qayta qurishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni taqozo etgan. Hamkorlikdagi jamoaviy mehnat jarayonida odamda nerv sistemasi, xususan uning yuksak qismi – bosh miya rivojlanib, takomillashib boradi, shu bois shaxsning psixik hayoti miyaning mahsuli yoki xossasi bo‘lganligidan miya faoliyatining buzilishi tufayli psixikada ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bosh miya po‘stlog‘idagi barcha bo‘linmalarning o‘zaro mutanosib ishlashi shaxsning me‘yordagi ruhiy faoliyatini ta‘minlab turadi.

Ilmiy natijalar tahlilining ko‘rsatishicha, iroda faqat tashqi xatti-harakatlarda namoyon bo‘lib qolmasdan, balki insonning ortiqcha, noto‘g‘ri harakatlarni qilmasligida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday qilib, hissiy irodaviy harakatlar ham qo‘zg‘alish, ham tormozlanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda ularning har ikkalasi bir-biriga uzluksiz ravishda ta‘sir o‘tkazib turadi.

**Asosiy qism.** Hissiy irodaviy harakatlar, ixtiyorsiz ish-harakatlardan farqliroq ongli ravishda bajariladi. Bu holda ongning faoliyati harakat maqsadini belgilashda, bu maqsadga erishish vositalari va yo‘l-yo‘riqlarini oldindan belgilashda, ma‘lum bir qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo‘ladi.

Hissiy irodaviy harakatning bajarilishida uning dastlabki qadami, irolaga bag‘ishlangan ko‘pgina psixologik adabiyotlarda maqsad qo‘yish deb beriladi. Maqsad deganda, P.I.Ivanov, odamning nima ish qilishi kerakligini, nimaga erishishi kerakligini va qanday qiyinchiliklarni engib o‘tishi lozimligini anglab yetishni tushunishga diqqatni qaratadi.

**Shuningdek, hissiy irodaviy harakat bosqichlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi:**

– harakat maqsadini belgilash;
– maqsad va vositalarni belgilash;
– qarorga kelish;
– qarorni ijro etish;
– ichki qarshiliklarni yengish;
– tashqi qarshiliklarni yengish;
– bajarilgan ishga baho berish.

Ushbu bosqichlar bajarilishda ketma-ketlik ko‘rinishini olib, har biri o‘ziga xos tizimlilikni tashkil etadi. Masalan, harakat maqsadini belgilashda ehtiyojlarning faol tomoni bo‘lgan intilishlar ko‘zga tashlanadi. Intilish ehtiyojni qondira oladigan narsaga, shu ehtiyojni qondirish uchun qidirib topish yoki yangidan yaratish, o‘zgartirish va hokozo lozim bo‘lgan narsaga qaratilgan bo‘ladi.

Anglash darajasiga ko‘ra intilishlar istak, tilak va xohish darajalariga bo‘linadi.

Maqsad va vositalarni belgilashda ularning ma’qul yoki ma’qul emasligi chamalab ko’riladi. Bunday holda iroda uchun hissiy irodaviy xatti-harakat motivatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu bois irodaning negizini shaxsning xatti-harakatlari va ishlarining keng ko’lamli, rang-barang xususiyatli motivlashtirilishiga omil tariqasidagi ehtiyojlarni vujudga keltiradi. Psixologiyada motivlashtirishning uch turi mavjudligi ta’kidlanadi.

Shaxsning ehtiyojlarini qondirish bilan shartlangan, uni faoliyatga undovchi tarzda vujudga keluvchi motiv sifatidagi motivlashtirishdir. Mazkur holatda motivlashtirish faollik nima sababdan vujudga kelishini, shaxsni faoliyatni amalga oshirishga undovchi ehtiyojlar mohiyatini tahlillashga xizmat qiladi.

Motivlashtirish faollik nimalarga yo’naltirilganligini, nega aynan shunday xulq-atvor tanlanganligini, nima uchun boshqasiga e’tibor berilmaganligini asoslashga qaratiladi. Bu o’rinda motivlar shaxsning xulq-atvor yo’nalishini tanlashni aks ettiruvchi sabablar funksiyasini bajaradi. Bularning barchasi yaxlit holda keltirganida inson shaxsining yo’nalishini vujudga keltiradi.

Motivlashtirish – bu inson axloqi va faoliyatini o’zi boshqaruvchi vosita tariqasida namoyon bo’lishidir. Ushbu vositalar tarkibiga emotsiyalar, xohishlar, tilaklar, qiziqishlar, mayllar va boshqalar kiradi. Masalan, emotsiyada insoniy fe’l-atvorning shaxsiy aks ettirish mohiyati baholanadi, binobarin, uning tub maqsadi faoliyat tuzilishiga mos tushmay qolsa, u taqdirda his-tuyg’ular uning yo’nalishini o’zgartiradi. Buning natijasida fe’l-atvor qayta quriladi, oldingi harakatlarni jadallashtiruvchi yordamchi kechinmalar va boshqalar.

Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo’lib, ular abuliya (yunoncha abulia-qat’iyatsizlik degan ma’noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha apraxia-harakatsizlik ma’nosini bildiradi) atamaları bilan ifodalanadi. Abuliya – bu miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan tarzda shunday qila olmaslikdan iborat inson ojizligidir. Masalan, shifokor ko’rsatmalariga rioya qilish zarurligini to’g’ri fahmlagan abuliya kasali bilan shikastlangan bemor biror narsani bajarishga o’zini mutlaqo yo’llay olmaydi. Apraksiya-miya tuzilishining shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidan iborat psixopatologik holatdir. Nerv to’qimalarining buzilishi miyaning peshona qismlarida yuz bersa, u holda xatti-harakatlarni erkin to’g’rilashda buzilish namoyon bo’ladi, natijada iroda akti bajarilishi qiyinlashadi. Abuliya va apraksiya-psixikasi og’ir kasallangan insonlarga xos, nisbatan noyob, fenomenal psixopatologik hodisalardir. Lekin pedagogik faoliyatda uchraydigan irodaning sustligi miya patologiyasi bilan emas, balki noto’g’ri tarbiya mahsuli bilan tavsiflanadi.

Iroda sustligining yaqqol (tipik) ko’rinishlaridan biri – bu yalqovlik hisoblanib, shaxsning qiyinchiliklarini engishdan bosh tortishga intilishi, hissiy irodaviy kuch-g’ayrat ko’rsatishni qat’iy ravishda istamasligida o’zini aks ettiruvchi illatdir. Yalqovlik-shaxs ojizligi va hissiy irodaviy sustligining, uning hayotga layoqatsizligining, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatga (hamkorlikka) loqaydligining ifodasidir. Yalqovlik-shaxsning ruhiy qiyofasi bo’lib, uzluksiz tarbiyaviy ta’sir va o’zini o’zi tarbiyalash orqali bartaraf etish imkoniyati mavjud ruhiy nuqsondir.

Shunday qilib, hissiy irodaviy harakatda uni motivlashtirishning uchta jabhasi, ya’ni faollik manbai ekanligi, inson shaxsining yo’nalganligi, o’zini o’zi boshqarish vositasiligi aks etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko’rinib turibdiki, irodaning asosi motivlashtirishga sabab bo’luvchi ehtiyojlardan iborat ekanligi dalillab o’tiladi. Ehtiyojlar esa hissiy irodaviy harakatlar bajarilishini ta’minlaydigan yoki ularga to’sqinlik qiladigan motivlarga aylana boradi. Hissiy irodaviy harakatlarning motivlari muayyan darajada anglanilgan xususiyat kasb etadi va shaxsni ularni amalga oshirishga yo’naltirib turadi.

**Xulosa.** Haligacha hissiy irodaviy faollikni bildiruvchi tushunchalarni ajratishda yoki identifikatsiya qilishda katta qiyinchiliklar mavjud. Ota-onasidan o’ziga yoqib qolgan o’yinchoqni hozirning o’zida sotib olib berishlarini talab qilayotgan bola o’zida qat’iylik xususiyatlarini namoyon etadimi yoki qattiq turishliknimi? Intizomlilik va tashabbuskorlik har doim ham iroda kuchini xarakterlaydimi? Nima uchun psixologlarda qat’iyatlilik, albatta, dadillik bilan birga aytib o’tiladi? Axloqiy va hissiy irodaviy sifatlar o’rtasidagi chegara qaerda? Barcha hissiy irodaviy sifatlar ham axloqiymi? Shu va yana boshqa bir qator savollar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham qiziqish uyg’otadi. Chunki hissiy irodaviy aks ettirishlar diagnostikasining metodlari hamda konkret bir hissiy irodaviy sifat taraqqiyotining pedagogik metodlari ushbu muammolar yechimiga bog’liqdir.

Yuksak g’oyaviy tamoyillarga asoslangan ongli qat’iyat va sabotlilik kuchli iroda belgilaridandir; qat’iyatsizlik, ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarila olishiga shubha bilan qarashlik va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir. Iroda kuchi qat’iyatlikda ifodalanadi. Qat’iyat qarorning bajarilishiga to’la ishonch va qarshilik hamda qiyinchiliklar qanchalik katta bo’lmasin uni, albatta, amalga oshirishga otlanishdir. Jazm o’ziga o’zi buyruq berishdir. Vijdoniy burch talabi yoki yuksak maqsadni amalga oshirish

tufayli odamning kerak bo‘lib qolgan paytda o‘lim bilan hayot o‘rtasidan birontasini darhol tanlab ola bilishida ko‘rinadigan jazm, kuchli iroda dalilidir.

Psixologlar o‘rtasida hissiy irodaviy sifatlarning mohiyati, tarkibi, miqdori va klassifikatsiyasi masalasi bo‘yicha sezilarli fikrlar qarama-qarshiligi mavjud. Ba’zi bir mualliflar shaxsning hissiy irodaviy sifatlari haqida gapirayotganida birdaniga boshqa so‘z birikmasi – “iroda sifati” ga murojat qilishi va shu orqali o‘zlari bilmagan holda irodani shaxs tushunchasiga tenglashtirishadi. Bir qarashda bu o‘zgarishda hech bir jiddiy muammo yo‘qdek, aslida esa bu holat ma’lum bir nazariy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Misol uchun, V.A.Ivannikov yozadiki, “hissiy irodaviy sifatlarning mohiyati va o‘ziga xos belgilarini ajratib o‘tmagan holda ularni irodaga taalluqli deb topish yetarlicha asoslanmagan hisoblanadi, ushbu xususiyatlar orqali irodaning tabiatini tushunishga yondashuvi esa, biz uchun yopiq bo‘lib qoladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi: Jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik /tarj. M.Omon. – T.: “Mehridaryo”, 2011.
2. Гиппенрейтер Е.Б. О природе человеческой воли // Психологический журнал. 2005. № 3.
3. Загайнов Р.М. К проблеме уникальности личности спортсмена-чемпиона. “Спортивный психолог” журналы №1(4), 2005.
4. Salixov S.M., Salixov T. M. Bo‘ljak jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 3. – С. 1013-1019.4.
5. Mansurovich S.S. Methodology of organizing physical education lessons through digital technologies // European Journal of Modern Medicine and Practice. – 2022. – T. 2. – №. 4. – С. 107-111.

## ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR NUTQI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Shadiyev Feruz Djaxonovich,*

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar nutqi shakllanishining psixologik jihatlari o'rganilgan. Shu bilan birga, bugungi kun ta'lim jarayonlarida bolalar nutqi shakllanish jarayonida yuzaga keladigan psixik jarayonlar hamda buni oldini olishga qaratilgan ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, o'yin faoliyati, nutqiy buzilish, kommunikatsiya, individuallik, ong, xotira, tafakkur.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЧИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

*В данной статье рассматриваются психологические аспекты формирования речи детей младшего школьного возраста. Вместе с тем, сегодня в образовательных процессах представлены психические процессы, происходящие в процессе формирования речи детей, а также научно-теоретические данные, направленные на её предупреждение.*

**Ключевые слова:** обучение, игровая деятельность, речевые нарушения, общение, индивидуальность, сознание, память, мышление.

## PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SPEECH FORMATION OF CHILDREN OF YOUNG SCHOOL AGE IN A MODERN EDUCATIONAL ENVIRONMENT

*This article explores the psychological aspects of the formation of speech of children of small school age. At the same time, today in educational processes, psychic processes that occur in the process of formation of children's speech, as well as scientific and theoretical data aimed at preventing this, are cited.*

**Keywords:** education, game activity, speech disorders, communication, individuality, consciousness, memory, thinking.

**Kirish.** Bugungi kunning ta'lim-tarbiyaviy tizimi bolaning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun nutqning rivojlanishi ularning shaxsiy va intellektual kamolotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Nutq orqali bola o'z fikrlarini ifodalashni, atrof-muhit bilan samarali muloqot qilishni va yangi bilimlarni egallashni o'rganadi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim muhitida kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqini shakllantirish masalasi psixologiya, pedagogika va lingvistika sohalarida dolzarb mavzulardan biridir.

Kichik maktab yoshi (7–11 yosh) bolaning faol ijtimoiylashuv davri bo'lib, bu bosqichda nutqni rivojlantirish alohida e'tiborni talab qiladi. Bolaning nutq qobiliyati uning muloqotga kirishish, o'quv jarayonlarini samarali o'zlashtirish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun asosiy omil hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhitdagi axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va o'z so'z boyligini kengaytirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu boisdan, ta'lim muhitida nutqni shakllantirish jarayoni bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodik yondashuvlar, xususan, interfaol usullar, o'yin shaklidagi mashg'ulotlar va multimediya vositalari bolalarning nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, pedagog va ota-onalarning bolalar bilan o'zaro muloqoti, ularning psixologik ehtiyojlarini tushunishi va qoniqtirishi muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy ta'lim muhitida kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqini shakllanishini o'rganish ilmiy jamoatchilikning diqqat markazidagi masalalardan biri hisoblanadi. Bu boradagi ilmiy adabiyotlar nutqning rivojlanishini bola shaxsiyati va intellekti shakllanishining muhim omili sifatida talqin etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshi bolaning muloqot qobiliyatlari rivojlanishi uchun hal qiluvchi davr bo'lib, nutqni o'rgatishda psixologik, pedagogik va lingvistik yondashuvlar uyg'unlashuvi zarur.

L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalar nutqi ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini kiritib, bolalarning muloqot va faoliyat jarayonida kattalar yoki bilimdon tengdoshlarning yordamiga tayanib rivojlanishini ta'kidlaydi [10]. A.N. Leontev esa bolalarning nutq faoliyatini o‘rgatishda amaliy faoliyatni markazga qo‘yadi, chunki bolaning nutqi uning faoliyat turi bilan chambarchas bog‘liq [3]. D.B. Elkonin esa o‘yin faoliyati bolalarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini qayd etadi.

Rus olimlari bilan bir qatorda g‘arb psixologlari ham bolalar nutqi rivojlanishining mexanizmlarini o‘rganganlar. J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasida bolaning tafakkur va nutq ko‘nikmalari bosqichma-bosqich rivojlanishi ko‘rsatilgan. Piaje fikricha, kichik maktab yoshida bolalar “betaraf” fikrlashdan mantiqiy fikrlashga o‘tadi, bu esa ularning nutqini yanada boyitadi [5]. B.F. Skinner esa nutq o‘rganish jarayonini mustahkamlash nazariyasi asosida tushuntiradi: bolaning nutqi atrofdegilar bilan muloqot jarayonida rag‘batlantirish va mukofotlash orqali rivojlanadi [6]. Chomsky esa inson nutqi genetik jihatdan belgilangan qobiliyat sifatida rivojlanishini ta'kidlaydi, bu esa kichik yoshdagi bolalarda grammatik tuzilmalarni tabiiy ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi [1].

Ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirish masalalari pedagogika fanida ham keng o‘rganilgan. T.N. Ushinskiy o‘quvchilar nutqini rivojlantirish uchun ularning yosh xususiyatlariga mos metodlarni qo‘llash zarurligini ta'kidlagan [9]. M.I. Lisina bolalarning muloqot ehtiyojlarini qondirish orqali ularning so‘z boyligini kengaytirish va grammatik tuzilmalarni shakllantirishni tavsiya etadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar interfaol metodlar, o‘yin faoliyatlari va multimediy texnologiyalaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi [4]. Jumladan, G.K. Selevko va R.M. Gilazov zamonaviy texnologiyalarni ta'limda qo‘llash bolalar nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini ta'kidlaydilar [8].

Shuningdek, lingvistlar ham bolalarning nutqini rivojlantirishni o‘rganishda muhim hissa qo‘shgan. N.I. Zinkin va A.A. Leontev bolalarning so‘z boyligini rivojlantirishda faol lug‘at ishlatish zarurligini ko‘rsatgan. Bolalarning fonetik ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning so‘zlashuv madaniyatini oshirish va grammatik qoidalarni mustahkamlash bu boradagi dolzarb masalalar hisoblanadi [4].

Yevropa tadqiqotchilaridan V. Shtern va J. Bruner nutqni rivojlantirishda ijtimoiy omillarning ahamiyatiga e'tibor qaratadilar. Bruner, xususan, bolalar nutqi atrof-muhit bilan o‘zaro ta'sir orqali shakllanishini ta'kidlaydi va "muloqot strukturasi" konsepsiyasini ilgari suradi. Bu g‘oya kichik maktab yoshidagi bolalarda nutq rivojlanishida o‘quv jarayonining ijtimoiy jihatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [7].

**Muhokama va natijalar.** Kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqini shakllantirish zamonaviy ta'lim va psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar bolalarning nutq rivojlanishi ularning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy kamolotida hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Bu davrda bola atrofdegilar olamni idrok qilish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma tarzda ifodalashni o‘rganadi.

Nutqni shakllantirishning asosi sifatida bolaning faol ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega. Bolalar kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida yangi so‘z va grammatik tuzilmalarni o‘zlashtiradi. O‘yin faoliyati, o‘qish, suhbat va boshqa o‘quv jarayonlari nutq ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali vositalaridir.

Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish bolalarning nutqini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Multimediy vositalari, didaktik o‘yinlar va interfaol darslar bolalarning so‘z boyligini oshirish, grammatik tuzilmalarni mustahkamlash va nutq madaniyatini shakllantirish uchun samarali vositalardir. Shuningdek, ta'lim jarayonida bolalarning individual ehtiyojlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.


Biz tadqiqotimizda A.P. Voronovaning "Nutq holatini va nutqdan tashqari funksiyalarni kompleks tekshirish" metodikasidan foydalandik. Bunda 2-sinf o‘quvchilarda 30 nafar hamda 4-sinf o‘quvchilaridan 30 nafar jami 60 nafar kichik maktab yoshidagi respondentlarni jalb qildik. Bu metodika bolalarda nutqni o‘rganish va rivojlanishning turli jabhalarini diagnostika qilishga qaratilgan keng qamrovli usuldir. Ushbu metodika nutqning turli komponentlari – fonetik, leksik-grammatik va mantiqiy-semantik tarkibiy qismlarini tahlil qilish bilan birga, bola psixologik rivojlanishining boshqa jihatlarini ham o‘rganadi. Metodikaning asosiy maqsadi nafaqat bolalarning nutqida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni aniqlash, bu kamchiliklarning sabablarini topish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Natijalar asosida bolalarning nutq rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar aniqlanadi va ularga yordam berish uchun individual yondashuvlar tavsiya qilinadi.

Metodikamizning statistik natijalariga to‘xtaladigan bo‘lsak “so‘z zahirasi” shkalasi bo‘yicha 4-sinflarda 2-sinflarga qaraganda sezilarli statistik farq kuzatildi. ( $U=275$ ;  $p=0,003$ ). “So‘z zahirasi” shkalasi

bo‘yicha 4-sinf o‘quvchilari 2-sinf o‘quvchilariga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijaga ega bo‘lgani ushbu yosh davridagi nutq va bilim rivojlanishining psixologik xususiyatlarini aks ettiradi.

«Nutq holatini va nutqdan tashqari funksiyalarni kompleks tekshirish» (A.P.Voronova)  
metodikasi orqali olingan natijalar tahlili (n=60)

Shkalalar	O‘rtacha qiymat M		U	Z	Ahamiyatlilik darajasi
	2-sinf N=30	4-sinf N=30			p
Nutqni rivojlantirish darajasi	3,5	4,3	300	-2,56	0,01
Nutqni tushunish	3,8	4,5	310	-2,34	0,02
Tovush talaffuzi	4	4,7	290	-2,7	0,007**
So‘zlarning bo‘g‘in tuzilishi	3,6	4,4	305	-2,4	0,01
Fonemik tasavvurlar	3,3	4,2	280	-2,86	0,004**
So‘z zahirasi	3,3	4,5	275	-2,9	0,003**
Grammatik qurilish	3,6	4,7	295	-2,63	0,009**
Nutqning izchilligi	3,1	4,2	265	-2,98	0,002**



**Izoh:** M – o‘rtacha qiymat;  
 $p \leq 0,05^*$ ;  $p \leq 0,001^{**}$ ;  $p \leq 0,0001^{***}$ ;

Birinchiidan, yosh o‘tishi bilan bolalarning so‘z boyligi kengayadi. 4-sinf o‘quvchilari ko‘proq mavzularni o‘rganishgan va maktab dasturida kengroq doiradagi til materiallari bilan tanishgan. Shu bois, ularning so‘z zahirasi faqat miqdoriy jihatdan emas, balki sifat jihatidan ham boyib boradi. Bu, ayniqsa, mavhum tushunchalar va kengroq leksik tuzilmalarni o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi. Ikkinchiidan, 4-sinf bolalarining kognitiv rivojlanish darajasi yuqoriligi so‘zlarni eslab qolish va ulardan foydalanishda samaraliroq bo‘lishiga yordam beradi. Ular nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganishadi, ularni kontekstual jihatdan qo‘llashni ham yaxshi bilishadi. Bu esa so‘z zahirasining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Uchinchiidan, 2-sinf va 4-sinf o‘quvchilari o‘rtasidagi farq ijtimoiy va kommunikativ tajriba bilan ham bog‘liq. Katta yoshdagi bolalar o‘qituvchilar, ota-onalar va tengdoshlar bilan muloqotda ko‘proq tajriba orttirishgan. Bu jarayon ularning yangi so‘zlarni faol o‘zlashtirishlariga va muloqotda samarali qo‘llashlariga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta’lim dasturlaridagi farqlar ham bu natijaga ta’sir qiladi. 2-sinfda bolalar ko‘proq asosiy til qoidalarini o‘rganishiga qaratilgan bo‘lsa, 4-sinfda o‘quvchilar mavzularning chuqurlashuvi va mavhum tushunchalar bilan ishlash orqali nutq imkoniyatlarini kengaytiradi.

Psixologik nuqtayi nazardan, 4-sinf o‘quvchilarining so‘z zahirasidagi bu o‘shish ularning intellektual va nutqiy rivojlanishi uchun muhim bosqichdir. Bu davrda bola so‘zlarni faqat yodlab emas, ma’no va mazmuniga ko‘ra tizimlashtirib foydalanishni o‘rganadi, bu esa uning kelgusidagi bilim olish jarayonini yengillashtiradi va samaradorligini oshiradi.

“So‘z zahirasi” shkalasi bo‘yicha sezilarli statistik farq 4-sinf o‘quvchilarining til va kognitiv rivojlanishda 2-sinf o‘quvchilariga qaraganda ancha oldinda ekanini ko‘rsatadi. Bu farq bolalarning o‘z so‘z zahirasidan qanday foydalanayotganiga, til rivojlanishidagi individual yondashuvlarning o‘rni va ta’lim vositalarining ahamiyatiga e’tibor qaratishni talab qiladi.

Metodikamizning navbatdagi “grammatik qurilish” shkalasi bo‘yicha 4-sinflarda 2-sinflarga qaraganda sezilarli statistik farq kuzatildi. ( $U=295$ ;  $p=0,009$ ). Yosh o‘tishi bilan bolalarning grammatik ko‘nikmalari rivojlanadi, bu esa ularning murakkab til strukturalarini anglash va ulardan foydalanish qobiliyatini oshiradi. 4-sinf o‘quvchilari grammatik jihatdan boyroq va murakkabroq gaplarni qurish qobiliyatiga ega bo‘lishadi, chunki bu yoshda ular maktab dasturi orqali kengroq grammatik bilimlarga ega bo‘lib, tilni chuqurroq tushunish darajasiga yetadilar. Bu o‘shish ularning kognitiv rivojlanishidagi tabiiy bosqichlarni va muloqotdagi tajribalarini aks ettiradi.

Shuningdek, katta yoshdagi o‘quvchilarning til bilan ishlash samaradorligini oshiradigan kengroq ijtimoiy va o‘quv tajribasi bor. 2-sinf o‘quvchilari hali til qoidalarini o‘zlashtirish jarayonida bo‘lsalar, 4-sinf o‘quvchilari ushbu bilimlarni amaliy qo‘llash bosqichiga o‘tadilar. Bu grammatik tuzilmalardan samarali foydalanishga yordam beradigan tajriba va kontekstual bilimlarning oshishi bilan bog‘liqdir.

Metodikangizning bu yoshda ko‘proq ta’sirchanligi ham muhim omil bo‘lishi mumkin. 4-sinf o‘quvchilari murakkab va tizimli mashqlarni bajarish orqali grammatik bilimlarini yanada chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. Bu esa metodikaning ushbu yosh guruhi uchun mosligini va o‘quvchilarning rivojlanishiga faol hissa qo‘shishini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Zamonaviy ta’lim muhitida kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqini shakllantirish jarayoni ularning psixologik rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy va ta’limiy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu davrda bolalarning nutq ko‘nikmalari shakllanib, so‘z boyligi kengayadi, grammatik tuzilmalarni anglash va ulardan foydalanish qobiliyati rivojlanadi. Nutqni shakllantirishga ta’lim usullari, o‘quv materiallarining murakkabligi va pedagogik yondashuvlarning mosligi muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik jihatdan, bu davr bolalarning kognitiv qobiliyatlari, eshitish, idrok va muloqot ko‘nikmalarining jadallik bilan rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bolalar nutqni nafaqat ma’no va mazmuniga ko‘ra tizimlashtirishni, balki muloqotda uni samarali qo‘llashni ham o‘rganadilar. Shuning uchun ta’lim muhitida ijtimoiy o‘zaro muloqotga asoslangan faol metodlardan foydalanish nutq shakllanishini jadallashtiradi.

Zamonaviy ta’limning interaktiv vositalari va kommunikativ yondashuvlari bolalarning nutq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlab, ularni kelajakdagi o‘quv jarayonlariga tayyorlaydi va ijodkorlik hamda erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

#### Adabiyotlar:

1. Chomsky Noam «Aspects of the Theory of Syntax» The MIT Press, Cambridge, MA 1965 251 p.
2. Jerome Bruner «The Process of Education» Harvard University Press, Cambridge, MA 27th edition 2003 y. 176 p.
3. Леонтьев, А.А. «Язык, речь, речевая деятельность» «Наука», Москва 1969 г. 288 с.
4. Лисина, М.И. «Общение как фактор воспитания и развития ребенка». - Издательство Педагогика, Москва 1982 г. 352 с.
5. Piaje, Jean «The language and thought of the child» Routledge & Kegan Paul, London 1959 y. 246p.
6. Skinner B. F. «Verbal Behavior» Appleton-Century-Crofts, New York 1991 y. 476 p.
7. Stern, William «Psychology of Early Childhood Up to the Sixth Year of Age» Routledge 2017 y. 320 p.
8. Селевко, Г.К. «Современные образовательные технологии». - Народное образование, Москва 1998 г. 256 с.
9. Ушинский, К.Д. «Родное слово». Книга для учителя» Государственное учебно-педагогическое издательство, Москва 1954 г. 368 с.
10. Выготский, Л.С. «Мышление и речь» Издательство Педагогика, Москва 1982 г. 352 с.

**MUSTAQIL TA'LIM KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT  
TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI, RAQAMLI INNOVATSIYALARGA ILMIY  
YONDASHUV**

*Shamuratova Nozima Ismoil qizi,  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Pedagogika yo'nalishi tayanch doktoranti  
nozimashamuratova9@gmail.com*

*Kalandarova Sharofat Matkarimovna,  
Buxoro davlat universiteti Pedagogika yo'nalishi tayanch doktoranti,  
Toshkent Xalqaro Universiteti, Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti  
sharofat1063@gmail.com*

*Mazkur ilmiy maqolada innovatsion pedagogik metodlar va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, oliy ta'lim tizimida talabalarining mustaqil ta'lim olishini to'g'ri tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish, talabani fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, samaraliroq o'zlashtirilishini ta'minlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Maqolada ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi, shuningdek, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining o'rni keng muhokama qilinadi. Talabalarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini rag'batlantiruvchi yondashuvlar ham tahlil qilinadi. Tadqiqot ishida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat talabalarining shaxsiy rivojlanishiga, balki ta'lim tizimining umumiy samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlovchi innovatsion texnologiyalar va pedagogik uslublarni joriy etilishi ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni kabi jihatlari yoritilgan. Talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan hamda mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishdagi muammolar va asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, ko'nikma, innovatsion metodlar, yo'nalishlar, sun'iy intellekt.*

**ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРИ РАЗВИТИИ  
НАВЫКОВ САМООБУЧЕНИЯ, НАУЧНЫЙ ПОДХОД К ЦИФРОВЫМ ИННОВАЦИЯМ**

*В данной научной статье даны рекомендации по формированию у студентов навыков самостоятельного обучения с помощью инновационных педагогических методов и технологий искусственного интеллекта, повышению качества образования путём правильной организации самостоятельного обучения студентов в системе высшего образования, повышению интереса учащихся к науке, обеспечению более эффективного её усвоения. В статье широко обсуждается применение инновационных педагогических технологий в формировании самостоятельных учебных навыков в образовательном процессе, а также роль интерактивных методов и информационно-коммуникационных средств. Также анализируются подходы, стимулирующие творческое и критическое мышление учащихся. В исследовательской работе отмечается, что развитие навыков самостоятельного обучения оказывает положительное влияние не только на личностное развитие учащихся, но и на общую эффективность системы образования, внедрение инновационных технологий, поддерживающих самостоятельное обучение, и педагога.*

***Ключевые слова:** самообразование, навыки, инновационные методы, направления, искусственный интеллект.*

**THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE  
DEVELOPMENT OF SELF-LEARNING SKILLS, SCIENTIFIC APPROACH TO DIGITAL  
INNOVATION**

*This scientific article provides recommendations on how to develop self-learning for students by using innovative pedagogical methods and artificial intelligence technologies in order to improve the quality of education by properly organizing independent education of students in the higher education system, as well as gain the student's interest in science and ensure more effective assimilation. The article discusses extensively the application of innovative pedagogical technologies in the formation of self-directed learning skills in the*

*educational process, as well as the role of interactive methods and information and communication tools. Approaches that encourage creative and critical thinking of students are also analysed. In the research work we sought impaction of self-education skills on the personal development of students, also on the overall effectiveness of the educational system, with innovative technologies and educators that support independent education. The scientific research carried out on the organization of self-education of students is analyzed, as well as information about the problems and main directions in the organization of self-learning activities.*

**Keywords:** *self-education, skills, innovative methods, directions, artificial intelligence.*

**Kirish.** Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim jarayonining yangi bosqichiga yo'l ochdi. An'anaviy ta'lim shakllaridan farqli o'laroq, SI texnologiyalari shaxsiylashtirilgan va interaktiv o'quv jarayonlarini yaratish imkonini beradi va pedagogdan tayyor ma'lumotlarni olib o'rgangandan ko'ra talaba mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim jarayonini yanada samarali va qulay qilishiga zamin yaratadi. Talabalarining mustaqil ta'lim olishiga e'tibor ancha yillar avval boshlangan, bugungi kunda Buyuk Britaniyada esa mustaqil ta'lim tizimidan foydalanib bilim olishga qiziqish 39,7 foizni tashkil etadi. Jahonning yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida o'quv texnologiyalarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish, bo'lajak kadrlarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublikamizda ham so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini ta'lim oluvchilari uchun mustaqil ta'limni samarali innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida [1] 2030-yilgacha talabalarining mustaqil ta'lim olish foizini kamida 60 foizgacha yetkazish maqsad qilib olingan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevral PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" [2], "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 14-oktabr 2024 yil PQ-358-sonli qarorlarida [3] sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirib borish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish dolzarbligi o'z aksini topgan. Talabalar orasida sun'iy intellekt texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, masofaviy hamda onlayn o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish uchun onlayn kurslar ishlab chiqish bugungi ta'lim tizimida bajarilishi zarur bo'lgan islohotlardan biri hisoblanadi. Buning uchun talabalarimiz raqamli texnologiyalardan foydalanishni bosqichma-bosqich mustaqil ta'lim tizimida o'rgatish zarurdir, zero mustaqil ta'limni raqamli texnologiya bilan integratsiya qilinmasa oliy ta'limda talabalarni samarali o'qitish imkonsizdir. Mustaqil ta'limda talabalar sun'iy intellekt va undan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi, raqamli texnologiya ularga ta'lim jarayonini nazorat qilish va egalik qilish imkoniyatini beradi, ular o'z ta'limini tartibga soladi, yo'naltiradi, baholaydi. "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasiga muvofiq, bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ishlari amalga oshirilmoqda[4].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Axborotlashgan ta'lim muhitida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha bir necha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, bo'lajak logopedlarni tayyorlashda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish mavzusi Maxmudova Madinaxon Sobirojonova tomonidan o'rganilgan[5]. Tadqiqotchi Tursunov Mirolim Ahmadovich o'zining ilmiy ishida axborot texnologiyalari fani misolida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish asosida talabalarining mustaqil ta'lim olish metodikasini takomillashtirishni o'rgangan[6]. Oliy ta'lim muassasalarida algebrani o'qitishda talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish metodikasi Najmiddinova Hilola Yoquvjanovna tomonidan o'rganilgan ishlab chiqilgan modeli taqdim etilgan[7]. Mustaqil ta'limni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari bilan N.Azizxo'jayeva [8] o'z ilmiy ishida o'rgangan. Rossiyalik olim Galina Titova tomonidan olib borilgan talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyalariga oid tadqiqotida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning innovatsion-pedagogik sharoitlari ilmiy asoslab berilgan. Ta'limning barcha bo'g'ini va turlari qatorida oliy ta'lim tizimini tubdan yaxshilash, bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirish" ustuvor vazifalar hisoblanadi. Shu bois, tadqiqotimizda "Kutubxona axborot faoliyati" yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

**Natijalar.** Faol metodlar va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida talabalarining mustaqil ta'lim olishiga ta'siri 2014 yil Avstraliyadagi Deakin Universitetida 365 kunlik tadqiqot o'tkazildi[9]. Dasturlash fani doirasida talabalar sun'iy intellektdan kod yozishda, mustaqil dasturlarni tuzishda, savollarga javob olishda foydalanishdi, tadqiqot natijasiga ko'ra sun'iy intellekt qiyin savollarga yechim topishda, oliy o'quv yurtlarida

o'qitish va o'rganishning imkoniyatlarini beradigan yangi mexanizm sifatida kashf qilindi. Biroq, bu texnologiyaning o'qituvchi o'rnini bosa olmasligi, ba'zi savollarga noto'g'ri talqinda sun'iy intellektdan javob berilishi aniqlandi[9]. Oliy ta'limda texnologiyaning haqiqiy salohiyati to'g'ri qo'llanilsa inson imkoniyatlari va o'qitish, o'rganish va tadqiqot imkoniyatlarini kengaytiradi, shu bois ham tadqiqotning maqsadi sun'iy intellektning ta'lim sohasi bo'yicha ilmiy munozaralarni qo'zg'atish maqsadida o'tkazildi. "Milliy sun'iy intellekt tadqiqotlari va Taraqqiyot strategik rejasi dasturi hisoboti doirasida 2016-yil oktabr oyida AQSH prezidenti Barak Obama tomonidan "Odamlar va sun'iy intellekt tizimlari o'rtasidagi devorlar asta-sekinlik bilan kengaymoqda sun'iy intellekt tizimlari inson imkoniyatlarini kengaytirmoqda va takomillashtirmoqda, inson va sun'iy intellektning o'zaro ta'sirini samarali usullarini ishlab chiqish uchun fundamental tadqiqotlar va hamkorlik zarur" degan fikrni bildirdi[10].

Oliy kasbiy ta'lim standartlariga ko'ra talabaning ta'lim olishi mustaqil ta'lim uchun butun o'qish davriga haftasiga o'rtacha 27 soatni tashkil etadi [11]. Talabalarning mustaqil ta'limini tekshirish uchun odatda o'qituvchi-professor tomonidan mustaqil ish vazifalari beriladi. Mustaqil ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad yuqori malakali, raqobatbardosh, xalqaro standartlarga javob bera oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash bilan birga o'quv dasturidagi fanlarni o'zlashtirish uchun auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va tartibga solish, o'quv materiallarini mustaqil o'rgana olish ko'nikmasini shakllantirish, tadqiqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalardan iboratdir[12]. An'anaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim ko'pincha cheklangan resurslar, o'qituvchi yordamining yetishmasligi va shaxsiylashtirilgan yondashuvlarning cheklovlari bilan to'qnashadi. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu cheklovlarni bartaraf etish va ta'lim jarayonini yangi sifat darajasiga ko'tarish imkoniyatini taqdim etadi. Talabalar sun'iy intellekt yordamida mustaqil o'rganish jarayonini muntazam ravishda baholash va ularning progressini kuzatib borishadi, ularning mustaqil ish topshiriqlariga turli vazifalar tayyorlash jumladan amaliy topshiriqlar, loyihalar, testlar, prezentatsiyalar, va hokazolarni texnologiya eslatib turadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari mustaqil ta'limni shaxsiylashtirish, baholash, monitoring qilish, interaktiv o'quv muhitini yaratish va talabalarni qo'llab-quvvatlashda faol qo'llaniladi Turli xil baholash usullarini qo'llash, ta'lim oluvchiga o'z ishlarini portfolio sifatida to'plashga yordam beradi, natijalarini hujjatlashtiradi, portfoliolar asosida talabalar o'z-o'zini baholashga undashi ham mumkin. Jumladan, Coursera, edX, Udemy kabi platformalarda SI talabalar bilim darajasini tahlil qilib, ularga individual o'quv yo'nalishlarini tavsiya qiladi. Har bir talabaning ehtiyojlariga mos kurslar va o'quv rejalarining shakllanishiga ko'mak bo'ladi, masalan Arizona davlat universitetida talabalarga 24/7 qo'llab-quvvatlash uchun sun'iy intellekt chatbotlarini ishlatiladi. Talabalar ma'muriy masalalar, o'quv materiallari va topshiriqlar bo'yicha tezkor maslahat oladi. Gruziya texnika universiteti sun'iy intellekt orqali talabalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini prognoz qiladi va ehtimoliy qiyinchiliklarni oldindan aniqlaydi. O'qituvchilar qiyinchiliklarga uchragan talabalarga erta yordam ko'rsatadi. Kaliforniya universitetlari tibbiyot, muhandislik va aviatsiya kabi murakkab sohalarda virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt yordamida simulyatsiyalarni qo'llaydi. Talabalar amaliy ko'nikmalarni xavfsiz muhitda mustaqil ravishda rivojlantiradi. Stanford universitetlari sun'iy intellekt asosida ilmiy tadqiqotlarni tezkor tahlil qilish va yangi kashfiyotlarni rag'batlantirishda foydalanadi. Bu esa tadqiqot jarayonini avtomatlashtirish va ilmiy ishlanmalarni tezlashtirish imkoniyatini yaratadi. Xorijiy tillarni o'rganish uchun interaktiv platformalar (Babel, Rosetta Stone) butun dunyo universitetlarida keng qo'llanilmoqda, onlayn ta'lim platformalari talabalarni geografik joylashuvdan qat'i nazar, ta'lim olish imkoniyati bilan ta'minlaydi. Bunda, onlayn testlar va baholash tizimlari sun'iy intellekt algoritmlari yordamida avtomatlashtirilgan bo'lgani uchun real vaqtda baholash va talabaning zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida xorij tajribasidan foydalangan holda 24/7 ishlaydigan sun'iy intellekt yordamchilari chatboxlarni yaratish onlayn testlar va baholash tizimlari SI algoritmlari yordamida avtomatlashtirish zarurdir. O'quv dasturi doirasida berilgan savollarga chatbox tezkor javob berib, darslarni tushuntiradi, talabalar murakkab mavzularni mustaqil o'rganishda tezkor yordam oladi. SI akademik maqolalarni izlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni sharhlashda yordam beradi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot loyihalari samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonining global va inkluziv bo'lishini ta'minlaydi.

**Muhokama.** Mustaqil ta'lim olishda ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirishda faol ishtirok etishi, o'z-o'zini boshqarish va o'zini baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Innovatsion metodlar asosida mustaqil ta'lim olish jarayoni samarali va qiziqarli tarzda tashkil etilishi, talabalarga o'z-o'zini rivojlantirish va kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beradi. Bejizga, amerikalik olim Piter Druker har doim muvaffaqiyat kaliti o'zingizni harakat qilishga majburlash, muvaffaqiyatingiz iste'dodga bog'liq emas, balki konfort zonangizdan qanday chiqishni bilishingizga bog'liq deb fikr bildirmagan[13]. Shu sababdan, talabalarni imkoniyati va ehtiyojlarini aniqlab, ushbu faktorlarni hisobga olgan holatda mustaqil ta'limni

tashkillashtirish zarur, bunda o'quv yili boshida talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari, o'rganish uslublari va maqsadlari haqida batafsil ma'lumotlar kerak bo'ladi. Talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini baholash va ularga zarur ko'nikmalarni o'rgatish kerak. Bunda 1-bosqich talabalarga mustaqil ta'lim olish jarayonini boshqarishda yordamchi o'qituvchi biriktirilishi zarur bo'ladi, mustaqil ta'lim olishi uchun talabaga zaruriy axborot savodxonligi kurslari o'tilishi zarur. Turli xil o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish mumkin, masalan masofaviy onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, mustaqil o'rganish materiallari, va elektron kutubxona va darsliklardan foydalanish usullari tushuntiriladi. Mustaqil ta'lim olishga motivni to'g'ri qo'yilishi talabaga akademik muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Rossiyalik olimlar Vladimir Maksimenko Mixaylovich va Nataliya Nikolaevna Krijevskayalar fikriga ko'ra oliy ta'limda talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini 4 ta yo'nalishga ajratiladi[14]:

1. Seminar va amaliy mashg'ulotga tayyorlanish.
2. Nazorat ishlariga tayyorlanish.
3. Loyiha tayyorlash.

4. Sirtqi bo'lim talabalari bilan hamkorlikda fanni o'rganishdan iborat deb hisoblashgan.

Ilmiy tadqiqotimizda mustaqil ta'lim faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlariga ajratdik:

1. Bilimlarni izlash va axborotni qayta ishlash: Talabalar turli manbalardan ma'lumotlarni mustaqil izlash, tanlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar.
2. Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish: Talabalar o'quv jarayonida mustaqil ravishda muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularga samarali yechim topish uslublari o'zlashtiradilar.
3. Ijodiy va tanqidiy fikrlash: Talabalarning yangi g'oyalarni ishlab chiqish va mavjud masalalarga tanqidiy yondashish qobiliyatlari rivojlantiriladi.
4. O'z-o'zini boshqarish va mas'uliyat: Talabalar o'qish jarayonini rejalashtirish, vazifalarni bajarish va natijalarni baholashda mustaqil harakat qilishga o'rganadilar.
5. Hamkorlikda ishlash va muloqot: Guruh bilan ishlash, fikr almashish va jamoaviy loyihalarda ishtirok etish mustaqil ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi. Innovatsion pedagogik metodlar va sun'iy intellekt texnologiyalari talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirib, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Mustaqil ta'lim ko'nikmalarining shakllanishi o'z-o'zini boshqarish, mas'uliyat va ijodkorlik kabi fazilatlarini rivojlantirish bilan birga ta'lim sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Shunday ekan, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash zarur.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5297046>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-7158604>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
5. Maxmudova, M. S. Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish // Ped.fan. doktori dis.- Toshkent: TDPU, 2021.-145 b.
6. Tursunov, M. A. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish asosida talabalarning mustaqil ta'lim olish metodikasini takomillashtirish” (Axborot texnologiyalari fani misolida // Ped.fan. doktori dis.- Qashqadaryo: Qarshi davlat universiteti, 2021
7. Najmiddinova, H.Y. Oliy ta'lim muassasalarida algebrani o'qitishda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish metodikasi // Ped.fan. doktori dis.- Namangan: Namangan davlat universiteti, 2011.-139 b.
8. Azixujayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent : 2003. - 76 b.
9. Popenici, S.A.D., Kerr, S. Exploring the impact of artificial intelligence on teaching and learning in higher education. RPTTEL 12, 22 (2017). <https://doi.org/10.1186/s41039-017-0062-8>

10. U.S. National Science and Technology Council (2016). National Artificial Intelligence Research and development strategic plan. Washington DC: Networking and Information Technology Research and Development Subcommittee.

11. Методика обучения изобразительной деятельности и конструированию: Учеб. пособие для учащихся . Н. Б. Халезова и др.; Под ред. Т. С. Комаровой. — 3-е изд., до-раб.— М.: Просвещение, 1991.- 256 с.: ил.— ISBN 5-09- 001621-6.

12. Shamuratova, N. I. Ta’lim sifatini yaxshilashda talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmi // N.I.Shamuratova. — Toshkent: O‘zMU xabarlari, 2024. — Vol. 1 No.1.9.1. — ISSN 2181-7324. — 229–230 b. —<https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.9.1.4175>.

13. Allen, B. (1998). Peter Drucker on the profession of management. The Journal of Academic Librarianship, 24(4), 334. [https://doi.org/10.1016/s0099-1333\(98\)90121-5](https://doi.org/10.1016/s0099-1333(98)90121-5).

14. Вербицкая Н.О. Учебный процесс: информация, анализ, управление // Н.О. Вербицкая, В.Ю. Бодряков. - М.: Сентябрь, 1998. - С. 127.

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Umarova Sitora Muxlisovna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.d (PhD)*

*Nematova Nigina Nabiyevna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti*

*Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati qanchalik muhimligi to‘g‘risidagi qarashlarini bayon etgan olimlarning foydalangan tadqiqot metodlari o‘rganilgan va tahlil qilingan. Xususan, bahs-munozara metodi orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qanday natijalarga erishish mumkinligi muhokama qilingan.*

**Kalit so‘zlari:** *tanqidiy fikrlash, kompetensiya, dogmatik fikrlash, bahs-munozara metodi, argumentatsiya, empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar, suqrotcha usul.*

## ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

*В данной статье анализируются учёные, которые высказали своё мнение о важности развития критического мышления у будущих учителей, и какие методы они использовали для реализации этого процесса. Объясняется, каких результатов можно добиться в развитии критического мышления с помощью метода дебатов, а также обсуждаются учёные, использовавшие метод дебатов в своей научной карьере, и их взгляды.*

**Ключевые слова:** *критическое мышление, компетентность, догматическое мышление, метод дебатов, аргументация, эмпатия, социальные навыки, сократический метод.*

## THE IMPORTANCE OF DEVELOPING CRITICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS

*This article analyzes the scientists who expressed their opinions about the importance of developing critical thinking in future teachers, and what methods they used to make this process happen. It is explained what results can be achieved in the development of critical thinking through the debate method, and the scientists who used the debate method during their scientific career and their views were discussed.*

**Keywords:** *critical thinking, competence, dogmatic thinking, debate method, argumentation, empathy, social skills, socratic method.*

**Kirish.** XXI asr axborot texnologiyalari oqimi davrida, ta‘lim-tarbiya tizimi sohasi bu oqimning keng qamrovli qismini o‘z ichiga olmoqda desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Ta‘lim va tarbiya tizimi ayni vaqtda yangi ijtimoiy tartib bilan jadal su‘ratlarda rivojlanishni taqozo qilmoqda. Bugungi davr o‘qituvchilaridan yangiliklarni oldindan taxmin qila oladigan, yangi g‘oyalarni yaratish orqali murakkab vaziyatlardan chiqishning bir necha yo‘llarini topadigan, berilgan muammoga kreativ va tanqidiy yondashuv orqali o‘z qarashlarini erkin ifodalay oladigan, ta‘lim jarayonida subyektiv munosabatlarga tayyor bo‘lgan o‘quvchilarni shakllantirishni talab qilmoqda. Rivojlangan xorij mamlakatlari ta‘lim tizimini o‘rganish davomida, o‘z kelayotgan yosh avlodga zamonaviy ta‘lim mexanizmi bo‘lgan kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish muhim qadamlardan biriligi o‘z isbotini topgan. Tanqidiy fikrlash – bu murakkab muammolarni hal qilish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning bir nechta imkoniyatlari va metodlari ko‘rib chiqiladi.

Fikrlashga nisbatan tanqidiy yondashuv insonning barkamollik darajisini o‘stirishi, uning dunyoni idrok qilishga nisbatan qarashlarini kengayishiga sabab bo‘lishi har bir falsafiy ilmga ega olimlar tomonidan izohlanib, tanqidiy fikrlash orqali insoniyat qanday yutuqlarga erishi shi haqida o‘z g‘oyalarini asarlarida tahlil qilib o‘tganlar. Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni juda muhim deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilimga erishish uchun odamlar mustaqil fikrlashlari, dalillarni sinchiklab tekshirishlari va turli fikrlarni tahlil qilishlari kerak. Farobiyning fikricha, ideal jamiyatda har bir fuqaro o‘z fikrini asosli va mantiqan izchil tarzda ifoda eta olishi zarur. Shuningdek, u insonlarni dogmatik fikrlashdan voz kechishga, shubhalanish va izlanishga undaydi. Farobiy tanqidiy fikrlashni insonning intellektual rivojlanishida asosiy omil sifatida ko‘radi va bu orqali jamiyatning umumiy taraqqiyotiga hissa qo‘shishni maqsad qilgan[1]. Bugungi kun o‘zbek olimlaridan S.S.G‘ulomov: “ Tanqidiy fikrlash bu-

tahlillarni eslab qolish va g'oyalarni isbotlash “- deya ta'rif beradi[2]. T.B.Nazarov tanqidiy fikrlashga “Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir” - deya izohlaydi. O'zbek olimlarining qarashlari orqali shuni tushunishimiz mumkinki, bir inson yetuk shaxs sifatida mukammallikka erishishni istasa avallo o'z faoliyatiga nisbatan tanqidiy yondashuvga ega bo'lishi naqadar muhim kompetensiya ekanligi izohlab o'tilgan. Tanqidiy fikrlash atamasiga xalqaro terminologiyada shunday ta'rif beriladi: “Grekcha so'z bo'lib fikrlashning „tanqidiy“ shakli ya'ni: criticos- tanqid, baholash, imtihon degan ko'p ma'nolarni anglatuvchi so'z hisoblanadi. Bu yerda „tanqid“ tushunchasi kundalik hayotda „ayblash“ ma'nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma'nosini bildiradi va baholash, aniqlash, hukm qilish, ajratish qobiliyati kabi ma'nolarga ega”[4]. Zamonaviy tanqidiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish borasida xorijiy olimlar an'anaviy ta'riflarga nisbatan tanqidiy fikrlash masalasiga sifat, tushuncha va jarayon deya kengaytirilgan holatda tahlil qildilar va o'z qarashlarini dalillar orqali yoritib berganlar. Ennisning fikricha, tanqidiy fikrlash diqqat va miya faoliyatini talab qiladi. Agar tanqidiy fikrlash ta'lim sohasiga kiritilsa, bu usul o'quvchilarning miya faoliyatini oshiradi va matnlarni boshqacha tushunishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash o'xshash materialdan juda ko'p turli burchak va istiqbollarni ochib beradi[5].

**Asosiy qism.** Tanqidiy fikrlash talabalarda bir muammoga bir necha yechimlar topa olish qobiliyatini shakllantirib, yangicha g'oyalarni paydo bo'lishiga zamin bo'lishi Ennisning ta'rifini sharhlaydi deyishimiz mumkin. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi o'quvchi yoki talabalarda o'z-o'zidan paydo bo'lib yoki rivojlanib qolmaydi. Bu qobiliyat ham albatta, pedagoglar tarafidan ma'lum bir texnologiyalar, metodlar va vositalar orqali bosqichma-bosqich shakllantiriladigan va odatiy fikrlash funksiyasiga aylantiriladigan jarayon hisoblanadi. Talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida bugungi zamonaviy pedagog ta'lim jarayonida turli ta'lim texnologiyalari va metodlari bilan qurollangan bo'lishi kerak. Hozirgi kunda eng dolzarb foydalanib kelinayotgan texnologiyalar: muammoli ta'lim texnologiyasi, integratsiya ta'lim texnologiyasi, metodlardan: case study, discussion (bahs- munazara), swot tahlil, davra suhbatlari kabilar bilan tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasida yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ayniqsa discussion ya'ni bahs munozara metodi talabalarda mustaqil, erkin fikrlashga va o'z qarashlarini tortinmay bayon qilishga yordam beradi.

**“Bahs-munozara” metodi** - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahsmunozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.

-Muammoli savol tashlanadi;

-turli fikrlar tinglanadi;

-fikr-g'oyalar to'planadi;

-tahlil qilinadi;

-aniq va maqbul yechimni topish.

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

Bahs-munozara metodi bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda foydali ta’lim metodi hisoblanadi. Ushbu metod orqali erishiladigan natijalar quyidagi jihatlarga bog‘liq.

**1. Fikrni to‘liq tahlil qilish.** Bahs-munozaralarda qatnashish bo‘lajak o‘qituvchilarga har qanday mavzu yoki masala haqida chuqurroq fikr yuritishga imkon beradi. Talabalar nafaqat o‘z nuqtayi nazarlarini ifodalaydi, balki boshqa ishtirokchilarning fikrlarini eshitish orqali mavzuni turli tomondan ko‘rib chiqadilar. Bu o‘z fikrlarini tahlil qilish va shakllantirishga yordam beradi. Bahsda qatnashish orqali talabalar bir masalaning barcha aspektlarini ko‘rib chiqishadi, bu esa tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

**2. Argumentatsiyani kuchaytirish.** Bahsda qatnashish talabalarga o‘z fikrlarini asoslash, dalillar bilan ta’minlash va argumentlar yaratishni o‘rgatadi. Tanqidiy fikrlashda bu juda muhim, chunki bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat fikrlarni bildirish, balki bu fikrlarni qanday asoslashni, qanday dalillarga tayanishni bilishi kerak. Bahs davomida fikrlarni ishonchli va kuchli tarzda taqdim etish uchun dalillarni keltirish va mantiqiy bog‘lanishlarni izlash talab qilinadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**3. Muammolarni turli nuqtayi nazardan ko‘rish.** Bahs-munozara jarayonida ishtirokchilar turli nuqtayi nazarlarga ega bo‘ladilar. Talabalar har xil fikrlarni tahlil qilib, turli qarashlarni tushunishga harakat qilishadi. Bu turli qarashlarni qabul qilish va ularni tahlil qilish tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchilar har bir nuqtayi nazarni asoslab ko‘rish, qarama-qarshi fikrlarni eshitish va ularni muvozanatlash qobiliyatini oshiradilar.

**4. Eshitish va muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.** Bahsda faol ishtirok etish, bo‘lajak o‘qituvchilarga boshqa odamlarning fikrlarini tinglashni va ularga xolisona munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi. Bu esa o‘qituvchilarni nafaqat o‘z fikrlarini bildirishga, balki boshqalarni tinglashga va ularning fikrlarini hurmat qilishga undaydi. Eshitish qobiliyati va muhokama qilish ko‘nikmalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda zaruriy elementlardir. Bo‘lajak o‘qituvchilar boshqa fikrlarni tinglash va ularni baholash orqali o‘z fikrlarini kengaytirishadi.

**5. Qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish.** Bahs-munozara metodi bo‘lajak o‘qituvchilarga qaror qabul qilishda yordam beradi. Bahs davomida talabalar qarama-qarshi fikrlarni ko‘rib chiqib, o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy asoslangan qarorga aylantirishadi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchilarning dars jarayonlarida yoki o‘quvchilarga yordam berishda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, bo‘lajak o‘qituvchilar turli pedagogik metodlarni tanlashda yoki muammoli vaziyatlarni hal qilishda tanqidiy yondoshuvni qo‘llay oladilar.

**6. Empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.** Bahs-munozara jarayonida talabalar empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar. O‘z fikrlarini asoslab, boshqalarning fikrlarini tushunish va ularga hurmat ko‘rsatish orqali ishtirokchilar ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu pedagogik muhitda ijobiy munosabatlarni o‘rnatishga, o‘quvchilar bilan yaxshi aloqalar o‘rnatishga yordam beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlardan biri bo‘lgan bahs-munozara metodining ildizi qadimgi yunon faylasufi Suqrotga borib taqaladi. Suqrot o‘zining “Suqrotcha usuli” orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga harakat qilgan[6]. Bu usulda Suqrot o‘quvchilarga savollar berib, ularni mantiqiy va tahliliy javoblar berishga undagan. Bu metoddan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini kuchaytirish va ularni mustaqil tahlil qilishga undashni maqsad qilgan. John Dewey: XX asrning mashhur amerikalik pedagogi John Dewey ham bahs-munozara metodiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Dewey ta’lim jarayonini interaktiv, tajriba asosida o‘qitish zarurligini ta’kidlagan. U o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishni, o‘z fikrlarini erkin ifodalashni va boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rgatish kerakligini aytgan. Deweyning fikricha, bahs-munozara ta’limi, o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yordam beradi[7]. Paulo Freire — braziliyalik pedagog va ta’lim nazariyotchisi, ayniqsa uning "Ta’lim va ozodlik" asari bilan tanilgan. Freire o‘zining pedagogik uslubida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv va erkin bahs-munozara muhitini yaratishga e’tibor qaratgan. U ta’limni ijtimoiy adolat va tenglik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqqan va o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undagan. Freire uchun ta’lim - o‘quvchilarga dunyoqarashini o‘zgartirish, ularni o‘z shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatlarini tushunishga o‘rgatish jarayonidir[8].

MDH davlatlaridan Lev Vygotskiy — rus psixologi va pedagogi, o‘zining ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bilan mashhur. Vygotskiy ta’lim jarayonida bahs-munozara va kommunikativ interaktivlikni muhim deb bilgan. U o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muloqot va ijtimoiy interaksiya o‘rnini ta’kidlagan. Vygotskiy shuningdek, "yaqinroq rivojlanish zonasini" (ZPD) tushuncha kiritdi, bu o‘quvchilarga o‘qituvchi yoki hamkasblari bilan interaktiv muloqot orqali yangi bilimlarni egallash imkoniyatini beradi[9]. Jerome Bruner — amerikalik psixolog va pedagog, o‘qitishning kognitiv yondashuvlarini ishlab chiqqan. Bruner tanqidiy fikrlash va muhokama metodlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. U o‘qituvchilar o‘quvchilarga faqat bilimni berish bilan cheklanmasdan, ularga qanday qilib

o‘z bilimlarini yaratishni, tahlil qilishni va bahs-munozara qilishni o‘rgatish kerakligini ta’kidlagan[10]. Bruner ta’lim jarayonini o‘quvchilarning faol ishtiroki orqali o‘qish va tushunish jarayonini chuqurlashtirishga qaratgan. Michael Fullan — ta’limda o‘zgarishlar va innovatsiyalar bo‘yicha ekspert. U ta’limdagi islohotlar va o‘qituvchilarni zamonaviy metodlarga tayyorlashga katta e’tibor bergan. Fullan tanqidiy fikrlash va bahs-munozara metodini ta’limda o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim omil sifatida ko‘radi. Uning fikricha:” O‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning pedagogik yondashuvlarini yangilash va o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berish imkonini beradi”[11]. Thomas Kuhn — ilm-fan tarixshunosi va falsafasi sohasidagi mashhur mutaxassis. U ilmiy inqiloblar va ilmiy fikrlashning evolyutsiyasi haqida o‘zining "Ilmiy inqiloblar tuzilishi" asarida bayon etgan. Kuhn, ilmiy tanqidiy fikrlashning rivojlanishini ilmiy jamoa ichidagi bahs-munozara jarayoniga bog‘liq deb hisoblagan. “U ilmiy nazariyalar o‘zgarganda va yangi ilmiy paradigmalarni shakllanganda, tanqidiy fikr va bahs-munozara muhim rol o‘ynaydi”- degan fikrni ilgari surgan[12].

**Xulosa** qilib aytganda, bahs-munozara metodi bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda, balki ijtimoiy, muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham katta yordam beradi. Bahs-munozara metodi, Suqrot dan to hozirgi kungacha ko‘plab pedagoglar, ilmiy xodimlar va falsafachilar tomonidan rivojlantirilgan va qo‘llanilgan. Karl Popper, Paulo Freire, Lev Vygotskiy, Jerome Bruner va Michael Fullan kabi mutaxassislar ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va bahs-munozara metodlarini samarali qo‘llashning ahamiyatini ta’kidlagan. Ular o‘z asarlarida ta’limni interaktiv, tanqidiy va yaratish jarayoni sifatida ko‘rib chiqib, o‘quvchilarda fikrlashning yuqori darajasini rivojlantirishga xizmat qilganlar.

#### Adabiyotlar:

1. Фуломов, С.С. Далилларни эслаб қолиш ва ғояларни исботлаш. Тошкент: Ўқитувчи. -2005.
2. T.B.Nazarov Tanqidiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar tadqiqi.//Tafakkur ziyosi-Jizzax davlat pedagogika universiteti matbaa bo‘limi. 4-2022 y.
3. Brown, Lesley. (ed.) The New Shorter Oxford English Dictionary (1993) p. 551.
4. Ennis, Robert H. (2015), „Critical thinking“, The Palgrave Handbook of Critical Thinking in Higher Education, Palgrave. Macmillan, doi:10.1057/9781137378057.0005, ISBN 9781137378057
5. "Suqrot" O‘zME. S-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000 y.
6. John Dewey How we think. New York: “U.S.A”, 1909.
7. Freire, Paulo. Pedagogy of Hope, 1994.
8. Vygotsky, Lev. Thought and Language, 1934.
9. Bruner, Jerome. The Process of Education, 1960.
10. Fullan, Michael. The New Meaning of Educational Change, 1993. Change Forces: Probing the Depths of Educational Reform, 1993.
11. Kuhn, Thomas. The Structure of Scientific Revolutions, 1962.

## КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВГА АСОСЛАНГАН ТАЪЛИМНИНГ АСОСИЙ ЖИХАТЛАРИ

*Рохимова Нилуфар Эгамберганова,  
Урганч Инновацион университети  
Педагогика ва бошлангич таълим  
методикаси кафедраси катта ўқитувчиси*

*Мақолада компетенциявий ёндашувларга асосланган таълимнинг бир қатор жиҳатлари кўриб ўтилган. Хусусан, касбий, амалий компетентлик турлари ва уларнинг ривожланиши босқичлари ҳақида фикр юритилган.*

**Калит сўзлар:** компетентлик, баҳолаш, маълумот, ўқитувчи, ўқувчилар, муносабат, шахсий, амалий, ижтимоий, ташаббускорлик.

## ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

*В статье рассмотрен ряд аспектов образования на основе компетентностных подходов. В частности, обсуждались виды профессионально-практических компетенций и этапы их развития.*

**Ключевые слова:** компетентность, оценка, информация, преподаватель, студенты, отношение, личностное, практическое, социальное, инициатива.

## BASIC EDUCATION ASPECTS BASED ON A COMPETENT APPROACH

*The article discusses a number of aspects of education based on competency-based approaches. In particular, the types of professional, practical competencies and their stages of development were discussed.*

**Keywords:** competence, assessment, information, teacher, students, attitude, personal, practical, social, entrepreneurial.

**Кириш.** Жаҳонда ўқувчиларнинг таянч ва фанга оид компетенцияларни ривожлантириш, таълим мазмунини фан ютуқлари билан уйғунлаштириш методикасини такомиллаштириш, ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини баолашнинг халқаро дастурлари (PISA, TIMSS) ҳамда ўқувчи компетенцияларининг шаклланганлигини ташхислаш бўйича илмий тадқиқотлар алоҳида аҳамият касб этмоқда.

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Республикамизда халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси тасдиқланди, ёшлар таълим-тарбияси учун кўшимча шароитлар яратишга қаратилган комплекс чора-тадбирларни ўз ичига олган бешта ташаббус амалиётга татбиқ этилди, умумий ўрта таълимнинг компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартлари ҳамда фан ўқув дастурлари ишлаб чиқилди, таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларда иштирок этишнинг меъёрий асослари яратилди.

2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устивор йўналишида умумий ўрта таълим сифатини тубдан ошириш, талаб юқорилиги бўлган фанларни чуқурлаштирилган тарзда ўрганиш вазифалари белгилаб берилган. Бу таълим жараёнини зарур ахборотлар билан таъминлаш, уларни ўзлаштириб боришнинг мақбул ечимларини топиш ва жорий қилиш имкониятларини кенгайтиради [1].

Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим ўқувчиларни ўзлаштирилган ахборотларни ўқув ва ҳаётий фаолият урларининг стандарт ва ностандарт вазиятларида қўллай олишга тайёрланиши билан характерланади.

Мактаб таълими замонавий ривожланиш талабларига мослаштириш фанлардан электрон таълим ресурсларини такомиллаштириш, ўқувчиларнинг электрон манбалар билан фаол мулоқотини таъминлаш, мустақил таълимни амалга ошириш ва ўз-ўзини баҳолаш, зарурий маълумотни оператив излаб топиш ва юзага келтирилган муаммоларни ҳал этишда ундан фойдаланиш компетенцияларини шакллантиришни назарда тутади.

Мактаб таълимини замонавий ривожланиш талабларига мослаштириш фанлардан электрон таълим ресурсларини такомиллаштириш, ўқувчиларнинг электрон манбалар билан фаол мулоқотини таъминлаш, мустақил таълимни амалга ошириш ва ўз-ўзини баҳолаш, зарурий маълумотни оператив

излаб топиш ва юзага келаётган муаммоларни ҳал этишда ундан фойдаланиш компетенцияларини шакллантиришни назарда тутати.

Шу нуқтаи назардан таълим сифати кўрсаткичларидан бири компетентлилик ҳисобланади. У фақатгина билим ва кўникмалар йиғиндиси бўлибгина қолмай, ўқувчиларнинг эгаллаган билимларини мобиллаштириш ва аниқ вазиятларда тажрибада қўллаш олиши билан тавсифланади.

Компетенциявий ёндашувга асосланган ўқитишнинг асосий моҳияти касбга йўналтирувчи фанлардан ташкил қилинган таълим-тарбия жараёнида ўқувчилар томонидан эгалланган билим, кўникма ва малакаларни ўз шахсий ҳаёти давомида, шунингдек, келгуси касбий ва ижтимоий фаолиятларда қўллаш олиш компетенцияларини шакллантиришга йўналтириш саналади. Ўқувчилар келгуси ҳаёти давомида шахсий, ижтимоий, иқтисодий ва касбий муносабатларга киришиши, жамиятда ўз ўрнини эгаллаши, мазкур жараёнда дуч келадиган муаммоларнинг ечимини ҳал этиши, энг муҳими ўз соҳаси, касби бўйича рақобатбардош бўлиши учун зарурий таянч компетенцияларга эга бўлиши лозим [2].

Ўқувчиларда шакллантириладиган компетенциялар уч даражага ажратилади: таянч компетенциялар; умумий (предметли) компетенциялар; хусусий компетенциялар.

Ўқувчи шахсининг умумий ривожланишига замин тайёрлайдиган компетенциялар таянч компетенция, фақат ўқув фани орқали шакллантириладиган компетенциялар хусусий компетенциялар дейилади.

Маълумки, умумий ўрта таълим мактаблари зиммасига таълим-тарбия жараёни орқали ўқувчиларда таянч компетенциялар, жумладан, коммуникатив, ахборот билан ишлаш олиш, шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш, ижтимоий фаол фуқаролик, умуммаданий, математик саводхонлик, фан ва техника янгиликлардан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияларни шакллантириш вазифаси юклатилган [5].

Замонавий ёндашувлар ўқитиш жараёнида педагогик ва ахборот технологияларини ўзаро интеграциялаш орқали ўқувчиларда таянч ва фанга оид хусусий компетенцияларни шакллантиришни назарда тутати.

Дунёнинг етакчи илмий марказлари ва олий таълим муассасаларида компетенциявий ёндашувни касбий таълим, умумтаълим фанлари стандартлари мазмунига киритиш тамойиллари, уларнинг педагогик тизим бўғинларидаги ўзгаришларга таъсири, психологик ва методологик асослари ва хусусиятлари, мустақил равишда таълим натижаларига эришиш концепцияси, компетенциявий ёндашув талқини, шахсни ривожлантиришга йўналтирилган, ижтимоий ва маълум бир соҳадаги фаолиятга доир компетенцияларга оид илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда.


Ўқитувчиларнинг компетентлигини оширишнинг ўқув-методик таъминоти сифатини оширишга қаратилган илмий ёндашувлар, амалий машғулотларнинг виртуал шакллари жорий этиш, касбга йўналтирилган фанларни ўқитишдаги компетенциявий ёндашувлар, фанлараро боғлиқликни акс эттирувчи амалий машғулотлар асосида ўқитиш таълимнинг сифати ва самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда [6].

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида-узлуксиз таълим тизимини мазмунини сифат жиҳатидан янгилаш, ўқитиш методикасини такомиллаштириш, асосий фанларни чуқур ўрганишга эътиборни қаратиш, давлат таълим стандартларида кўзда тутилган компетенцияларга асосланган педагогик фаолиятни баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш каби вазифалар белгиланган [2].

Бу эса ушбу фанлар мисолида ўқитиш методикасини такомиллаштиришга йўналтирилган таълим мазмуни ва ўқувчиларнинг компетентлигини ривожлантиришдаги зарурий таянч ва фанга оид компетенциялар таркибини аниқлаштириш, таянч ва физика фанига оид умумий компетенциявий ёндашувлар асосида ўқувчиларнинг компетентлигини ривожлантириш модели ва методларини такомиллаштириш заруратини асослайди. Компетенция муаммосининг таълим соҳасига кириб келиши ва унинг ривожланиши тарихини шартли равишда тўртта босқичга бўлиш мумкин (1-расм).

2006 йилда Европа парламенти ва Кенгаши томонидан узлуксиз таълим учун 8 та таянч компетенциялар тавсия қилинган: ўз она тилида мулоқот қила олиш; чет тилида мулоқот қила олиш; математик компетентлик ҳамда фан ва техника соҳасидаги асосий компетенциялар; рақамли компетентлик; ўқишни ўрганиш; ижтимоий ва фуқаролик компетенцияси; тадбиркорлик ва ташаббускорлик туйғусини; маданиятдан хабардор бўлиш ва уни ифода қила олиш.

Европа тажрибасига таянган ҳолда Ўзбекистон таълим тизимида компетенциявий ёндашувнинг жорий этилиши, шакллантириладиган таълим компетенцияларини танлаш ва уларни таълим тизимига сингдириш орқали республикада таълим тизимини самарадорлигини ошириш мумкин.



### 1-расм. Компетенциянинг ривожланиш босқичлари

Компетентлик ҳақида гап кетганда “билим даражаси” сифатида “у ёки бу объектнинг моҳиятан реаллигини тафаккур қила олиш” масаласининг назарий жиҳатларини ўзлаштиришга қаратилган фаолият тушунилади.

**Натижа ва муҳокамалар.** Шахснинг компетентлиги қандай аниқланади? А.В.Хуторскийнинг ишларида компетенция ва компетентлик таърифлари, хусусан “... маълум бир соҳада фаолият кўрсатишга имкон берадиган зарурий билим ва кўникмаларга эга бўлган шахс-компетентли шахс”, деган фикрига мос тушади [7]. В.В.Сериковнинг ишларида компетентликка “ўқимишли, билимли, кўникмали бўлиш усули шахсий ўзлигини намоён қилишга имкон берадиган тушунчалар жамланмасидир” деб изоҳ берилди [6].

Компетенция сўзига турлича таърифлар, ёндашувлар мавжуд.

Хусусан, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” да компетенция сўзи қуйидагича изоҳланади: компетенция (lot.competo-эришяпман, муносибман, лойикман)-муайян давлат органи (маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органи) ёки мансабдор шахснинг қонун, устав ёки бошқа ҳужжат бн белгиланган ваколатлари, ҳуқуқ ва бурчлари доираси; у ё бу соҳадаги билимлар, тажриба.

“Компетенция” атамаси кенг маънода умумий масалаларни ҳал этишда амалий тажрибалар асосида билим ва малакаларни қўлаш, муваффақиятли ҳаракат қилиш қобилиятини билдиради. Лотинча “competere”-мувофиқ бўлмоқ сўзидан келиб чиққан.

“Ташаббускорлик” компетенцияси. Аниқлаш: ҳаракатни бошлаб бериш ва шахсий ижобий жиҳатлари билан воқеага самарали таъсир кўрсата олиш. Доимо изланишда бўлиш, янги вазифаларни, кўшимча ишларни ўз зиммасига олиш. Одатда ҳар бир лавозим учун 5-10 та асосий касбий компетенция белгиланади. Улар баён этилади. Бундай ҳолатда ўқитувчи томонидан тест саволлари шакллантирилса мақсадга мувофиқ бўлади. Берилаётган тест саволларининг ҳар бири маълум компетенцияга мослаштирилади. Тест ўқувчининг ушбу компетенцияларни қанчалик эгалланганликларини кўрсатади. Унинг натижаларига кўра, ўқувчининг компетенциясини эгаллаш даражалари аниқланади.

Кенг маънода компетенция масаланинг, шунингдек, муайян билим соҳасининг моҳиятини муваффақиятли ҳал этишда амалий тажрибага асосланиб, билим ва кўникмаларни қўллаш олиш қобилиятидир. Таълимда компетентлик билан ёндашув ўқувчиларни турли кўникмаларини эгаллаш, келажакда ижтимоий, касбий ва шахсий ҳаётларида самарали ҳаракат қилишга йўналтиради.

Компетенция - бу кутилган натижага олиб келувчи фаолият белгисидир. У билим маҳсули бўлиб, мутахассис томонидан уни амалиётга қўллаш олиш қобилиятидир. Компетенциянинг билимдан фарқи шундаки, вазифани амалий бажармасдан туриб, уни аниқлаб ҳам, баҳолаб ҳам бўлмайди. Малака компетентликнинг муҳим мезони бўлиб, у турли ҳолатларда, шу қатори

муаммоли вазиятларда ҳам бир неча бор қўллаш натижасида, шу қатори муаммоли вазиятларда ҳам бир неча бор қўллаш натижасида намоён бўлади.

Амалий компетентлик - билим маҳсули бўлиб, амалиётда қўллай билиш қобилияти. Шунингдек, компетенция, билимдан фарқи, амалий фаолиятсиз намоён бўлмайди ва уни баҳолай олиш мумкин эмас.

Касбий компетентлик-касбий фаолиятга оид масалаларни ҳал этишда билим ва кўникмаларни амалий тажрибада самарали қўллай олиш қобилиятидир.

**Хулоса.** Ҳозирги замонда мактаб ўқитувчисининг касбий билимдонлиги ва қобилияти мезонларига қуйидагилар киради: ижтимоий, услубий ва ихтисослик билимдонлиги ҳамда билиш, тушунтира олиш, кузатувчанлик, нутқ, ташкилотчилик, обрў орттира олиш, тўғри муомала қила олиш, келажакни кўра биллаш ва диққатни тақсимлай олиш қобилиятлари.

Ўқитувчи ўзини эгаллаб турган лавозими даражасида касбий компетентликка эга эканлигини ҳис этгандагина педагогик жараёни муваффақиятли ташкил этиши мумкин. Зотан уни касбий билимдонлик, ҳалоллик, ростгўйлик, изланувчанлик, тинимсиз сермахсул меҳнат, ижодкорлик ва яратувчанлик каби фазилатлар юксалтиради. Унинг билимдонлиги, фаоллиги, меҳнаткашлиги, камтарлиги, маънавияти ва маданияти, маърифатлилиги ўқувчилари, бўлажак касб эгаларининг хурмат-эҳтиромига сазовор этади.

#### Адабиётлар:

1. Рохимова Н.Э. Таълимда компетенциявий ёндашувнинг аҳамияти ва ўзига хос хусусиятлари // Таълим, фан ва инновация – Тошкент, 2023. -№3. - Б. 158 - 161.
2. Рохимова Н.Э. Умумтаълим мактабларида “Технология” фанини ўқитишга компетенциявий ёндашувнинг услубий асослари // Педагогик маҳорат - Бухоро, 2023.-№7.- Б.72-78.
3. Рохимова Н.Э. Таълим технологияларини ўқувчилар компетенцияларини шакллантиришдаги аҳамияти // Таълим, фан ва инновация – Тошкент, 2023. - №4. -Б. 128-132.
4. Рохимова Н.Э. Инновацион таълим усуллари ва технологияларини таълим жараёнида қўлланилиши// Муғаллим хем узликсиз билимлендириў - Нукус, 2024. -№1/3. - Б. 196-202.
5. Рохимова Н.Э. “Умумтаълим мактабларида “Технология” фанининг ривожланиш тарихи ва ўқитиш методикасининг шаклланиши” // ТДПУ Илмий ахборотлари илмий-назарий журнал.// Тошкент, 2/2024. Б 109-123.
6. Селевко Г.К. Компетентность и их классификации. //Народное образование – 2004. -№4, - с.138-143.
7. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно-методическое пособие. — М.: Издательство «Эйдос»; Издательство Института образования человека, 2013. — 73 с. ил. (Серия «Новые стандарты»).
8. Heymes D. On Communicative Competence. In J.B.Pride and J.Holmes (eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin, 1972, pp.269-293.
9. Rokhimova N, “A Competent Approach to the Organization of Classes for “Technology” Subject in a Modernization of Educational Content” // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN:2509-0119, №17, 1 October 2019, pp.299-301
10. Rokhimova N, “Effective Methods of Training Vocational Education Specialists in Higher Education Institutions” // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol24, Issue03,2020 ISSN: 1475-7192.
11. Rokhimova N.Ye. Educational technologies directed to the formation of students competences // International scientific journal of Science and innovation in Volume 2, Issue 6, ISSN:2181-3337, SJIF 2023:5.608. ID:4779, Date:12.06.2023, pp.84-88.

## O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

*Jumaniyazova Sanobar Qadambaevna,  
Toshkent Farmasevtika Instituti qoshidagi akademik litsey  
“Biologiya” kafedrasida o‘qituvchisi  
sanobarjumaniyazova7@gmail.com*

*Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonlarida innovatsion yondashuvlar hamda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish hamda akademik litseylarda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, biologiya ta’limida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishdagi muhim vazifalar, mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqish hamda mustaqil ta’lim topshiriqlarining shakli va hajmini belgilashdagi muhim jihatlari bo‘yicha fikr-mulohazalar yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *biologiya fanini o‘qitish, mustaqil ta’lim, mustaqil faoliyatni tashkil etish, mustaqil fikrlash, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, kompetentlik, innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar, ijodiy fikr yuritish, tanqidiy fikrlash.*

## НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ

*В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности обучения биологии в образовательных учреждениях, использования инновационных подходов и передового зарубежного опыта в образовательном процессе, а также правильной организации самостоятельной учебной деятельности учащихся академических лицеев. В ней также рассматриваются важные задачи по эффективной организации самостоятельной учебной деятельности учащихся в процессе обучения биологии, разработке самостоятельных учебных заданий и предоставлению обратной связи по важным аспектам определения формы и объема самостоятельных учебных заданий.*

**Ключевые слова:** *преподавание биологии, самостоятельное обучение, организация самостоятельной деятельности, самостоятельное мышление, самостоятельное овладение знаниями, компетентность, инновационные технологии, дидактические материалы, творческое мышление, критическое мышление.*

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES

*This article discusses the issues of increasing the effectiveness of teaching biology in educational institutions, the use of innovative approaches and advanced foreign experiences in educational processes, and the proper organization of independent educational activities of students in academic lyceums. It also discusses important tasks in the effective organization of independent educational activities of students in biology education, the development of independent educational tasks, and important aspects in determining the form and volume of independent educational tasks.*

**Keywords:** *teaching biology, independent learning, organization of independent activities, independent thinking, independent mastery of knowledge, competence, innovative technologies, didactic materials, creative thinking, critical thinking.*

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimi bugungi kunda jahon miqyosida barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy omili sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan yangi ta’lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan [1]. Ushbu konseptual yondashuv doirasida, ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitish samaradorgini oshirish, ta’lim jarayonlarida innovatsion yondashuvlar hamda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatlarini sifatli tashkil etish va muntazam rivojlantirish vazifasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda xalqaro miqyosda biologiya ta’limining sifat va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning ta’lim faoliyatini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar va

axborot texnologiyalarni tatdbiq etish mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamon talablariga moslashtirish va yuqori samaradorlikka erishish maqsadida bir qancha islohatlar olib borilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni [2] ning Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan yo‘nalishida “Yoshlarni san‘at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta‘minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish” vazifasi alohida belgilab berilgan.

Bu kabi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo‘yicha mustaqil ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan shaxslarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shuning uchun ta’lim muassaslarida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni o‘qitish bilan bir qatorda ularni ko‘proq o‘qishga o‘rgatish, bilim olishning samarali yo‘llarini ko‘rsatish ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha ta’lim muassasalari qatori, akademik litseylarda ham o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish va bajarilgan mustaqil ishlarni nazorat etish o‘quvchilarning o‘quv predmeti bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, adabiy manbalardan, internet tarmog‘idan samarali foydalanish ko‘nikmalarini va o‘zlashtirgan nazariy, amaliy bilimlarini hayotiy faoliyatlarida tatbiq etish malakalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ularni mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish hamda to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatadi [3].

Akademik litseylarda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish biologiya fanini o‘rganishdagi asosiy o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quv rejasidagi ajratilgan auditoriya soatlariga mos ravishda olib boriladi. O‘quvchilarni mustaqil ishlarni bajarishi ularning keyinchalik boshqa fanlarni ham yaxshi o‘zlashtirishiga asos bo‘ladi.

J.O.Tolipova va A.T.G‘ofurovlar akademik litsey va kasb-hunar kollejlari biologiya o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan “Biologiya o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatiga quyidagicha tarif beradi: “O‘quvchilarning mustaqil ta’limi o‘quv adabiyotlari, internet, multimedialar vositasida muayyan mavzularda izlanishlar olib borishi, ma’ruza va referatlar tayyorlashi, kuzatish va tajribalar o‘tkazish, ularning natijalarini izohlash va rasmiylashtirishlari, respublikamizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasida va ekologik muammolarni hal etishga oid tashkil etiladigan turli tanlovlar uchun materiallar tayyorlash, olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rish kabilarni o‘z ichiga oladi” [4]. Mazkur vazifalarni amalga oshirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

G.Shaxmurova va G.Tog‘ayevalar ham o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga to‘xtalib, shunday ta’kidlaydilar: “Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘qituvchi, avvalo: o‘quvchilarning darsda mustaqil ishlashlari uchun o‘quv topshiriqlarini tanlashi (zarur hollarda tuzishi), biologik ob‘ektlar, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida tajriba va kuzatish o‘tkazish yuzasidan ko‘rsatmalar tayyorlashi; o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta’limi uchun qo‘shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim; o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim-tarbiya jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasini qo‘llash zarur” [5].

Biologiya ta’limida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- biologiya fanidan yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- adabiy manbalarni to‘plash va sistemalashtirish;
- mavzular bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni izlab topish, qulay tahlil usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash;
- o‘quv xorijiy adabiyotlari va internet ma’lumotlari bilan ishlash;
- Internet tarmog‘idan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishi [6].

Mustaqil ta’limini tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish axborotlar bilan ishlash, o‘z-o‘zini

rivojlantirish, fan o'qituvchilari bilan verbal va noverbal holatda ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir [7].

Mustaqil ta'limni tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

❖ o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga erishish;

❖ muayyan sohaga oid masala va muammoli vaziyatni chuqur tahlil qilish hamda uni hal etishning maqbul yo'llarini izlab topishga qodir yetuk mutaxassisni tarbiyalash;

❖ o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

❖ o'quvchilarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalar, mustaqil faoliyat yuritish va kreativ fikrlash ko'nikmalari rivojlanishini ta'minlash.

O'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish hamda o'quv predmeti bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish o'qituvchilar zimmasidagi mas'uliyatli vazifalardan hisoblanib, mazkur vazifalar va majburiyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi [8]:

❖ mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchini aqliy rivojlanishi (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish)ni nazarda tutib uni fikrlash, izlash, tahlil qilish, adabiyotlar va manbalar bilan ishlash, yechim topish, o'zlashtirish, kompetensiya va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan bo'lishini, jumladan, aniq yechimni nazarda tutuvchi masala ekanligini unutmaslik;

❖ keng tahlil, ta'rif va xulosalarni talab qiluvchi muammo hamda chuqur o'zlashtirish va yuqori darajada taqdim qilishni taqozo etuvchi mavzu hamda shu kabi boshqa topshiriqlar berilishini ta'minlash;

❖ o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, adabiyotlar bilan ishlash, kutubxona va onlayn qidiruv tizimlaridan samarali foydalanish, adabiyotlar ro'yxatini tuzish, adabiyotlardan iqtiboslar va havolalar keltirish, muammolarga yechim topish, vaqtni boshqarish, o'z-o'zini baholash, SMART maqsadlar qo'ya bilish, fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni fan va modullari mazmuniga singdirish;

❖ sillabusda dars mashg'ulotlari (ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya)da mustaqil mashg'ulotlar uchun tavsiya etilgan mavzularni o'zlashtirish va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish tartibi, baholash mezonlari va muddati, maslahat olish uchun aloqa (kontakt) soatini ko'rsatib qo'yishi;

❖ muayyan fan doirasida mustaqil ta'limni amalga oshirishga xizmat qiluvchi uslubiy ko'rsatmalar tayyorlashi;

❖ darsliklarni tahlil qilishlari, qo'shimcha materiallarga e'tibor berishlari;

❖ fan xususiyatidan kelib chiqib, nazorat savollarining bir qismi mustaqil o'qib o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzu/topshiriqlar yuzasidan bo'lishini ta'minlash;

❖ o'qituvchilar sillabusda belgilangan vaqtda mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, maslahat va amaliy tavsiyalar berib borishi;

❖ o'quvchi(lar) tomonidan bajarilgan va topshirilgan mustaqil ta'lim mavzu/topshiriqlarini elektron ta'lim platformasi (HEMIS)da o'z muddatida baholab borish.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda esa o'quvchilar quyidagi vazifa va majburiyatlarni amalga oshirishi lozim:

❖ o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;

❖ ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;

❖ fanlar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;

❖ mustaqil ta'limni topshirish muddati o'tgach vazifalar qabul qilinmasligi;

❖ mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;

❖ kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

O'qituvchilar mustaqil ta'lim topshiriqlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish bosqichi va ta'lim shakli;

- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi murakkablik darajasi;

- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;

- mustaqil ta'lim uchun beriladigan topshiriqlarning shakli, mazmuni, hajmi, murakkablik darajasi “izchillik”, “soddadan murakkabga” tamoyillariga muvofiq berilishi lozim.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

• mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;

• hisoblash-chizma mustaqil ishini bajarish;

• badiiy-ijodiy ishini bajarish;

- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- berilgan mavzuni chuqur o'rganish va yuqori darajada tahlil qilish;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;
- hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

**Muhokama va natijalar.** Umuman olganda, mustaqil ta'lim topshiriqlari puxta ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak [9].

Biologiya fanidan o'quvchining bevosita o'zi tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ish turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Darsga tayyorlanish – ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar va ma'ruza taqdimotlari bayonlarini o'rganish;

Forum – fan mavzulari bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

Test yechish – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;

Statistik materiallar - asosida taqdimotlar tayyorlashi mumkin.

Nazorat ishiga tayyorlanish – fan bo'yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish.

Vebinarlarda qatnashish: Ushbu fanga oid mavzularda xalqaro va mahalliy onlayn vebinarlarda ishtirok etish orqali o'quvchilarning bilimlari boyitiladi va mustaqil ta'lim topshiriqlari sifatida hisobga olinishi mumkin.

Reflektiv yozma ishlarda qatnashish: Har bir mustaqil mashg'ulot yakunida o'quvchilar mavzuni qanday tushunishgani, nimani yaxshi o'zlashtirishgani va qaysi qiyinchiliklarga duch kelganliklari haqida qisqacha reflektiv yozma hisobot tayyorlaydilar. Bu ularning bilim olish jarayoniga faol yondashuvlarini rag'batlantiradi.

Tahliliy esse va prezentatsiyalar tayyorlash: O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini tahliliy esse yoki taqdimot shaklida tayyorlaydilar. Har bir mavzuga oid chuqur fikrlash va ijodiy yondashuvga baho beriladi.

Jamoaviy loyihalarda qatnashish: O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, biologiya faniga oid amaliy loyihalar ustida ishlaydilar.

Kengaytirilgan muhokamalarda qatnashish: Mavzu yuzasidan ochiq muhokama sessiyalari o'tkazish, unda o'quvchilar o'z bilimlari va nuqtayi nazarlarini o'rtoqlashib, tanqidiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

Ilmiy maqolalar tayyorlash: O'quvchilar ma'lum mavzu bo'yicha ilmiy maqola yozish va uni taqdim etish orqali fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda mustaqil ta'lim topshiriqlari sifatida qabul qilinadi.

**Xulosa.** Jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar dolzarb masala sifatida qaraladi. 2030-yilgacha ta'lim konsepsiyasida “Ta'lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat” [10] sifatida e'tirof etilgan. Bugungi kunda ta'limning maqsad va vazifalarining yangidan anglanishi, mehnat bozorini faqat bilimlarni chuqur o'zlashtirgan o'quvchilardan yuqori kompetentli o'quvchilar tomon o'zgarishi zamon talabiga aylanmoqda. Ta'lim tizimini kompetentli yo'nalishda yangilash masalalariga Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi jahonning rivojlangan mamlakatlarida alohida e'tibor berilmoqda [11]. Shu sababli, mamlakatimizda ham ta'limning yuqori natijadorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, kelajak yuqori bilim-salohiyatli, mustaqil faoliyat olib bora oladigan kompetentli yoshlar qo'lidadir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

3. Azimov I.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari “Biologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. “Mahalla va oila nashriyoti”. Toshkent-2023. 64-66-b.
4. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari biologiya o‘qituvchilari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Tos‘hkent-2004, 45-48-b.
5. Шахмурова Г., Тог‘аева Г. “Биология фанини ўқитиш методикаси” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. 2018 йил. 51-бет.
6. Saparov K., Asallaev O'. Use of electronic textbooks in optimizing processes of zoology education (bird class). The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies- 2023 | PAMIR 2023. PP. 311-314.
7. Jumaniyazova S.Q. Development of students' independent educational activity in biology. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Hosted from Rome, Italy <https://conferencea.one> January 30th, 2025.
8. Smetova J.H. Mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzishda, tarbiya fanining metodik vazifalari va ARM. Ppsutlsc-2024. Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR).
9. Haytbayeva S.R. Theoretical basics of developing the professional competence of the modern teacher. // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Vol. 4 No.7, July 2023. PP-103-106.
10. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all-4-5. <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.
11. Malcoln, Shirley, Cetto, A. M., Dickson, D., Gaillard, J., Schaeffer, D. & Yves Quere. (2002). Science Education and Capacity Building for Sustainable Development. ICSU Series on Science for Sustainable Development no. 5. 31 p.

## TALABALARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI

*Nurmamatov Ramazon Abdirashid o‘g‘li,*  
*Qarshi davlat universiteti*  
*Texnologik ta‘lim kafedrasi tadqiqotchisi*  
*romazannurmamatov@gmail.com*  
*ORCID 0009-0009-5772-2040*

*Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar muhitida o‘quvchilarning kasbiy ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, shuningdek, texnologiya darslarida transformatsiyalash tizimi orqali o‘quvchilarning kompetentligini rivojlantirishning mohiyati va raqamli texnologiyalar muhitida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari kasbiy ijodkorligi doirasida yangi zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ijodiy faollik faoliyatini rivojlantirish texnologiyasining nazariy tamoyillarini ishlab chiqish va amalda sinab ko‘rish to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *texnologiya fani, multimedia, multimedia vositalari, o‘qituvchi, AKT, UO‘TM, o‘quvchilar, animatsiya.*

## ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

*В данной статье рассматриваются дидактические возможности развития профессиональной творческой компетентности студентов в условиях цифровых технологий, а также сущность развития компетентности студентов посредством системы трансформации на уроках технологии, разработка теоретических основ технологии развития творческой компетентности студентов, деятельность на основе новых современных информационных технологий в рамках профессионального творчества будущих учителей технологий в среде цифровых технологий, уделяется внимание её апробации на практике.*

**Ключевые слова:** *ИКТ, UET, технология, мультимедиа, мультимедийные средства, преподаватель, студенты, анимация.*

## TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' DIGITAL COMPETENCES

*This article considers the didactic possibilities of developing students' professional creative competence in the environment of digital technologies, as well as the essence of developing students' competence through a transformation system in technology lessons, and the development and practical testing of theoretical principles of the technology for developing creative activity based on new modern information technologies within the framework of professional creativity of future technology teachers in the environment of digital technologies.*

**Keywords:** *ICT, UET, technology science, multimedia, multimedia tools, teacher, students, animation.*

**Kirish.** Zamonaviy ta‘lim raqamli texnologiyalar muhitiga monand o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bitiruvchining raqamli texnologiyalar va zamonaviy kompyuter dasturlari hamda vositalaridan kasbiy faoliyatlarida foydalanish sohasidagi tayyorgarlik darajasiga tobora ortib borayotgan talablarni belgilaydi. Mehnat bozorida kasblarga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar va tez rivojlanib, o‘zgaruvchan axborot maydoni sharoitida mutaxassis har tomonlama yetuk va raqobatbardosh xodim bo‘lishi talab qilinadi. U zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi, shaxsiy va jamoaviy muammolarni hal qila oladigan ijodiy va kreativ fikrlaydigan, mustaqil, kommunikativ, mas‘uliyatli shaxs bo‘lishi kerak. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi yangi zamonaviy bilimlarni o‘rganish, o‘z faoliyati uchun kerakli ma‘lumotlarni topish, saralash va tanlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Ta‘lim olish va ta‘lim berishning shaxsiy va ijtimoiy ma‘nolaridan biri bo‘lgan har bir fanni o‘qitishda kompetensiya yondashuvidan foydalangan holda bu fazilatlarining barchasi muvaffaqiyatli o‘zlashtirish mumkin.

Bugungi kunda barcha oliy o‘quv yurtlari pedagogik yo‘nalish talabalarining AKT kompetensiyalarini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Uslubiy adabiyotlarda zamonaviy o‘qituvchining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida foydalanish bo‘yicha kasbiy mahorat darajasini

belgilashda “AKT kompetentsiyalari” atamasi qo‘llaniladi. Zamonaviy kadrlar standartlari – kompetentsiya – ma‘lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarini qo‘llay olish qobiliyatini o‘zida aks ettiradi. Multimedia – gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: axborotning xilma-xil turlari: an’anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ruyxatdan o‘tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari, muayyan vaqtdagi ish, o‘z tabiatiga ko‘ra statik bo‘lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma‘lum oraligida ko‘rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma‘lumotlarni uzatish shinasining o‘tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sigimli tashqi xotira, hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo‘yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi, “inson-kompyuter” interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil 20-fevral 28 foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat ta‘lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi. Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta‘lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish xozirgi kunning dolzarb masalasidir[1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Texnologiya ta‘limi o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida bir qator didaktik vazifalar hal qilinadi. Ulardan eng muhimi maktabdagi texnologiya ta‘limi vazifalarini, maktab dasturlari mazmunini, ularning g‘oyalari va tashkiliy tamoyillarini ochib berishdan iborat. Uning muhimligi shundan iboratki, maktabdagi mehnat fanining vazifalari ham, maktab dasturlarining mazmuni ham doimo o‘zgarib turadi. O‘qituvchi shunga tayyor bo‘lishi kerakki, u o‘zining pedagogik faoliyati davomida texnologiya fani mazmunini bir necha marta qarab chiqishga, yangi takomillashgan dasturlar bilan ishlashga ham majbur bo‘ladi. Buni fan – texnikaning rivojlanib borishi taqozo etadi. Shu sababli maktablar rivojlanishining ma‘lum davri uchun xos bo‘lgan mehnat ta‘limining vazifalari va mazmunini shunchaki bilib, eslab qolishning o‘zi yetarli bo‘lmasdan, ularning kelib chiqish sabablari, ular zamirida qanday metodologik va pedagogik yo‘l – yo‘riqlar borligini ham bilib olish kerak. Shundagina texnologiya fanining vazifalari va mazmunidagi har qanday asosli o‘zgarishlarni idrok qilish va tushuntirish oson bo‘ladi.

Texnologiya fanining vazifalari bilan mazmuni murakkab dialektik bog‘liqlikda bo‘ladi. Shuni yodda tutmoq kerakki, texnologiya fani vazifalari turli darajada qo‘yiladi va hal qilinadi.

Masalan, umumiy o‘rta ta‘lim maktabining eng muhim vazifasi o‘quvchilarda mehnatga va kasbga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iborat. o‘quv jarayonlariga ham, butun pedagogik jamoaning sinfdan tashqari faoliyatiga ham taalluqli bo‘lgan bu vazifani istisnosiz hamma o‘quv predmetlari amalga oshiradi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash kabi vazifalarni ko‘pchilik o‘quv predmetlarda, texnologiya fani bilan birgalikda hal qilinadi. Bu vazifalarni hal qilishda mehnat ta‘limi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki texnologiya fani bo‘yicha tashkil etilgan mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni unumli mehnatga jalb etish, hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari bilan tanishtirish, ularda zamonaviy ishchi kasblariga muhabbat uyg‘otish va boshqa shu kabilar haqida yetarlicha to‘liq tassavvur hosil qilish uchun qulay sharoitlar vujudga keladi[2].

Ko‘rsatilgan vazifalardan tashqari yana ikkinchi darajali vazifalar ham qo‘yiladi va ular asosan texnologiya fani doirasida hal qilinadi yoki ular umumiy o‘rta ta‘lim maktabi vazifalari bo‘lib, o‘ziga xos maxsus vositalar yordamida amalga oshadi. Masalan, texnik ijodkorlikning rivojlanishi, tajriba ishlarida qatnashish maktab sharoitida asosan texnologiya fani jarayonida va u asosida tashkil qilingan sinfdan tashqari ishlarda ro‘y beradi. Materiallarga ishlov berish, mashinalarga xizmat ko‘rsatish va boshqalarga oid amaliy bilim va malakalarning shakllanishi haqida ham shuni aytish mumkin.

Texnologiya ta‘limi jarayonida jismoniy faoliyat, aqliy faoliyat bilan omuxtalashadi. O‘quvchilarning buyumlarni konstruksiyalash, ularni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va boshqa qator ijodiy vazifalarni hal qilishlariga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, texnologiya ta‘limi fikrlash faoliyati bilan birga amalga oshadi, bu esa o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga imkon beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Texnologiya ta‘limi jarayonida estetik tarbiya uchun sharoitlar yaratiladi. Agar o‘quvchilar chiroyli buyumlar yasashsa, jamiyatga foyda keltirganlaridan ma‘naviy qoniqish hosil qiladilar va estetik zavq ham oladilar. Shu bilan ularda badiiy did ham tarbiyalanadi, shakllarning uyg‘unligi haqida to‘g‘ri tasavvurlar tarkib topadi.

Texnologiya ta‘limi mazmuniga qator talablar qo‘yilishi kerak:

1. Texnologiya ta‘limi vazifalariga o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish.

2. Texnologiya ta’limi jarayonini imkoni boricha maksimal hajmdagi unumli mehnat bilan ta’minlash va uni o’quv faoliyati tarkibiga kiritish.

3. Texnologiya ta’limi mazmunini o’quvchilarning yoshi va maktabning ishlab chiqarish muhitini hisobga olgan holda tabaqalashtirish.

4. Har bir o’quvchini bir xil hajmdagi politexnik bilim va malakalar bilan qurollantirish.

5. Texnologiya ta’limining boshqa maktab o’quv predmetlari bilan aloqasini ta’minlash.

Ikkinchi darajali vazifalardan o’quv predmeti sifatidagi mehnat ta’limi mazmuniga qo’yiladigan talablar kelib chiqadi:

1. Texnologiya ta’limi mazmunini o’quvchilarning yosh xususiyatlari hamda ta’lim jarayonida qo’yiladigan vazifalarni hisobga olgan holda bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq.

2. O’quv dasturlarining mazmunida o’qitish bosqichlari orasidagi izchillik nazarda tutilishi kerak. Buning uchun hamma sinflar uchun dasturlarni yagona tuzilma bo’yicha tuzish lozim. Maktablarning ish tajribasi bunday tuzilma quyidagilarni o’z ichiga olishi zarurligini ko’rsatmoqda: Materiallarning xossalari haqidagi nazariy ma’lumotlarni tajribalar jarayonida ularni o’rganishni; materiallarga ishlov berish va unda ishlatiladigan mehnat qurollarini; ishlab chiqarish jarayoni va sharoitida materiallarga ishlov berishni; mazkur materiallarga ishlov berish bilan bog’liq bo’lgan asosiy kasblarning tavsiflarini[3].

**Tahlil va natijalar.** Texnologiya ta’limi mazmunini tabaqalashtirishni ta’minlash uchun uni har xil variantlarda berish. Mehnat ta’limining qaysi bosqichlarida uning mazmunini tabaqalashtirish maqsadga muvofiqligi va uni amalga oshirishda nimalarga amal qilish kerakligini aniqlash zarur.

O’quvchilar har xil dasturlar bo’yicha o’qitilishi mumkin, ammo ularning hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari haqidagi tasavvurlari hajmi bir xil bo’lishi, buning uchun barcha dasturlarga bilim va malakalarning ba’zi stabil hajmi kiritilishi zarur. Bu o’z navbatida, o’quvchilarning politexnik tayyorgarligi bir xil saviyada bo’lishini ta’minlashga imkon beradi.

Bugungi kunda texnologiya ta’limi o’zining ilmiy, nazariy va amaliy, moddiy – texnik, ijtimoiy – pedagogik muammolarini hal etishda, uning an’anaviy mazmunini isloh qilishda quyidagi nomutanosibliklar va ziddiyatlar mavjudligi ko’zga tashlanmoqda:

-ijtimoiy–iqtisodiy siyosiy va ma’naviy sohada ro’y berayotgan o’zgarishlar bilan umumiy o’rta ta’lim maktabalarida olib borilayotgan texnologiya ta’limining ilmiy-uslubiy, pedagogik va moddiy-texnik jihatdan istiqbol talablari darajasida majmuaviy ta’minlanishining nomutanosibligi;

-ilmiy–texnik to’garaklar, ilg’or ishlab chiqarish texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyot va xo’jalik yuritishning yangi shakllari va texnologiya ta’limining mazmuni vositalari va uslublarida yetarli darajada o’z aksini topmaganligi;

-texnologiya ta’limining hozirgi kundagi an’anaviy mazmuni, maqsadi shakli vositalari va uslublarida Respublikamizning milliy etnik, hududiy–tarixiy xususiyatlari va sharqona tafakkur mezonlarining aks etmaganligi;

-texnologiya ta’limining o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarini hisobga olib, uni amalga oshirish mexanizmlarining pedagogik, psixologik, fiziologik va didaktik asoslarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

-umumiy o’rta ta’lim maktablarida amalga oshirilmagan texnologiya ta’limining istiqbolli yo’nalishlari bilan oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog kadrlar kasbiy malaka darajalarining nomutanosibligi.

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar va ziddiyatlar texnologiya ta’limini tubdan yangilashga, isloh qilishga zaruriyat tug’dirgan asosiy sabablar bo’lib hisoblanadi.

Olib borilgan kuzatuvlar hozirgi kunda respublikamiz umumiy o’rta ta’lim maktablari tizimida o’quvchilarning texnologik ta’limiga e’tibor yetarli emasligini ko’rsatdi. Buning asosiy sababi bo’lib o’quvchilarni texnologik faoliyatga tayyorlashning mavjud dasturlari hozirgi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarda o’sib borayotgan yosh avlodning talab va qiziqishlarini qondira olmasligidir.

Fan – texnika va texnologiyalar jadal suratlar bilan rivojlanayotgan bugungi sharoitda maktab o’quvchilarini hayotga va mehnatga tayyorlash tizimi quyidagi yo’nalishlar bo’yicha takomillashtirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Texnologiya ta’limining shakli va mazmunini mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishida zarur bo’lgan kasb – hunarga bo’lgan ehtiyojga moslashtirish.

2. Texnologiya ta’limi va tarbiyasini o’quvchilarning kasbiy harakatchanligi, kasb–hunarni mehnat bozorida ijtimoiy himoyalantirish masalalariga yo’naltirish.

3. O’qituvchilarni shu kunga qadar maktab amaliyotiga kirmagan texnologiyalar bilan tanishtirish.

4. Texnologiya ta’limining uzviyligini ta’minlashning tashkiliy – pedagogik tamoyillarini bevosita o’quv jarayonida amalga oshirish.

Texnologiya ta’limini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari bo’yicha islohatlarni amalga oshirish uchun quyidagi shart – sharoitlar yaratilishi kerak:

-umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologiya ta’limi asosiy fanlar sifatida o’qitilishini ta’minlash;  
-ta’lim jarayonida moddiy ne’matlar ishlab chiqarishning tashkiliy, iqtisodiy, texnik va texnologik asoslarini o’rgatish;

-o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqilligini rivojlantirish uchun o’quv dasturlariga kasb – hunar yo’nalishlari mazmunidagi bo’limlarni, zamonaviy texnika va texnologiyalar haqidagi ma’lumotlarni kiritish;

-texnologiya ta’limi mashg’ulotlariga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

-texnologiya ta’limining moddiy – texnikaviy ta’minotini yaxshilash.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologiya ta’limining bugungi kunda mavjud nazariy va amaliy, ijtimoiy, pedagogik hamda moddiy – texnik muammolarini, ziddiyatlarini bartaraf etishda shuningdek yangi jamiyatda o’quvchilarni hayotga va kasbkorlikka tayyorlash, o’quvchilarda kasbkorlikning zamonaviy yo’nalishlari to’g’risida bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishda albatta texnologiya ta’limi o’qituvchisini zamon talablari darajasida tayyorlash oliy pedagogik ta’lim muassasalari oldidagi muhim masala hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, qayd etilgan muammolar va ziddiyatlarni hal etishga qodir texnologiya ta’limi o’qituvchisi quyidagi kasbiy fazilatlarga ega bo’lish kerak:

1. yuqori g’oyaviylik. o’qituvchi o’sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyachisi sifatida o’quvchilarni davlatimizga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashi, ularda milliy dunyoqarashni shakllantirishi kerak;

2. yuqori texnik bilim, ko’nikma va malaka. Masalan, texnologiya ta’limi jarayonini samarali tashkil etish uchun duradgorlik, tokarlik ishi elementlari va robototexnika asoslarini chuqur o’zlashtirganlik, yangi tipdagi operatorlik, dasturchi va boshqa shu kabi kasblar asoslarini mukammal egallagan bo’lishlari, keyingi amaliy faoliyat jarayonlarida o’z mahorati darajasini uzluksiz oshira borishi kerak;

3. yuqori psixologik – pedagogik tayyorgarlik. Texnologiya ta’limi o’qituvchisi zaruriy bilim, ko’nikma va malakalarni yuksak saviyada egallabgina qolmay, balki o’quvchilarda ham ma’lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berishi kerak. Bilim va malakalarni egallash jarayonining o’z qonuniyatlari bor, maktabdagi ta’lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Texnologiya o’qituvchisi pedagogika, psixologiya, didaktika fanlarining o’quv jarayoniga asos bo’ladigan muhim qoidalarini chuqur o’zlashtira olishi kerak[4].

Muslimov N.A. Bo’lajak mehnat ta’limi qituvchisini kasbiy shakllantirish. – T.: Fan, 2004 y

DTS da bo’lajak texnologiya fani o’qituvchisining tayyorgarligiga qo’yilgan talablar sifatida quyidagilar qayd etilgan:

Bo’lajak texnologiya ta’limi o’qituvchisi:

-dunyoqarash tavsifidagi tizimli bilimlarga ega bo’lish, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

-vatan tarixini bilishi, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o’z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy g’oyaga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo’lishi;

-tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo’lishi, milliy istiqloq g’oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega blishi;

-insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof–muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

-insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof–muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

-axborot yig’ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, o’z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi;

-yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o’z ustida ishlash o’z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olish lozim.

Raqamli ta’lim muhiti mamlakatimizda o’qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligining samaradorligini oshirish, kasbga oid amaliy kompetensiyalarni puxta o’zlashtirish zarurligini taqazo etadi.

Bugungi kunga kelib respublikamizda milliy ta’lim tizimining tashkiliy – huquqiy asoslarning shakllantirish uchun keng sharoitlar yaratilgan. Xususan, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish texnologiya o’qituvchilarini innovatsion faoliyatga yo’naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o’quv jarayoniga innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni tadbiq etish, ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilanadi. Bo’lajak texnologiya o’qituvchilarini raqamli

texnologiya muhitida faoliyat ko‘rsatishlari uchun ular raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Bugungi kunda zamonaviy multimedia vositalari elektron xujjat yoki taqdimot, ilova va boshqalar uchun resurs yaratish, unga yuqori sifatli ovoz, grafik, video va animatsiya hamda kerakli effektlarni hosil qilish va birlashtirish uchun barcha imkoniyatlarni beradi. Bunga ko‘ra, axborotni yaratishning turli modellaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta‘limning rivojlantiruvchi faoliyatga asoslangan va muammoli ta‘lim texnologiyalarida asosiy e‘tibor shu yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilmoqda. Bunday modellarni amalga oshirish murakkab tuzilishga ega bo‘lgan elektron taqdimot shaklida amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, amaliy fanlar fakultet talabalari “Texnologiya” fani mashg‘ulotlari mustaqil topshiriqlarini bajarilishida hamda “O‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” kurslari bo‘yicha elektron multimediyali taqdimotlar yaratishga jalb etilgan[5].

**Ijodkorlik** – inson ish faoliyatning turli jarayonlar va holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish, havas, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha bo‘lgan jarayonlardan tashkil topadi. Zamonaviy ta‘limning mazmun mohiyatini yoritish berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli ochib berish, bo‘lajak yosh o‘qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondashib, unda o‘qitishning yangi shakl usullarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning rivojlanishi hamda uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshad

Amaliy darslarda ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z ijobiy natijasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, suhbatlar, bahs, izlanish darslari, ishtirokchilik darslari, fantaziya, muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish interfaol darslari; modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, insholar yozish, kichik kashfiyotlar yaratish, turli ishbop o‘yinlardan, solnomalar yaratish, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida dars shakllarining o‘yin usullari o‘qitishning ma‘lum bir vaqtdagi qismida amalga oshiriladi. Ammo o‘yin turlarining yagona va juda muhim asosiy xususiyati uning ta‘limdagi ahamiyatligidir. Ta‘limning maqsadi jamiyatning taraqqiyot darajasidagi ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Demak, ta‘lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi lozim. Shunga ko‘ra, dars shakli va xususiyatidan kelib chiqib, mashg‘ulot jarayoning turli qismlarida qo‘llash uchun quyidagi multimediyali taqdimot asosida yaratilgan metod va animatsion o‘yinlardan foydalanish mumkin: “Animatsion klaster”, “Krossvord”, “Olti shlyapa”, “Rasmi maqol”, “Zakovat o‘yni”, “Bilim lotto”, “Mehmonni uyga olib kir o‘yni”, “O‘yla-izla-top”, “Pole Chudes”. Ushbu multimediyali taqdimot asosida yaratilgan animatsion o‘yin loyihalarini quyidagi “QR code” havolalari orqali taqdim etaman[6].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, ilmiy-uslubiy manbalarda ta‘limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma‘naviy boyitish, milliy g‘oyani singdirishdan iboratligi ta‘kidlangan. Ta‘limiy maqsad asosida o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish orqali ularning muloqot va muomila madaniyati takomillashtiriladi. Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanini zamonaviy texnologiyalar, xususan, grafik organayzerlar va multimediyali vositalari asosida o‘qitish va o‘rgatish davr talabi. Yosh avlod turli ma‘naviy-texnikaviy omillar ta‘sirida aqliy-shuuriy jihatdan faollashib borayotganligini e‘tirof qilishimiz lozim. Ular tomonidan qabul qilinayotgan axborotlar oqimi va sig‘imining ko‘pligi inson ma‘naviy-axloqiy hamda ijodkorligi va yaratuvchanligini shakllantirish manbasi texnologik bilimlar bilan ham to‘ldirilishi uchun bu fanni o‘rgatish metodikasidan doimiy izlanish, takomillashib borish talab etiladi. Ushbu maqola texnologiya fanini o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida shunday vazifa bajaradi, degan umiddamiz.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”. - 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston”. - 2016.
3. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. – T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”, 2020. – 226 b.

4. Mamatov.O Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy psixologik imkoniyatlari. Namangan, 2008.
5. Yuldashev U.Yu , Boqiev R.R., Zokirova.F.M. Informatika o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. -T, 2004.
6. Xayitov J.X. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 3/2022. –B. 78-81. (13.00.00: №31).
7. Xayitov J.X Texnologik ta'lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi // Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz, 2022. -B. 389-392.
8. Nurmamatov Z.Sh. Innovatsiyalarning ro'li va ahamiyati ta'limda. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan. www.journal.namdu.uz ISSN: 2181-0427. 1/2023. –B. 645-650.
9. Nurmamatov Z.Sh. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash. Fan, ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. - Andijon. 2022 - y. B. 31-34.
10. Nurmamatov Z.Sh. Current status of development of innovative activity of future technology teachers. // International Conference of Scientific and Management Current Affairs. - Angliya. 2022 - y. B. 1-4.

**TALABALARDA AKADEMIK MOBILLIKNI RIVOJLANTIRISHGA OID ILG‘OR  
XORIJIY TAJRIBALARNI AMALGA OSHIRISH**

*Normurodova Adiba Alisher qizi,  
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi  
normurodovaadiba90@gmail.com*

*Mazkur maqola chet tillari, ayniqsa, ingliz tilining o'qituvchilar va talabalar mobilligiga ta'siri, hamda akademik mobillikni rivojlantirishdagi strategiyalarni tahlil qiladi. Avvalo, Rossiya va Yevropa mamlakatlaridagi ta'lim tizimlaridagi farqlar, chet tillarining o'qitishdagi o'rni va yangi o'quv dasturlarining global miqyosda qanday amalga oshirilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada davlatlarning va universitetlarning xalqaro ta'lim tizimlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tashabbuslari, yangi o'quv kurslarining yaratilishi, va o'quvchilar uchun til kurslari kabi amaliy choralar haqida so'z boradi. Maqolada, shuningdek, kredit-modul tizimi va qo'shma ta'lim dasturlari kabi xalqaro ta'lim tizimlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Yevropa va boshqa mintaqalarda ta'limning sifatini oshirish uchun qo'llanilayotgan innovatsion yondoshuvlar hamda akademik mobillikni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlar yoritilgan. Maqola umumiy tarzda global ta'lim tizimining shaffofligi, taqqoslanishi va akademik mobillikni rivojlantirishning samarali vositalarini ko'rsatib beradi.*

***Kalit so'zlar:** akademik mobillik, Yevropa ta'lim tizimi, ta'lim dasturlari, bolonya jarayoni, chet tillari, ingliz tili, akademik mobillik, ta'lim tizimi, global ta'lim, kredit-modul tizimi, xalqaro ta'lim dasturlari, ta'lim sifatini oshirish, qo'shma ta'lim dasturlari, Yevropa kredit o'tkazish tizimi, ta'lim innovatsiyalari, ta'limni xalqarolashtirish, Yevropa universitetlari, o'quv yuklamasi, o'quv rejasi.*

**ВНЕДРЕНИЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ  
АКАДЕМИЧЕСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ У СТУДЕНТОВ**

*В статье анализируется влияние иностранных языков, особенно английского, на мобильность преподавателей и студентов, а также стратегии поощрения академической мобильности. В первую очередь, будут рассмотрены различия в системах образования России и европейских стран, роль иностранных языков в преподавании, а также то, как новые учебные программы внедряются в мировом масштабе. В статье также обсуждаются инициативы стран и университетов по развитию международных систем образования, созданию новых курсов и практическим мерам, таким как языковые курсы для студентов. В статье также анализируется эффективность международных систем образования, таких как кредитно-модульная система и совместные образовательные программы. Освещены инновационные подходы к повышению качества образования в Европе и других регионах, а также существующие возможности для развития академической мобильности. В статье в целом излагаются эффективные инструменты для содействия прозрачности, сопоставимости и академической мобильности в глобальной системе образования.*

***Ключевые слова:** академическая мобильность, европейская система образования, учебные программы, Болонский процесс, иностранные языки, английский язык, академическая мобильность, система образования, глобальное образование, кредитно-модульная система, международные образовательные программы, повышение качества образования, совместные образовательные программы, европейская система перевода кредитов, образовательные инновации, интернационализация образования, европейские университеты, учебная программа, учебная программа.*

**IMPLEMENTATION OF ADVANCED FOREIGN EXPERIMENTS ON THE  
DEVELOPMENT OF ACADEMIC MOBILITY IN STUDENTS**

*This article analyzes the impact of foreign languages, especially English, on the mobility of teachers and students, as well as strategies for developing academic mobility. First of all, the differences in the education systems of Russia and European countries, the role of foreign languages in teaching, and how new curricular are implemented on a global scale are considered. The article also discusses the initiatives of states and universities aimed at developing international education systems, the creation of new courses, and practical measures such as language courses for students. The article also analyzes the effectiveness of*

*international education systems, such as the credit-module system and joint educational programs. Innovative approaches used to improve the quality of education in Europe and other regions, as well as existing opportunities for developing academic mobility, are highlighted. The article generally demonstrates the transparency, comparability of the global education system, and effective tools for developing academic mobility.*

**Keywords:** *academic mobility, European education system, curricular, Bologna process, foreign languages, English, academic mobility, education system, global education, credit-module system, international education programs, improving the quality of education, joint education programs, European credit transfer system, educational innovations, internationalization of education, European universities, study load, curriculum.*

**Kirish.** Akademik mobillikni rivojlantirish g‘oyasi quyidagilarga alohida e‘tibor berib, erkin harakat yo‘lidagi to‘siqlarni yengib o‘tishni o‘z ichiga oladi:

- talabalar uchun - ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlaridan foydalanish;
- o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va ma‘muriy xodimlar uchun - Yevropada tadqiqot, o‘qitish uchun foydalanilgan vaqtni tan olish hamda kredit, ularning qonun bilan belgilangan huquqlariga ziyon yetkazmaslik.

**Tadqiqot obyekti:** bugungi kundagi ta‘lim tizimi va uni rivojlantirish masalalari va bu jarayonda xorijiy tajribalar va islohatlardan foydalanish, ularni qay tarzda amalga oshirish tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Qo‘llanilgan metodlar:** suhbat, kuzatish, tajriba, test.

**Asosiy qism.** Ham talabalar, ham o‘qituvchilarning mobilligiga to‘sqinlik qiladigan eng muhim omillardan biri bu chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini yaxshi bilmaslikdir. Rossiyaning ko‘plab universitetlarida ingliz tilida yoki boshqa xalqaro qo‘llaniladigan chet tillarida o‘qitiladigan o‘quv kurslari deyarli mavjud emas, Yevropaning ko‘plab universitetlarida so‘nggi yillarda ko‘plab ingliz tilidagi dasturlar tashkil etildi, bu intellektual resurslarni jalb qilish uchun kurashning eng muhim omillaridan biri sanaladi.

O‘qituvchilar va ma‘muriy xodimlarning mobilligini kengaytirish hokimiyatning qo‘llab quvvatlashi bilan mumkin. Bunday tashabbuslarning maqsadi yangi o‘quv dasturlarining Yevropa tomonlarini rivojlantirish va mavzu tarmoqlarida hamkorlik qilishdir. Bunday davlat siyosati ikkinchisini taqqoslash va xalqarolashtirish orqali ta‘lim sifatini oshirishga yordam beradi [1].

Hukumatlar va universitetlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro miqyosdagi strategiyalarni ishlab chiqadilar, bu yerda ular aniq harakat qilishlari kerak bo‘lgan miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari ko‘rsatiladi:

- hamkor universitetlar bilan qo‘shma ta‘lim dasturlari soni;
- chet ellik talabalar soni;
- akademik dasturlar;
- mobillik;
- chet ellik talabalar uchun moslashish dasturlari;
- mobillik dasturlarining potensial ishtirokchilari uchun til kurslari va boshqalar.

Talaba tomonidan oliy ta‘lim muassasasi ta‘lim dasturi bo‘yicha to‘plangan kreditlar miqdori boshqa oliy ta‘lim muassasasida belgilangan ta‘lim olish natijalariga muvofiq o‘zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

Talabalar ta‘lim dasturi doirasida o‘qitish shaklidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

O‘quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo‘lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro‘yxatdan o‘tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratiladi. O‘quv yili davomiyligi o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq oliy ta‘lim muassasasi kengashining qarori bilan o‘zgacha tartibda belgilanishi mumkin.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25 -30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya‘ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma‘lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda –40-50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ish soatiga, magistraturada -30% -40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o‘quv yuklamasi miqdori oliy ta‘lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta‘lim muassasasi vebsahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o‘quv yilida 60 kredit to‘plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan kreditlar hajmi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi.

Talaba o'zining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

Talaba bakalavriatda o'qish muddati kamida 3 yil bo'lganda 180 kredit, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lganda 240 kredit to'plashi zarur. Magistraturada o'qish muddati kamida 1 yil bo'lganda 60 kredit, o'qish muddati kamida 2 yil bo'lganda 120 kredit to'plashi talab etiladi.

Kredit-modul tizimi talabalarni ro'yxatga olish xizmatini tashkil etishni taqazo etadi. Ro'yxatga olish xizmati talabaga tanlagan mutaxassisligi bo'yicha yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga erishishga yordam beradi.

Buyuk Britaniya hukumati ushbu yo'nalishda faol siyosat olib bormoqda. Bugungi kunda ikkita asosiy moliyalashtirish manbalari mavjud:

- Global Global Challenges Research Fund ;
- Newton Fund.

Ikkala mablag'lar ham Buyuk Britaniya hukumati tomonidan qo'llab- quvvatlanadi va qo'llab quvvatlashga qaratilgan.

Britaniya Kengashi 2016- yilda oliy ma'lumotni xalqarolashtirishga jalb qilingan mamlakatlar soni tobora ortib borayotganligini ko'rsatdi: 23 mamlakatda talabalarning akademik mobilligini rivojlantirishning samarali usullari mavjud. Eng mashhur mamlakatlar Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Xitoy [2].

Akademik mobillikni rivojlantirish vositalari quyidagilardir:

- Yevropa kredit o'tkazish tizimi - o'rganilayotgan materialning shaffofligini, taqqoslanuvchanligini va shunga muvofiq ravishda malakalarni akademik tan olish imkoniyatini ta'minlaydi. Tizim Yevropaning ERASMUS dasturi doirasida 1988- yilda paydo bo'lgan. O'quv dasturlarining taqqoslanuvchanligi talabalarga o'z malakalariga mos keladigan dasturlarni tanlashga imkon beradi, bu dasturlar muvaffaqiyatli bajarilishi sharti bilan o'z universitetlarida o'tgan materiallar sifatida hisoblanadi;

- Diplomga qo'shimcha - olingan ta'lim mavzusi, darajasi, mazmuni haqida to'liq ma'lumot beradi. Ilova talabalarning akademik mobillik darajasini va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi mobilligini oshiradi;

- ikki tomonlama diplomlar - bu o'quvchilarga bir akademik o'qish davrida (3-5 yil) ishlab chiqilgan qo'shma akademik dasturga muvofiq ikkita oliy o'quv yurtini (ikkita oliy ma'lumot diplomini olish) tugatish imkoniyatini beradi. Hamkor universitetlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq, talaba 1-2 yil davomida partner universitetda o'qishi va ikki marotaba yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishi kerak (tayanch universitetida va partner universitetida) yoki komissiya tomonidan bir marotaba davlat imtihonlarini topshirishi kerak, uning tarkibiga bazaviy universitet va partner universitet vakillari kiradi.

Yuboruvchi va qabul qiluvchi universitetlarning Yevropaning mobillik amaliyotida o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirish uchun Ta'lim to'g'risida Shartnoma rasmiy hujjat sifatida kiritilgan. Shartnoma yuboruvchi universitetning harakat koordinatori va talabaning o'zi tomonidan to'ldirilishi va imzolanishini o'z ichiga oladi. Ushbu hujjat tavsiya etilgan o'quv dasturi ikkala universitet tomonidan kelishilganligini tasdiqlaydi.

Qo'shma ta'lim dasturlari Bolonya jarayonining asosiy maqsadlarini to'liq amalga oshiradi:

- sifatni birgalikda nazorat qilish;
- darajalarni tan olish;
- ta'lim tizimlarining yaqinlashuvi va shaffofligi;
- akademik mobillik.

**Olingan natijalar.** Ta'lim sifatining oshishi: Xalqaro tajribalarni o'rganish orqali o'qitish metodlarida innovatsion yondashuvlar qo'llanilib, ta'limning sifati yaxshilanadi. Bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi.

2. O'quvchilarning muvaffaqiyat darajasini oshirish: Xalqaro ta'lim standartlari va o'qitish usullarini integratsiya qilish orqali o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasi oshadi.

3. Ta'limning univrsalligi va moslashuvchanligi: Xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan ta'lim metodlari ko'plab mamlakatlarda umumiydir. Shu sababli, o'quvchilar o'zlarining bilimlarini boshqa davlatlarda ham muvaffaqiyatli qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yevropaning ko'plab universitetlarida ingliz tilida ta'lim berish, ilmiy tadqiqotlar va akademik dasturlarni tashkil etish so'nggi yillarda muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, Germaniya va Buyuk Britaniyada ko'plab magistratura dasturlari va ilmiy kurslar faqat ingliz tilida o'tkazilmoqda. Bu, o'z navbatida, talabalarga va o'qituvchilarga dunyoning turli nuqtalaridagi ilmiy hamjamiyat bilan aloqalarni o'rnatish imkonini beradi. Shu bilan birga, Yevropadagi universitetlar, ayniqsa, ERASMUS+ dasturi orqali, talabalarga boshqa davlatlarda o'qish va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratmoqdalar.

Buyuk Britaniyada, masalan, oliy ta'limda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun maxsus grantlar, jumladan, *Newton Fund* va *Global Challenges Research Fund* kabi moliyaviy manbalar mavjud. Bu dasturlarning maqsadi - rivojlanayotgan mamlakatlardagi ilmiy va ta'lim tizimlarini qo'llab-quvvatlash hamda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Shuningdek, Buyuk Britaniya hukumati va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ta'lim va ilm-fan sohasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha turli tashabbuslar ilgari surilmoqda. Bunday tashabbuslar global ilmiy jamoalarni birlashtirishga xizmat qilmoqda, bu esa talabalar va o'qituvchilarni ilm-fan sohasida yanada muvaffaqiyatli qilish imkonini beradi.

**O'qituvchilarning mobilizatsiyasi va ta'lim sifatini oshirish:** O'qituvchilarning akademik mobilizatsiyasi va bilimlarini chet elda rivojlantirish imkoniyatlari nafaqat ularning o'ziga, balki butun ta'lim tizimining sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yevropadagi universitetlarda o'qituvchilar uchun chet ellarda ilmiy ishlanmalar, konferensiyalar va seminarlar o'tkazish orqali o'z bilimlarini oshirish va yangi pedagogik metodlarni joriy etish imkoniyatlari mavjud. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. Rossiya va boshqa mamlakatlarda esa, o'qituvchilarning akademik mobilligi masalasi hali ham qisman cheklangan. Buning sababi, ba'zan malaka oshirish va ta'lim metodologiyasini yangilashga sarflanadigan mablag'larning yetishmasligidir.

O'qituvchilarni xalqaro miqyosda malaka oshirish uchun turli xil grantlar, sarmoyalar va maxsus dasturlar joriy etilishi kerak. Masalan, Yevropada o'qituvchilarning akademik mobilligi uchun "Erasmus+" va "Horizon 2020" kabi dasturlar mavjud. Bu dasturlar orqali o'qituvchilar o'z bilimlarini global miqyosda rivojlantirish va boshqa universitetlardagi ilmiy-tadqiqot loyihalariga qo'shilish imkoniyatiga ega.

**Akademik mobillikni kengaytirish: Kredit-modul tizimi va xalqaro ta'lim:** Akademik mobillikni oshirishda kredit-modul tizimi muhim rol o'ynaydi. Yevropaning ko'plab universitetlarida ushbu tizim asosida o'qish imkoniyatlari yaratilgan. Masalan, *Erasmus* dasturi orqali talabalar bir davlatda o'qib, boshqa davlatda o'z ta'limlarini davom ettirishi mumkin. Bu tizim, o'z navbatida, talabalar va o'qituvchilarni boshqa mamlakatlarda yangi ilmiy-tadqiqot imkoniyatlari bilan tanishtiradi va ko'proq xalqaro aloqalarni o'rnatishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Yevropada va boshqa mamlakatlarda ikki tomonlama diplom olish imkoniyatlari joriy etilgan. Bu imkoniyat, talabalarga bir necha universitetlarda o'qish va ikki diplom olish imkoniyatini yaratadi. Bunday qo'shma ta'lim dasturlari nafaqat akademik bilimni oshiradi, balki talabalar uchun global ish bozorida raqobatbardoshlikni ham ta'minlaydi.

**Chet ellik talabalar uchun moslashuv kurslari va lingvistik yordam:** Chet ellik talabalar uchun moslashuv dasturlari va ingliz tilidagi kurslar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim olishni osonlashtirishga yordam beradi. Bunday kurslar, talabalar o'quv jarayoniga moslashishini, madaniyatlararo almashuvni amalga oshirishni va ilmiy ishlanmalar uchun zarur bo'lgan tilni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarining akademik muvaffaqiyatlarini oshiradi va ularni xalqaro darajada raqobatbardosh qiladi.

Masalan, o'qituvchilar uchun ingliz tilida o'qitish metodikalarini o'rganish, o'z bilimlarini kengaytirish va yangi pedagogik yondashuvlarni kiritish imkoniyatlari yaratilgan. Bu jarayon, nafaqat talabalarining til o'rganish jarayonini osonlashtiradi, balki o'qituvchilarga ham yangi metodlarni joriy etish imkoniyatini beradi.

**Xulosa.** Ingliz tilida ta'lim olish va akademik mobillikni rivojlantirish, nafaqat talaba va o'qituvchilarning professional o'sishiga, balki butun ta'lim tizimining sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayon xalqaro ilmiy va akademik hamkorlikni rivojlantirish, yangi metodlarni joriy etish va global miqyosda yangi bilimlarni o'rganishga imkon yaratadi. Xalqaro ta'lim tizimi va kredit-modul tizimi orqali, talaba va o'qituvchilarning o'zaro aloqalari yanada kuchayadi va ta'lim sohasida sifatni oshirishga erishiladi. Rossiya va boshqa mamlakatlarda esa, bu tizimlarni yanada kengaytirish va chet tillarini o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar va sarmoyalar joriy etish zarur. Bu kengaytirilgan maqola, sizning asl matningizga yangi tahlil, misollar va global tendensiyalarni qo'shgan holda mavzuni yanada boyitadi. Agar qo'shimcha o'zgartirishlar yoki tahlil kerak bo'lsa, iltimos, bildiring. Chet ellik talabalarining Rossiya universitetidagi dastlabki kunlaridanoq, ular uchun odatiy bo'lmagan ijtimoiy-madaniy, lingvistik va milliy muhitda bo'lishadi, ular imkon qadar tezroq moslashishlari kerak bo'ladi. Shu sababli, chet ellik talabalar uchun o'quv jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish moslashish muammosini hal qilishning ajralmas qismidir. Samarali moslashuv chet ellik talabalarining ta'lim sifati va darajasini oshiradi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga yuqori turtki beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Bogoslovskiy I.V., Pisareva S.A., Tryapitsyna A.P. Akademik harakatchanlik: Boloniya jarayonida amalga oshirish: Usul. talabalar uchun nafaqa. - Sankt-Peterburg: Rossiya davlat pedagogika universiteti

nashriyoti im. A.I.Herzen, 2017. - 55 b. “The impact of Modernization in Education” Aristi Rahma Magistra,

2. Agishev R.R. Akademik mobillik dasturlari: xususiyatlar va imkoniyatlar // Boloniya jarayonining tarqalishi: deklaratsiyalardan amaliyotda amalga oshirishgacha: 3 soat ichida 2- qism. Boloniya jarayonining rivojlanish tendentsiyalari, uning vositalari va amalga oshirish tajribasi. - Qozon: KSTU im. A.N.Tupolev, 2018 yil. — B. 103-110

3. Xajieva I. va boshqalar. Axborot va ta'lim muhitida bo'lajak kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining chet tili kompetentsiyasini shakllantirish // Yevropa molekulyar va klinik tibbiyot jurnali. - 2020. - T. 7. - Yo'q. 2. - S. 360-365.

4. Jabborova O. I., Kenjaeva X. P. O'zbekistonda gender huquq tengligi asoslari // Xalqaro gumanitar va tabiiy fanlar jurnali. – 2018. – yo'q. 5-2.

5. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ

**TA'LIMY O'YIN FAOLIYATLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING BILISH  
KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA YONDASHUVLAR TAVSIFI**

***Qurbonova Asal Dilshod qizi,***

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti*

*Shahrisabz, O'zbekiston.*

*asalqurbonova879@gmail.com*

*Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish ko'nikmasini rivojlantirish muammosi yechimi shaxsiy-faoliyatli, gnoseologik va integratsiyalashgan yondashuvlar asosida hal qilinishi, ta'limiy o'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi uning takomillashuv usuli ekanligi, u maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchi hayotining asosiy mazmunini tashkil etishi, ta'limiy o'yin faoliyatlarining tarbiyalanuvchilarning aql idroki, ong va tafakkurlarining rivojlanishi va yuzaga chiqishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirlari haqidagi fikrlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** integratsiyalashgan, gnoseologik maktabgacha yoshdagi bolalar, bilish, model, yondashuv, shaxsiy-faoliyatli, aql-idrok, ong, tafakkur.*

**ОПИСАНИЕ ПОДХОДОВ К РАЗВИТИЮ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ  
ВОСПИТУЕМЫХ В ИГРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*В статье утверждается, что проблема развития познавательных способностей у детей дошкольного возраста может быть решена на основе лично-деятельностного, гносеологического и комплексного подходов, что учебная игра является проявлением человеческой идентичности, способом её совершенствования, что она представляет собой основу содержания жизни дошкольника. В статье рассматривается положительное влияние развивающей игровой деятельности на развитие и становление интеллектуального восприятия, сознания и мышления воспитуемых.*

***Ключевые слова:** интегрированный, гносеологический, дошкольники, когнитивный, модель, подход, лично-деятельностный, интеллект, разум, мысль.*

**DESCRIPTION OF APPROACHES TO DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE SKILLS  
IN EDUCATIONAL GAME ACTIVITIES**

*The article highlights the ideas that the problem of developing cognitive skills in preschool children can be solved on the basis of personal-activity, epistemological and integrated approaches, that educational play is a manifestation of human identity and a way of its improvement, that it constitutes the main content of the life of a preschooler, and that educational play activities have a positive impact on the development and emergence of intellectual perception, consciousness and thinking of preschoolers.*

***Keywords:** integrated, epistemological, preschoolers, cognitive, model, approach, personal-activity, intelligence, mind, thought.*

**Kirish.** Ta'limiy o'yin faoliyati jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish ko'nikmasini rivojlantirish - doimiy ravishda amalga oshiriladigan asosiy shakl va metodlarning maqsadi, vazifalari, mazmuni jarayon elementlarining o'zaro ta'siri ishning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Har bir jamiyatning rivoj topishi va ravnaqida uning kelajak poydevori bo'lgan o'sib kelayotgan yosh avlodga yaratayotgan imkoniyatlari, shart-sharoitlari asos bo'ladi. Bizning mamlakatimizda ham yosh avlodning o'sib unishi uchun zamonaviy barcha talablarga javob beradigan qiziqish va intilishlarini qondiradigan shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga va shu orqali yosh avlodni har tamonlama barkamol shaxs sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada maktabgacha ta'lim tizimida bulayotgan o'zgarishlarni sanab o'tish jarayonida, shuni aytib o'tish joizki yurtboshimiz tomonidan chiqarilayotgan turli farmon, qarorlar bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaror, 2019-yil 14-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ham shu sohadagi munosabatlarni tartibga solishda innovatsion ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat[1]. Avvalo ta'limiy o'yin faoliyatlari bu- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir faoliyatning asosi

hisoblanadi. Tarbiyalanuvchi bilim olar ekan u har tomonlama soda unga tushunarli tarzda tushuntirilishiga muhtoj hisoblanadi. Shuning uchun ham bu o‘yin faoliyatlari rivojlanishning asosidir. Bu jarayonni qay holatda yo‘lga qo‘yish esa, pedagogning kasbiy mahoratiga bog‘liq hisoblanadi[2].

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining integratsiyalashgan ta‘limiy o‘yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni bilish ko‘nikmasini rivojlantirish usullari modeli deb atalganda - maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining integratsiyalashgan ta‘limiy o‘yin faoliyatida tarbiyalanuvchilarning bilish ko‘nikmasini rivojlanishining o‘rganish obyekti tarkibiy va funksional aloqalarini aks ettiradigan, kerakli vizual shaklda ifodalangan va yangi bilimlarni namoyish etishga qodir pedagogik tizimni tushunamiz.

“Ta‘limiy-tarbiyaviy komponentlar ta‘limning maqsadga muvofiq strategik ta‘limotlarni tizimga yondashuvini amalga oshirishning uslubiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga oladi. Albatta, yondashuvning o‘zi yagona bo‘lmazligi mumkin va u ishlatiladigan muqobil ta‘lim strategiyalarini taxmin qiladi va ularni e‘tibordan chetda qoldirmaydi” [3].

Yondashuvni kognitivlikning maxsus shakli deb bilib, amaliy faoliyat nuqtai nazardan pedagogik hodisalarga e‘tibor qaratib, ularni tadqiqotni o‘rganish strategiyasi va asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Barcha zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta‘riflangan metodologik yondashuvlardan biz tadqiqot maqsadiga muvofiq, uslubiy asosda, integratsiyalashgan ta‘limiy jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi muammosini shaxsiy-faoliyatli, gnoseologik va integratsiyalashgan yondashuvlarga kiritamiz. Oldimizga qo‘yilgan muammoni hal qilish uchun ushbu yondashuvlarning har birini ko‘rib chiqamiz, ularning ahamiyatini tasavvur qilamiz.

Tanlovga bo‘lgan ehtiyojni, barcha voqea va hodisalarni bilish nazariyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadigan gnoseologik yondashuvning asosiy qoidalarini ochib beradigan bo‘lsak, mazkur yondashuv bilish nazariyasini belgilab beradi (Sokrat, Aristotel, Platon va boshqalar). Inson haqiqatga erishishda dunyoni bilish asosida ratsional fikrlashni tan olish imkoniyatlari, aql bilim manbai va haqiqat mezoni sifatida olgan bilimlari Sokrat, Dekartning falsafasida aks etgan hisoblanadi. Nemis klassik falsafasi bilish muammosini hisobga olib, atrofda voqelik tarixini o‘rganib, amaliy va kognitiv faoliyat shakllarini rivojlantirish bilan bog‘laganlar. (Gegel, I. Kant). Zamonaviy falsafada bilish muammolari evolyutsion shart-sharoitlar sifatida ko‘rib chiqiladi, faqat haqiqiy kognitiv faoliyat natijasida yuzaga kelgan harakat tekshirib boriladi (K. Lorens, V. Kuayn, L.N. Xudyakova).

Pedagogika va psixologiyada gnoseologik yondashuv inson bilimi (bola, o‘smir, kattalar) obyektiv haqiqat va uni idrok etish jarayoni, ichki va tashqi muhitni aks ettirish xususiyatlarini hisobga olgan hisoblanadi. Gnoseologik yondashuv ta‘lim jarayonining mohiyatini bilish jarayonidan olishga imkon berib boradi va o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan kognitiv faoliyatning modifikatsiyasi hisoblanadi (S.P. Baranov, V.I. Loginova)[4]. Ta‘lim ijtimoiy qonunlarga bo‘ysunadigan shaxsning individual rivojlanishini tezlashtirishga hissa qo‘shadi. Shuning uchun, bu nafaqat insonning rivojlanish qonuniyatlariga, balki inson ongining ijtimoiy-tarixiy rivojlanishiga ham bog‘liq hisoblanadi. Ta‘lim bilishning ijtimoiy va individual shakllarini birlashtiradi, individual faoliyatni ijtimoiy bilimlar tuzilishiga yaqinlashtiradi, o‘rganishdan oldin bolaning shaxsiy tajribasi va ta‘limiy o‘yin faoliyatida vujudga keladigan tushunish o‘rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘ladi. Ushbu yondashuv mohiyati ta‘limiy o‘yin faoliyati bilan maktabgacha yoshdagi bolani individuallashtirish jarayonini, ta‘lim funksiyasini amalga oshirish darkor. Maktabgacha yoshdagi bolaning bilish ko‘nikmasini rivojlanishi hodisasini o‘rganishda bu yondashuv bilish tabiatini, uning evolyutsion belgisi, shuningdek, faoliyat xarakterini o‘rganishga yordam beradi. Integratsiyalashgan ta‘limdagi gnoseologik yondashuv nuqtai nazaridan, bolaning reallikka kognitiv munosabati uning atrof olamga bo‘lgan munosabatlarini butun tizimining zarur tomoni sifatida qaraladi va shu bilan ajralib turadi: yaxlit tasavvurlarni shakllantirish (olamning yaxlit manzarasi); atrofda hayot haqidagi o‘zaro bog‘liq bilimlarni rivojlantirish orqali atrofda voqelikka qadriyatli munosabat; atrof olam obyektlari va hodisalari haqida yaxlit g‘oyalarni shakllantiruvchi obyektlar orasidagi aniq ifodalangan mantiqiy bog‘lanishni bolalar tomonidan o‘zlashtirish jarayonida, obyektlar va ularning qismlari; maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyati jarayonida sezgirlik va oqilona birlikni ta‘minlash; bilimlarni o‘zlashtirish metodi sifatida kognitiv faoliyatda tadqiqot usullaridan foydalanish mumkin bo‘ladi. Chet el pedagog olimlaridan P.F. Lesgaft, K.D. Ushinskiy tomonidan o‘yin nazariyasi ishlab chiqilgan. Ushinskiy bolalar faoliyatida o‘yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo‘lganligini va uni yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o‘yinning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab berdi. U “bolalar o‘yinlari ko‘p asrlik tarixga ega. Insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan” -deb ta‘kidlaydi[5].

Bundan tashqari A.S. Makarenko, D.B. Elkonin, N.L. Figurin, E.A. Arkinlarning g‘oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlar nazariyasi uchun asos bo‘lib kelgan. Buyuk psixolog D.V. Elkonin o‘yinning kelib

chiqishiga oid yangi gʻoyani ilgari suradi. Jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayoq bolalarning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishlari, bolalarni mehnat qilishlari uchun qulay oʻyinchoq-mehnat qurollari ishlab chiqilgan. D.V.Elkonin oʻz tadqiqotida rolli oʻyinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanligini yozadi. Uning fikricha, oʻyinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi oʻyinning mazmunini tashkil qiladi va kattalar mehnatida ishtirok etishi orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uygʻotish zarurligi gʻoyasini ilgari surgan. Maktabgacha taʼlimda oʻyin nazariyasi ijtimoiy faoliyat hisoblanib, mehnatning tarixiy rivojlanish jarayonida paydo boʻladi [6]. Goʻdakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha qator tadqiqotlar mavjud. Bular N.L.Figurin, M.P.Denisova, A.Vallon, D.B.Elkonin, M.Y.Kistyakovskiy, E.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I.Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir. Oʻyin doimo hayotni aks ettiradi. Shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda oʻzgarib turadi. Oʻyin maqsadga qaratilgan oʻylangan jarayondir. Oʻyin jarayoni asosida oʻquv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha koʻp oʻynasa atrof-olam haqida shuncha tushunchalarga ega boʻladi, oʻyin jarayonida bolada dastlabki kompetensiyalar rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyati oʻyin bilan chambarchas bogʻliqdir. Bu jarayond bolada muhim boʻlgan kompetensiyalar rivojlanadi: bola nima qilish kerakligini, nima uchun qanday qilish kerakligini tushunish, topshiriqlarni bajarishda diqqat bilan kuzdan kechirib chiqish, shartlarni bajarilishini taxlil qilishni oʻrganadi. Bolalar oʻyinlari oʻzining xilma-xilligi, rangbarangligi bilan ajralib turadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shaxsiy-faoliyatli yondashuvning mohiyati oʻtmishdagi va hozirgi zamonning koʻplab nazariyalarning pozitsiyasi hisoblanadi: pedagogik tajribada vujudga kelgan gumanizm gʻoyalari; shaxsiy-insonparvarlik konsepsiyasining qoidalari, gʻoyalar va shu kabilarni sanab oʻtishimiz mumkin boʻladi. Tadqiqotchilar faoliyat subyektini sifatida maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish jarayoniga urgʻu berib oʻtadilar. Qayd etilgan yondashuvlar nafaqat bilimlarni oʻzlashtirishga, balki mazkur oʻzlashtirishning usullariga ham yoʻnaltiradi [7]. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan shaxs faoliyat subyektini sifatida qaraladi, chunki shaxs faoliyatda va boshqa odamlar bilan muloqotda shakllanib boradi, faoliyat va muloqot xususiyatlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Ikkala komponent shaxs va faoliyatning oʻzaro bogʻliqligi shaxs faoliyat subyektini sifatida faoliyat koʻrsatishi va uning shaxsiy rivojlanish yoʻnalishini belgilash bilan namoyon boʻladi. Faoliyat doirasida inson faoliyatining namoyon boʻlishi deyilganda - dunyoga va oʻziga nisbatan shaxsiy munosabatlarni amalga oshirishni tushunamiz. Faoliyatning asosiy xususiyatlari: samarali transformatsion tavsif, ijtimoiy, maqsadni ongli ravishda belgilashdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv rivojlanishi – uni faoliyatining rivojlanishi, bilishning pedagogik vositasi boʻlib, bolalar faoliyatining har xil turlari: oʻyin, tasviriy, musiqiy, mehnat, mahsuldor va boshqalar tushuniladi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv maktabgacha yoshdagi bolaga atrof olam haqidagi bilimlarni taʼminlaydigan zarur sharoit va mexanizmlarni yaratishga imkon bergan hisoblanadi. Tashqi faoliyatga muvofiq, bola ichki harakatlar rejasini tuzadi, yaʼni bu harakatlar xulq – atvor meyorlari, allaqachon oʻzlashtirilgan qadriyatlar, bilimlarni hayotiy vaziyatda tadbiiq etish haqida fikr yuritadi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv oʻrganish obyekti nuqtai nazaridan, kelajakda bolaning oʻzi tomonidan modellashirilgan faoliyat boʻlishi kerak. Shaxsiy – faoliyatli yondashuv jarayon tavsifi va oʻrganish obyektining oʻzgarishini aniqlash, pedagog tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchilar oʻrtasidagi munosabatlarning subyekt-subyektiv sifatida belgilanadigan juda aniq sxemasini oʻzgartirishni nazarda tutilgan hisoblanadi. Qashqariy keltirgan maʼlumotlar oʻyinlarning tarixiy zaminiga va asosiga ega ekanligini koʻrsatadi. Darhaqiqat oʻyin nomlari va oʻyinlarning oʻynalish tarkibi avlodlardan avlodga oʻtib kelgan. Zero, oʻyinlar xalq madaniyatining ajralmas bir boʻlagidir. “Devonu lugʻatit turk”da anchagina oʻyinlarning nomlari, ayrim oʻyinlarning oʻynalish tartibi batafsil keltirilgan boʻlib hozirgi kunda bolalar sevib oʻynayotgan “Yongʻoq”, “Poylama”, “Chavgon” “Koʻchirma oʻyin” (hozirgi “mak-mak”) haqida bir necha maʼlumotlar berib oʻtilgan. Buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Zahriddin

Muhammad Boburlarning asarlarida “Chavgon” oʻyini haqida maʼlumotlar keltirilgan. Firdavsiyning “Shohnomasi” da esa “Chavgon” (chavgon choʻpi shu nom bilan atalgan boʻlib, fors-tojikcha soʻzdir, uning maʼnosi “uchi egri uzun tayoq” degani) haqida voqea bayon qilingan. Ulugʻ bobokolonimiz Amir Temur davrida ham bolalarning oʻyin jarayoniga alohida eʼtibor qaratilgan boʻlib oʻgʻil bolalarga ot minish, chavandozlik 3 yoshdan oʻrgatilganligi maʼlum. Sohibquron Amir Temur oʻz “Tuzuklari” da shunday deydi: “Qoʻshin tarkibiga navkarlarni uch qoidaga amal qilindi: birinchisi- sogʻlom va baquvvat boʻlishi, ikkinchisi- qilichdan mohirona foydalanishi, uchinchisi- aql-zakovatiga va barkamolligiga”. Ulugʻ munajjim va davlat arbobi Mirzo Ulugʻbekning pedagogik qarashlari diqqatga sazovordir. Uning “Farzandingiz sogʻlom va baquvvat boʻlib oʻsishini istasangiz, uni kichik yoshdan jismoniy mashqlar bilan shugʻullantiring” degan soʻzlarining ahamiyati beqiyosdir. Tibbiyot olamining sultoni Abu Ali ibn Sino oʻzining “Tib qonunlari” asarida “Jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shugʻullangan odam hech qanday davolashga muhtoj boʻlmadi” deb aytgan. [4]. Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino,

Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham o‘z asarlarida xalqimizga xos bo‘lgan farzand tarbiyasi ustida fikr yuritganlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi jarayonida shaxsiy-faoliyat yondashuvining qo‘llanilishi barcha birlashtirilgan shaxsiy fazilatlar (qiziquvchanlik, mustaqillik) nafaqat o‘zini namoyon qilishi, balki faol faoliyatda, shaxsning hayotini tashkil etuvchi uning ijtimoiy mavjudligi turli ko‘rinishlarda shakllangan bo‘lishi bilan izohlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tavsifli faoliyat-kognitiv va o‘yindir. O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun ham alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atashgan[8]. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta‘lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ullanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: tarbiyalanuvchi harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lib boradi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, sanatsunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Yan Amos Komenskiy "O‘yin"ni - Bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli "deb hisoblar edilar. Uning fikricha o‘yin - bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanib boradi. Tarbiyalanuvchi o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘stlashadi. Y.A.Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg‘un rivojlanish sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga e‘tiborli munosabatda bo‘lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat berib o‘tganlar. P.F.Lestgail: bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o‘yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o‘yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg‘or olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berganlar. O‘qituvchi-pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etilgan:

- ✓ Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;
- ✓ Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;
- ✓ Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;
- ✓ O‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;
- ✓ Mashg‘ulotlar davomida didaktik printsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Pedagog avval tarbiyalanuvchilarni individual (yakka tartibdagi), so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa, ularni ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchlar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish metodikasini tadqiq qilish va qurishni o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan keyingi yondashuv– integratsiyalashgan yondashuvdir. Maktabgacha ta‘limda integratsiyalashgan yondashuv quyidagilardan iborat: maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularda olamning yaxlit manzarasini shakllantirish uchun asosiy maqsad va vazifalarni amalga oshirish; tarbiya va rivojlantirishda nafaqat mazmunni balki rasmiy maqsad va vazifalarni amalga oshirish; dasturning turli bo‘limlarini mazmunining tarkibiy komponentlarini mustahkamlash (ko‘rinishlararo integratsiya) va ichki bo‘limlar (ichki ko‘rinishlararo integratsiya); o‘zaro ta‘sir usullari va tarbiyalash metodikasini o‘rganish (uslubiy integratsiya); bolalar faoliyati turlarining sintezi; ta‘limni tashkil etishda integratsiyalashgan shakllarini: murakkab tuzilishdagi integrallashgan mashg‘ulotlar, siklli mashg‘ulotlar, tematik kunlar va boshqalarni tadbiq etish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi jarayoniga integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish atrofimizdagi olam haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirishni, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ta‘lim jarayoniga integratsiyalashgan ta‘lim shakllarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida qayd etilgan barcha yondashuvlarning sintezi maktabgacha yoshdagi bolaning bilish ko‘nikmasining metodologik asosidir va uning fenomenini, tavsifi va rivojlanish bosqichlarini aniqlab beradi.

**Tahlil va natijalar.** O‘yin rivojlanishda nuqsoni bor tarbiyalanuvchining asosiy faoliyatlaridan biri hisoblanadi, unda doimo haqiqiy hayot aks ettiriladi. Demak ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgarishi tabiiydir. O‘yin ma‘lum maqsadga ko‘ra yo‘naltirilgan ongli faoliyat bo‘lib uning mehnati bilan ko‘p umumiyliqi mavjud va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O‘yin faoliyati asosida

tarbiyalanuvchida o‘quv faoliyati rivojlanib boradi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning o‘yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz darkor. Tarbiyalanuvchi hech qachon jim o‘ynamaydi, bitta o‘zi o‘ynasa ham u o‘yinchoq bilan gaplashadi, o‘zi tasvirlayotgan qahramon bilan gaplashadi, so‘z ochilishiga yordam beradi. Nutq o‘yin jarayonida katta ahamiyatga ega, nutq orqali tarbiyalanuvchilar fikr almashib boradi, o‘z his-tuyg‘u kechinmalarini o‘rtoqlashadi, so‘z tarbiyalanuvchilar o‘rtasida do‘stona munosabat o‘rnatilishiga, tevarak atrofdagi hayot voqealari va faktlarga bir xilda munosabatda bo‘lishiga yordam berib boradi. O‘yin tarbiyalanuvchi uchun haqiqiy hayot demakdir. Agar tarbiyachi tarbiyalanuvchilar o‘yini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erisha olishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi. “Bolalar hayoti va faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish-ularni to‘g‘ri tarbiyalash demakdir. tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashning o‘yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o‘yinda bola yashashni o‘rganmaydi balki o‘z hayoti bilan yashaydi”. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini D.B. Elkonin o‘z navbatida quyidagicha tasniflagan:

- ❖ Maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar;
- ❖ Ishlab chiqarish syujetiga oid o‘yinlar;
- ❖ Ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

Bola maktabgacha ta‘lim tashkilotiga kelgan kundan ularning o‘yinlari asosan faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, maktabgacha ta‘lim tashkilotida rivojlantiruvchi markazlarda bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida o‘yinlarning turlari ko‘payib boradi. Mana shu o‘yinlar orqali bog‘cha, oshxonada turli tayyorlanadigan taomlar, hayvonot bog‘ida hayvonlar, bog‘ va polizda turli meva va sabzavotlar, turli xil kasblar haqida bilim ko‘nikma hosil bo‘lib boradi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalar o‘yin jarayonida o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga bog‘liq psixologik muammoni o‘rgangan. O‘yin jarayonida alohida harakatlar emas balki, murakkab harakatlar (masalan, ish, xat, rasmlar) amalga oshirilib boriladi. O‘yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘yin bilan ta‘lim o‘rtasidagi bog‘liqlik tarbiyalanuvchi ulg‘aygan sari o‘zgarib boradi. Kichik guruhda o‘yin ta‘lim berishning asosiy shakli hisoblanib borsa, katta guruhga borganda esa, mashg‘ulotlarda ta‘limning roli ortib boradi. Tayyorlov guruhiga borganda tarbiyalanuvchining o‘zida maktabga bo‘lgan ishtiyoq uyg‘onib qoladi, ammo tarbiyalanuvchi uchun o‘yinning qadri yo‘qolib bormaydi, negaki, mazmuni o‘zgarib boradi. Endi ularni ko‘proq fikriy faollikni talab etuvchi o‘yinlar sport tarzidagi o‘yinlar qiziqтира boshlaydi. Bola ulg‘ayib borgani sari uning aqliy bilish qobiliyati o‘sib boradi. Ular kichik yoshdan boshlab Mtmlarda elementar bilim berish uchun o‘yin faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiyalanuvchi o‘yinqaroq bo‘ladi, shuning uchun ularga shu o‘yinlar orqali bilim berish bilan ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin bo‘adi. Bu tarbiyalanuvchilar uchun ham qiziqarli qolaversa tushunarli bo‘lishini ta‘minlab boradi. Asta-sekin esa uning bilish jarayoni rivojlanib boradi. Bilish jarayoning takomillashib borishi esa, tarbiyalanuvchining menini anglash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Aytish darkorki, bilish jarayonini tarkib toptirish uchun tarbiyalanuvchilarning qiziqarli faoliyatidan foydalanish kerak. Chunki bu avvalo zerikishning, qolaversa qiziqarli faoliyat olib borishni keltirib chiqaradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o‘yin tarbiyalanuvchilarning jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasiga, maktabgacha ta‘lim muassasasining ta‘lim -tarbiya ishida, axloqiy, mehnat estetik tomondan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinda yosh organizmga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarni ham bilish qobiliyati ham jismoniy tarbiylash sistasini rivojlantirishda o‘yin faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin ta‘lim va mashg‘ulotlar bilan kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib juda katta ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ta‘limiy o‘yin faolyatlari tarbiyalanuvchilarning har tomonlama yanada yaxshiroq, tez, eng oson holatda mashg‘ulotning, tushunilishi kerak bo‘lgan yangi o‘rganilayotgan tushunchaning yosh xususiyatini hisobga olgan holatda tezroq anglanishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrda 802-son “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Abdullayeva M.A “O‘yin mashg‘ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish”. - “Fan va texnologiya”. - 2016 yil.
3. Djurayeva R, Tojiboyeva H.M, Nazirova G.M “Maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” Toshkent 2015 yil.
4. Гершунский, Б.С. Философия образования для 21 века / Б.С. Гершунский. - М.: АПО, 1998. -543 с.

5. Кравцов, Г.Г. Принцип единства аффекта и интеллекта как личностного подхода / Г.Г. Кравцов // Вопросы психологии. - 1996. - № 6. - С. 53-62.
6. Педагогическая диагностика как инструмент познания и понимания ребенка дошкольного возраста: Научно-методическое пособие: В 3 ч. Ч. 3 Педагогическая диагностика практического и продуктивного опыта ребенка дошкольного возраста. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2008. - 219 с.
7. Савенков, А.И. Учим детей выдвигать гипотезы и задавать вопросы / А.И. Савенков // Одаренный ребенок. - 2003. - № 2. - С. 76-86.
8. Alimardonova. M. B. Model of cognitive development preschool children in integrated educational process of preschool educational organization. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 №. 2, 2019.

## EMOTSIONAL INTELLEKT O‘SMIRLAR O‘Z-O‘ZINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK OMILI SIFATIDA

*Soyimnazarov Navro‘zbek Baxtiyor o‘g‘li,  
O‘zbekiston Milliy universiteti  
Psixologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

*Emotsional intellekt o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash jarayonida muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Emotsional intellekt insonning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga moslashish qobiliyati bo‘lib, ayniqsa, o‘smirlik davrida muhim hisoblanadi. Maqolada emotsional intellekt (EI) tushunchasi, uning o‘smirlar psixologik rivojlanishi va o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi ahamiyati yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *shaxsiy rivojlanish, xarakter, samarali muloqot, qobiliyat, ichki konflikt, krizis, empatiya, ijtimoiy moslashuvchanlik.*

## ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В КАЧЕСТВЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ФАКТОРА САМОСОЗНАНИЯ ПОДРОСТКОВ

*Эмоциональный интеллект проявляется как важный психологический фактор в процессе самосознания подростков. Эмоциональный интеллект — это способность понимать и управлять своими эмоциями, а также распознавать и адаптироваться к чувствам других, что особенно важно в подростковом возрасте. В статье будет рассмотрено понятие эмоционального интеллекта (EI), его значение в психологическом развитии подростков и в процессе их самосознания.*

**Ключевые слова:** *личностное развитие, характер, эффективная коммуникация, способности, внутренний конфликт, кризис, эмпатия, социальная адаптивность.*

## EMOTIONAL INTELLIGENCE AS A PSYCHOLOGICAL FACTOR IN ADOLESCENTS' SELF-AWARENESS

*Emotional intelligence manifests itself as an important psychological factor in the process of self-awareness among adolescents. Emotional intelligence is the ability to understand and manage one's own emotions, as well as to recognize and adapt to the feelings of others, which is particularly significant during adolescence. The article will discuss the concept of emotional intelligence (EI) and its importance in the psychological development of adolescents and their process of self-awareness.*

**Keywords:** *personal development, character, effective communication, abilities, internal conflict, crisis, empathy, social adaptability.*

**Kirish.** Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son «O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O‘smirlik davri insonni bolalikdan - yoshlikka o‘tuvchi va o‘z navbatida boshqa davrlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davrda o‘smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli xil an’analar kuzatiladi. Uning o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo‘nalganligi qaytadan shakllanadi, o‘z-o‘zini anglashi, baholashi, qadriyatlarini o‘zgaradi. Uning uchun o‘z «men»i va shu «men»ning ahamiyati ortadi.

O‘smirlik davrida shaxs o‘zini anglashga, kimligini va o‘zining ijtimoiy rolini tushunishga intiladi va aynan shu jarayonda emotsional intellektning roli beqiyosdir. Emotsional intellekt nafaqat o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, balki boshqa odamlarning emotsional holatini tushunish va ularga moslashish qobiliyatini ham qamrab oladi. O‘smirlarning o‘z-o‘zini anglashida emotsional intellektni rivojlantirish muhim psixologik omil hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O‘smirlik yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda xorij olimlaridan L.S.Vigotskiy, L.S.Rubinshteyn, A.N.Leontev, L.R.Bojovich, L.A.Petrovskaya, A.I.Donsov, A.A.Bodalev, M.Ratter, M.M.Ribalkova, O‘zbekistonda esa psixolog olimlardan Sh.V.Azizova, M.G.Davletshin, D.G.Muxamedova, N.M.Dalimova, N.M.Mullabayeva, R.Z.Gaynutdinov, N.G.Kamilova, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, G.Q.To‘laganova, E.G‘.G‘oziyev va boshqalar tomonidan ilmiy tahlil etilgan.

Emotsional intellektni o‘rganishda xorij olimlaridan D.Goulmanning emotsional kompetentlikning ahamiyati, R.Bar-On, Dj.Meyer, P.Selovey, D.Karuzoning “Qobiliyatlar” modeli, A.Karpov hissiy intellektning o‘ziga xos komponentlariga oid yondashuvlari, D.Lyusin, A.N.Andreevaning emotsional intellekt shakllanish omillari borasidagi fikrlari va boshqalar ilmiy tadqiq etishgan.

Emotsional intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalar his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish va samarali muloqotda bo‘lish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha Daniel Goleman tomonidan ommalashtirilgan bo‘lib, u emotsional intellektni besh asosiy komponentga ajratgan:

- o‘z-o‘zini anglash,
- o‘z-o‘zini boshqarish,
- ichki motivatsiya,
- empatiya,
- ijtimoiy ko‘nikmalar.

O‘smirlik davrida bu komponentlar shaxsning o‘zini rivojlantirish va jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvi uchun zarurdir. O‘smirlik davri hayotdagi o‘tish davri bo‘lib, bu bosqichda inson “men” tushunchasini shakllantirishga intiladi. Shu bilan birga, o‘smirlarning psixologik rivojlanishi his-tuyg‘ularning kuchli va beqarorligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda ular o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan, o‘smirlar tez-tez “mendan nima kutishyapti?” yoki “men kimman?” kabi savollarni o‘zlariga berishadi. Bu savollarga javob topish o‘z-o‘zini anglash jarayonining bir qismi bo‘lib, bunda emotsional intellekt asosiy rol o‘ynaydi. O‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati ularning o‘zini qadrlashi va ijtimoiy moslashuviga yordam beradi. Erik Erikson bu sohada eng mashhur olimlardan biridir. Uning nazariyalari o‘smirlik davrining muhim bosqichi sifatida qaraladi. Erikson o‘zining “psixosotsial rivojlanish” nazariyasida o‘smirlik davrini identitetni shakllantirish va rolni izlash bosqichi deb belgilaydi. Bu davrda o‘smirlar o‘z kimligini, qadriyatlarini va hayotiy maqsadlarini izlashadi. Ularning o‘z-o‘zini anglash jarayoni boshqa odamlar va ijtimoiy guruhlar bilan aloqada, shuningdek, ichki konfliktida amalga oshadi. Bu jarayon muvaffaqiyatli yakunlanmasa, o‘smirlar identitet krizisini boshdan kechirishlari mumkin.

J.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi o‘smirlik davrida aqliy va mantiqiy tafakkurning rivojlanishini o‘rganadi. Piagetning abstrakt fikrlash va mantiqiy muammolarni hal qilish bo‘yicha nazariyasi o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash jarayonini tushunishga yordam beradi. O‘smirlar bu davrda yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradilar, masalan, abstrakt fikrlash va konseptual tushunchalar, bu esa o‘z kimligini va dunyoda o‘rnini anglashga yordam beradi.

O‘smirlar hissiy jihatdan juda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Boshqa odamlar bilan bo‘ladigan munosabatlar va o‘z-o‘zini tushunish shu emotsional tajribalardan kuchli ta’sirlanadi. Emotsiyalarni boshqarish, o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish o‘smirlarning o‘zini anglash jarayonining muhim qismi hisoblanadi. O‘smirlik davrida shaxslar ko‘pincha turli tanlovlar qilishadi: kasb, maqsadlar, munosabatlar va boshqa hayotiy qarorlar. Ushbu jarayonlarda o‘smirning o‘z xohish-irodalari va qarashlari asosiy rol o‘ynaydi, bu esa o‘z-o‘zini anglashni yanada rivojlantiradi. O‘smirlikda o‘z-o‘zini anglash murakkab jarayon bo‘lib, bu o‘z his-tuyg‘ularini, ichki istak va maqsadlarini tushunishni talab qiladi. Emotsional intellekt ushbu jarayonni yengillashtiradi, chunki u shaxsga o‘zining ichki dunyosiga chuqurroq nazar tashlash imkonini beradi. Emotsional intellekt o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglashida asosiy psixologik omil sifatida xizmat qiladi. U o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini shakllantirib, o‘smirlik davrini yengilroq o‘tkazishga yordam beradi.

Emotsional intellektning o‘z-o‘zini anglashdagi roli haqida olib borilgan tadqiqotlar, o‘smirlarning o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish orqali o‘z-o‘zini anglash jarayonida ijobiy o‘zgarishlar yuz berishini ko‘rsatadi. O‘smirlar o‘z hissiyotlarini tan olish orqali o‘zlariga nisbatan yaxshiroq tushuncha va ishonch hosil qiladilar. Bunday o‘z-o‘zini anglash, ularning o‘z shaxsiy qadr-qimmatini, ijtimoiy o‘rinlarini va

maqsadlarini aniqlashlariga yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon ijtimoiy moslashuvchanlik va hissiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlar emotsional intellekti rivojlangan bo'lsa, ularning o'z-o'zini anglashida yuqori darajadagi ishonch, ijtimoiy muvaffaqiyat, va psixologik farovonlik namoyon bo'ladi. Aksincha, emotsional intellekti past bo'lgan o'smirlar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini boshqarishda qiynalib, ijtimoiy aloqalarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'smirlarning emotsional intellektini rivojlantirish ularning ijtimoiy moslashuvchanligini yaxshilaydi. Salovey va Mayer (1990) ning o'zlarining emotsional intellekt modeli asosida o'tkazgan tadqiqotlari, emotsional intellektning o'smirlarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini, hissiy xatti-harakatlarni boshqarish, va boshqalar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatishda qanday muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, emotsional intellektni yuqori darajada rivojlantirgan o'smirlar ko'pincha o'z hissiyotlarini boshqarishda, hissiy qarama-qarshiliklardan qochishda va guruhlarda muvaffaqiyatli bo'ladilar.

**Natijalar va muhokama.** Tadqiqotda N.Xollning “Emotsional intellektni baholash” testi va D.Rubinshteynning “O'z-o'zini baholash” metodikasi olindi. N.Xolning emotsional intellektni baholash testi (EQ-i testi) emotsional intellektni o'lchash uchun ishlatiladigan psixometrik vositadir. Bu test emotsional intellekt tushunchasining tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi va uning qanday rivojlanishini, insonlar orasidagi munosabatlarda qanday namoyon bo'lishini aniqlashga qaratilgan. D.Rubinshteynning “O'z-o'zini baholash” metodikasi, psixologiyada o'zini anglash va o'zini baholashni o'rganishda keng qo'llaniladi. Ushbu metodika shaxsning o'zini qanday baholashini, o'ziga nisbatan qanday hissiyotlar va qarorlar mavjudligini aniqlashga yordam beradi.

#### Kolmogorov Smirnov

Shkalalar	Kolmogorov Smirnov $D_z$	Ishonch darajasi
Emotsional bilimdonlik	.988	.283
O'z emotsiyalarini boshqarish	.869	.438
O'z o'zini rag'batlantirish	.690	.728
Empatiya	.771	.592
O'zga insonlarni kechinmalarini sezuvchi	.909	.381
Aql qobiliyatlar	.882	.418
Xarakter	1.072	.201
Tengdoshlar o'rtasidagi obro'	1.357	.050
Mohir qo'llar	1.163	.134
Tashqi qiyofa	1.731	.005
O'z o'ziga ishonch	2.447	.000

Tadqiqotda K-S mezon natijalariga ko'ra Emotsional bilimdonlik shkalasi ( $D_z = 0.988$ ;  $p < 0.05$ ), O'z emotsiyalarini boshqarish shkalasi ( $D_z = 0.869$ ;  $p < 0.05$ ), O'z o'zini rag'batlantirish shkalasi ( $D_z = 0.690$ ;  $p < 0.05$ ), Empatiya shkalasi ( $D_z = 0.771$ ;  $p < 0.05$ ), O'zga insonlarni kechinmalarini sezuvchi shkalasi ( $D_z = 0.909$ ;  $p < 0.05$ ), Aql qobiliyatlar shkalasi ( $D_z = 0.882$ ;  $p < 0.05$ ), Xarakter shkalasi ( $D_z = 1.072$ ;  $p < 0.05$ ), Mohir qo'llar shkalasi ( $D_z = 1.163$ ;  $p < 0.05$ ) natijalari normal taqsimlanish qonuniga mos keladi.

Tengdoshlar o'rtasidagi obro' shkalasi ( $D_z = 1.357$ ;  $p > 0.05$ ), Tashqi qiyofa shkalasi ( $D_z = 1.731$ ;  $p > 0.05$ ), O'z o'ziga ishonch shkalasi ( $D_z = 2.447$ ;  $p > 0.05$ ), normal taqsimlanish qonuniga mos kelmaydi. Kolmogorov Smirnov mezon natijalariga ko'ra, Emotsional bilimdonlik, o'z emotsiyalarini boshqarish, o'z-o'zini rag'batlantirish, empatiya, o'zga insonlarning kechinmalarini sezish, aql qobiliyatlari, xarakter shkalalari qiymatlari parametrik mezonlarga mos keladi. Demak, tadqiqotda keyingi ishni olib borish uchun Student-t mezonidan foydalaniladi.

	sinfi	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonchlik darajasi
Emotsional bilimdonlik	8-sinf	36	12.1389	2.81986	-.053	.958
	9-sinf	31	12.1818	2.18258		
O'z emotsiyalarini boshqarish	8-sinf	36	13.0556	2.31695	.529	.603
	9-sinf	31	12.6364	2.29228		
O'z o'zini rag'batlantirish	8-sinf	36	12.3056	2.89649	-.631	.536
	9-sinf	31	12.9091	2.73695		
Empatiya	8-sinf	36	12.5556	2.60159	-.590	.558
	9-sinf	31	13.0909	2.73695		

O‘zga insonlarni kechinmalarini sezuvchi	8-sinf	36	12.2778	2.70038	-.650	.519
	9-sinf	31	12.9091	3.20794		
Aql-qobiliyatlar	8-sinf	36	75.0000	16.85738	-2.050	.053
	9-sinf	31	85.0000	13.22876		
Xarakter	8-sinf	36	72.0833	25.87484	-1.654	.113
	9-sinf	31	84.3636	20.03633		
Tengdoshlar o‘rtasidagi obro‘	8-sinf	36	79.1111	20.03394	-2.087	.046
	9-sinf	31	89.5455	12.33988		
Mohir qo‘llar	8-sinf	36	72.5000	23.64439	-1.497	.150
	9-sinf	31	83.0000	19.23538		
Tashqi qiyofa	8-sinf	36	82.3056	24.45266	-1.603	.118
	9-sinf	31	90.9091	11.57976		
O‘z o‘ziga ishonch	8-sinf	36	89.3333	23.46061	-2.140	.038
	9-sinf	31	98.0909	4.01135		

**Styudent-t mezoniga natijalariga ko‘ra “Tengdoshlar orasidagi obro‘” va “o‘z-o‘ziga ishonch”** shkalalari natijalariga bo‘yicha 8-sinf va 9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud. Qolgan ko‘rsatkichlarda sezilarli farq mavjud emas, ya‘ni 8-9-sinflarda farqlar kuzatilmadi.

**“Tengdoshlar orasidagi obro‘” shkalasiga ko‘ra  $t=-2.087$ ,  $p<0.05$** , bu ko‘rsatkich bo‘yicha 8-sinf va 9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud. Bu shuni anglatadiki, 9-sinf o‘quvchilarida ushbu ko‘rsatkichlar yuqoriroq. 9-sinf o‘quvchilari o‘smirlikning o‘rta bosqichiga yetib kelgan bo‘lib, ular ijtimoiy tajribalari ortishi va tengdoshlari orasida o‘z mavqeini barqarorlashtirishga ko‘proq ahamiyat beradilar. Bu bosqichda o‘zlarini ko‘rsatish, liderlik qilish yoki jamoada obro‘li bo‘lishga intilish kuchayadi. Ular 8-sinf o‘quvchilariga qaraganda muloqot ko‘nikmalari va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarishda ko‘proq tajriba to‘plashgan bo‘lishlari mumkin.

**“O‘z-o‘ziga ishonch” shkalasiga ko‘ra  $t=-2.140$ ,  $p<0.05$** , bu ko‘rsatkich bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud. 9-sinf o‘quvchilarida o‘z-o‘ziga ishonch darajasi yuqoriroq. 9-sinf o‘quvchilari shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ko‘proq vaqt o‘tkazishgan. Bu ularga o‘z imkoniyatlariga nisbatan ijobiy fikr va ishonchni shakllantirishga yordam beradi. Bu bosqichda o‘quvchilarning o‘zlariga nisbatan qiziqishlari ortadi. Ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi, bu esa o‘z-o‘ziga ishonchni kuchaytiradi. O‘smirlik davrining bu bosqichida gormonal o‘zgarishlar o‘z-o‘ziga nisbatan ijobiy fikrni shakllantirishi yoki mustahkamlashi mumkin. 9-sinf o‘quvchilarida hayot tajribasi, ijtimoiy faoliyat va biologik omillarni birgalikda inobatga olsak, ular tengdoshlar orasida yuqoriroq obro‘ga ega bo‘lish va o‘z-o‘ziga nisbatan ko‘proq ishonch hissini his qilishlari tabiiy. Bu rivojlanishning psixologik va ijtimoiy jihatlaridan kelib chiqadi.

**Xulosa.** Emotsional intellekt o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash jarayonida eng muhim psixologik omillardan biridir. U shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuvchanlik, va psixologik barqarorlikka erishishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qobiliyatni rivojlantirish orqali o‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishadi, boshqalar bilan to‘g‘ri muloqot qilishadi, o‘z shaxsiyatlarini yanada mukammalroq shakllantirishadi, bu esa o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash jarayonini chuqurlashtiradi va ularni nafaqat o‘ziga nisbatan, balki jamiyatga bo‘lgan munosabatida ham ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.
3. Goleman, Daniel. Emotional intelligence. New York: Bantam Books, 1995.
4. Mayer, J. D., Barsade, S. G., & Roberts, R. D. Human abilities: Emotional intelligence. // Annual Review of Psychology, 2008.
5. Киселева Татьяна Сергеевна. Эмоциональный интеллект как жизненный ресурс и его развитие у взрослых (Диссертация на соискание ученой степени кандидата психологических наук) Москва – 2014.

6. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект: исследование феномена // Вопросы психологии. -2006. —№3 — С.78-86.
7. Мухамедова Д.Г., Сойимназаров Н.Б. Психологические особенности развития эмоционального интеллекта. // Inter education & global study. 2024. № 9. С. 431-438.

## O‘SMIRLAR AVTONOMIYASI RIVOJLANISHIGA TENGDOSHLAR BILAN MUNOSABATNING TA‘SIRI

*Yunusova Go‘zal Sultonovna,*

*Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Maqolada o‘smir yoshli bolalarning tengdoshlari bilan munosabatlari va ijtimoiy guruhlarni ularning avtonomiyasiga ta‘siri to‘g‘risida yozilgan bo‘lib, pedagog va psixolog olimlarning mavzu doirasidagi ilmiy qarashlari va ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilinib xulosa berilgan. O‘smirlar avtonomiyasining shakllanishida tengdoshlar bilan munosabatlarning ta‘siri bugungi kunning dolzarb mavzusi ekanligi bir qancha ijtimoiy va psixologik omillar bilan izohlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** avtonomiya, tengdoshlar, o‘smirlar, muloqot, shaxslararo munosabatlar, do‘stlar, kommunikativ kompetentsiya, qo‘llab-quvvatlash.

## ВЛИЯНИЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ПОДРОСТКОВ СО СВЕРСТНИКАМИ НА РАЗВИТИЕ ИХ АВТОНОМИИ

*В статье рассказывается о взаимоотношениях детей подросткового возраста со сверстниками и влиянии социальных групп на их автономию, и даётся заключение, в котором анализируются научные взгляды и научно-исследовательские работы учёных-педагогов и психологов по этой теме. Тот факт, что влияние взаимоотношений со сверстниками на формирование автономии подростков является актуальной темой сегодня, объясняется рядом социальных и психологических факторов.*

**Ключевые слова:** автономия, сверстники, подростки, общение, межличностные отношения, друзья, коммуникативная компетентность, поддержка.

## THE IMPACT OF PEER-TO-PEER ATTITUDES ON THE DEVELOPMENT OF ADOLESCENT AUTONOMY

*The article was written about the relationship of teenage children with their peers and the influence of social groups on their autonomy, summarizing the scientific views and scientific research work of pedagogical and psychological scientists within the subject area. The fact that the influence of peer relations in the formation of adolescent autonomy is an urgent topic of today is explained by several social and psychological factors.*

**Keywords:** autonomy, peers, adolescents, communication, interpersonal relationships, friends, communicative competence, support.

**Kirish.** Bugungi kunda o‘smirlar avtonomiyasining shakllanishida tengdoshlar bilan munosabatlar katta rol o‘ynaydi. Ularning ta‘siri, ijtimoiy va psixologik jarayonlar orqali o‘smirlarning o‘zligini anglashiga, shaxsiy qarorlar qabul qilishga, hamda mustaqil va ijtimoiy javobgar shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli, tengdoshlar bilan munosabatlar o‘smirlarning psixologik salomatligi va ijtimoiy moslashuvining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘smirlik davri - bu shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy roli shakllanishining muhim bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda tengdoshlar o‘zaro munosabatlarning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Zamonaviy mamnalarda avtonomiya tushunchasiga yagona ta‘rif keltirilmagan. “Avtonomiya yirik nazariyalari va yagona barqaror ta‘rifi bo‘lmagan fenomenlardan biridir”. Aksariyat hollarda avtonomiya tushunchasi “mujassamlashgan tushuncha” sifatida qaralib, serqirra mazmun kasb etadi. “Bir xil tadqiqotlarda avtonomiya mustaqillik, malaka kompetentligi sifatida, boshqa tadqiqotlarda tashabbuskorlik va maqsadga intiluvchanlik qobiliyati, uchinchi tadqiqotlarda-irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish, to‘rtinchi tadqiqotlarda- individuallikka intilish, beshinchi turdagi tadqiqotlarda shaxslararo munosabatlardagi mustaqillik, emotsional aloqalardagi emansipatsiya va nihoyat oltinchi turdagi tadqiqotlarda shaxsiy qiziqish va erkinlik asosida harakatlanish tariqasida o‘rganilgan”ligini xorij olimlari ta‘kidlab o‘tadilar. “Avtonomiya” tushunchasiga sinonim tushuncha sifatida rus psixologlarining tadqiqotlarida “mustaqillik”,

xorij psixologlarining tadqiqotlarida (“individuatsiya”, “o‘z-o‘zini tasdiqlash”, “o‘z-o‘zini rivojlantirish” tushunchalari qo‘llanilgan.

**Asosiy qism.** Tengdoshlar bilan munosabatlar, ehtimol, o‘smirlik davridagi o‘zaro munosabatlarning eng muhim sohalaridan biridir. Aynan tengdoshlar bilan munosabatlarda o‘smirlikning yetakchi faoliyati - shaxsiy muloqotning rivojlanishi va uni amalga oshirilishi sodir bo‘ladi. O‘smirlar do‘stlari bilan munosabatlarda ularning shaxslararo munosabatlardagi mustaqillik avtonomiyasi ahamiyatga molik darajada rivojlanishini alohida ta’kidlashimiz mumkin. O‘smirlik davrida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan o‘z-o‘zini bilish funksiyasi asosan tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida amalga oshiriladi. Kommunikativ kompetentsiyaning rivojlanishi va “teng asosda” o‘zaro munosabatlar zarurati bilan bir qatorda, tengdoshlar bilan munosabatlar o‘smirlarning bir qator ehtiyojlarini qondiradi va uning shaxsiy avtonomiyasini rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Do‘stlik o‘smir tomonidan kommunikativ va ishbilarmonlik manfaatlarini va o‘z-o‘zini bilishga e’tibor teng darajada mavjud bo‘lgan birgalikdagi faoliyat shakli sifatida qaraladi. Tengdoshlar bilan munosabatlarda o‘smirlar birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish, muammolarni birgalikda hal qilish va shu bilan birga teng sharoitlarda muayyan muammolarni hal qilishda umumiy hissa qo‘shayotganliklarini his qilish imkoniyatiga ega. Bir tomondan, boshqalarni kuzatish va ular bilan o‘zini solishtirish, ikkinchi tomondan, tengdoshlarining fikr-mulohazalarini olish imkoniyati o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zaro yordam va hissiy qo‘llab-quvvatlash tengdoshlar bilan munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. O‘zaro yordam faoliyatini, qo‘shma biznes va sheriklik manfaatlarini, xabardorlikni, muhokamani o‘z ichiga oladi, ularning qurilishi asosan o‘zaro munosabatlarning mazmunini belgilaydi. Sadoqat, hissiy qo‘llab-quvvatlash, hamdardlik va boshqadan hamdardlik kutish munosabatlarning xavfsizligi uchun zarur zamin yaratadi, bu ularga chuqurroq bo‘lishga va muloqot mazmunini qiymat-semantik darajaga o‘tkazishga imkon beradi. Yaqinlik va o‘zaro munosabat hissi do‘stlikning o‘zaro yordam va o‘zaro majburiyatlarni his qilish kabi xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Qo‘llab-quvvatlash do‘stlikning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida ko‘riladi, ammo o‘smirlikdagi haqiqiy do‘stlikda har doim ham aniq bo‘lmasligi mumkin. Qo‘llab-quvvatlashni ifodalash darajasi do‘stona munosabatlarning yaqinlik darajasiga va ularning rivojlanish darajasiga bog‘liq.

Do‘stona munosabatlar o‘z-o‘zini sinab ko‘rish va tajriba o‘tkazish uchun imkoniyatlar ochadi, shuningdek, maqsadlar va faoliyat strategiyalarini tanlashga konstruktiv yondashish imkonini beradigan zaruriy fikr-mulohazalarni beradi. Tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar sohasi, shuning uchun o‘smirlarning o‘z qobiliyatlari va qobiliyatlarini sinab ko‘rishlari uchun maydon yaratadilar - shaxsiy xavfsizlik muhitida faol va samarali shaklda ular o‘smirga ushbu muloqotda o‘zlarini xavfsiz his qilishlariga imkon beradi. Teng shartlar va mustaqil fikr-mulohaza va taqqoslash standartini olish hissiy qo‘llab-quvvatlash va taqqoslash uchun modelning kombinatsiyasi o‘smirni maqsadlarni tanlashda differensial yondashuvga undaydi, o‘z-o‘zini samaradorligini oshiradi va shaxsiy o‘z-o‘ziga yordam beradi. O‘smirning tengdoshlari bilan muloqot qilish rolini ortiqcha baholab bo‘lmaydi, chunki o‘smir uchun muloqotda turli rollarni bajarishga harakat qilishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir “konfort zonasi” ni belgilaydi. O‘zini turli xil kommunikativ kontekstlarda sinab ko‘rish, turli xil rol taqsimotiga ega bo‘lgan turli jamoalarda, o‘smir keng ko‘lamli ijtimoiy aloqa ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Do‘stlik o‘smir tomonidan kommunikativ va ishbilarmonlik manfaatlarini va o‘z-o‘zini bilishga e’tibor teng darajada mavjud bo‘lgan birgalikdagi faoliyat shakli sifatida qaraladi. Tengdoshlar bilan munosabatlarda o‘smirlar birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish, muammolarni birgalikda hal qilish va shu bilan birga teng sharoitlarda muayyan muammolarni hal qilishda umumiy hissa qo‘shayotganliklarini his qilish imkoniyatiga ega. Bir tomondan, boshqalarni kuzatish va ular bilan o‘zini solishtirish, ikkinchi tomondan, tengdoshlarining fikr-mulohazalarini olish imkoniyati o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tengdoshga nisbatan hissiy va shaxsiy munosabat asosan o‘smir va tengdosh o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlar va o‘zaro munosabatlar strategiyasini belgilaydi. O‘smirlardagi shaxslararo munosabatlarning tasviri o‘smirlar faoliyatining ijtimoiy mazmunini aks ettiradi va faoliyatning mazmuni va xarakterini belgilaydi. Shunday qilib, do‘stona munosabatlarning ijobiy qiyofasi bo‘lsa, kognitiv muammolarni hal qilish faol tadqiqot va o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish, maqsadni amalga oshirish va muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka javob berish sohasi sifatida ishlaydi. Bundan tashqari, tengdoshlar bilan munosabatlarning xususiyatlari o‘smirning o‘z-o‘zini anglashining shakllanishi uchun proksimal rivojlanish zonasini tashkil qiladi [4].

Mazmunli do‘stlikning ichki qiyofasiga e’tibor qaratilayotganini E.E.Moxovanning tadqiqoti natijalarida ham ko‘rish mumkin. Do‘stona munosabatlar sohasida bolaning farovonlik darajasi uning bir-biri

va do‘stlik haqidagi g‘oyalarining xususiyatlarini aniqlab berishini ko‘rsatdi [6].

Tengdoshlar bilan muloqot ma‘lumotlarning tabiati va mazmunida ham, o‘zaro ta‘sir qilish tabiatida ham o‘ziga xosdir: tengdoshlar bilan muloqotda ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning zaruriy ko‘nikmalari, jamoaviy intizomga bo‘ysunish va shu bilan birga o‘zini himoya qilish qobiliyati rivojlanadi. Bundan tashqari, tengdoshlar guruhlarida o‘smir hissiy aloqaning o‘ziga xos turini boshdan kechiradi. Guruhga a‘zolik, birdamlik va o‘zaro yordamni anglash o‘smirning kattalardan mustaqil bo‘lishini osonlashtiradi, balki unga juda muhim hissiy farovonlik va barqarorlik hissini beradi. Muloqot usullarining o‘zgaruvchanligi, o‘ziga xos xususiyatlarga, moyilliklarga, intilishlarga va e‘tiqodlarga ega bo‘lgan tengdoshlarining keng doirasi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyati o‘smirga boshqaning qiyofasini ham, o‘zini-o‘zi ham teng odamlar bilan muloqot qilish imkonini beradi [5].

Bolaning tengdoshlar guruhidagi obyektiv pozitsiyasi shaxslararo munosabatlarning tuzilishi va sotsiometrik maqomi bilan belgilanadi. Tengdoshlar bilan munosabatlar o‘smirning diqqat markazida bo‘lib, asosan uning xatti-harakati va faoliyatining boshqa barcha tomonlarini belgilaydi. L.I.Bojovichning ta‘kidlashicha, agar boshlang‘ich maktab yoshida bolalarni birlashtirish uchun asos ko‘pincha qo‘shma faoliyat bo‘lsa, o‘smirlar uchun, aksincha, faoliyatning jozibadorligi va qiziqishlari asosan tengdoshlari bilan keng muloqot qilish imkoniyati bilan belgilanadi. O‘smirning tengdoshlari bilan birga bo‘lishi, ular orasida uni qanoatlantiradigan o‘rinni egallashi muhimdir [1].

O‘smirlar va tengdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar bir qator xarakterli qarama-qarshi xususiyatlarga ega, masalan, muloqotda hissiy munosabatlarni ifodalash va ularni tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarning nisbatan past darajasi bilan birga muloqot bilan birga keladigan hissiyotlarning yuqori intensivligi; munosabatlarning nisbatan past barqarorligi, munosabatlar modalligi va diqqat obyektlarining tez-tez o‘zgarishi, shuningdek, o‘z munosabatlarini bilish va tartibga solish qobiliyatining etarli darajada rivojlanmaganligi bilan bunday munosabatlarning yuqori subyektiv ahamiyati. Aksariyat hollarda o‘smirlarning tengdoshlari bilan munosabatlari hissiy jihatdan zaryadlangan. Qizlar o‘g‘il bolalarga qaraganda ularga ko‘proq ahamiyat berishlari va ularni kuchliroq his qilishlari ko‘rsatilgan [3].

O‘z muhitida, bir-biri bilan muloqotda bo‘lgan o‘smirlar fikrlashni o‘rganadilar. O‘zaro manfaatdorlik, atrofimizdagi dunyoni va bir-birimizni birgalikda tushunish muloqotda muhim qadriyatlarga aylanadi. Tengdoshi bilan muloqotning ahamiyati shunchalik kattaki, o‘smir o‘z tengdoshi bilan do‘stlik huquqini qat‘iy himoya qilishga tayyor, nafaqat kamchiliklar, balki do‘stning xizmatlari haqida munozara va sharhlarni rad etadi. Do‘stning shaxsiyatini har qanday shaklda, hatto maqtov shaklida muhokama qilish uning tanlash huquqiga, erkinligiga hujum sifatida qabul qilinadi. Tengdoshlar bilan munosabatlarda o‘smir o‘z shaxsiyatini ro‘yobga chiqarishga va muloqot qilish qobiliyatini aniqlashga intiladi. Bu intilishlarni amalga oshirish uchun unga shaxsiy erkinlik va shaxsiy javobgarlik kerak. O‘smir bu shaxsiy erkinlikni balog‘atga etish huquqi deb biladi va uni himoya qiladi.

Bredford Braun o‘smirning tengdoshlari bilan munosabatlarining 4 jihatiga ishora qiladi:

1. O‘smirning tengdoshlari bilan munosabatlarga kirishish va ularni saqlab qolish imkonini beradigan individual fazilatlar va qobiliyatlari ijtimoiy kompetensiya kabi ko‘nikmalar va uyatchanlik, sezgirlik va boshqalar kabi ba‘zi individual xususiyatlardir. Boshqa tomondan, tengdoshlar guruhi ma‘lum xususiyatlarga ta‘sir qiladi, ularni kuchaytiradi yoki e‘tiborsiz qoldiradi, ularning talablarini belgilaydi.

2. O‘zaro munosabatlardagi sheriklarning xususiyatlari - ularning yoshi, shuningdek xarakterli xatti-harakatlar modellari va strategiyalari, shuningdek, odatlar va imtiyozlar.

3. O‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, masalan, yaqinlik, do‘stona yordam, ishonch, barqarorlik va boshqalar.

4. Munosabatlar dinamikasi: tengdoshlar guruhida kurashish strategiyasi, guruh bosimi va boshqalar [2].

Bu xususiyatlarning barchasi asosan o‘smirlik davrida avtonomiyaning rivojlanishini belgilaydi va ularni alohida mustaqil omillar sifatida emas, balki munosabatlar xususiyatlari tizimi sifatida tushunish kerak.

Tadqiqotchilar shuni ham ta‘kidlaydilar; ya‘ni ishtirok etayotgan o‘smirlar soniga qarab tengdoshlarning o‘zaro ta‘sirining har xil turlari mavjud. Shunday qilib, B. Braun munosabatlarning uchta “darajasini” belgilaydi:

1. Individual o‘zaro do‘stlik, ishqiy munosabatlar va o‘zaro dushmanlik kabi jarayonlar rivojlanish uchun xarakterli va ahamiyatli bo‘lgan ikki tomonlama munosabatlar;

2. Doimiy do‘stlar doirasi bilan kichik guruhlardagi munosabatlar to‘dalar, guruhlar, guruhlar va qiziqish klublari;

3. O‘zgaruvchan ijtimoiy doiraga ega bo‘lgan katta guruhlar, ularda o‘smirlar barcha guruh a‘zolarini tanimaydilar - bular har xil turdagi kurslar, katta qiziqish guruhlari, fan-klublar va boshqalar bo‘lishi

mumkin.

Guruh ta'sirini tahlil qilishdagi qiyinchiliklar munosabatlar ichidagi tahlil qilinadigan xususiyatlar ham, munosabatlarning o'zi ham dinamik bo'lishidan kelib chiqadi [2].

Tengdoshlar bilan munosabatlarning subyektiv ahamiyati shundan dalolat beradiki, 15-17 yoshli o'smirlar hayotdagi eng muhim qadriyatlar qatoriga istakni nom berishadi.

haqiqiy do'stlarga ega bo'lish (so'rovda qatnashganlarning 97,7 foizi do'stlikni hayotdagi asosiy qadriyat, sevgi - 90,8 foiz deb hisoblagan). O'smirlar do'stlik tushunchasiga ta'rif berishda ikkita motiv ustunlik qiladi: 1) o'zaro yordam va sadoqat talabi; 2) do'stdan hamdardlik bilan tushunishni kutish

O'zaro yordam va hissiy qo'llab-quvvatlash tengdoshlar bilan munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. O'zaro yordam faoliyatni, qo'shma biznes va sheriklik manfaatlarini, xabardorlikni, muhokamani o'z ichiga oladi, ularning qurilishi asosan o'zaro munosabatlarning mazmunini belgilaydi. Sadoqat, hissiy qo'llab-quvvatlash, hamdardlik va boshqadan hamdardlik kutish munosabatlarning xavfsizligi uchun zarur zamin yaratadi, bu ularga chuqurroq bo'lishga va muloqot mazmunini qiymat-semantik darajaga o'tkazishga imkon beradi. Yaqinlik va o'zaro munosabat hissi do'stlikning o'zaro yordam va o'zaro majburiyatlarni his qilish kabi xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Qo'llab-quvvatlash do'stlikning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida ko'riladi, ammo o'smirlardagi haqiqiy do'stlikda har doim ham aniq bo'lmasligi mumkin. Qo'llab-quvvatlashni ifodalash darajasi do'stona munosabatlarning yaqinlik darajasiga va ularning rivojlanish darajasiga bog'liq [6].

Psixanalitik an'anada tengdoshlar bilan munosabatlar ko'pincha kompensatsiya rolini o'ynaydi - ular onaning to'g'ri parvarishi bo'lmaganida, etimlar yoki nomutanosib oilalar farzandlari bilan aloqada ahamiyat kasb etadi. Normativ aqliy rivojlanishni tavsiflashda, tengdosh bolaning ota-onasidan hissiy ajralishi paytida taranglikni bartaraf etish vositasi sifatida qaraladi: yashirin davrning boshida bola tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatish zarurligini his qila boshlaydi. uning uchun qoniqishning yangi manbalari sifatida bir jins va yoshdagi bolalar bilan ijtimoiy munosabatlar edipal obyekt bilan bog'liq ziddiyatlarni almashtirish va edipal ob'ektlardan uzoqlashish uchun maydonga aylanadi [8].

E. Eriksonni fikricha, har bir yosh bosqichida turli mos yozuvlar guruhlari - ya'ni tengdoshlar - o'smirlik davridagi muhim munosabatlar radiusini o'z ichiga oladi. O'smirlik davrida, asosiy, shaxsiy yangi shakllanish - ego-o'ziga xoslik - shakllanganda (*menning bir nechta tasvirlarini yagona butunlikka birlashtirish*, vaqt va makonda o'zini o'zi anglash tuyg'usini shakllantirish, o'ziga xoslikni tan olish). Muhim ijtimoiy muhit tomonidan o'zini o'zi boshqarish, ma'lum bir jamoaga mansublik va shaxsiy manfaatlar jamoat manfaatlari bilan bog'liq bo'lishi kerak bo'lgan jamoaviy, qo'shma faoliyatda ishtirok etish istagi ayniqsa muhimdir. Erikson konseptsiyasi doirasida identifikatsiyani rivojlantirish asosini identifikatsiyalash va rol eksperimenti jarayoni tashkil etadi. Identifikatsiya taqlid qilishga, muhim shaxslarning rol xatti-harakatlarini modellashtirishga asoslangan; rolli eksperiment mexanizmi bu holatda o'smirning rolni o'z zimmasiga olishi, uni o'zida sinab ko'rish va yutqazishi orqali ego o'ziga xosligiga erishishni ta'minlaydi. Qisqa vaqt ichida o'smir o'z rollarini "partiya hayoti" dan tashqariga o'zgartirishi mumkin. Bu nuqtai nazardan mantiqiy o'smirlarning sevimli mashg'ulotlari va ehtiroslarining tez o'zgarishiga o'xshaydi. Xulq-atvor, qiziqish va kayfiyatning nomuvofiqligi va beqarorligi rolli eksperiment jarayonini aks ettiradi. Tengdoshlar guruhi etakchilik va hamkorlikning muayyan modellarini sinab ko'rish imkonini beradi; turli diniy, siyosiy oqimlar, falsafiy dunyoqarashlar. Yoshlarning turli guruhlari, harakatlar, tashkilotlarda ishtirok etishi mafkuraviy marosimlar bilan bog'liq. Shunday qilib, E. Eriksonning epigenetik kontseptsiyasi o'ziga xoslikka erishish uchun tengdoshlar bilan muloqot qilish muhimligini tasdiqlaydi: teng sharoitlarda munosabatlarda rol o'ynash eksperimenti va qiziqishlar, sevimli mashg'ulotlar va e'tiqodlarni sinab ko'rish mumkin [9].

**Xulosa** o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'smirlik davrida tengdoshlar bilan munosabatlar o'zgarib boradi. Bu davrda o'smirlar o'zlari uchun do'stlik, sevgi, va hamkorlikning yangi shakllarini topadilar. Bu jarayonlar o'z avtonomiyasini shakllantirishning muhim qismidir. O'smirlar tengdoshlariga nisbatan o'zini anglash, hissiyotlarni boshqarish va yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtirishni boshlaydilar.

Tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar o'smirlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. O'smirlar o'zlarining ichki his-tuyg'ularini, muammolarini va xavotirlarini tengdoshlar bilan baham ko'rishga moyil bo'ladilar. Bu, o'z navbatida, o'zligini anglash va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonini yengillashtiradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi o'smirning o'zlikni anglashiga, mustaqil qarorlar qabul qilishiga va o'z avtonomiyasini shakllantirishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Bojovich, L.I. Ontogenezda shaxsni shakllantirish bosqichlari / L.I. Bojovich // Rivojlanish va

ta'lim psixologiyasi: Matnlar - M.: Nashriyot. Moskva davlat universiteti, 1992. 190-229-betlar.

2. Braun, V. B. O'smirlarning tengdoshlari bilan munosabatlari // O'smirlar psixologiyasi bo'yicha qo'llanma, 2- nashr. pefl.RM ostida Lerner, L. Steinberg, ( 363-394-betlar). Nyu-York: Wiley, 2004 yil.

3. Gretsov, A.G. Tengdoshlar bilan hissiy munosabatlar va o'smirlarning psixologik muammolari: dis. Ph.D. psixolog. Fanlar: 19.00.19 / A.G. Gretsov. Sankt-Peterburg: 2003. - 182 p.

4. Karabanova O.A. Bola rivojlanishining ijtimoiy holati: tuzilishi, dinamikasi, tuzatish tamoyillari: dis. Dr. psixolog. Fanlar: 19.00.13 / O.A.Karabanova. M., 2002. - 379 b.

5. Kreyg, G. Rivojlanish psixologiyasi / G. Kreyg, D. Bokum. - 9-nashr. - Sankt-Peterburg: Pyotr, 2005. - 940 p.

6. Kon, I.S. Do'stlik, 4-nashr, qo'shimcha / I.S. Con. - Sankt-Peterburg: Peter, 2005.

7. Moxova, E. E. Boshlang'ich maktab yoshidagi do'stlik va do'stlik haqidagi g'oyalarning yosh dinamikasi: dis. Ph.D. psixolog. Fanlar: 19.00.13 / E. E. Moxova: M., 2004. - 235 b.

8. Tayson, F. Rivojlanishning psixoanalitik nazariyalari / F. Tyson, P.JI. Tayson. - Ekaterinburg: Biznes kitobi, 1998. - 528 p.

9. Erikson, E. Identity. Yoshlar. Inqiroz / E. Erikson. - M.: Taraqqiyot, 1996. - 344 b.

## O‘ZBEKISTON TALABA-YOSHLARIDA PSIXOLOGIK YORDAMNING AHAMIYATI HAMDA IJTIMOY FIKRLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK JIHLARI

*Matniyozova Marhabo Abdug‘apporovna,  
Ma‘mun universiteti “Psixologiya va tibbiyot” kafedrasida o‘qituvchisi*

*Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston talaba-yoshlarining psixologik yordamga bo‘lgan munosabati, psixologik xizmatlarning ahamiyati va ularga bo‘lgan ehtiyoj o‘rganiladi. Talabalar o‘rtasida psixologik yordamning ijtimoiy stereotiplari, moliyaviy to‘siqlar, maxfiylik xavotiri, vaqt yetishmasligi va psixologik xizmatlarga ishonchsizlik kabi sabablari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari talabalarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularga moslashtirilgan psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish va ushbu xizmatlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu masalada ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish, psixologik yordam madaniyatini shakllantirish va ushbu xizmatlarni yanada ommalashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** psixologik yordam, talabalar psixologiyasi, ijtimoiy stereotiplar, moliyaviy to‘siqlar, maxfiylik xavotiri, ruhiy salomatlik, psixologik xizmat samaradorligi, ta‘limda psixologik madaniyat, talabalar stressi, psixologik yordamni ommalashtirish.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ЗНАЧЕНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ СРЕДИ СТУДЕНТОВ УЗБЕКИСТАНА

*В данном исследовании изучается отношение студентов Узбекистана к психологической помощи, её значимость и необходимость. Анализируются причины, мешающие обращению за психологической помощью среди студентов, такие как социальные стереотипы, финансовые барьеры, беспокойство о конфиденциальности, нехватка времени и недоверие к психологическим услугам. Результаты исследования направлены на укрепление психологического здоровья студентов, создание адаптированной системы предоставления психологической помощи и повышение её эффективности. Кроме того, даются практические рекомендации по устранению социальных стереотипов, формированию культуры обращения за психологической помощью и популяризации этих услуг.*

**Ключевые слова:** психологическая помощь, психология студентов, социальные стереотипы, финансовые барьеры, беспокойство о конфиденциальности, психологическое здоровье, эффективность психологических услуг, культура обращения за психологической помощью, стресс студентов, популяризация психологической помощи.

## THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL SUPPORT AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF SOCIAL OPINION FORMATION IN UZBEKISTAN STUDENTS

*This study examines the attitudes of students in Uzbekistan toward psychological assistance, its importance, and necessity. The analysis focuses on the barriers that prevent students from seeking psychological help, such as social stereotypes, financial constraints, confidentiality concerns, lack of time, and distrust in psychological services. The findings aim to strengthen students' mental health, create an adapted system of psychological services, and improve their efficiency. Additionally, practical recommendations are provided to eliminate social stereotypes, foster a culture of seeking psychological help, and promote these services.*

**Keywords:** psychological assistance, student psychology, social stereotypes, financial barriers, confidentiality concerns, mental health, effectiveness of psychological services, psychological culture in education, student stress, popularization of psychological assistance.

**Kirish.** XXI asrning globallashuv davrida inson salomatligi va ruhiy barqarorligini saqlab qolish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ijtimoiy muhitdagi tezkor o‘zgarishlar, texnologik rivojlanish, ta‘lim sohasidagi yuqori talablar va shaxsiy maqsadlarni amalga oshirish jarayoni yosh avlod oldiga ko‘plab yangi masalalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlar hayotining intensivligi ularning psixologik sog‘lig‘ini saqlash va rivojlantirish uchun qo‘shimcha choralarni talab qilmoqda. Shunday sharoitda psixologik yordamning ahamiyati va uni qabul qilishga nisbatan ijtimoiy fikrlarning shakllanishi masalasi dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar oyligi” va “Yangi O‘zbekistonni yoshlar bilan birga quramiz” tashabbuslari doirasida yoshlar ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar yoshlarning psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, ushbu yordamning turli shakllarini ommalashtirish va unga nisbatan ijobiy ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan.

Psixologik yordamga bo‘lgan ijtimoiy munosabatning shakllanishida ko‘plab omillar – madaniy meros, oila va jamiyatning psixologik madaniyati, shuningdek, shaxsning individual psixologik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Talaba yoshlar orasida psixologik yordamning ahamiyati to‘g‘risidagi tasavvurlarni o‘rganish nafaqat ularning ruhiy holatini tushunish, balki psixologik xizmatni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun ilmiy asos yaratish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi yoshlarning o‘z ruhiy holatini yaxshilash va stressli vaziyatlarga bardosh berish qobiliyatini rivojlantirish zaruratidan kelib chiqadi. Psixologik yordamning ahamiyatini talaba yoshlar ongida shakllantirish orqali ularda o‘z sog‘lig‘iga nisbatan ongli munosabat, mas‘uliyat hissi va shaxsiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bu esa nafaqat individual, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston talaba yoshlarida psixologik yordamga bo‘lgan ijtimoiy fikrlarning shakllanish jarayonini o‘rganish, psixologik madaniyatni oshirish va mavjud to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda olib borilgan tadqiqotlar nafaqat nazariy jihatdan qimmatli, balki amaliy natijalar orqali ta‘lim jarayonini sifat jihatidan yaxshilashda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – talaba yoshlar orasida psixologik yordamga nisbatan ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirishning psixologik jihatlarini tahlil qilish va ushbu tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida psixologik yordamning talaba yoshlar hayotidagi o‘rni va uning ta‘sirchanligi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar keng qamrovda o‘rganiladi.

Mazkur mavzuning o‘rganilishi natijalari nafaqat psixologik yordam xizmatlarini tashkil qilishda, balki yoshlarning ruhiy salomatligini saqlash va ularning jamiyatdagi roli hamda ahamiyatini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati yuqori bo‘lib, u oliy ta‘lim muassasalari va psixologik xizmat tizimlari uchun dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Talaba yoshlarda psixologik yordam haqidagi ijtimoiy tasavvurlarni o‘rganish masalasi so‘nggi yillarda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Adabiyotlar tahlili bu borada bir necha nazariy paradigmalardan va yondashuvlarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Psixologik xizmat va uning tashkil qilinishi hamda rivojlanishiga ta‘sir etuvchi psixologik mexanizmlarning metodologik tamoyillari takomillashtirish muammosi M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, Sh.R.Baratov, Z.R.Ibodullayev, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, N.A.Sog‘inov, B.R.Qodirovlar tomonidan tadqiq etilgan.

P.S.Ergashev o‘z tadqiqotlarida turli yoshdagi bolalardagi simmetriya hissi tahlili va korreksiyasiga dahldor empirik ma‘lumotlardan kelib chiqib, shaxslararo rivojlanishdagi uning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan.

MDH mamlakatlari olimlari: A.G.Asmolov, Sh.A.Nadirashvili, D.N.Uznadze, G.M.Andreyeva, Yu.M.Zabrodin, K.A.Abulxonova-Clavckaya, Ye.A.Anufriyev, L.P.Grimak, B.F.Lomov, N.C.Leytes, E.A.Golubeva, L.I.Bojovich, A.A.Bratkolar tomonidan psixologik xizmatning shaxs va faollik tamoyiliga adekvat yondashuv muammosi bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilgan. Shaxsga psixologik jihatdan individual yondashuv tamoyillari bo‘yicha Ye.A.Klimov, V.S.Merlin, V.D.Nebylisyin, N.M.Peysaxov, V.M.Rusalov, L.S.Clavina, B.M.Teplov, A.F.Lazurskiy, R.I.Muksinov, V.N.Myasiyev, V.V.Bagoslavskiy, F.B.Bassin, F.Ye.Vasilyuk O.A.Kanopkin, T.V.Snigireva, S.V.Kovalev, A.M.Prixojan kabi olimlar tomonidan jiddiy tadqiqotlar olib borilgan. I.V.Dubrovina, O.I.Zotova, Yu.M.Pratuivich, V.I.Gerchikov, G.S.Izard, G.A.Kovalev, I.I.Popova, G.A.Ishutina, V.G.Loos, T.I.Saksakulm lar tomonidan esa ta‘lim muassasalarida va mehnat jamoalarida psixologik xizmat muammolari va uning yechimlari haqidagi olib borilgan tadqiqot natijalari e‘lon qilingan.

Xorij olimlaridan T.A.Kitvel, A.Maslou, V.V.Rozelnblat, X.Xekhauzen, G.Eberleyn, D.Nevv, L.D.Gissen, U.V.Kala, V.V.Rudik, X.Leymets, G.O.Mattes, D.B.Karnegilar tomonidan psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

**Tahlillar va natijalar.** Tadqiqot quyidagi nazariy-uslubiy yondashuvlarga asoslanadi:

1. **Ijtimoiy-psixologik yondashuv:** Talaba yoshlarida psixologik yordamga bo‘lgan munosabat va shu asosda shakllanadigan ijtimoiy fikrlar jamiyatdagi turli omillar (oilal, ta‘lim muassasasi, ommaviy

axborot vositalari, tengdoshlar guruhi) ta’sirida rivojlanadi. Ijtimoiy-psixologik jarayonlar (ijtimoiy ong, xulq-atvor me’yorlari, stereotiplar) ijtimoiy fikrlar shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

2. **Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv:** Psixologik yordamning ahamiyatiga oid qarashlar, avvalo, har bir talabaning shaxsiy tajribasi, hissiy holati, xulq-atvori, ehtiyojlari, qadriyatlari va rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash va unga oid fikrlarni shakllantirishda shaxsiy omillar inobatga olinadi.

3. **Faoliyat yondashuvi:** Talabaning ta’lim jarayonida, ijtimoiy hayotda, turli klublar va to‘garaklarda faol ishtirok etishi natijasida psixologik yordam xizmatlari yoki psixolog bilan muloqot qilish zarurati paydo bo‘ladi. Ushbu jarayonni tadqiq qilishda talabaning faoliyati, undagi motivatsiya, qiziqishlar va ijtimoiy tajriba hisobga olinadi.

4. **Sistemali yondashuv:** Talabaning psixologik yordamga bo‘lgan munosabati kompleks holda – uning oilaviy muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ta’lim tizimi va madaniy qadriyatlari kabi turli omillar o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilinadi.

**Tadqiqotning obyekti:** O‘zbekiston talaba yoshlarining psixologik yordamga bo‘lgan munosabatlari hamda shu munosabatlar asosida shakllanadigan ijtimoiy fikrlar tizimi.

**Tadqiqotning predmeti:** Talaba yoshlarida psixologik yordamning ahamiyati bo‘yicha ijtimoiy fikrlarning shakllanish jarayoni va uning psixologik mexanizmlari (motivatsion, kognitiv, emosional hamda xulq-atvoriy jihatlar).

Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekiston talaba yoshlarida psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyoj va uning ahamiyati to‘g‘risidagi ijtimoiy fikrlar shakllanishini psixologik nuqtayi nazardan o‘rganish, bu jarayonda ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda psixologik yordam xizmatlarini samarali tashkillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Chuqurlashtirilgan suhbat (intervyu) ma’lumotlarini tematik tahlil qilish natijasi


1-jadval.

Mavzu (Savol)	Talabalar javoblarining asosiy yo‘nalishlari	Misol iqtiboslar (fragmentlar)	Xulosa / Izoh
1. Talabaning psixologik yordam haqidagi umumiy tasavvuri ( <b>Masalan, “Psixologik yordam deganda nimani tushunasiz?”</b> )	- Psixolog bilan yuzma-yuz uchrashuv. - Online maslahatlar. - Muammo yechimini topish bo‘yicha tavsiyalar. - Emotsional ko‘mak.	“Menimcha, psixologik yordam bu – odamning ichki muammolarini hal qilishda yo’naltiradigan, xulosa chiqarishga yordam beradigan xizmatdir.” “Ko‘pincha onlayn psixologik konsultatsiyalar osonroq, chunki buni hech kim bilmaydi.”	Ko‘pchilik talabalar psixologik yordamni shunchaki “muammoga yechim topish” deb qabul qilishlari, ba’zilar uni hissiy ko‘mak sifatida ham ko‘rishlari aniqlandi. Onlayn maslahatlar qulay va anonimligi uchun afzal ko‘rilishi kuzatildi.
2. Talabaning hissiy holati ( <b>“O‘zingizni qanday his qilyapsiz?”, “O‘qish davrida eng ko‘p qanday holatlar sizni qiynaydi?”</b> )	- Stress, xavotir (imtihon, baholar). - Ijtimoiy bosim (otana kutganlari, tengdoshlar bilan raqobat). - Ruhiy charchoq (ko‘p vazifalar, vaqt yetishmasligi).	“Oxirgi paytlarda umuman uxlay olmayapman, baholarni o‘ylab xavotirga tushaman.” “Ota-onamning mendan kutgan natijalari juda yuqori, bu esa meni noqulay vaziyatga soladi.”	Talabalarda stress, xavotir, talabalar bosimi bilan bog‘liq ruhiy charchoq yuqori. Bu jarayonda ular ko‘p hollarda psixologik yordamga muhtoj bo‘lishlari mumkin. Ammo ayrimlari psixologga murojaat qilishga uyalishi yoki ortiqcha deb bilishi mumkin.
3. Shaxsiy tajriba ( <b>“Oldin psixologga murojaat qilganmisiz?”, “Qanday natija olgansiz?”</b> )	- Ilgari murojaat qilganlar (ijobiy / salbiy tajriba). - Murojaat qilmaganlar (qo‘rquv, ishonchsizlik, ijtimoiy stereotiplar sabab).	“Birinchi marta psixologga borganimda o‘zimni yengil his qilgandim, ammo davom ettirishga vaqtim bo‘lmagani uchun qaytib bormadim.” “Psixologik yordamga ishonchim yo‘q, odatda bu hamma narsani oshkor qilish	Bir guruh talabalar oldingi tajribasidan ijobiy foyda ko‘rgan bo‘lsa-da, davom ettirishda vaqt yoki byudjet bilan bog‘liq muammolarga uchragan. Ayrim talabalar “psixolog – aqldan ozganlar uchun” kabi stereotiplar tufayli murojaat qilishdan tortinishi mumkin.

		deganidir – men buni xohlamayman.”	
4. Kutilmalar (Psixologik xizmatdan umidi) ( <b>“Psixologdan nimalarni kutasiz?”, “Sizga qanday yordam berishini xohlaysiz?”</b> )	- Muammolarni tez yechish. – Motivatsiya oshirish. - Moslashuv va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish. - Shaxsiy masalalarni sir tutish (maxfiylik).	“Menimcha, psixolog istalgan muammoni tez hal qilib berishi kerak.” “Meni motivatsiya qiladigan usullarni o‘rgatsa, o‘zimni boshqara oladigan texnikalar bersa, yaxshi bo‘lardir.”	Ko‘pchilik talabalarda psixologdan “darhol natija” kutish tendensiyasi mavjud. Bunda motivatsion yondashuv va shaxsiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Maxfiylikka bo‘lgan ehtiyoj yuqori. Ushbu xulosa keyingi psixologik xizmatni rejalashtirishda inobatga olinishi zarur.
5. Muhim to‘siqlar ( <b>“Nima uchun psixologga murojaat qilishda ikkilanishingiz mumkin?”, “Qanday qiyinchiliklar bor?”</b> )	- Ijtimoiy stereotiplar (psixologga borish – bu zaiflik alomati). - Moliyaviy cheklovlar (yordam pullik bo‘lsa). - Maxfiylikka bo‘lgan xavotir. - Oila yoki do‘stlarning ta’siri.	“Ya’ni men psixologga borsam, odamlar meni nimadir bo‘ldi deb o‘ylashlari mumkin.” “Pullik maslahatga pulim yo‘q, shuning uchun o‘zim harakat qilaman.” “Ota-onam bilan borsam, ularning hammasini bilishidan cho‘chiman.”	Psixologik yordamga murojaat qilishda asosiy to‘siqlar: stereotiplar, moliyaviy holat, maxfiylik va atrofdagilarning salbiy munosabati. Bunday to‘siqlarni bartaraf etish uchun ta’lim muassasasi ichida bepul yoki arzon psixologik xizmatlar, onlayn anonim platformalar, zarur bo‘lsa, ota-onalar va jamiyatga ma’rifiy ko‘mak berish lozimligi ko‘rinadi.
6. Yakuniy taklif va tavsiyalar ( <b>“Psixologik yordamni yaxshilash uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?”</b> )	- Oliy ta’lim muassasasida muntazam ravishda ochiq seminarlar, treninglar. - Onlayn/anonim xizmatlarni kengaytirish. - Maxfiylikka kafolat beruvchi sharoitlar yaratish. - Psixologik xizmat haqidagi targ‘ibotni kengaytirish.	“Universitetning o‘zida doimiy psixologik yordam markazi bo‘lsa, lekin bu yerda maxfiylik saqlangani muhim.” “Yotoqxonalarda ham psixolog bilan individual yoki kichik guruhda ishlash imkoniyati yaratilsa, yaxshi bo‘lardir.”	Talabalar psixologik yordam xizmatini oltin kalit sifatida emas, balki doimiy takomillashtiriladigan tizim sifatida tasavvur qiladilar. Maxfiylik, onlayn maslahatlar, treninglar, psixologlar bilan tizimli muloqot ehtiyojlari yuqori. Ushbu tavsiyalarni inobatga olib, psixologik xizmatni soddalashtirish, targ‘ibot va xabardorlikni kuchaytirish zarur.

**Izoh:**

- Yuqoridagi jadval – bu **tematik (mavzuli) tahlilning** soddalashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, amaliyotda intervyu matnini avval kodlash, mavzular bo‘yicha tasniflash, so‘ng har bir mavzu yoki submavzular bo‘yicha tahlil qilish mumkin.
- “Talabalar javoblarining asosiy yo‘nalishlari” ustuniga aniq kodlar (masalan, [A1], [B3] va h.k.) kabi belgilarni qo‘yib borish, keyin ularni matnda izohlash ham mumkin.
- “Misol iqtiboslar” – talabalarning haqiqiy so‘zlari (konfidensiallikni saqlagan holda, ismlar o‘rniga pseudonimlar yoki respondent raqamini berish) sifatida keltiriladi.
- “Xulosa / Izoh” ustunida mavzuga oid muhim dalillar, muammolar va ehtiyojlar, shuningdek, keyingi bosqichda ko‘rib chiqish zarur bo‘lgan takliflar ta’kidlab o‘tiladi.



Yuqoridagi diagramma talabalarning psixologik yordamga murojaat qilmasliklariga sabab bo'luvchi asosiy to'siqlarni foizlar orqali aks ettiradi. Diagrammada jami 5 ta to'siq turlari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagi tartibda taqdim etilgan:

1. **Ijtimoiy stereotiplar (30%)** Ushbu to'siq diagrammada eng yuqori ko'rsatkichni egallagan. Talabalar orasida psixologga murojaat qilishni zaiflik belgisi sifatida qabul qilish yoki atrofdegilar tomonidan salbiy munosabatga uchrashdan qo'rqish holatlari keng tarqalgan. Bu stereotiplar talabalarni psixologik yordamdan uzoqlashtiruvchi muhim omillardan biri ekanini ko'rsatadi.

2. **Moliyaviy muammolar (24%)** Ikkinchi o'rinda moliyaviy muammolar joylashgan. Ba'zi talabalar psixologik yordam xizmatlarining qimmatligini ta'kidlagan va bu xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklanganini bildirgan. Ayniqsa, pullik xizmatlarning mavjudligi ko'plab talabalar uchun to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

3. **Maxfiylikka bo'lgan xavotir (20%)** Diagrammada uchinchi o'rinda maxfiylik muammosi qayd etilgan. Talabalar psixolog bilan bo'lgan suhbat davomida shaxsiy ma'lumotlar sir saqlanishiga nisbatan ishonchsizlik bildirgan. Bu xavotir psixologik yordam xizmatidan foydalanishni cheklab qo'yadi.

4. **Vaqt/tafovut muammosi (16%)** To'rtinchi o'rinda vaqt yetishmasligi yoki boshqa shaxsiy masalalar sababli psixologga murojaat qilmaslik holatlari joylashgan. Talabalar orasida darslar, ish yoki oilaviy vazifalar tufayli psixologik xizmatlardan foydalanish uchun vaqt topish qiyinligi keng tarqalgan muammo sifatida tilga olingan.

5. **Ishonchsizlik (10%)** Diagrammada eng past ko'rsatkichni egallagan to'siq bu – ishonchsizlik. Ayrim talabalar psixologlarning malakasiga yoki psixologik maslahatlarning samaradorligiga shubha bilan qarashlarini bildirgan.

**Xulosa.** Diagramma talabalarning psixologik yordamga murojaat qilishga to'sqinlik qiluvchi omillarning turli darajada namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Eng katta muammo sifatida **ijtimoiy stereotiplar** ajralib turibdi. Bu esa jamiyatda psixologik yordam bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish, bu boradagi noto'g'ri qarashlarni bartaraf etish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, moliyaviy muammolarni hal qilish uchun bepul yoki arzonroq psixologik xizmatlarni joriy etish hamda maxfiylikni ta'minlash choralari ko'rish talab etiladi. Talabalar orasida vaqtni boshqarish va ishonchni oshirish uchun ham qo'shimcha psixologik treninglar o'tkazish muhimdir.

Ushbu tahlil oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarni yaxshilash bo'yicha amaliy qadamlar tashlashda yo'naltiruvchi bo'lishi mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlari va dasturlari. – Lex.uz: <https://lex.uz>.
2. Bekmurodov, X. I. (2017). Talabalar shaxsiyati rivojlanishining psixologik xususiyatlari. *Psixologiya va pedagogika Jurnal*, 3(2), 45–52.
3. Boboyev, A. A. (2015). Shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik jihatlari. Toshkent: Ilm Ziyo.
4. Karimov, M. T. (2020). Talabalar stress darajasi va uni kamaytirish usullari. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va psixologik yordam masalalari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 102–107. Toshkent.
5. Rasulov, J.S. (2019). Psixologik xizmatni rivojlantirishning dolzarb masalalari. Doktorlik dissertatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Toshkent.
6. Deci E.L., Ryan R.M. “Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior.” – New York: Plenum Press, 1985.

## OLIIY TA'LIM MUASSALARINING O'QUV JARAYONIDAGI O'RGANISH TEXNIKASI VA STRATEGIYALARI: SAMARALI YONDASHUVLAR

*Negmatova Aropat Muxtarovna,  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika va psixologiya kafedrası v/b professori, p.f.n.  
arofathonnegmatova@gmail.com*

*Mazkur maqolada o'quv jarayonida samarali o'rganish texnikasi va strategiyalarining nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Unda faol o'qitish metodlari, kolaborativ ta'lim, tanqidiy fikrlash strategiyalari va texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi bo'yicha ilmiy yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, o'quv strategiyalarini ishlab chiqishda kognitiv psixologiya, motivatsiya, hissiy intellekt va individual yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqolada ta'limni zamonaviylashtirish va talabalarning bilim olish samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Tadqiqot natijalari pedagoglar, ilmiy tadqiqotchilar va ta'lim muassasalari uchun foydali ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** samarali o'rganish texnikasi, o'quv strategiyalari, faol o'qitish metodlari, kolaborativ ta'lim, tanqidiy fikrlash, ta'limda texnologiyalar, kognitiv psixologiya, motivatsiya, hissiy intellekt, individual yondashuv, ta'lim samaradorligi, innovatsion pedagogika.*

## ТЕХНИКИ И СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ: ЭФФЕКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ

*В данной статье анализируются теоретические и практические основы эффективных методов и стратегий обучения в образовательном процессе. Он охватывает методы активного обучения, совместное обучение, стратегии критического мышления и научные подходы к интеграции технологий в образовательный процесс. Также показана важность когнитивной психологии, мотивации, эмоционального интеллекта и индивидуальных подходов в разработке образовательных стратегий. В статье представлены практические рекомендации по модернизации образования и повышению эффективности обучения студентов. Результаты исследования служат полезной научной и методической основой для педагогов, научных исследователей и образовательных учреждений.*

***Ключевые слова:** эффективные методы обучения, стратегии обучения, активные методы обучения, совместное обучение, критическое мышление, технологии в образовании, когнитивная психология, мотивация, эмоциональный интеллект, индивидуальный подход, эффективность обучения, инновационная педагогика.*

## LEARNING TECHNIQUES AND STRATEGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: EFFECTIVE APPROACHES

*This article analyzes the theoretical and practical foundations of effective learning techniques and strategies in the educational process. It covers active learning methods, collaborative learning, critical thinking strategies, and scientific approaches to the integration of technology into the educational process. Also, the importance of cognitive psychology, motivation, emotional intelligence and individual approaches in the development of educational strategies are shown. The article presents practical recommendations for modernizing education and increasing the efficiency of students' learning. The results of the research serve as a useful scientific and methodological basis for pedagogues, scientific researchers and educational institutions.*

***Keywords:** effective learning techniques, learning strategies, active learning methods, collaborative learning, critical thinking, technologies in education, cognitive psychology, motivation, emotional intelligence, individual approach, educational effectiveness, innovative pedagogy.*

***Kirish.** O'zbekiston ta'lim tizimi keyingi yillarda innovatsion rivojlanish sari katta qadamlar tashlamoqda. Bu jarayon ta'limda sifatni oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quv texnikasi va strategiyalari samaradorlikning eng muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Bu usullar nafaqat talabalar*

bilimini oshirish, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi global raqobat muhiti ta'lim sohasida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Jumladan, ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirish, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ta'lim jarayonida o'quv texnikasi va strategiyalarni qo'llashning asosiy vazifasi, talabalar bilimlarini hayotiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish, ularning bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir.

**Asosiy qism.** Ta'lim texnikalari va strategiyalarining muhimligi, avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonining integratsiyalashuvi va samaradorligiga bog'liq. Masalan, faol o'qitish texnologiyalari, kolaborativ ta'lim yondashuvlari, hamda tanqidiy fikrlash va masalalar yechish kabi metodlar nafaqat bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki talabalarda ijodkorlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantiradi. Yana bir muhim jihat, texnik va strategiyalarni qo'llashda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Har bir talaba o'ziga xos o'rganish uslubiga ega bo'lib, ta'lim jarayonida shu uslubga mos keluvchi texnikalar tanlanishi zarur. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanish talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish va ularga individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati kengaymoqda.

Ta'lim jarayonida o'quv texnikasi va strategiyalarining mohiyati, ularning ilmiy va amaliy asoslari, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar misolida samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqola ta'lim jarayonida innovatsion usullardan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. O'quv jarayonida samarali texnika va strategiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish va talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Ta'lim jarayonida o'quv texnikalari va strategiyalari bilimlarni o'zlashtirish va qo'llash jarayonining samaradorligini ta'minlovchi asosiy vositalardir[1]. Bu texnikalar va strategiyalar ta'lim maqsadlariga erishishda talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'quv jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Faollik talabalarning mavzu bo'yicha chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil fikr bildirishga undash, dars jarayonida o'zaro muloqot va hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni anglatadi.

Faollikni ta'minlash uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- **Muammoli ta'lim:** talabalarga dolzarb muammolarni tahlil qilish va ularni yechish vazifalarini berish orqali faol fikrlashga jalb qilish.

- **Interaktiv darslar:** Munozaralar, savol-javoblar, hamkorlikda muhokama qilish orqali darsni qiziqarli va samarali qilish[2].

Refleksiya talabalarning o'z bilimlarini qayta ko'rib chiqishi, baholashi va tahlil qilishi jarayonini anglatadi. Bu jarayon talabalarning bilimlarni mustahkamlashi, o'z xatolarini aniqlab, ularni tahlil qilishlari, tuzatishlari, yangi bilimlarni qo'llashga tayyorlanishini ta'minlaydi. Refleksiya jarayonini samarali tashkil etish uchun esa dars oxirida talabalardan o'rganilgan mavzu bo'yicha fikrlarini bildirishni so'rash, bilimlarini mustahkamlash uchun qayta aloqa berish, o'z-o'zini baholash yoki guruhli baholash usullaridan foydalanish mumkin.

Ta'lim jarayonida har bir talabaning individual ehtiyojlari va o'ziga xosliklarini inobatga olish zarur. Moslashuvchanlik shuni anglatadiki, har bir talaba o'zining o'rganish uslubiga mos keladigan texnika va strategiyalar orqali bilim oladi, o'quv jarayoni talabalarning rivojlanish darajasi va psixologik xususiyatlariga moslashtiriladi.

Moslashuvchanlikni ta'minlash uchun quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

**Differensial yondashuv:** talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda vazifalarni individual yoki guruhli shaklda taqdim etish.

- **Personalizatsiya:** Ta'lim texnologiyalari va resurslarini har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirish.

O'quv texnikasi va strategiyalari faqat metodlar jamlanmasi bo'lib qolmay, ularning maqsadli va tizimli qo'llanilishi orqali ta'lim jarayonining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu strategiyalarni amalda tatbiq etishda o'qituvchilarning tajribasi va bilim darajasi ham muhim rol o'ynaydi. Samaradorlikni oshirish uchun talabalarni faollashtiruvchi metodlarni qo'llash, reflektiv fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar ishlab chiqish, moslashuvchan yondashuv orqali har bir talabaning ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishini ta'minlash talab etiladi[3]. Ushbu tamoyillarning barchasi ta'lim jarayonida talabalarning nafaqat bilim olish, balki hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ta'lim

texnikalari va strategiyalari ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqilganda, ular talabalarning ta’limdagi ishtirokini kuchaytirib, ularni yanada faol, ijodkor va mustaqil shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Faol o’qitish metodlari talabalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va bilimlarni chuqurroq o’zlashtirishga qaratilgan. Ushbu metodlar nafaqat talabalarning intellektual rivojlanishini qo’llab-quvvatlaydi, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Faol o’qitish usullarining asosiy turlari:

- **Muammoli ta’lim:** talabalar oldiga muammo qo’yilib, uning yechimini izlash jarayonida ular mustaqil bilim olishga jalb qilinadi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

- **Interaktiv darslar:** Savol-javoblar, guruhli muhokamalar va rolli o’yinlar orqali talabalarni faol jalb qilishga xizmat qiladi.

- **Loyihaviy ishlash:** talabalarni aniq bir loyihani ishlab chiqish yoki rejalashtirishga yo’naltirish orqali amaliy ko’nikmalarni shakllantirish.

Kollaborativ ta’lim strategiyasi talabalarni birgalikda ishlashga o’rgatadi va jamoaviy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuvning afzalliklari shundaki, talabalar guruhli vazifalarni bajarishda o’zaro fikr almashadilar, bir-birlarining bilimlarini to’ldiradilar, **jamoaviy mas’uliyat esa** guruhdagi har bir a’zo vazifani muvaffaqiyatli bajarishga mas’uliyat bilan yondashadi[4]. **Kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish**, talabalar o’z fikrlarini ravon bayon qilishni va o’zaro kelishuvga erishishni o’rganadilar. Kollaborativ ta’lim jarayonida talabalar bir-birlarini o’qitish orqali o’z bilimlarini mustahkamlaydilar va yanada samarali o’zlashtirishga erishadilar.

Tanqidiy fikrlash talabalarning axborotni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yechimlar topish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. talabalar ma’lumotlarni tahlil qilib, ularning dolzarbligi va to’g’riligini aniqlaydilar. Muammolarni aniqlab, ular yuzasidan asosli qaror qabul qilishga o’rgatadi. talabalarning turli vaziyatlarga innovatsion yondashuv bilan qarash ko’nikmalarini shakllantiradi. Tanqidiy fikrlash strategiyalari yordamida talabalar faqatgina bilim olish bilan cheklanmay, balki uni hayotiy faoliyatda qo’llashga qodir bo’lgan shaxs sifatida rivojlanadilar.

Masalalar yechish texnikasi talabalarning bilimlarini real hayot sharoitlarida qo’llash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarga real hayotiy muammolar berilib, ularni mustaqil ravishda yoki guruh bo’lib yechish talab qilinadi. talabalar muammoni tahlil qilish va yechim rejasini ishlab chiqishni o’rganish natijasida talabalar vazifalarni va o’z bilim, ko’nikmalarini mustahkamlaydilar. Masalalar yechish texnikasi orqali talabalar hayotiy muammolarni yechishda zarur bo’lgan analitik fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida texnologiyalarning o’rni beqiyos darajada ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng joriy etilishi ta’lim sifatini oshirish va ta’lim berish jarayonini optimallashtirishga qaratilgan. Texnologiyalarning o’quv jarayonidagi roli faqatgina axborot yetkazish bilan cheklanmay, balki individual yondashuvni ta’minlash, interaktivlikni oshirish va talabalarning faolligini kuchaytirishga qaratilgan. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari o’quv jarayonini interaktiv va jonli qilishga imkon beradi[5]. VR yordamida talabalar laboratoriya tajribalarini xavfsiz sharoitda bajarishi, murakkab jarayonlarni vizual ko’rishi va tahlil qilishi mumkin. Masalan, kimyo va biologiya darslarida molekullarning tuzilishini o’rganish yoki inson tanasining ichki organlarini ko’rish imkoniyati yaratiladi. AR texnologiyalari kitob, plakat yoki boshqa materiallarga qo’shimcha axborotni kiritish imkonini beradi. Masalan, darslikdagi rasmga AR vositasi orqali jonlantirilgan animatsiyalar yoki videolarni qo’shish mumkin. VR texnologiyasi orqali tarixiy joylarni virtual ko’rish, kosmosni tadqiq qilish yoki murakkab texnologik qurilmalarni o’rganish mumkin. Texnologiyalar nafaqat ta’lim jarayonini optimallashtiradi, balki talabalarning qiziqishini va motivatsiyasini oshiradi

**Xulosa.** Ta’lim jarayonida samarali o’quv texnikasi va strategiyalarini qo’llash talabalarning bilim olish jarayonini faollashtirish va ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiluvchi vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu strategiyalar faqat bilim olishga emas, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Ta’lim jarayonida faollikni oshiruvchi, moslashuvchanlikni ta’minlovchi va motivatsiyani kuchaytiruvchi texnikalarni qo’llash talabalarning o’zlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Faol o’qitish metodlari, kolaborativ ta’lim, tanqidiy fikrlash strategiyalari va masalalar yechish texnikalari o’quv jarayonini samarali qilish uchun muhim vositalar hisoblanadi. Bu metodlar orqali talabalar bilimlarni o’zlashtiribgina qolmay, ularni real hayotda qo’llash ko’nikmalarini ham rivojlantiradilar. Zamonaviy ta’lim jarayonida texnologiyalarni qo’llash ta’lim sifatini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Sun’iy intellekt, raqamli platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat kabi texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini personalizatsiya qilish, interaktivlikni

oshirish va talabalarning qiziqishini kuchaytirish mumkin. Shu bilan birga, ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda psixologik yondashuvlarning qo’llanishi, masalan, motivatsiya, hissiy intellekt va kognitiv uslublar hisobga olinishi, talabalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini yanada samarali qiladi. Ushbu keltirilgan tavsiyalar pedagoglar va ta’lim muassasalari uchun ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim yo’l-yo’riq bo’lib xizmat qilishi mumkin. Faol o’qitish metodlari va interaktiv darslarni kengroq qo’llash, individual yondashuv asosida ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish, texnologiyalarni o’quv jarayoniga integratsiya qilish, talabalarning motivatsiyasini oshiruvchi usullardan foydalanish natijasida ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga erishimiz mumkin.

Samarali o’quv texnikalari va strategiyalarni to’g’ri tanlash va qo’llash ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Ushbu yondashuvlar nafaqat talabalarning bilim olishga bo’lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning ijodkorlik va amaliy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Innovatsion va psixologik jihatlarni birlashtirgan holda ishlab chiqilgan strategiyalar ta’limni yangi sifat darajasiga olib chiqish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi bilimli va faol shaxslarni shakllantirishda muhim o’rin tutadi. Bayon qilingan fikrlar va tavsiyalar ta’lim tizimining samaradorligini oshirish bo’yicha nazariy va amaliy yo’nalishda foydali manba sifatida xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Kappa Delta Pi. (Ta’lim jarayonida tajriba asosidagi yondashuvlarning nazariy asoslari haqida.)
2. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall. (O’rganish jarayonida tajribaning ahamiyati va talabalarning faolligini oshirish usullari haqida.)
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. (Ta’lim va bilish jarayonida ijtimoiy o’zaro ta’sirning ahamiyati haqida.)
4. Fry, H., Ketteridge, S., & Marshall, S. (2008). *A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education: Enhancing Academic Practice*. Routledge. (Oliy ta’limda o’qitish va o’rganish strategiyalari bo’yicha qo’llanma.)
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Raqamli ta’limni rivojlantirish strategiyasi” to’g’risidagi Qaror. (Raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilishga oid davlat dasturi.)
6. Gagne R. M. (1985). *The Conditions of Learning and Theory of Instruction*. Holt, Rinehart & Winston. (O’quv jarayonini samarali tashkil etish uchun shart-sharoitlar va didaktik tamoyillar haqida.)
7. Mayer R. E. (2001). *Multimedia Learning*. Cambridge University Press. (Multimediali vositalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari haqida.)
8. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives*. Longman. (Ta’lim maqsadlarini belgilash va baholashning takomillashgan yondashuvlari haqida.)
9. Biggs J., & Tang C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University*. Open University Press. (Ta’lim sifatini oshirish uchun o’qituvchilarning yondashuvlari haqida.)
10. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining metodik qo’llanmalari. (Ta’lim sifatini oshirish bo’yicha milliy metodik tavsiyalar.)
11. Namangan davlat universiteti tomonidan taqdim etilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar. (Ta’lim texnologiyalari va metodikasi bo’yicha qo’llanmalar.)

**OLIV TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV  
KOMPETENTLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

*Musayeva Amina Karamatovna,*

*Osiyo xalqaro universiteti,*

*Tarix va filologiya kafedrasida assistent-o'qituvchisi*

*musayevaaminakaramatovna@oxu.uz*

*Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayoni sifatini oshirish orqali talabalarning rus tilidan kompetentlik darajasini oshirishning dolzarbligi, kommunikativ fanni o'qitish jarayonida til kompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan usul va vositalardan foydalanishning afzalliklari va imkoniyatlari, dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish natijadorligi, xalqaro tajribalar integratsiyasi hamda nutqning estetik sifati haqida ilmiy ma'lumotlar, mualliflik yondashuvlari hamda tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsion yondashuv, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar, kommunikativ-faol yondashuv, nutq madaniyati, fanlararo integratsiya, innovatsion texnologiyalar, didaktik jarayon, kongnitiv faoliyat.*

**РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В  
ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ**

*В данной статье представлена научная информация об актуальности повышения уровня компетентности учащихся по русскому языку посредством повышения качества образовательного процесса, преимуществах и возможностях использования методов и средств, направленных на развитие языковой компетентности в процессе обучения коммуникативной науке, результатах использования инновационных подходов в процессе урока, интеграции международного опыта и эстетического качества речи, авторских подходах и рекомендациях.*

**Ключевые слова:** *инновационный подход, интерактивные методы, педагогические технологии, коммуникативно-активный подход, культура речи, междисциплинарная интеграция, инновационные технологии, дидактический процесс, познавательная деятельность.*

**DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN THE  
PROCESS OF HIGHER EDUCATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE APPROACHES**

*This article presents scientific information, author's approaches and recommendations on the relevance of increasing students' Russian language competence by improving the quality of the educational process, the advantages and possibilities of using methods and tools aimed at developing language competence in the process of teaching communicative subjects, the effectiveness of using innovative approaches in the teaching process, the integration of international experience and the aesthetic quality of speech.*

**Keywords:** *innovative approach, interactive methods, pedagogical technologies, communicative-active approach, speech culture, interdisciplinary integration, innovative technologies, didactic process, cognitive activity.*

**Kirish.** Jahon miqyosidagi Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida talabalarning til bilishga oid kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari amaliy faoliyatga tatbiq etilmoqda. Ta'lim transformatsiyasi jarayonida yoshlarda kommunikativlikni rivojlantirish, ularda nutqning estetik sifati, verbal muloqot, pedagogik g'oyalarni integratsiyalash, muloqotning monologik va dialogik shakllarini takomillashtirish, ta'lim sifati va malaka talablarini xalqaro darajaga ko'tarish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, immersiv texnologiyalardan samarali foydalanib o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish borasida yirik loyihalarni tashkillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son «2022 – 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-son «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida» Qarorida belgilab berilgan vazifalar ijrosini

ta’minlashda talaba yoshlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, ehtiyojlarga asoslangan ta’lim muhitini yaratish orqali kelajakda inson kapitali salohiyatini oshirish, “yangi kasblar kompassi”ni yaratish kabi dolzarb masalalarga yechim topish muhimdir.

**Asosiy qism.** Rivojlangan mamlakatlarning ilmiy tadqiqot muassasalarida ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarida xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim oluvchilarning intellektual faolligi va kasbiy yetukligini baholash, sohaviy rus tili yo’nalishida o’qitish asosida mutaxassislik fanlari bilan aloqadorlikni ta’minlash bo’yicha samarali izlanishlar amalga oshirilmoqda. Britaniya Kengashining STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) loyihalaridagi xorijiy tajribalarni o’rganish va shu yo’nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish bu boradagi asosiy ishlardan biridir. Mamlakatimizda ona tilini o’qitish bilan birga rus tilini o’qitishni ham tizimli xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish, talabalarni ilg’or xorijiy tajribalarga asoslangan o’qitish tizimini yaratish, tilni o’qitishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga oid yondashuvlarni jadallashtirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. «...ta’lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko’nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz. Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimida o’quv dasturlari, o’qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko’rib chiqish, ushbu tizim avval ilg’or xorijiy mutaxassislar tomonidan ekspertizadan o’tkazilib, keyingina hayotga tatbiq etish...» [1] ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu, o’z navbatida, «Xalqaro ta’lim standartlarini baholash asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish» imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oliy ta’limda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo’lib, ushbu yondashuvlar talabalarni XXI asrning kommunikativ talablariga moslashtirishga va ularda kommunikativlikni rivojlantirishda yordam beradi.

Rus tili darslarida talabalarning so’zlashuv ko’nikmasi bosqichma bosqich rivojlantirish borish ularda nutq faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartlardan biri hisoblanadi. Til o’rganish jarayoni har bir shaxsning kamol topishida bilim, ko’nikma va malakalar namoyon bo’lishida aks etishi e’tiborni tortadi. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda o’qish, tinglash, gapirish malakasining rivojlanishida ko’rgazmalilik metodi, talabalar bilan debat, muhokama, o’yinlar texnologiyasi (rolli, dramatik), aniq vaziyatlar metodi (keys–stadi), muammoli diskussiya, guruh yoki jamoaviy o’yinlar, rolli o’yinlar, intervyu, rasmlarni tasvirlash, video materiallarini tomosha qilish, mutoala harakatiga hamda ijodiy didaktik topshiriqlarni til portfeli, audio vizual vositalardan, multimedia vositalardan foydalanish ko’proq samara berishi tadqiqotlarda o’z isbotini topdi. O’qituvchi tomonidan og’zaki va yozma shaklda berilgan muhokama, diskussiya, rolli o’yinlar metodlari tajriba– sinov tadqiqotlarida asoslandi. Har bir innovatsion texnologiya o’z afzalliklariga ega, bu usullarning barchasida o’qituvchi va talaba hamkorligi, talabaning ta’lim jarayonidagi faolligi bevosita kuzatiladi. Ingliz tilida nutqiy faoliyat yuritishda shaxsni shakllantirgan holda muloqotdoshlarning bir–birini tinglab tushunishi, nutqiy va madaniy malakalarini (kompetensiyalarini) rivojlantirishi talab etiladi. Talabalarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda, ayniqsa, rus tili faniga oid bilim, ko’nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalar ham shakllantirilishi lozim. «Kompetensiya» atamasi nazariy bilim, ko’nikma va malakalarga tayangan amaliyotga yo’naltirilgan umumiy jarayon, «kompetentlik» esa egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llay olish, har bir shaxsning individual xususiyatlariga bog’liq faoliyat degan hulosa chiqarildi.

Oliy ta’lim jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishda avvalo nutqning estetik sifatini ta’minlashga ahamiyat berish lozim. Nutqning estetik sifati bu nima?



1-rasm. Talaba nutqining estetik sifati

Talaba nutqining estetik sifati<sup>1</sup> - bu uning muloqot jarayonida estetik tavsiflarni ifodalay olish va tinglovchi yoki suhbatdoshida estetik zavq uyg‘otish qobiliyatidir. Bu qobiliyat sifatlariga quyidagilarni o‘z ichiga oladi Garmoniya: Nutqning ohangdorligi, oqimili va ayrim qismlarining uyg‘unlashuvi. (1-rasmga qarang).

Talaba nutqning estetik sifati o‘rganilayotgan mavzu, maqsad va o‘quv jarayonidagi kommunikativ vaziyatga qarab farq qiladi. Masalan, badiiy nutqda obrazlilik va ifodalilik, ilmiy nutqda aniqlik va obyektivlik ustun bo‘ladi.

Rus tili darslarida talaba nutqning estetik sifatiga erishish uchun quyidagi vositalardan foydalanish mumkin (2-rasmga qarang).



2-rasm. Rus tili darslarida talaba nutqning estetik sifatiga erishish vositalari

Oliy ta‘lim jarayonida rus tili fanini o‘qitishda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish maqsadida quyidagi vositalardan maqsadli foydalanilishi tadqiqotda ko‘rib chiqildi. Ушбу тилни ривожлантирувчи воситаларнинг мазмун моҳияти келтириб ўтилди. Jumladan,

- til boyligi: ifodalarni, stilistik figuralarni, maqol va aforizmlarni ishlatish.
- lug‘atni aniq tanlash: ma‘nosiga va uslubiga ko‘ra so‘zlarni tanlab olish.
- o‘qish texnologiyasini qo‘llash: nutqning ifodaliligini, ohangdorligini va ta‘sirchanligini oshiruvchi tovush vositalaridan foydalanish.
- jest va mimika: nutqni kuchaytirish va ehsosiy ta‘sirni oshirish.
- kommunikatsiya vaziyatni hisobga olish: mavzu, maqsad va auditoriyaga mos nutq uslubini tanlash.

Nutqning estetik sifatiga ega bo‘lish juda uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, o‘quv mashg‘ulotlarida o‘qituvchi va talabadan mashqlarni bajarish orqali qobiliyatni rivojlantirishni talab qiladi.

Tadqiqot davomida rus tili fanini o‘qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi innovatsion yondashuvlardan quyidagilar qo‘llanildi:

**Interaktiv muhokama va munozaralar:** Talabalarni turli mavzular bo‘yicha muhokama va munozaralarga jalb etish ularning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

**Simulatsiya va rolli o‘yinlar:** Haqiqiy hayot ssenariylarini simulatsiya qilish yoki rolli o‘yinlar o‘ynash talabalarga turli kommunikativ vaziyatlarni tajriba qilish imkonini beradi.

**Texnologik vositali kommunikatsiya:** Onlayn forumlar, videokonferensiya va ijtimoiy media kabi texnologiyalar talabalarga sinfdan tashqari muloqot qilish va hamkorlik qilish imkonini beradi.

<sup>1</sup> Mualliflik yondashuvi

**Kichik guruhli faoliyatlar:** Kichik guruhli loyihalar, prezentatsiyalar va muhokamalar talabalarga o‘z fikrlarini ifoda etish, digarlarni tinglash va fikr almashish imkonini beradi.

**Muloqotlar va intervyularni o‘tkazish:** Muloqotlar va intervyular talabalarga professional kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

**Individual fidbek va reflektiv mashqlar:** Talabalarga ularning kommunikativ qobiliyati bo‘yicha shaxsiylashgan fidbek va yoriq berish ularning o‘sishi va rivojlanishiga yordam beradi.

Tadqiqotlarimiz davomida talabalarda rus tilidan kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning bir qator afzalliklari mavjudligi ko‘zga tashlandi. Jumladan,

-talabalarni haqiqiy hayotning kommunikativ vaziyatlariga tayyorlaydi;

-ularning til bilimdonligi va salohiyatini, o‘ziga bo‘lgan ishonch va o‘zini ifoda etish qobiliyatini oshiradi;

-ularning turli madaniyat va qarashlarga bo‘lgan hurmatini rivojlantirishga yordam beradi.

-hamkorlik qilish va ijtimoiy qobiliyatini oshiradi;

-shaxsiy hayot tarzini yaxshilaydi;

-kasbiy o‘sishni ta‘mindlaydi;

-oliy ta‘limdan keyingi kasbiy faoliyatiga o‘tish uchun zarur bo‘lgan kommunikativ qobiliyatini rivojlantiradi.

Oliy ta‘lim jarayonida talabalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash talabalarni o‘zlarining kommunikativ potentsiallarini oshkor etishga va jamiyatimizga muvaffaqiyatli kommunikatorlar bo‘lib xizmat qilishga yordam beradi.

Talabalarda rus tilidan kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik g‘oyalarni integratsiyalash ularning kommunikativ qobiliyati bilan birga ularda muloqotchanlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu g‘oyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi (3-rasmga qarang).

➤ **interaktiv o‘qitish:** o‘quvchilarni faol muloqot va hamkorlikka jalb etish.

➤ **ehtiyojlarga asoslanish:** o‘qitish jarayonini o‘quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga asoslash.

➤ **o‘zaro hamkorlikda ishlash:** o‘quvchilarni guruhlarda ishlashga va bir-birlaridan o‘rganishga undash.

➤ **integratsiyadan foydalanish:** kommunikativlikni har bir o‘quv fani va faoliyatiga integratsiya qilish.

➤ **ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish:** texnologiyani muloqot qobiliyatini rivojlantirish va o‘quv jarayonini boyitish uchun qo‘llash.

Tadqiqot davomida rus tilidan talabalar kommunikativlik darajasini rivojlantirishda pedagogik g‘oyalarni integratsiya qilishda quyidagi vositalardan foydalanildi:

➤ **muhokama va munozaralar:** o‘quvchilarni turli mavzular bo‘yicha muhokama va munozaralarga jalb etish.

➤ **rolli o‘yinlar va simmulatsiyalar:** o‘quvchilarni haqiqiy hayot kommunikativ vaziyatlarini tajriba qilishga undash.

➤ **loyihaga asoslangan o‘qitish:** o‘quvchilarni muammolarni hal qilish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va natijalarni ifoda etishda hamkorlik qilishga undash.

➤ **yozma muloqot:** o‘quvchilarni esselar, maqolalar, xatlar va elektron pochta yozishga undash.

➤ **texnologiyani qo‘llash:** onlayn forumlar, videokonferensiya va ijtimoiy media kabi texnologiyalardan foydalanish.

Rus tildan kommunikativlikni rivojlantirishda pedagogik g‘oyalarni integratsiya qilishda har bir talaba o‘zining kommunikativ salohiyatini namoyon etishi va samarali kommunikator bo‘lib yetishishi uchun qo‘shimcha hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi imkoniyatlar ham ko‘zga tashlandi. Ya‘ni:

**ma‘suliyat va moslashuvchilik** –shaxsning o‘zida, ish o‘rnida va hamjamiyat miqyosida mas’uliyatli bo‘lish va moslashuvchanlikni mashq qilish; o‘ziga va boshqalarga nisbatan yuqori marra va standartlarni belgilash va ularga erishish;

**muloqot ko‘nikmalari** –turli xil shakl va mazmundagi samarali og‘zaki, yozma va multimediyaga asoslangan muloqotni anglash, boshqarish va ijod qilish;

**ijodiy va qiziquvchanlik**- yangi g‘oyalar o‘ylab chiqish va ularni amalga oshirish va boshqalarga ham ma‘lum qilish; yangi va turli imkoniyatlarga ochiq va hozir turish;

**tanqidiy fikirlash va tizimli fikirlash**- masalani aniqlashda va murakkab qarorlar qabul qilishda puxta dalillar keltirishdan foydalanish; tizimlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash;

**axborot va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ko'nikmalari**- turli xil shakllarda va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baxolash, boshqarish hayrixoh bo'lish; turli xil istiqbollarga e'tibor bilan qarash;

**shaxslararo va hamkorlik ko'nikmalari**- jamoada ishlay olish va yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish; turli xil rollar va ma'sulyatlarni qabul qila olish; boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish; boshqalarga hayrixoh bo'lish; turli xil istiqbollarga e'tibor bilan qarash;

**muamolarni aniqlash va shakilga solish va yechimini topish**- muamolarni shaklini aniqlash, tahlil etish va hal etish qobiliyati;

**o'z-o'zini yo'naltirish** - shaxsiy tushunish va o'rganish ehtiyojlarni kuzatib borish; mos keluvchi manbalarni aniqlash; bilim olishni bir jabxadan boshqasiga ko'chirib o'ta olish;

**ijtimoiy mas'uliyat** - jamiyat foydasini nazarda tutgan holda mas'uliyat bilan harakat qilish; ish o'rnida va jamiyat orasida odob va axloq bilan ish tutish.

Rus tili darslarida muloqotning monologik va dialogik shakllarini takomillashtirish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish va ularning samarali kommunikatorlar bo'lib yetishishiga yordam beradi. Monologik va dialogik shakllarni takomillashtirish usullari:

- muloqot vaziyatlarini modelirovaniye qilish: o'quvchilarni turli kommunikativ vaziyatlarga, masalan, so'nggi yangiliklarni muhokama qilish, ma'lumotlarni ifodalash yoki muammolarni hal qilish kabi vaziyatlarga jalb etish.

- polli o'yinlar: o'quvchilarni turli rollarda ishlashga undash, masalan, ma'lumot oladigan jurnalist yoki ma'lumot beradigan mutaxassis roli kabi.

- jurnalistik matnlarni tahlil qilish: o'quvchilarni jurnalistik matnlar, masalan, yangiliklar maqolalari, intervyular yoki reportajlarni tahlil qilishga undash.

- munozaralar va muhokamalar: o'quvchilarni turli mavzular bo'yicha munozaralar va muhokama qilishga undash.

- o'quvchilarni tinglash va fidbek berish: O'quvchilarning chiqishlarini diqqat bilan tinglash va ularga fidbek va yoriq berish.

Ta'lim jarayonida rus tilidan kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda talabalarning og'zaki va yozma monologik nutqidagi jozibadorlikni oshirishda quyidagi usullardan foydalanildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Monologik nutq orqali kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiruvchi usullar

Rus tili darslarida muloqotning monologik va dialogik shakllarini takomillashtirish o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda eta olishi, boshqalarni tinglashi, ma'lumotlarni almashishi va turli kommunikativ vaziyatlarda o'zlarini ishonch bilan tutishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Kommunikativ kompetentlik borasida olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, aynan kompetensiyalar ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarga nimani o'rgatish va qanday o'rgatish, nimalarni shakllantirish lozimligi muhim sanaladi. Bu jarayonda rus tili darslari ham bundan mustasno emas. Shu nuqtayi nazardan, "kommunikativ kompetentlik" tushunchasini tahlil qilish biz uchun dolzarb muammodek ko'rinadi.

Tadqiqotchi olim E.I.Litnevskaya kommunikativ kompetensiyaga nisbatan quyidagi ta'rifini ilgari suradi: "Nutq faoliyatining barcha turlarini og'zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma'lum bir yoshdagi muloqotning hayotiy sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko'nikmalari va malakalarini o'zlashtirishdir".

Boshqa bir olim N.I.Geiz kommunikativ kompetentlikni "turli ijtimoiy jihatdan belgilangan sharoitlarda tilni to'g'ri qo'llash qobiliyati" deb tushunadi. Demak, kommunikativ kompetentlik nutqni muloqotning maqsadi va holati bilan taqqoslash qobiliyatini, shuningdek, kommunikativ xatti-harakatlarning madaniy va ijtimoiy me'yorlarini hisobga olgan holda muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda kommunikativ kompetentlikka nisbatan mukammal ta'rif M.R.Lvov tomonidan

keltirib o‘tilgan bo‘lib, uning ta’kidlashicha, “kommunikativ kompetentlik – bu til va uning fonetik xususiyatlarini, leksik va grammatik birliklarini, stilistikasini, nutq madaniyatini, ushbu til vositalariga ega bo‘lishni va nutq faoliyati turlarini bilishni bildiruvchi tushunchadir. Shuningdek, nutq, tinglash, o‘qish, yozish - insonning ijtimoiy, kasbiy, madaniy talablari doirasida va kommunikativ kompetensiya tabiiy nutq faoliyati hamda maxsus tayyorgarlik natijasiga ega bo‘ladi”.

Kommunikativ kompetentlik bir qator olimlar tomonidan “til yordamida o‘zaro ta’sirni amalga oshirish, ya’ni suhbatdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida o‘z fikrlarini ifodalash va ulardan turli sharoitlarda foydalanish, tilshunoslik tizimini to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati”, deb talqin qilinadi hamda nutq me’yorlari, ma’lum muloqot sharoitlariga mos keladigan kommunikativ xatti-harakatlarni afzal ko‘radilar”.

A.N.Kazarsevning fikriga ko‘ra, “kommunikativ kompetensiya – bu begonalarni tushunish va muloqotning maqsad, sohalari, vaziyatlariga mos keladigan nutq xatti-harakatlari orqali o‘z dasturlarini yaratish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning jamlanmasidir. U nutq lingvistikasining asosiy tushunchalari – uslublar, turlar, matndagi jummalarni bog‘lash usullari va boshqalar haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi; matnni tahlil qilish malakalari va qobiliyatlari va muloqot qila olish qobiliyatlari - qabul qiluvchi va maqsadni hisobga olgan holda muloqotning turli sohalari va vaziyatlariga nisbatan og‘zaki muloqot qilish ko‘nikmalari va qobiliyatlari”[1]. Kommunikativ kompetensiya asosini quyidagilar tashkil qiladi: - muloqotni tashkil qilish — shaxslararo muloqot ko‘nikmasi; - muloqotni, kontakti saqlash, teskari aloqani o‘rnatish; - muloqot natijalarini analiz qilish . Shunday ekan, kommunikativ kompetentlik muloqot qilish ko‘nikmasi, muloqotni o‘rnatish, teskari muloqot san’atini egallash va muloqot natijalarini analitik tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Rus tilida kommunikativ kompetensiya - til, og‘zaki va ijtimoiy-madaniy bilim, ko‘nikma va qobiliyatga ega bo‘lgan ma’lum bir darajadir, bu esa talabaning aloqa sharoitlariga bog‘liq ravishda og‘zaki xatti-harakatlarini o‘zgartirishi uchun kommunikativ ravishda maqbul va maqsadga muvofiq bo‘lishiga imkon beradi. Rus tilida muloqot kompetensiyasi kommunitiv madaniy rivojlanish uchun asos yaratadi. O‘tgan asrning oxirlarida chet tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyotida yangi bir yo‘nalish paydo bo‘ldi. “Kommunikativ metod” nomini olgan bu yo‘nalish keyinchalik “kommunikativ metod”, “Kommunikativlikka o‘rgatish”, “Kommunikativlikka yo‘naltirilgan ta’lim” atamaları bilan yuritila boshlandi va talabalar o‘quv faoliyatini interfaol usullarda tashkil qilishning muhim omili sifatida tabora ommalasha boshladi. An’anaviy o‘qitish metodikasida xorijiy tillarni o‘qitishdan asosiy maqsad talabalarning nutq faoliyatining to‘rt turiga: gapirishga, eshitib tushunishga, o‘qish va yozishga o‘rgatish bosh maqsad qilib belgilangan bo‘lsa, kommunikativ ta’limda talabalarni muloqotga o‘rgatish asosiy maqsad qilib belgilana boshlandi. Natijada metodik adabiyotlarda kommunikativlikka (muloqotga) o‘rgatishning lingvodidaktik, psixologik, metodik asoslari, tamoyillari, vosita va usullari keng va atroflicha tadqiq qilina boshlandi. Kommunikativ kompetensiya atamasiga o‘rganilayotgan chet til bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyati, degan mazmunda ta’rif berilgan. Ushbu atama tarkibidagi asosiy tushunchani ifodalovchi kompetensiya (competence) so‘zi dastlab N.Xomskiy tomonidan “grammatik kompetensiya”, ya’ni gapiruvchi va tinglovchining til haqidagi bilimi, degan ma’noda qo‘llanilgan. D.Xayms til haqidagi bilimlar (grammatika)ni o‘zlashtirish jarayonida undan to‘g‘ri foydalanishni ham, ya’ni qachon, qaerda, kimga, qay tarzda va nima haqida gapirish maqbulligini o‘rganish orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirib boradi, deya kommunikativ kompetensiya atamasining muallifiga aylandi. Bugunga kelib kompetensiya insonning turli sohalarda faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘ladigan bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar yig‘indisini ifodalaydi . Lingvistik kompetensiya til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozuv) bo‘yicha ko‘nikmalar egallashni nazarda tutadi. Sotsiolingvistik kompetensiya so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatları, qadriyatları, marosimları va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

E.N.Zaretskayaning fikricha, kommunikativ faoliyat ma’lum tartibda amalga oshiriluvchi izchil harakatlar tizimi bo‘lib, ularning har biri xususiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan va muomala maqsadi tomon qo‘yilgan o‘ziga xos “qadam” sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin”[2]. Taniqli tadqiqotchi A.N.Leontevning konsepsiyasiga tayangan holda, unda “kommunikativ faoliyat”ning,[3] aniq strukturaviy komponentlardan iborat ekanini ko‘rish mumkin. Kommunikativ kompetentlikning mohiyati va tuzilishini sinchkovlik bilan o‘rganish bizga ikkita, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqada bo‘lgan darajalarni ajratish imkonini berdi: birinchi daraja bevosita muloqotning o‘zida kommunikativ kompetentlikning namoyon bo‘lishini belgilab beradi, ya’ni insonning kommunikativ xulq-atvorida; ikkinchisi, talabaning o‘quv

faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, uning muloqotga alohida ehtiyoji orqali pedagogik kommunikativ qadriyatlarini kiritishi kerak. Kommunikativ kompetentlikni talaba shaxsiga oid murakkab tavsifnoma sifatida ham tushunish mumkin, u kommunikativ kompetensiyalarni, ruhiy-pedagogik kompetensiyalarni, shaxsning boshqa insonlar bilan muloqotida ko‘rinadigan ruhiy holatlarini qamrab oladi – bularning barchasi insonning kommunikativ xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Aynan kommunikativ xulq-atvor muloqot uchun zarur bo‘lgan alohida ruhiy-pedagogik kompetensiyalarni qamrab oladi. Lekin shunga qaramay, bu yerda yetakchi o‘rin, umuman olganda, talabada yo‘nalishni aniqlash va asoslash uchun javob beruvchining muloqot qilishga ehtiyojini anglatuvchi kommunikativ qadriyatlarga tegishli bo‘ladi. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikka ma‘lum vaziyatlarda kommunikativ harakatlarni sifatli va foydali tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda shaxsning ichki imkoniyatlarining alohida tizimi sifatida ham qaraladi.

Kommunikativ nutq jarayonlarida so‘zlar aniq bo‘lishi talab qilinadi. Nutqdan doimiy ravishda to‘g‘ri foydalanish kerak. Nutq muallif tomonidan aytilishi kerak bo‘lgan fikrni to‘liq qamrab olib, uning mavzusi va asosiy g‘oyasini ochib berishi shart. Nutqning keyingi muhim kommunikativ sifati uning tozaligi, ya‘ni adabiy tilda begona elementlarning yo‘qligi. Nutqda parazit so‘zlarning mavjudligi leksik zaxiraning yetishmasligidan, ehtimol nutq mavzusining haqiqatiga nisbatan ishonchning yo‘qligidan yoki u haqida ma‘lumotning yetishmasligidan dalolat berib, aytilgan so‘z uchun javobgarlikni qisman olib tashlaydi. Demak, kommunikativ kompetentlik bugungi globallashtirish sharoitida va axborotlashgan jamiyatda muhim xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun kommunikativ kompetentlikni o‘stirish yo‘llarini tadqiq etish, pedagogik jarayonda ta‘lim oluvchining muloqotchanlik va faol aloqa bog‘lovchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotdagi takomillashtirish vazifalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Dunyo taraqqiyotida internatsionallashtirish, globallashtirish va axborotlashtirish tendensiyalarining kuchayib borishi kuzatilayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta‘lim tizimi ishtirokchilarini samarali muloqotga tayyorlash hamda ularning samarali muloqotga tayyorlashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. “O‘quvchi va talabalarda tildan shunchaki foydalanuvchi shaxs sifatida emas, bu jarayonda til orqali o‘z shaxsiy sifatlarini namoyon etuvchi, unga milliy-madaniy, etnik belgilarni singdiruvchi, tilni saqlovchi va kelajak avlodlarga uzatuvchi lisoniy shaxs sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Ta‘limning uzluksizligi sharoitida ushbu maqsadga erishish uchun har qanday ta‘lim muassasasi bitiruvchisi nafaqat kasbiy kompetensiyalarga, balki poydevorlari maktabda shakllanadigan, so‘ngra oliy ta‘limda talabaning kasbiy yo‘nalishiga mos ravishda rivojlanib boradigan kommunikativ xususiyatlarga ham ega bo‘lishi kerak. Oliy ta‘lim bitiruvchisi tomonidan kommunikativ kompetensiyani egallashi "uning mehnat bozoridagi raqobatdoshligiga, kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga ta‘sir qiladi"[4].

Talabaning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar - bu ijtimoiy buyurtma, Davlat standarti, muassasaning ta‘lim maydoni, ta‘limning uzluksizligi, shuningdek, pedagogik qo‘llabquvvatlash, o‘quvchilarni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga turtki (motiv) berish, integratsion aloqalar, o‘quv-uslubiy ta‘minot, tashkiliy shakllar va o‘qitish usullaridir. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda uzluksizlik prinsipidan foydalanish bu "ta‘lim dasturlarini moslashtirishga qaratilgan bo‘lib, dastlabki tayyorgarlikdan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limgacha bo‘lgan bosqichlarda muvofiqlashtirishni ta‘minlaydi. Bir o‘quv dasturidan "chiqish" tabiiy ravishda ikkinchisiga "kirish" bilan "bog‘lanish" kerak, deb taxmin qilinadi. Uzluksiz ta‘lim sharoitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun barcha tizimlarning umumiy maqsadlari asosida barcha dasturlarni boshidan oxirigacha standartlashtirish zarur» [5].

mamlakatimiz uzluksiz ta‘lim tizimida joriy etilgan yangi ta‘lim standartlari va fan dasturlari o‘quvchilarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirish va takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq ekanligi sababli istiqbolda katta o‘zgarishlarga olib keladi. Ularning amalga oshishi esa, ta‘lim tizimining asosiy shaxslari – o‘qituvchi va o‘quvchilarning oldilariga qo‘yilgan vazifalarni qanchalik his etishlari, ularni sidqidildan bajarishga intilishlari hamda har bir fan mutaxassisi o‘z fanining kommunikativ jihatini ochib bera olishi bilan uzviy bog‘liq.

**Xulosa** qilib aytganda, tadqiqotda talabalarining rus tilidan kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bu ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhimligi aniqlandi; kommunikativ kompetentlikning talabalarda rivojlanishi boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishlari hamda muloqotchanlik malakalarining takomillashuviga olib keladi, Talaba shaxsida kommunikativ kompetentlikning rivojlanganligi ularda ijtimoiy – hayotiy ko‘nikmalarining tarkib topganligi bilan belgilanadi.

**Adabiyotlar:**

1. Казарцев А.Н. Культура речевого общения: теория и практика обучения: учебное пособие. 2-е изд. – М.: Флинта – Наука, 1999. – С. 496.6.
2. Zaretskaya E.N. Ritorika: nutq aloqasi nazariyasi va amaliyoti / E.N. Zaretskaya. // Case. - M., 1999 yil.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность: Учебное пособие. 2-е изд., стереотипное. – М.: Смысл: Академия, 2005. – 352 с
4. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия / И.А. Зимняя – М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2014.–40 с.
5. Смородинова М.В. Роль компетентностного подхода в системе школьного образования// Молодой ученый. —2010. —№12. Т.2. —С.110-112. — URL <https://molouch.ru/archive/23/2353/> (дата обращения: 26.02.2020)

## TYUTORLAR YORDAMIDA TALABALAR O‘QUV FAOLIYATI JARAYONIGA QIZIQISH VA MOTIVATSIYASINI OSHIRISH

*Mardiyeva Shaxnoza Amirovna,  
Samarqand davlat chet tillar instituti  
Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat  
kafedrasi dotsenti, ps.f.f.d (PhD)  
mardiyevashaxnoza19820111@gmail.com*

*Mazkur maqola tyutorlar yordamida talabalar o'quv faoliyati jarayoniga qiziqish va motivatsiyasini oshirish mavzusini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, maqolada yurtimizda tyutor lavozimining joriy etilishi, uning maqsad va vazifalari keng ochib berilgan. Shuningdek, tyutorlikning tarixiy shakllanishi va bugungi kunda erishilgan natijalar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim, “uy o'qituvchisi”, tyutorlik tizimi, bunyodkorlik g'oyasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, motivatsiya va qo'llab-quvvatlash.

## ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕРЕСА И МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ К ПРОЦЕССУ ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ТЬЮТОРОВ

*Статья посвящена освещению темы повышения интереса и мотивации студентов к образовательному процессу с помощью тьюторов. В статье подробно излагается введение должности тьютора в нашей стране, её цели и задачи. Анализируется также историческое становление тьюторства и достигнутые сегодня результаты.*

**Ключевые слова:** современное образование, «домашний репетитор», система тьюторства, креативная идея, инновационные педагогические технологии, мотивация и поддержка.

## INCREASING STUDENTS' INTEREST AND MOTIVATION IN THE LEARNING PROCESS WITH THE HELP OF TUTORS

*This article is devoted to the topic of increasing students' interest and motivation in the process of academic activity in the tutoring community. The article provides a detailed description of the introduction of the tutor position in our country, its goals and responsibilities. The historical formation of tutoring and the results achieved today are also analyzed.*

**Keywords:** modern education, "home tutor", tutoring system, creative idea, innovative pedagogical technologies, motivation and support.

**Kirish.** Ma'lumki, yaqin yillargacha OTMlarda murabbiylik tizimi asosida ish olib borilardi. Bunda murabbiylik tizimi professor-o'qituvchi xohlasa-xohlamasa majburiy yuklama sifatida akademik guruhlarga birlashtirilgan. Bu majburlov yuklamasidan tashqari, o'qituvchi sifatida o'zining katta mas'uliyati ham turgan. O'qituvchi bir kunda uch para darsi bo'lsa, birlashtirilgan guruhlarga faqatgina tanaffus vaqtida eshikdan mo'ralab yoki guruh sardoridan shunchaki “kim bor, kim yo'q” ligini bilish, “nima muammo bor” deb so'rashdan ko'p uzoqlashmagan. Qolaversa, bu murabbiylik tizimida oylik maoshining 25 foizigacha ustama haq to'lash belgilangan bo'lsa-da, kamdan-kam hollarda 20 foizigacha to'langan, aksariyat hollarda esa ishiga yarasha 5-15 foiz haq to'langan xolos. Bugun ham oliy o'quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi murabbiylar ish olib bormoqda. Biroq endilikda ular guruh murabbiyi emas, balki tyutor maqomida. Tabiiyki, ularning vazifalari ham avvalgilaridan farq qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Davlat buyurtmasi aniq belgilashga qaratilgan ta'lim mazmunidagi ustuvor vazifalarni har bir shaxsdan zamonaviy davlatda talab qilinadigan fazilatlar va ta'lim salohiyatini anglashi lozim. Natijada, ta'lim muassasalarining shtat ro'yxatiga talabalarning shaxsiy ehtiyojlari bo'yicha ishlarni o'z ichiga olgan mutaxassislarni kiritish zarurati paydo bo'ldi. Aynan shu sababli, zamonaviy ta'limni isloh qilishning sezilarli tendensiyalaridan biri yangi ta'lim kasblarining paydo bo'lishi bilan bog'liq Prezidentimizning 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni hamda shu asosida qabul qilingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 30-sentyabrdagi buyrug'i va Nizomi yangicha tizimga asos bo'ldi va ta'lim muassasalari xodimlarida yangi lavozim - tyutor joriy etildi[1].

Tyutor - bu oliy ta'lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazllatlarga ega bo'lgan xodim bo'lib, o'ziga birlashtirilgan guruh talabalarining ta'lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko'maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to'garak va klublarga jalb etish, ta'lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o'rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi. Tyutor talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarining yashash manzillariga muntazam borib, u yerda yaratilgan sharoitlar va talabalarining muammolarini o'rganib borish va ularni yaxshilash choralari ko'rish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Har qanday yangilik kabi bu yo'nalishning ham kelib chiqish tarixi bor. Ko'p manbalarda ta'kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo'lgan. Atama ingliz tilidan olingan va “uy o'qituvchisi, o'qituvchi, murabbiy, vasiy” degan ma'nolarni anglatadi. “Tyutorlik” so'zi insonning shaxsiy ta'limini qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Bu juda nozik, “xususiy” ish faoliyatidir[2]. Rus tadqiqotchisi N.V.Ribalkinaning fikriga ko'ra, XVI asr oxiriga kelib tyutor universitet ta'limi tizimida qo'l ostidagi talabalarining tarbiyasiga mas'ul bo'lgan muhim shaxsga aylanadi. XVII asrda tyutor faoliyati ko'lami yanada kengayib, endilikda unga ta'lim berish vazifalari ham yuklanadi. U talabaga qaysi amaliy mashg'ulot va ma'ruzalarga kirishni aniqlab beradi, talabalar darslarni qoldirmay yaxshi o'qishlari va imtihonlarga tayyor bo'lishlarini nazorat qilib boradi. XVII asrdan boshlab tyutorlik tizimi rasman ingliz oliy ta'limi tizimining ajralmas qismi sifatida tan olina boshlagan.

Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarining tayanchi, fundamenti — ta'limga borib taqaladi. Chunki aynan ta'lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g'oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. U oliy ta'lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarining shaxsiy rivojlanishiga, ta'lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi pedagog bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroflicha echim topish bilan shug'ullanadi. Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo'naltirilgan[3]. Tyutor o'z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta'lim muassasasi ichki tartib va odo-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga rioya etadi. Quyidagilar tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari hisoblanadi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni uyg'unligini samarali tashkil etish; ta'lim muassasasi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- talabalarga ijtimoiy-ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatgan holda o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish va hayotda to'g'ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish;
- ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog'liq masalalarda Jamoat kengashi va mahallaning o'rnini kuchaytirish;
- talabalarining dars mashg'ulotlarini o'zlashtirib borishini tahlil qilish va darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash;
- ularning ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo'lishdan iborat.

Bugungi kun ma'lumotlariga qaraganda, zamonaviy Oksfordda 90 foiz, Kembrijda esa 75 foiz tyutorlar 1 yoki 2 talaba bilan ish olib boradi. Ular maxsus ma'lumotga ega bo'lmasalarda, talabalarga ham o'qish davomida, ham ta'til paytida rahbarlik qilish, ma'nan ustozlik qilish kabi vazifalarga mas'ul. Aniqrog'i, tyutor ishining asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishlash yoki unga ta'lim-tarbiya maslahatchisi bo'lishdan iborat. Tyutorga yetakchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, notiqlik mahorati, muloqatga kirishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha malakaga ega bo'lish, ta'lim-tarbiya jarayoniga doir normativ-huquqiy hujjatlarni bilish kabi bir qator umumiy talablar qo'yiladi. Tyutorlar yordamida talabalar o'quv jarayoniga qiziqishni oshirishning bir nechta asosiy usullari mavjud[4]:

- Shaxsiy yondashuv: Tyutorlar talabalar bilan individual ishlash imkoniyatiga ega bo'lib, har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlari va qiyinchiliklarini inobatga oladi. Shaxsiy yondashuv talabani o'z faoliyatiga qiziqtiradi va o'zgarishlarga undaydi. Masalan, talabalar o'zlarini to'g'ri angelaydi va ular o'zlarining kuchli tomonlarini rivojlantirishi mumkin.
- Motivatsiya va qo'llab-quvvatlash: Tyutorlar talabalar uchun doimiy rag'batlantirish manbai bo'lishi mumkin. Ular talabalarni muvaffaqiyatlarga erishish uchun ilhomlantiradi, qiyinchiliklar bilan

kurashishda yordam beradi va har bir kichik yutug'ini qadrlaydi. Motivatsiya o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi va qiziqarli qiladi.

- Qiyinchiliklarni bartaraf etish: Talabalar o'zlari duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishda tyutorlarning yordamiga muhtoj. Tyutorlar o'quv materiallarini tushunarli tarzda izohlash, savollarni aniq javoblar bilan hal qilish va mashqlarni to'g'ri bajarishda yordam beradi.

- Shaxsiy va akademik rivojlanish: Tyutorlar talabalar bilan faqatgina akademik masalalarda emas, balki shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham ishlaydi. Bu orqali talabalar o'z maqsadlarini belgilash, vaqtni to'g'ri boshqarish va o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradi.

- Interaktiv va innovatsion yondashuvlar: Tyutorlar o'quv jarayonini interaktiv usullarda olib borishi mumkin. Masalan, turli onlayn resurslar, testlar, o'yinlar yoki guruh ishlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini qiziqarli va innovatsion qilish. Bu talabalar o'quv materiallariga nisbatan qiziqishini oshiradi.

- Ijtimoiy muhitni yaratish: Tyutorlar talabalar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Guruhli ishlar va muhokama sessiyalar orqali talabalar bir-birlaridan o'rganib, birgalikda bilimlarini oshirishadi.

3. Yangilikni pedagogik jarayonga tatbiq etish va amalga oshirilgandan so'ng, amalga oshirilgan yangilikdan olingan natijalarni va maqsadni taqqoslash, qaror qabul qilish bosqichida mutaxassislik tayyorgarligini tashxis qilish, qisman pedagogik vaziyatlarni taxlil qilish, tashkiliy faoliyati bilan bog'liq o'yinlar metodlariga asoslangan metodikalar yordamida amalga oshiriladi. Muvofiqliligini baholashda qaror natijalarini ko'rsatuvchi turli son-sifat ko'rsatkichlari qo'llaniladi, ular orasida turli konstruktiv hal etish soni kabi ko'rsatkich asosiy o'rinda turadi[1].

A.S.Djurayevning fikricha, “ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish nazariy va amaliy tavsifga ega bo'lib, ma'lum tavakkalchilikka yo'l qo'yiladigan murakkab jarayondir. Innovatsion ta'limni rivojlantirish yo'lga o'tish oliy ta'lim muassasalari uchun muhim ahamiyatga ega, eng asosiy omil faqat texnik g'oyalarni ishlab chiqish emas, balki jahon mehnat bozori talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash bilan asoslanadi. Bugungi kunda ta'limning yuqori sifatini kasbiy mahoratga ega, o'z-o'zini rivojlantira oladigan, ta'limning ochiq ijtimoiy buyurtmalari doimiy o'zgarib turadigan sharoitda o'zgarishlarga tez moslasha oladigan, o'zining kasbiy ishini yaxshi tushunadigan, doimiy qayta tayyorlash va yangilanishga doim tayyor bo'lishlari talab etiladi”

**Xulosa.** Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhit yaratish. Hozirda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni «o'qishga o'rgatish», va kreativ va tanqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Yangi axborotlarga duch kelar ekan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtainazardan qarashi, undan o'z ehtiyoj va maqsadlari yo'lida foydalana olish imkoniyati to'g'risida xulosa yasay olishlari zarur. Haqiqiy kreativ va tanqidiy fikrlaydigan odam bo'lib yetishish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar ijodiy fikrlab, o'zini sinab ko'rish va bunga oid malakalarni egallashi zarur.

Ta'lim jarayonida kreativ va tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilar bo'lishi kerak: - o'quvchida o'ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish; - bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati; - murakkab muammolarni yechish mahorati; - bahsni dalillab olib borish; - yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati; - qarashar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta'sir qilishini tushunish. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni haqiqatan ham dolzarb muammo haqida fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, mantiqiy jarayonlarni mavhum tarzda o'rganish emas, balki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tezda faol o'ylash jarayoniga kirishishga, uni tajribada amalga oshirishga imkon beradigan uslubiyat eng yaxshi hisoblanadi. Bundan tashqari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni haqiqatda bezovta qiluvchi muammolar haqida so'z borganda tashabbus ularning o'zidan chiqqanda, kreativ va tanqidiy fikrlash yaxshiroq rivojlanadi.

Tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish jarayoni shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish bosqichlarini didaktik integratsiyalash hamda tashkiliy-funksional imkoniyatlarini divergent va konvergent tafakkur shakllariga bosqichma-bosqich adaptiv uyg‘unlashtirish asosida rivojlantirilgan bo‘lib bunda shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish alohida o‘rganilgan.

Kasbiy malaka o‘z tarkibiga kasbiy tajriba, rag‘batlanganlik, shaxsiy sifatlari va boshqa kasbiy xususiyatlarni qamrab olgan integral ta‘limdir. Kasbiy kvalifikatsiya xodim faoliyatining sifati va samaradorligiga bevosita ta‘sir etadi, turli kasbiy vazifalarni bajarish uchun tayyorligi va qobiliyatini ta‘minlaydi. Pedagogik faoliyatda kasbiy standartga quyidagi sohalar bo‘yicha kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda ta‘minlovchi kompetensiyalar kiradi: pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilash; o‘quv faoliyatini asoslash; pedagogik faoliyatda ma‘lumotlar asosini ta‘minlash; pedagogik dasturlar ishlab chiqish va pedagogik qarorlar qabul qilish; ta‘lim faoliyatini tashkil etish demakdir”

**Xulosa.** Rivojlantirish - o‘qituvchilarning berilgan, belgilangan xususiyat va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishlarini ta‘minlovchi maqsadga muvofiq pedagogik ta‘siridir. Yangi sifatlari, jihatlarni egallash o‘qituvchining o‘zi tegishli funksiyalarni bajarishi jarayonida amalga oshadi. Shunga ko‘ra, aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayonda shakllanishi orqali o‘qituvchining professional ta‘lim funksiyalarini va ijtimoiy rolini psixologik- pedagogik hisoblanishdan iboratdir. Demak, rivojlanish bevosita shaxsiy sifatlari da aks etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Djuraev A. S. (2020). Innovatsion ta‘lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish. // Pedagogika va innovatsiyalar jurnali, 15(3), 45-57.
2. Shamov, V. P. (2018). O‘qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish: metodik asoslar. // Pedagogika ilmiy izlanishlari 22(1), 12-22.
3. Mirzaev, R. Sh. (2019). Tanqidiy fikrlash va pedagogik yondashuvlar: nazariy va amaliy jihatlari. // Oliy ta‘limda pedagogik yondashuvlar jurnali, 10(2), 30-42.
4. Xasanov, B. T. (2021). Kreativ fikrlashning boshlang‘ich ta‘limda o‘rni. // Ta‘lim jarayonidagi yangiliklar jurnali, 5(1), 70-84.
5. Gulomova, Z. S. (2020). Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish: boshlang‘ich ta‘limda yangi yondashuvlar. // O‘qituvchining pedagogik rivojlanishi jurnali, 8(3), 55-68.
6. Abdullaeva, D. X. (2019). Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va uning boshlang‘ich ta‘limdagi o‘rni. // Pedagogik mahorat jurnali, 7(4), 43-54.

## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Turopova Maxliyo Erkin qizi,  
Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi  
[turopovamaxliyo026@gmail.com](mailto:turopovamaxliyo026@gmail.com)*

*Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari va ijtimoiy zarurligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini shakllantirishning nazariy masalalarini kreativlik (ijodkorlik) asosida pedagogik ijodkorlikda o‘ziga xos ko‘rinish ekanligini ko‘rishimiz mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ijodkor shaxs, kreativlik, introspeksiya, retrospeksiya, divergent va konvergent.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*В данной статье анализируются педагогические особенности и социальная необходимость развития творческого мышления будущих учителей начальных классов. Также в статье рассматриваются теоретические вопросы формирования профессиональной деятельности будущих учителей на основе креативности, которая представляет собой особую форму педагогического творчества.*

***Ключевые слова:** учителя начальных классов, творческая личность, креативность, интроспекция, ретроспекция, дивергентное и конвергентное мышление.*

## PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING THE CREATIVE THINKING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

*This article analyzes the pedagogical characteristics and social necessity of developing the creative thinking of future primary school teachers. The article also discusses the theoretical issues of shaping the professional activity of future teachers based on creativity, which can be seen as a distinct form of pedagogical creativity.*

***Key words:** primary school teachers, creative personality, creativity, introspection, retrospection, divergent and convergent thinking.*

**Kirish.** Jahonda kasbiy yetuk, intellektual salohiyatli hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ta‘lim muammolari masalalari bo‘yicha butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyada «Barcha uchun butun hayoti davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish» ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodkorligini yanada rivojlantirish, amaliyotda qo‘llashning integratsion tizimini takomillashtirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda innovatsiyalar va ta‘lim texnologiyalari hamda zamonaviy tashkiliy tuzilmalardan foydalanish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonining asosiy bosqichi sifatida ko‘rilayotgan ijodiy kompetentlikni rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassislarining pedagogik mahoratini oshirish va ularning intellektual ijodiy tafakkurini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda ta‘lim muassasalarida ijodiy yondashuvdan foydalanish, ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta‘minotini yaratish, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchining talablarini inobatga olgan holda kasbiy va shaxsiy sifatlarni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda boshlang‘ich ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglar faoliyatining sifatini hamda malakasini uzluksiz oshirish bo‘yicha islohotlar olib borish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning o‘ziga xos tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu borada ijodiy kompetentlikni shakllantirishning elektron monitoring tizimini yaratish, lokal modulli texnologiyalarni tatbiq etish, ijodkorlikni baholash mezonlari va parametrlarini aniqlashtirish, prognostik modellarini tatbiq etishning me‘yoriy asoslari

ishlab chiqilmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish» kabi ustuvor vazifalar va yo’nalishlar belgilangan. Natijada, respublikamizda bo’lajak mutaxassislarning pedagogik faoliyati bo’yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

**Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili.** Oliy ta’lim tizimiida o’qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish R.X.Djuraev, R.G.Isyanov, Z.Yuldashevlar, N.Bayto’rayeva, E.G’oziyev tomonidan tadqiq etilgan.

Kasbiy kompetentlikni rag’batlantirish kognitiv va qadriyatlar sohalarining rivojlanish masalalari G.V.Bragina, V.P.Bespalko, P.Chernyavskaya, Y.N.Shiyanov, S.D.Yakushevalar ilmiy tadqiqot ishlarida o’rganilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxs xususiyatlari va qobiliyatlari, shaxsning ijodiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi tashqi sharoitlar, o’z-o’zini rivojlantirish masalalari Alex Moore, Delemar le Deist, T.Luybard, J.P.Gilford kabi pedagog-psixologlarning tadqiqot ishlarida o’z aksini topgan.

Tadqiqotda pedagogik faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy metodologik yondashuvlari, o’qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ishlanadi. Ushbu tadqiqotning natijalari bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullarni ishlab chiqishga yordam beradi. Tadqiqotning amaliy qiymati o’qituvchilarga ijodiy va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini oshirishda qo’llaniladigan metod va texnikalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Bugungi kunda, pedagogika-psixologiyada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini hal qilishning bir necha yo’nalishlari mavjud.

**Birinchi yo’nalish,** intellektual iste’dodlilik shaxsning ijodiy faoliyati uchun zarur, biroq yetarli shart emasligi haqidagi fikr, da’vo bilan bog’liq. Ijodiy xulq-atvorni aniqlashda motivatsion qadriyatlar va shaxsga xos xususiyatlar asosiy rol o’ynaydi. Ijodkor shaxsning asosiy xususiyatlari qatoriga kognitiv iste’dodlilik, muammolarga nisbatan sezuvchanlik va noaniq va murakkab vaziyatlarda mustaqillik kiradi. Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy faoliyatini shakllantirishning nazariy masalalarini kreativlik (ijodkorlik) asosida pedagogik ijodkorlikda o’ziga xos ko’rinish ekanligini professor N.N.Azizxodjaevaning D.B.Bogoyavlenskayaning tadqiqotlarida ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Olima bo’lajak o’qituvchilarda kreativlik funksiyasini faollashtirish asosida innovatsion faoliyat orqali pedagogik voqelikni to’g’ri his etish, kasbiy bilimlarni shakllantirishda pedagogik refleksiyaning qaror toptirish va pedagogik mahoratni puxta egallash kerakdir deb ta’kidlaydi.

Uning asarlarida intellektual faoliyatning uchta darajasi ochib beriladi: rag’batlantiruvchi-mahsuldor, nofaol (inson ma’lum bir harakat doirasidagina ishlaydi va tashabbus ko’rsatmaydi), evristik (inson harakat usulining yaxshilanish yo’l(lar)ini topadi), kreativ (inson o’z oldiga maqsad qo’yadi: mutlaqo boshqacha harakat usulini topish va bu maqsadda chuqur ichki rag’batlantirish bo’ladi). Insonning kreativ faolligi shaxsning kreativ (ijodkorlik) turiga xos muayyan psixik tuzilishi bilan belgilanadi. Olima ijodiy iste’dodni har qanday faoliyatni eng yuqori darajada bajarish va uni faoliyat subyekti tashabbusi bilan rivojlantirish xususiyati sifatida belgilaydi. Bu nazariy yondashuvning bizning tadqiqotimiz uchun ham muhim bo’lgan amaliy xulosa, natijasi bor: ijodiy kompetentlikni rivojlantirish haqida gap ketganda, ishni faqat qo’shimcha dasturlar va o’qitish metodikalarini tayyorlash bilan cheklab bo’lmaydi. Ishonchimiz komilki, ta’lim o’qituvchi va talabaning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo’naltirilsa, faoliyatning ichki rag’batlantirilganini, shaxsning yo’naltirilganligi va ijodiy kompetentlikka asos yaratuvchi qadriyatlar tizimini rivojlantirishga sharoit yaratish zarur[4].

**Ikkinchi yo’nalish** vakillari B.R.Adizov, Sh.Pozilova, A.Dj.Rou, J.Gilford, A.Disterverg. Ya.A.Ponomarevlar ijodiy tafakkurni intellektga bog’liq bo’lmagan mustaqil omil, deb hisoblashadi.. Bu yondashuvda intellekt aql darajasi bilan kreativlik darajasi orasida korrelyatsiya mavjudligiga urg’u beriladi. J.Gilfordning eksperimentlarida intellekt aql va kreativlik darajasi o’rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiyani aniqlangan. Intellekt koefitsiyenti o’rtacha qiymatlardan yuqori bo’lganda kreativlik intellektga bog’liq bo’lmagan mustaqil omilga aylanadi. Ana shu faktlar asosida har bir psixik jihatdan normal insonda muayyan ijodiy salohiyat mavjud bo’ladi va uni iloji boricha erta davrlarda rivojlantirish zarur degan xulosalar chiqariladi. Bunda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining ijodiy va kasbiy faoliyatining tafakkurini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish orqali tadqiqot ishimizning dastlabki jarayoniga asosiy fikr, mulohaza, qoida zarurdir[1].

Tadqiqotchi J.Gilfordning fikricha, ijodiy fikrlash tafakkur boyligi, vaqt birligida ko’p sonli yangi g’oyalarni o’ylab topish, ishlab chiqarish qobiliyati; sharoitga qarab moslashuvchan tafakkur bir

vazifadan boshqasiga o‘tishning tezligi; boshqalarga o‘xshamaslik, bevosita bog‘lanmagan aloqadorliklarni ishlab chiqish, g‘ayrioddiy javoblar berish, nostandart yechimlar topish; ijodiy fikrlash quyidagi parametrlar bilan xarakterlanadi: tafakkur boyligi (vaqt birligida ko‘p sonli yangi g‘oyalar o‘ylab topish, ishlab chiqarish qobiliyati); sharoitga qarab moslashuvchan tafakkur (bir vazifadan boshqasiga o‘tishning tezligi); boshqalarga o‘xshamaslik (originallik), bevosita bog‘lanmagan aloqadorliklarni ishlab chiqish (o‘ylab topish), g‘ayrioddiy javoblar berish, nostandart yechimlar topish; qiziquvchanlik; farazlarni (gipotezalarni) ishlab chiqish qobiliyati; javob reaksiyasining rag‘batdan (stimuldan) mantiqiy mustaqil bo‘lishi; rag‘bat va javob reaksiyasi orasida muayyan (aniq) aloqadorlik mavjud bo‘lganda, javobning voqelikdan uzilganligi.

Ijodiy fikrlashning sanab o‘tilgan parametrlari Gilfordning kub modelining bir qismi bo‘lib, olim divergent fikrlashni umumiy ijodiy qobiliyat sifatida kreativlikning asosi deb hisoblagan. Bunday fikrlashda muammoni hal qilishning turli yo‘llarini izlash imkoni bo‘ladi va kutilmagan xulosalar va natijalarga olib keladi. Divergentlik - «turli yo‘nalishlarda fikrlash qobiliyati», kengroq «makonga» chiqishning qidirilayotgan hodisasiga mos keladi. Ijodiy faoliyatning muvaffaqiyati fikrlashning ikki turi – divergent va konvergent fikrlashning maxsus birga kelgan kombinatsiyasini ta‘minlaydi. Divergentlik tafakkur qidiruv faoliyati obyektiga nisbatan tashqi hisoblangan ma‘lumotlarni olish va tahlil qilish natijasida shu obyekt haqida ko‘plab va bir xil to‘g‘ri bo‘lgan g‘oyalar majmuini ilgari surishga tayyorligida namoyon bo‘ladi. Konvergent fikrlash ma‘lumotlarni tadqiqotning asosiy maqsadiga bo‘ysunuvchi yaxlit tuzilmaga (strukturaga) birlashtirish imkonini beradi. Bunda kreativlik orqali shaxsning yuqori darajasini boshqa fazilatlariga: tasavvur, fantaziya, yuqori emotsionallik, tafakkur, fikrlashning mustaqilligi, ongning qabul qila olish jarayonida tajriba va bilimlarga bog‘liq bo‘ladi. Bizning tadqiqotimizda oliy ta‘lim muassasalarida kasbiy faoliyat sharoiti orqali ijodiy fikrlashning sifati va xususiyatlarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz[4].

Ijodkor shaxsni rivojlantirish muammosini hal qilishning **uchinchi yo‘nalishi** tadqiqotchi D.B.Bogoyavlenskayaning konsepsiyasiga ko‘ra, intellekt yangi vazifalarni hal qilish, va harakatlarni avtomatlashtirishda ishtirok etadi. Tashqi olamga nisbatan intellektual aqliy xulq-atvor tashqi muhitga moslashishda, uning turini tanlashda yoki uni o‘zgartirishda ifodalanishi mumkin. Agar inson uchinchi turdagi munosabatlarni amalga oshirsa, u ijodiy xulq-atvorni namoyon qiladi.

Inson ijodiy xulq-atvorining asosiy xususiyati ijodiy faollikdir. Bunday faollik mas‘uliyat hissi, tadbirkorlik, qat‘iyat, tashabbuskorlik, maqsadga intilganlik, iroda, mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi xislatlar bilan birga namoyon bo‘ladi.

**Introspeksiya** - bu shaxs tomonidan o‘z faoliyatining momentlarini: individual fikrlar, tasvirlar, his-tuyg‘ular, tajribalar, ongning faoliyati sifatida fikrlash harakatlari, ongni shakllantirish va boshqarishlarni chuqur o‘rganish va bilish usuli.

**Retrospeksiya** (lotin tilidan, retro – orqaga va specto – qarash). O‘tmishga qaytish, o‘tmishdagi voqealarni hisobga olish; retrospektiv qarash - o‘tmishga nazar, o‘tgan voqealarni ko‘rib chiqish tushuniladi.

Tadqiqotimiz doirasida pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilganimizda faoliyat tushunchasi ikki ma‘noda qo‘llanilishi aniqlandi. Jumladan: birinchidan bir harakatning bajarilishi bilan bog‘liqligi qaralsa, ikkinchidan faollik shaxs xususiyati sifatida qaralgan. T.G. Abdullina, G.S.Altshuller, N.A.Stepanenko kabi olimlar ijodiy faoliyatni bir vaqtning o‘zida shaxsning o‘zi va uning faoliyatiga xos bo‘lgan, ehtiyojlar, rag‘batlar, qiziqishlarning maqsadga yo‘naltirilgan birligida ifodalangan va ijodiy vaziyatlarni ongli tarzda izlash bilan tavsiflanadigan barqaror birlashtiruvchi sifat deb hisoblaydi. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosini tadqiq qilishimiz uchun juda muhim xulosadir.

**Natijalar** quyidagilardan iborat:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy tafakkurini rivojlantirishning metodik ta‘minoti rivojlantirilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish tizimi tarkibiy qismlari aniqlashtirilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning samarali metod, shakl va vositalari hamda uning aloqadorlik va izchillik tamoyillari aniqlangan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar to‘plami ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** muammoga pedagogik- psixologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda ta‘lim sohasidagi respublika, chet el olimlari ishlariga asoslanganligi; ilmiy tadqiqot ishining vazifalariga mos keluvchi, bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi; tajriba-sinov ishi bo‘yicha olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida ishlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda mustaqil ta‘lim faoliyati tushunchasi haqidagi ilmiy ma‘lumotlar, tasavvurlarga aniqlik kiritish; ilmiy psixologik-pedagogik adabiyotlarda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tafakkuri strukturasi ijodiy kompetentlikning tarkibiy qismlarining nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil qilishga doir ustuvor yo‘nalishlarni aniqlaganlik bilan belgilanadi.

**Munozara.** “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari” mavzusi zamonaviy ta‘lim tizimida juda dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik jarayonlarning sifatini oshirish, o‘qituvchilarning ijodiy tafakkurlarini rivojlantirish orqali ta‘limning samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Shu bilan birga, bu masala yuzasidan turli nuqtayi nazar va fikrlar mavjud.

1. **Ijodiy tafakkur va uning ta‘limdagi ahamiyati.** Bir tomondan, ijodiy tafakkur – bu shunchaki yangi g‘oyalarni yaratish yoki yangi yechimlar topish emas. Bu, avvalo, masalalarga yangicha yondashuvni, o‘z fikrini mustaqil ifodalashni va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishni talab qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy tafakkurga o‘rgatish, ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Biroq ba‘zi mutaxassislar ijodiy tafakkurni faqat nazariy jihatdan rivojlantirishning kamchiliklarini ko‘rsatadilar. Ular, ta‘lim tizimida o‘qituvchilarni faqat ijodiy yondashuvlarga o‘rgatishning amaliy ahamiyatini past baholashadi. Ularning fikriga ko‘ra, o‘qituvchilarga ijodiy tafakkurni rivojlantirishda, nazariy bilimlardan ko‘ra, amaliy mashg‘ulotlar va real sinf sharoitida tajriba orttirish muhimroqdir.

2. **Pedagogik metodlar va texnikalar.** Ikkinchi nuqtada, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy tafakkurga o‘rgatish uchun qanday metodlar va texnikalar samarali ekanligi masalasi muhokama qilinadi. Pedagogik jarayonda innovatsion metodlarni qo‘llash, ijodiy tafakkurni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko‘riladi. Yangi texnologiyalar va interaktiv o‘qitish metodlari o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ba‘zi pedagoglar bu metodlarning amaliyotda qo‘llanilishi har doim ham samarali bo‘lmasligini ta‘kidlashadi, chunki bunday metodlar ko‘pincha o‘qituvchilarning tayyorligi va o‘quvchilarni qamrab olish darajasiga bog‘liq.

3. **Pedagogik amaliyot va eksperimentlar.** Yana bir muhim nuqta – pedagogik amaliyot va eksperimental tadqiqotlar asosida o‘qituvchilarning ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishning samaradorligi haqida munozara. Tadqiqotda olib borilgan eksperimentlar o‘qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradigan metodlar va texnikalarni takomillashtirishga qaratilgan. Biroq, ba‘zi fikrlar shundaki, amaliyot va eksperimentlarning yuqori samaradorligi o‘qituvchilarning shaxsiy pedagogik uslublariga ham bog‘liq. Har bir o‘qituvchi o‘zining pedagogik yondashuvini shakllantirishda individual tafakkur tarziga egadir, shuning uchun ba‘zi metodlar har bir o‘qituvchi uchun ham samarali bo‘lmasligi mumkin.

4. **Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda individual yondashuv.** Pedagogik jarayonda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda individual yondashuvning ahamiyati ham muhokama qilinadi. O‘qituvchilarni ijodiy tafakkurga o‘rgatishda, har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari va intellektual darajasi hisobga olinishi kerak. Shuningdek, o‘qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda jamoaviy ishning ahamiyati ortib bormoqda, chunki guruhda fikr almashish va bir-birining fikrlariga tayanish o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini kengaytiradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari haqida olib borilgan munozara, bu jarayonning ta‘lim tizimida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Biroq, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik metodlar, texnikalar, amaliyotlar va individual yondashuvlarning uyg‘unligi zarur. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, shuningdek, amaliyotda ko‘nikmalarni shakllantirishga ham katta e‘tibor qaratishni talab etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU, 2003. – 174 b
2. Abdullaeva M. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida iqtidorli bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning hamkorlik mexanizmini takomillashtirish.: Avtoref. dis. ... ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. – Toshkent, 2017. – 50 b.

3. Abduraimova G.O. «Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini texnologiya fanini oʻqitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish». Avtoref. diss. ped. fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) Toshkent. 2020 y.

4. Adizov B.R. Boshlangʻich taʼlimni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Avtoref. diss... ped. fan. dok. – Buxoro, 2003. – 44 b.

5. Allambergenov A.J. Umumiy oʻrta maktabi oʻquvchilarida kasbiy- texnologik kompetentlikni rivojlantirish.: Avtorefer. Dis.... ped fan. boʻyicha fal. Dok. –Nukus, 2020. -52 b.

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM

### BOLALARDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING SHAKLLANISHI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Almardanov Jo‘rabek Bobonazarovich,  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi*

*Mazkur aksiologik yondashuv asosida bolalarda kommunikativ sifatlarni shakllantirish mavzusidagi maqolada bolalarda kommunikativ sifatlarni shakllantirish bo‘yicha shu kungacha insoniyat yaratgan pedagogik usullar va ularning ahamiyatini ochib beradi. Maqolada asosiy e‘tibor bolalar ijtimoiy rivojlanishining asosini tashkil etuvchi kommunikativ xususiyatlarni shakllantirishda aksiologik yondashuvning mazmunini yoritishga qaratilgan. Bolalarda kommunikativlik bilan bog‘liq sifatlarni shakllanishda ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning mehr-muhabbati, shirin so‘zi orqali shakllanishi, bu esa, o‘z navbatida, qadriyatlar asosida kommunikativ sifatlarni tarbiyalash imkoniyati mavjudligi haqidagi fikrlar ifodalangan.*

***Kalit so‘zlar:** kommunikativ, muloqot, kommunikativ sifat, tarbiya, bolalar, nutq, so‘zlashuv, munosabat.*

### ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ В КАЧЕСТВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРОБЛЕМЫ

*На основе данного аксиологического подхода в статье о формировании коммуникативных качеств у детей раскрываются педагогические методы и их значение, созданные к настоящему времени человечеством для формирования коммуникативных качеств у детей. Основное внимание в статье направлено на освещение содержания аксиологического подхода в формировании коммуникативных особенностей, составляющих основу социального развития детей. При формировании качеств, связанных с общением, у детей первые понятия и представления о жизни формируются прежде всего через любовь и ласковое слово родителей в семье, и высказывается мнение, что есть возможность воспитывать коммуникативные качества, основанные на ценностях.*

***Ключевые слова:** коммуникативность, общение, коммуникативные качества, воспитание, дети, речь, разговор, отношение.*

### THE FORMATION OF COMMUNICATIVE QUALITIES IN CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*Based on this axiological approach, the article on the formation of communicative qualities in children reveals pedagogical methods and their significance created by mankind to date for the formation of communicative qualities in children. The main attention in the article is directed to highlight the content of the axiological approach in the formation of communicative features that form the basis of children's social development. When forming qualities associated with communication, children's first concepts and ideas about life are formed primarily through love and kind words of parents in the family, and the opinion is expressed that it is possible to cultivate communicative qualities based on values.*

***Keywords:** communicativeness, communication, communicative qualities, education, children, speech, conversation, attitude.*

**Kirish.** Jahon miqiyosida ta‘lim tizimida ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar yoshlar uchun yangi, hayotiy qadriyatlarni, ularni ta‘lim-tarbiya jarayoniga kiritish yo‘llarini izlash jarayonlarimi yangi bosqichga olib chiqmoqda. Pedagogikada aksiologiya pedagogik hodisalar va ularning taraqqiyotini tahlil qilishda uslubiy yondashuv sifatida qaralishi madaniy inqirozni bartaraf etish va shaxsning qadriyatlar sohasini rivojlantirish muammolarini hal qilishga xizmat qilishi tan olinmoqda. Ta‘lim-tarbiya jarayonida bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini aksiologik yondashuv markaziy tushuncha sifatida qadriyatli munosabatlarga xos voqelik shu nuqtayi nazardan, rivojlanayotgan shaxsning yaxshi va yomoni, haqiqat va xatoni, go‘zal

va xunukni va boshqa shaxs ma'naviyatiga dahldor bo'lgan voqelikni farqlashi asosida munosabatlarni o'rnatish kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish dolzarbdir.

Jahonda tarbiyalanuvchilar kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishda aksiologik yondashuv ta'lim va tarbiyaning an'anaviy va yangi qadriyatlariga asoslangan zamonaviy ustuvorliklar orqali insonning pedagogik tizimdagi markaziy o'rnini ta'kidlash imkonini beruvchi tizimli-qadriyatli yondashuvdir sifatida bolalarda shaxsiy, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishi e'tirof etiladi. Maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilinayotgan ta'lim standartlari bola ta'lim jarayonining obyektini emasligini, balki faol sub'ekt ekanligini ko'rsatadi va shu asosda maktabgacha yoshdagi bolani o'z vaqtida va to'liq ijtimoiylashtirish muhimligi ta'kidlanmoqda. Aksiologik yondashuv asosida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish asosini bola hayoti, ta'limiy va tarbiyaviy qadriyatlarni anglash va ulardan foydalanishga yo'naltirishni tashkil etib, har bir tarbiyalanuvchiga o'ziga xos potentsialni maksimal darajada amalga oshirishga yo'naltirilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi va munosabatlari masalasiga alohida pedagogik muammo sifatida qaralib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida qadriyatlarning etukligi ularga kerakli qadriyatlarni o'zlashtirishi va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarning samaradorligini, boshqalardan o'rnak olish va o'zini maqsadli rivojlantirishga moyilligini belgilovchi asosiy mezon deb baholanadi. 08.05.2019- yilda qabul qilingan “O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi” da maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan bo'lib, mamlakatimizda ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga etishida tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlarini boshqarish aksiologik jihatdan to'g'ri yo'naltirilgan ota-ona va murabbiylarga bog'liq bo'lib qoladi va bu zamonaviy pedagogik jarayonda tasodifiy emas, balki tizimli va maqsadli masalaga aylanishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Inson tug'ilgandanoq jamiyatning bir bo'lagi sifatida turli ijtimoiy jarayonlarda inson uchun ijtimoiy aloqalarning ahamiyati shubhasiz bo'lsada, ichki ehtiyojning kuchli bosimi bilan ishtirok etadi [6]. Shaxsning atrofdagi ijtimoiy muhit bilan har tomonlama aloqani o'rnatish va munosabatlarni oshirish ehtiyoji o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki u yoki bu maqsadli sa'y-harakatlariga qarab, tanish bilishlar, jumladan, o'qituvchilar, qarindoshlar, tengdoshlar va do'stlarning ta'siri asosida keng diapazonda rivojlanadi. Tadqiqotlar aynan maktabgacha yoshda shakllangan kommunikativ xulq-atvor madaniyati bolaga jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ko'rsatmalarni idrok etish va o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bola ta'lim jarayonining obyektini emasligini, balki faol sub'ekt ekanligini ko'rsatadi va shu tariqa maktabgacha yoshdagi bolani o'z vaqtida va to'liq ijtimoiylashtirish masalasi paydo bo'ladi.

Zamonaviy tushunchadagi pedagogik amaliyot va ilmiy tadqiqotlar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining uyg'un va adekvat shaxslararo munosabatlarni o'rnatishlari orqali ijtimoiy jarayonlarga qo'shilishi muammosini hal qilishni talab qilmoqda. Ularning boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni to'g'ri tashkil etish orqali bola eng muhim ijtimoiy tajriba va muloqot ko'nikmalariga ega bo'ladi, bu esa ijtimoiy ta'sirotlarni qabul qilish, o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga yengil va tez moslashish, voqelikni oson o'zlashtirish, yuzaga keladigan ijtimoiy qiyinchiliklar ijodiy hal qila olish, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha samarali kommunikativ faoliyatiga yordam beradi.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Shaxsning kommunikativ sifatlarini rivojlantirish uchun pedagogik ta'sirni kuchaytirishga sezitivlik nuqtayi nazaridan maktabgacha yoshdagi bolalar eng muhim natijalarni ko'rsatadilar shu tufayli tarbiyachilarning ushbu yo'nalishdagi faoliyatlarini o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirishlari kelajakda bolaning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslasha olishining kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsning kommunikativ sifatleri - bu shaxslararo o'zaro munosabatlar sohasidagi bilim, qobiliyat, ko'nikma, hissiy va ijtimoiy tajribaga asoslangan muloqot qilish qobiliyati bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida odamlarga qadriyatli yondashuv asosida shakllanadi. Shaxsning muloqot ko'nikmalari, shuningdek, uning samaradorligi yoki samarasizligiga ta'sir qiluvchi individual barqaror shaxsiy xususiyatlar shaxsning kommunikativ sifatlarini tashkil etadi va ular shaxsning jamiyatdagi muvaffaqiyati ko'proq kommunikativ ko'nikmalari va qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Bolalarda kommunikativ sifatlarini shakllantirish muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, asosan, uning individual jihatlariga qaratilgan bo'lib, mazkur pedagogik fikrning hozirgi holatini ko'proq katta maktabgacha yoshdagi bolalarga e'tibor berilgan, o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini O.V.Zashirinskaya, I.Y.Medvedeva, L.F.Obuxova [5], maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari D.N.Isaev, I.S.Ismoilova [2], kabilar tomonidan o'rganilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasida tadqiqotchilar asosiy e'tiborni bolalar nutqi rivojlanishini davrlashtirish va hozirgi darajaning me'yoriy darajaga muvofiqligi xususiyatlarinmasalalariga qaratganlar. Ma'lumki, mazkur yosh davrida nutq turli harakatlar orqali rivojlanadi. Jumladan, o'yin faoliyati maktabgacha yosh davrda nutqning rivojlanishida yetakchi o'rinni egallaydi va u bolaning kommunikatsiyalarini qurish bilan bog'liq g'oyalari va ko'nikmalarini shakllantirish va kengaytirish imkonini beruvchi juda istiqbolli vosita bo'lib hosoblanadi.

Maktabgacha yoshda bolalar tomonidan og'zaki nutq faol o'zlashtiriladi, fonetika, lug'at va grammatik tuzilma rivojlanadi, eng muhimi, ayni davrda shakllangan nutq tajribalaridan keyingi hayoti davomida erkin foydalanadi. Mazkur yosh davri nutqni rivojlantirish nuqtayi nazaridan eng sezitiv davp hisoblanib, ona tilini o'zlashtirish orqali kommunikativ sifatlar rivojlanadi. Shuningdek, bolalarda axloqiy va estetik g'oyalarni shakllantirishga, ularning intellektual sohasini rivojlantirishga, narsa va hodisalarga, atrofdagilarga va odamlarga nisbatan qadriyatli munosabatlarning yuzaga kelishiga imkon beradi.

Tadqiqotchi S.V.Kaxnovich fikricha o'yin faoliyati davomida odamlarning faoliyati, ularning obyektlarga va bir-biriga bo'lgan munosabatlari bolani ayniqsa o'ziga jalb qiladi va o'yin orqali bolalar atrofda ro'y berayotgan voqealarning ushbu jihatini taqlid qilish orqali takrorlaydilar. Ayniqsa, rolli o'yinda bola kattalar bilan umumiy hayot kechirish istagini namoyon etadi va bu hayotda real sodir bo'lmasada, u bolani butunlay chulg'ab oladi va xayoliy emas, balki uning haqiqiy hayotida ro'y berayotgandek tuyuladi. Shu nuqtayi nazardan, har qanday o'yinning markaziy nuqtasi kattalar faoliyatini va ularning munosabatlari takrorlashdan iborat bo'ladi [4].

“Bolalarning faoliyati nafaqat mazmuni bilan, balki, bolalar va kattalar o'rtasidagi munosabatlarda, u yoki bu faoliyatda kattalar ishtirok etadigan shaklda farqlanadi hamda bolalar va kattalar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish jarayonida va maktabgacha yoshdagi bolalar uning faoliyatining quyidagi turlarini farqlash mumkin bo'ladi: - motivlar bo'ysunishining paydo bo'lishi va rivojlanishi; - axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish; - ixtiyoriy xulq-atvorni rivojlantirish; - shaxsiy ongni shakllantirish. Shularga muvofiq o'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat sifatida baholanadi.” –deb ta'kidlaydi. T.C.Комарова. Shuningdek, o'yin davomida, yuzaga keladigan xayoliy vaziyat bolaga ramziy fikrlash kabi ba'zi xayoliy rejalar bolaning o'z g'oyalari rejasini shakllantirish orqali ularda butun o'yin faoliyati davomida kommunikativ sifatni rivojlantirishga imkon berishini e'tirof etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ sifatlarni shakllantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotimizda katta guruhdagi tarbiyalanuvchilarda qadriyatli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlardan foydalandik. Dastlab tarbiyalanuvchilarning kommunikativ sifatlarini aniqlash maqsadida “Men” informativ texnikasidan foydalandik. Bolalarga “Men” dan boshlab o'zini tanishtirish topshirig'i beriladi va tarbiyalanuvchilarning o'zini tanishtirish jarayonida uning nutqi, o'zini tutishi, so'zlardan aniq va to'g'ri foydalanishi, fikrini nutq orqali keng bayon etishi, muhim qadriyatlar bilan bog'lashi kabilardan foydalanib tuzilgan mezonlar asosida 10 ballik tizimda baholanadi.

1- jadval.

“Men” informativ texnikasining baholash mezonlari

Baho ballil	Kommunikativ sifatlar shakllanganlik darajasi	Mezonlar
8-10 ball 6	Juda yaxshi	Agar bola o'zini tanishtirishda ism-sharifi, yoshi, oilasi, kimning farzandi ekanligi, ota-onasi va ularga munosabati, millati, yashayotgan hududi, qiziqishlari, o'zi boradigan maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT), tengdosh do'stlari, tarbiyachilari, ularga munosabati kabilari haqida va chiroyli, mazmunli, ifodali so'zlab bera olsa.
7-5 ball 11	Yaxshi	Agar bola o'zini tanishtirishda ism-sharifi, yoshi, oilasi, kimning farzandi ekanligi, ota-onasi va ularga munosabati, qiziqishlari, o'zi boradigan maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT), tengdosh do'stlari, tarbiyachilari haqida mazmunli, ifodali so'zlab bera olsa.
4-3 ball (13)	O'rtacha	Agar bola o'zini tanishtirishda ism-sharifi, yoshi, kimning farzandi ekanligi, ota-onasi, yashayotgan hududi, qiziqishlari, tengdosh do'stlari kabilari haqida tushunarli qilib so'zlab bera olsa.
2-1 ball (11)	Past	Agar bola o'zini tanishtirishda ism-sharifi, ota-onasi, qiziqishlari haqida so'zlab bera olsa.
0 (5)	Juda yomon	Agar bola o'zini tanishtirishda ism-sharifi, bilan cheklansa

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** “Men” informativ texnikasi bilan katta yoshdagi 46 nafar tarbiyalanuvchilar bilan olib brogan tadqiqotimiz jarayonida tarbiyalanuvchilarda kommunikativ sifatlar shakllanganlik darajasi turli darajaga ega ekanligini guvohi bo‘ldik. Birinchi diagnostik bosqichda 34,8 % tarbiyalanuvchilarning kommunikativ sifatlar shakllanganlik darajasi past va juda yomon darajani ko‘rsatdi.

Rivojlantiruvchi tadqiqotlarimizda “Charos kim?” munozara mashqidan foydalanildi. Ushbu mashqmimg maqsadi bolalarda o‘zi haqida kengroq ma’lumot berishga o‘rgatish orqali o‘zini tanishtirish ko‘nikmalarini tarkib toptirish yo‘li bilan ularda kommunikativ sifatlar shakllanish darajasini oshirishdan iborat edi. Ushbu mashqda birinchi diagnostik bosqichda o‘rtacha, past va juda yomon darajani ko‘rsatgan 26 nafar tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar.

Bolalar bilan 3 ta seriyadan iborat “Charos kim?” munozara mashqi o‘tkazildi,

1-seriyada tarbiyachi tomonidan odam boshqalarga o‘zini qanday tanishirishi haqida umumiy ma’lumot berib, bergan fikrlari bo‘yicha 26 nafar tarbiyalanuvchilarning har biriga misollar keltirib, ularda tasavvurlar shakllantirildi.

2-seriyada “Charos kim?” mavzusida og‘zaki munozara tashkil etildi. Namuna sifatida Charos ismli qiz haqida tarbiyalanuvchilarga tartibli tanishtirib, uning ism-sharifi, yoshi, oilasi, kimning farzandi ekanligi, ota-onasi va ularga munosabati, millati, yashayotgan hududi, qiziqishlari, o‘zi boradigan maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT), tengdosh do‘stlari, tarbiyachilari, ularga munosabati kabilar haqida mazmunli, ifodali so‘zlab berildi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarga “Charos kim?” mavzusida ovozli video ko‘rsatildi va bolalarga keyindi uchrashuvda o‘zlari haqida “Men” informativ texnikasidan foydalanib tanishtirishga tayyorgarlik ko‘rib kelish topshirig‘i berildi.

3-seriyada barcha tarbiyalanuvchilar bilan “Men” informativ texnikasi qayta otkazildi va natijalar tahlil qilindi.

2- jadval.

“Men” informativ texnikasi mashqi ko‘rsatkichlari

Baho ballik	Kommunikativ sifatlar shakllanganlik darajasi	1-diagnostik bosqich natijalari son va foizlarda	1-korreksiya dan keying bosqich natijalari son va foizlarda
8-10 ball	Juda yaxshi	6 / 13%	14 / 34,4%
7-5 ball	Yaxshi	11 / 24%	17 / 36,9%
4-3 ball	O‘rtacha	13 / 28%	11 / 24%
2-1 ball	Past	11 / 24%	4 / 8,7%
0	Juda yomon	5 / 11%	0

**Xulosa.** Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishda qadriyatli yondashuv ta’lim va tarbiyaning an’anaviy va yangi qadriyatlariga asoslangan zamonaviy ustuvorliklar orqali bolalarning pedagogik tizimdagi markaziy o‘rnini ta’kidlash imkonini beruvchi vosita sifatida bolalarda shaxsiy, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachilarda kommunikativ sifatlar shakllanganlik darajasini maxsus diagnostik usullar bilan aniqlash va samarali ta’sir ko‘rsatuvchi rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish ijobiy samara berish bizning tadqiqotlarimizda o‘z aksini topdi. Tadqiqotimizda qo‘llanilgan “Men” informativ texnikasi nafaqat tarbiyalanuvchilarining kommunikativ qobiliyatini aniqlash balki, ularning o‘zini anglashi o‘ziga va boshqalarga nisbatan qadriyatli munosabatini shakllanishiga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Захарюта Н.В. Возможности и пути развития творческого потенциала личности детей дошкольного возраста // Вестн. Адыгейского гос. ун-та. Сер. 3.: Педагогика и психология. 2013. №4. С. 225-233.
2. Исмаилова И.С. Психологические особенности развития коммуникативной сферы у дошкольников: монография. Армавир: АГПА, 2015. 187 с.
3. Комилова Д.А. Мактабгача ёшдаги болаларда коммуникатив компетенцияни шакллантиришга оид назариялар. // Замоновий таълим. 2021 й.
4. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях современного образования: пособие для психологов и педагогов. М.: ВЛАДОС, 2013. 143 с.
5. Морозова В.В. Педагогическая работа с детьми дошкольного возраста: учеб.-метод. пособие. М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2015. 48 с.
6. Шапанько Е.Б. Взаимосвязь свойств темперамента и межличностных отношений в дошкольном возрасте: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 19.00.07 / Е.Б. Шапанько. Новосибирск, Новосибирский гос.пед.университет, 2016. 24 с.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING KOGNITIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Matberdieva Yulduz Bayramdurdievna,  
Nukus innovatsion instituti assistenti*

*Ushbu maqolada kognitiv fikrlash o‘quvchilarning bilim olishga doir jarayonlarni o‘z ichiga olgan sezish, mulohaza qilish va xulosa chiqarish qobiliyati sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kognitiv fikrlash ko‘nikmalari diqqat, xotira, o‘ylash va tasavvur singari aqliy jarayonlarni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi haqida so‘z boradi. O‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol ta‘lim metodlari va didaktik o‘yinlar, muammoli ta‘lim, suhbat va munozaralar, loyiha faoliyatlari, vizual va amaliy topshiriqlar, individual yondashuvlar va metodlar tavsiya qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** kognitiv fikrlash, diqqat, idrok, xotira, tasavvur, fikrlash, vizual-majoziy fikrlash, vizual xotira.*

## РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ КОГНИТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*В данной статье когнитивное мышление рассматривается как способность учащихся воспринимать, рассуждать и делать выводы, включающая в себя процессы приобретения знаний. Также сказано, что навыки познавательного мышления у учащихся начальных классов реализуются посредством развития психических процессов, таких как внимание, память, мышление и воображение. Для развития познавательных способностей учащихся рекомендуются интерактивные методы обучения и дидактические игры, проблемное обучение, беседы и дискуссии, проектная деятельность, наглядные и практические задания, индивидуальные подходы и методы.*

***Ключевые слова:** познавательное мышление, внимание, восприятие, память, воображение, мышление, наглядно-образное мышление, зрительная память.*

## DEVELOPMENT OF COGNITIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AS AN ACTUAL PEDAGOGICAL PROBLEM

*In this article, cognitive thinking is considered as the ability of students to perceive, reason and draw conclusions, which includes the processes of acquiring knowledge. Also, it is said that cognitive thinking skills in elementary school students are implemented through the development of mental processes such as attention, memory, thinking and imagination. Interactive educational methods and didactic games, problem-based learning, conversations and discussions, project activities, visual and practical tasks, individual approaches and methods are recommended for the development of students' cognitive abilities.*

***Keywords:** cognitive thinking, attention, perception, memory, imagination, thinking, visual-figurative thinking, visual memory.*

**Kirish.** Jahondagi zamonaviy ta‘lim standarti o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, axborot jamiyati talablariga javob beradigan individual xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga doir muayyan talablarni belgilaydi. Belgilangan talablar asosi ta‘lim tizimini tashkil etuvchi komponent sifatida ta‘limning samarali natijalariga qaratilgan faoliyatli yondashuv tizimi bo‘lib, bunda o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan boshlab shaxs sifatida dunyoni bilish va o‘zlashtirishga asoslangan holda rivojlantirishdir. Zero, inson o‘z hayoti davomida doimo muammolarga, har xil vaziyatlarga duch keladi. Ushbu muammolarni hal qilish faqat kerakli ma‘lumotlarni qidirib topish orqali amalga oshiriladi. Kerakli ma‘lumotlarni va bilimlarni izlab topish, ularni amalda qo‘llash insonning kognitiv fikrlash ko‘nikmalari tufayli yuzaga keladi.

“O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham o‘quvchilarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan boshlab o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan sog‘lom, kuchli va ta‘sirchan motivatsiyani shakllantirish kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan [1]. Chunki, kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini (diqqat, idrok, xotira, fikrlash) rivojlantirish bo‘yicha maqsadli vazifalarni bajarmasdan dunyoni va o‘zini anglashga intiluvchi shaxsni shakllantirish mumkin emas.

**Adabiyotlar tahlili.** Insonning kognitiv qobiliyati samarali hayoti uchun asos bo‘lgan shaxsiy fikrlash ko‘nikmalari hisoblanadi. V.Drujinin [3] va V.Maslennikov [4]larning fikrlariga ko‘ra, kognitiv qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi insonning hayotdagi keyingi yutuqlari va muvaffaqiyatlariga bevosita ta‘sir qiladi. Haqiqatan ham, kognitiv fikrlash jarayonlari diqqat, xotira, o‘ylash va tasavvurni o‘z ichiga olib, bu jarayonlar axborotni to‘plash, tanlash, qabul qilish, qayta ishlash, yaratish, ularni bilim va tajribaga aylantirish orqali amalga oshiriladi.

R.Taysonning fikricha, “kognitiv” atamasi bilish yoki bilim olishga doir jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu atama sezish, mulohaza qilish va xulosa chiqarishdan iborat [8].

Hozirgi kunda o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish mavzusi ko‘pchilik olimlar tomonidan tadqiq qilinayotgan bo‘lsa-da, “kognitiv qobiliyat” tushunchasining aniq ta‘rifi mavjud emas. Lekin biz quyida ushbu konsepsiyani aniqlashning uchta asosiy yondashuvini ajratib ko‘rsatib o‘tmoqchimiz.

1. V.Shadrikov [10] va E.Soldatova [7]larning nuqtayi nazaridan, kognitiv qobiliyat – insonni boshqasidan ajratib turadigan va atrofda dunyoni muvaffaqiyatli bilishda namoyon bo‘ladigan fikrlash jarayonining individual xususiyatlari (sezish, diqqat, idrok, tasavvur va xotira).

2. Ba‘zi olimlar kognitiv qobiliyatlarni faoliyat subyektlarining xususiyatlari, munosabatlari va turli xil aloqalar tizimi sifatida ko‘rib chiqadilar [5; 9]. Ushbu tizim analiz, sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish jarayonlarining asosi hisoblanadi.

3. A.Matyushkin [5] va N.Sirnikova [6] singari tadqiqotchilar, kognitiv qobiliyatni intellektual qobiliyat sifatida tadqiq qiladilar.

Demak, kognitiv qobiliyat diqqat, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur orqali ichki va tashqi dunyoni bilishni samarali amalga oshirishning individual xususiyati hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi va o‘ziga xos xususiyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, olimlarning fikrlari, mavzuga doir pedagogik adabiyotlar o‘rganiladi, tahlil qilinadi va tadqiqot natijalari umumlashtiriladi.

**Tahlil va natijalar.** Bolaning aqliy rivojlanishi davomida uning tafakkurida juda ko‘plab o‘zgarishlar, jumladan kognitiv jarayonlar sodir bo‘ladi. Zero, kognitiv fikrlash tafakkurning alohida turi emas, balki fikrlashning bir qismidir. Kognitiv fikrlash aynan tafakkurning kognitiv qismi bo‘lib, u asosan o‘rganish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biridir. Bu muammoning dolzarbligi quyidagi omillar bilan bog‘liqdir:

1. Yosh xususiyatlari. Boshlang‘ich ta‘lim – bu intensiv kognitiv rivojlanish davri. Bu davrda bolalarda mantiqiy fikrlash, diqqat, xotira va tasavvur kabi asosiy aqliy operatsiyalar rivojlanadi.

2. Jamiyatning o‘zgaruvchan talablari. Zamonaviy jamiyat odamlardan axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini talab qiladi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish erta yoshdan boshlanishi kerak.

3. Keyingi ta‘lim olish uchun asos. Boshlang‘ich sinfda shakllangan kognitiv qobiliyatlar o‘quvchilarning o‘rta va yuqori sinflarda yanada murakkab bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatiga ta‘sir qiladi.

Ushbu muammo bolalarda o‘quv fanlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va umuman shaxsni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan muammolarni tahlil qilish, sintez qilish, tasniflash va hal qilish qobiliyatini rivojlantirish zarurati bilan bog‘liq. Bu jarayonda bola shaxsi bir qator fazilatlariga ega bo‘ladi, ular: axborotlarni saralash, to‘plash, tahlil qilish va tezkor qayta ishlash, muammolarni hal qilishda izchillikni hisobga olish, rejalashtirish qobiliyati. Bu fazilatlar bolalarda kichik maktab yoshidan boshlab shakllanadi va rivojlanadi. Darhaqiqat, boshlang‘ich sinf yoshida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon xotira, idrok, fikrlash, diqqat va tasavvurni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Quyida biz ta‘kidlab o‘tilgan har bir tarkibiy qismni tavsiflaymiz va ularning rivojlanish xususiyatlarini ajratib ko‘rsatamiz.

**Diqqat.** Diqqatning asosiy xossalari, uning hajmi, barqarorligi, kommutatsiyasi va taqsimlanishidan iborat. Ta‘lim-tarbiya jarayonida diqqatning xususiyatlari, turlari va barqaror birikmalari rivojlanadi, ular asosida diqqat shaxsiy fazilat sifatida shakllanadi.

Kichik maktab yoshida beixtiyor diqqat ancha rivojlangan bo‘lib, diqqatni ixtiyoriy tartibga solish va uni boshqarish imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi. Shu bois, bu davrda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Agar o‘quv materiali o‘qituvchi tomonidan jonli tarzda taqdim etilsa, o‘quvchida ixtiyoriy diqqatni jamlash oson kechadi va barqaror bo‘ladi.

**Idrok.** Idrok – bu inson ongida narsa va hodisalarning yaxlitlikda aks etishi, hissiy mavjud bo‘lgan vaqt va fazoviy aloqalar va munosabatlarning ifodalanishi. Idrok harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan aniq va yorqin hissiylik bilan tavsiflanadi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda idrokni chuqur va yo‘naltirilgan tahlil qilish zaif rivojlangan bo‘ladi. Agar bu davrda o‘quv jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa, unda bolaning idrogi maqsadli va boshqariladigan aniq faoliyat xarakterida shakllanadi. Idrok maqsadli faoliyat bo‘lgani uchun, o‘quv jarayonida u yanada murakkab va chuqurroq tus olib, tahliliy, farqlovchi va tashkillashtirilgan kuzatish xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

**Xotira.** Xotira inson rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki uning asosida munosabatlar, istaklar, intilishlar va ko‘nikmalar mavjud. Xotira o‘z aro bog‘liq bo‘lgan eslash, yodda saqlash va takrorlash singari jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Ma‘lumotlarning xotirada saqlanishi yaratilgan ta‘lim sharoitlar va yodlashning tashkil etilishi, axborotning ta‘siri va aqliy qayta ishlangan material o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan ochib beriladi. Kognitiv xotira – bu bilimlarni yodda saqlash jarayoni bo‘lib, o‘quv jarayonida olingan bilimlar keyinchalik ko‘nikmaga aylanadi. Xotiraning xususiyatlari yodda saqlash tezligi, muddati, hajmi va aniqligidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari eslab qolishga moyil bo‘lib, ularda vizual-majoziy xotira og‘zaki va mantiqiy xotiradan ustun turadi.

**Tasavvur.** Tasavvur – ilgari qabul qilingan va xotirada saqlangan ma‘lumotlarni qayta ishlash orqali yangi obrazlarni yaratish jarayoni [2].

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tasavvuri uning ta‘lim faoliyati jarayonidagi talablari ta‘siri ostida shakllanadi. Bu jarayon hayoliy tasvirlarni nazorat qilish va baholashni rivojlantirish bilan bog‘liq.

**Fikrlash.** Fikrlash mavjud bilimlarni, aqliy harakatlarni va bajarilayotgan faoliyatga muayyan munosabatini o‘z ichiga oladi. Atrofdagi dunyoni aks ettirishni amalga oshirish tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, tizimlashtirish, tasniflash va umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlashida intellektning intensiv rivojlanishi sodir bo‘ladi. Chunki, bu davrda bola har xil fanga oid ilmiy tushunchalar bilan tanishadi va ular bilan ishlay boshlaydi.

Tadqiqotimiz davomida boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda vizual-majoziy fikrlashning ustunligi, vizual xotira, hissiyotlarga asoslangan idrok va diqqatni yorqin materialga jamlash singari kognitiv fikrlash ko‘nikmalarining xususiyatlari aniqlandi. Shu o‘rinda biz, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi yondashuvlarni va metodlarni qo‘llashni tavsiya qilmoqchimiz:

1. Interfaol ta‘lim metodlari va didaktik o‘yinlar. Didaktik o‘yinlardan foydalanish, guruh ishlari va loyiha faoliyati analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Muammoli ta‘lim. Muammoli vaziyatlarni yaratish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga va yechim izlashga undaydi.

3. Suhbat va munozaralar. O‘quvchilarning kognitiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun savol-javob va jamoaviy munozaralar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

4. Loyiha faoliyatlari. Loyiha ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning izlanish va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

5. Vizual va amaliy topshiriqlar. Vizual materiallar va qo‘l mehnati orqali idrok va tahlil qobiliyatini oshirish.

6. Individual yondashuv. O‘quvchilar o‘rtasidagi individual farqlarni hisobga olib, ularga mos topshiriqlar tanlash.

Shu bilan bir qatorda, bu jarayonda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilar kognitiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metodikalarni va ta‘lim texnologiyalarini o‘zlashtirishlari kerak.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda ularning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish ta‘limning asosiy tamoyili va maqsadlaridan biri sifatida qaraladi. Shuning uchun hozirgi zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biri shaxsning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish asosida individual imkoniyatlarini rivojlantirishdir. Boshlang‘ich sinfda kognitiv fikrlashni rivojlantirish an‘anaviy o‘qitish usullarini qayta ko‘rib chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu bolaning keyingi ta‘lim va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды: в 2 т. – Москва: Педагогика, 1980. – Т.1. – 230 с.

3. Дружинин В.Н. Когнитивные способности: структура, диагностика, развитие / В.Н. Дружинин. – Москва: ПерСе, 2001. – 223 с.
4. Масленников В.А. Развитие интеллектуальных способностей младших школьников / В. А. Масленников; Новгор. гос. ун-т. – Великий Новгород, 2004. – 240 с.
5. Ратанова Т.А. Диагностика умственных способностей детей / Т.А.Ратанова. – Москва: Флинта, 2003. – 164 с.
6. Солдатова Е.Л. Развитие когнитивных способностей: учеб. пособие / Е.Л. Солдатова, Юж.-Урал. гос. ун-т – Челябинск, 1995. – 47 с.
7. Сырникова Н.А. К вопросу о системной трактовке интеллекта / Н.А.Сырникова // Ученые записки института непрерывного педагогического образования: сб. статей – Великий Новгород, 1999. – С. 148-151.
8. Тайсон Р. Психоаналитические теории развития / Р. Тайсон, Ф. Тайсон. – Екатеринбург: Деловая книга, 1998. – 528 с.
9. Чуприкова, Н. И. Принцип дифференциации когнитивных структур в умственном развитии, обучение и интеллект / Н.И.Чуприкова // Вопросы психологии: сб. статей : в 5 ч. – Москва, 1990. – Ч.5. – С.
10. Шадриков В.Д. Деятельность и способности / В. Д. Шадриков. – Москва: Логос, 1994. – 315 с.

## KOGNITIV FAOLIYAT TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI, UNING MAZMUNI, TARKIBIY QISMLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*Sidiqova Dilora Shavkatovna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim  
pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)*

*Rahmatova Mehrangis Hayot qizi,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti  
[mehrangis.rakhmatova@gmail.com](mailto:mehrangis.rakhmatova@gmail.com)*

*Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faoliyati tushunchasining nazariy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Kognitiv faoliyatning mohiyati va mazmuni, uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar, shuningdek, ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Maqolada kognitiv faoliyatning rivojlanish bosqichlari o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga ko'ra tahlil qilinib, har bir bosqichning didaktik va pedagogik ahamiyati yoritib beriladi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida kognitiv faoliyatni rivojlantirish usullari keltiriladi va ularning samaradorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Mazkur tadqiqot kognitiv psixologiya, pedagogika va ta'lim nazariyasi, boshlang'ich ta'lim jihatidan dolzarb bo'lib, pedagogik faoliyatda qo'llash uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kognitiv faoliyat, pedagogika, motivatsion, muammoli ta'lim, texnologiya, intellekt, ta'lim nazariyasi, tadqiqot, kognitiv psixologiya, metodik asos, noan'anaviy uslub, innovatsion ta'lim.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, ЕЁ СОДЕРЖАНИЕ, КОМПОНЕНТЫ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ

*В данной статье глубоко анализируются теоретические основы понятия познавательной деятельности учащихся младших классов. На научно-теоретической основе объясняются сущность и содержание познавательной деятельности, её составные части, а также их взаимозависимость. В статье проанализированы этапы развития познавательной деятельности в зависимости от возрастных и психологических особенностей учащихся, выделена дидактическая и педагогическая значимость каждого этапа. При этом приводятся методы развития познавательной деятельности с помощью современных образовательных технологий, а также даются предложения и рекомендации по их эффективности. Данное исследование актуально с точки зрения когнитивной психологии, педагогики и теории образования, начального образования и служит важной методологической основой для использования в педагогической деятельности.*

**Ключевые слова:** *познавательная деятельность, педагогика, мотивационное, проблемное обучение, технология, интеллект, теория образования, исследования, когнитивная психология, методологическая основа, нетрадиционный метод, инновационное образование.*

## THEORETICAL BASIS OF THE CONCEPT OF COGNITIVE ACTIVITY, ITS CONTENT, COMPONENT PARTS AND STAGES OF DEVELOPMENT

*This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations of the concept of cognitive activity of primary school students. The essence and content of cognitive activity, its constituent components, as well as their interrelationships are covered on a scientific and theoretical basis. The article analyzes the stages of development of cognitive activity according to the age and psychological characteristics of students, highlights the didactic and pedagogical significance of each stage. At the same time, methods for developing cognitive activity using modern educational technologies are presented and suggestions and recommendations are made on their effectiveness. This study is relevant in terms of cognitive psychology, pedagogy and educational theory, primary education, and serves as an important methodological basis for application in pedagogical activity.*

**Keywords:** *cognitive activity, pedagogy, motivational, problem-based learning, technology, intelligence, educational theory, research, cognitive psychology, methodological basis, non-traditional method, innovative education.*

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida kognitiv faoliyatni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim bosqichida o’quvchilarning kognitiv faoliyatini shakllantirish nafaqat ularning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, balki mustaqil fikrlash, kreativlik va hayotiy muammolarni hal qilish ko’nikmalarini oshirishda muhim o’rin tutadi.

Kognitiv faoliyat insonning atrof-muhitni bilish, axborotni qayta ishlash, uni anglash va qo’llash jarayonlarini o’z ichiga oladi. Ushbu jarayon inson miyasining intellektual faoliyatini faollashtiradigan murakkab mexanizmlarga asoslanadi va pedagogik hamda psixologik tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu hisoblanadi. Shunday bo’lsa-da, ushbu faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari, tarkibiy qismlari va rivojlanish bosqichlarini chuqur o’rganish boshlang’ich ta’limda yetarlicha yoritilmagan masala bo’lib qolmoqda.

**Asosiy qism.** Maqolada kognitiv faoliyat tushunchasi va uning nazariy asoslari yangi ilmiy yondashuvlar asosida talqin qilinadi. Shu bilan birga, kognitiv faoliyatning mazmuni va tarkibiy qismlari, shuningdek, uning bosqichma-bosqich rivojlanish xususiyatlari batafsil ochib beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi boshlang’ich ta’lim tizimida kognitiv faoliyatni samarali rivojlantirishga qaratilgan pedagogik sharoitlarni aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Rivojlanib borayotgan bugungi kun ta’lim tizimida qator yangiliklar, innovatsion texnologiyalar, noan’anaviy metodlar rivojlanishini talab qilmoqda. O’quvchilarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlar va o’qitishning yangi shakl, noan’anaviy uslublari bilan ularning bilish va ta’lim-tarbiya jarayoni tizimini, xususan, boshlang’ich sinf o’quvchilarining kognitiv ta’limiy faoliyatini shakllantirish texnologiyasining nazariy asoslarini yaratishni taqozo etmoqda.

Ta’lim tizimida o’quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish muammosini hal qilishning asosi o’quvchilarning bilim olishini faollashtirish hisoblanadi. Kognitiv faoliyat o’qitishni takomillashtiruvchi jarayon hisoblanib, nafaqat o’quv materialini idrok qilishga, balki o’quvchining bilish faoliyatining o’ziga bo’lgan munosabatini shakllantirishga ahamiyat qaratilgan. Faoliyatning o’zgaruvchan xarakteri doimo subyektning faoliyati bilan aloqador hisoblanadi. O’quv jarayoni samaradorligini oshirish muammosini hal qilish boshlang’ich sinf o’quvchilarda kognitiv faoliyatni rivojlantirishning amaliyotda sinalgan sharoitlari va vositalarini ilmiy tushunishni talab etadi.

Bugungi kunda ta’limning pedagogik maqsadlari bilan bir qatorda ta’lim oluvchilarni rivojlantirishga va kognitiv ta’limiy faoliyatini shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining kognitiv faoliyatini shakllantirishga bo’lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Kognitiv faoliyat har xil o’quvchilarning fikrlash va tushunish jarayonidan qanday o’tishi, ma’lumotni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va eslab qolishi, shuningdek, muammolarni hal qilishning nisbatan barqaror individual xususiyatlarini tushunishni o’z ichiga oladi[9].

Kognitiv faoliyat insonning bilish qobiliyatlari orqali atrof-muhitni o’rganishi, axborotni qayta ishlashi va uni hayotiy vaziyatlarda qo’llash jarayonlarini ifodalaydi. Ushbu tushuncha nafaqat psixologiya, balki pedagogika nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli hisoblanadi. Bilim olish, tahliliy fikrlash va muammolarni yechish kabi qobiliyatlar kognitiv faoliyatning asosi sifatida namoyon bo’ladi. Bu jarayon faqat individual qobiliyatlar emas, balki o’quv jarayonida shakllanadigan ijtimoiy va madaniy omillarga ham bog’liq.

Kognitiv faoliyat shaxsning faol holati hisoblanib, u o’rganishga bo’lgan intilish, aqliy zo’riqish va bilimlarni egallash jarayonida ixtiyoriy harakatlarning namoyon bo’lishi, qandaydir yangi ma’lumotni o’rganish davomida shaxsda ko’nikmalarning hosil bo’lishi, bilimlarni qay darajada o’zlashtirilganligi singari jihatlar bilan ifodalanadi. Bularga kognitiv faoliyatning reproduktiv darajasi, izohlash darajasi va ijodiy darajasini kiritish mumkin.

Kognitiv faoliyat mohiyatini tushunishning uchta yondashuvi ishlab chiqilgan: ba’zi tadqiqotchilar (M.A.Danilov, D.S.Golovikova, A.V.Zaporojets, T.M.Zemlyanuxina va boshqalar) buni faoliyat deb bilishadi, boshqalari esa (A.A.Abasov, V.S.Ilyin, G.I.Shchukina) faoliyatni sifatli, shaxsiy ta’lim deb hisoblasa, qolgan ayrim olimlar (M.N.Skatkin, R.S.Cherkasov va T.I.Shamova) kognitiv faoliyatni ham faoliyat maqsadi sifatida, ham erishish vositasi sifatida va natija sifatida ko’rib chiqish kerakligini aytib o’tadilar.

Kognitiv faoliyat pedagogik hodisa sifatida ikki jihatdan o’zaro aloqador jarayon hisoblanadi:

Birinchi, kognitiv faoliyat o’quvchining o’z-o’zini tashkil etishi va o’z-o’zini anglash shakli;

Ikkinchi, kognitiv faoliyat o’qituvchining o’quvchi bilish faoliyatini tashkil etishdagi alohida harakatlarining natijasi sifatida qaraladi.

Kognitiv faoliyatni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat:

1. *Xotira* – olingan ma’lumotlarni saqlash va ulardan tegishli paytda foydalanish jarayoni. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu jarayon, ayniqsa, vizual va eshituv materiallari bilan o‘zlashtirishda muhimdir.

2. *Diqqat* – axborot oqimini boshqarish va muhim ma’lumotlarga e’tibor qaratish qobiliyati. O‘quvchilarda diqqatni jamlash maxsus metodik yondashuvlarni talab qiladi.

3. *Fikrlash* – mantiqiy va ijodiy tahlil qilish, qaror qabul qilish hamda yangilik yaratish qobiliyati. Fikrlash qobiliyatining rivojlanishi kognitiv faoliyatning yuqori bosqichi hisoblanadi.

4. *Idrok* – atrof-muhitni to‘g‘ri tushunish va axborotni qabul qilish jarayoni. Bu qobiliyatni shakllantirishda darslarda ko‘rgazmali va interfaol metodlardan foydalanish muhimdir.

Boshlang‘ich ta’limda kognitiv faoliyatni rivojlantirish jarayoni bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. *Motivatsion bosqich* – o‘quvchilarda o‘quv faoliyatiga qiziqish uyg‘otish. Bu bosqichda o‘yin metodlari va qiziqarli topshiriqlar muhim o‘rin tutadi.

2. *Axborotni idrok etish bosqichi* – bilimlarni qabul qilish va tushunishga yo‘naltirilgan faoliyat. O‘quv jarayonida multimediya va vizual materiallardan foydalanish bu bosqichni samarali qiladi.

3. *Tahliliy bosqich* – axborotni tahlil qilish va xulosalar chiqarish. Bu bosqichda mantiqiy masalalar va muammoli vaziyatlar bilan ishlash o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

4. *Ijodiy bosqich* – o‘z bilimlariga asoslanib yangi g‘oyalar yaratish va mustaqil yechimlar topish. Bu bosqich ijodiy topshiriqlar va muammolarni yechishda jamoaviy ishlashni talab etadi.

Boshlang‘ich ta’limda kognitiv faoliyatni rivojlantirishda innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish dolzarbdir. Bunda:

- *Muammoli ta’lim*: o‘quvchilarning fikrlashini faollashtirish va mustaqil qaror qabul qilishiga yordam beradi.

- *Didaktik o‘yinlar*: o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

- *Interfaol texnologiyalar*: jamoaviy faoliyat va o‘zaro hamkorlik orqali bilimlarni chuqurlashtiradi.

Psixologlarning fikriga ko‘ra qiziqish (L. S. Vigotskiy, V. S. Muxina [15; 17]) bir-biri bilan bog‘liq va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan intellektual, kognitiv va ixtiyoriy jarayonlarning bir nechta tarkibiy qismlarining birlashmasidir. Qiziqish, K. Izardning so‘zlariga ko‘ra, bola boshqa his-tuyg‘ularga qaraganda tez-tez boshdan kechiradigan ijobiy tuyg‘u.[16] Psixolog olimlar tomonidan kognitiv qiziqish yordamida subyektning obyektiv dunyo bilan aloqasi o‘rnatilishi isbotlangan. Biror kishi uchun kognitiv qiziqishning predmeti uning uchun ma’lum bir vaqtda ehtiyoj, ahamiyat va jozibadorlikka ega bo‘lgan narsa hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida ta’lim faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishda u turli xil motivlarda konkretlashtiriladi, bu esa bolalarning o‘zini tuta olishlarini talab qiladi. Kognitiv faoliyat o‘quv materialini o‘zgartirishga, ularni bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga, eng fundamental bo‘lgan asosiy tushunchalarni ajratib ko‘rsatish bilan bir qatorda o‘quvchini bilimlarning kelib chiqishi bilan tanishtirishga asoslanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ta’lim jarayonida kognitiv faoliyati uchta o‘zaro bog‘liq bosqichda amalga oshiriladi:

1. Birinchi bosqichda o‘rganilayotgan ma’lumotni idrok qilish, tushunish, anglash va yodlash yoki nazariy bilimlarni o‘zlashtirish amalga oshiriladi.

2. Ikkinchi bosqichda bilim va o‘rganilgan ma’lumotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha bir qancha ko‘nikmalar yaratiladi, bu maxsus o‘quv mashqlarini tashkil qilishni talab etadi.

3. Uchinchi bosqichda o‘rganilayotgan material bo‘yicha bilimlarni yanada mustahkamlash va chuqurlashtirish, ularni birlashtirish va amaliy ko‘nikma hamda malakalarni takomillashtirish yo‘lga qo‘yiladi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosi kichik maktab o‘quvchilari- bolalar psixologiyasidagi eng dolzarb masalalardan biri, chunki insonning tashqi dunyo bilan o‘zaro ta’siri uning faoliyati tufayli amalga oshishi mumkin. Faoliyat insonning aqliy fazilatlarini, uning mustaqilligi va tashabbuskorligini shakllantirishning ajralmas shartidir.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni 1-4-sinf o‘quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish va ularni amalga oshirishga qaratilgan. Bola bilan o‘zaro munosabatlarni shunday tashkil etish lozimki, u kognitiv salohiyat, kognitiv qiziqish, kognitiv mustaqillik hamda tashabbusni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Kognitiv rivojlanishga hissa qo‘shuvchi bir qancha ta’sirning asosiy shakllari:

- bolani turli tadbirlarga jalb qilish;
- didaktik o‘yinlardan foydalanish;

- ijodiy tasavvurni, fikrlashni, xotirani, nutqni rivojlantirishni boyitishga qaratilgan o‘qitish usullarini qo‘llashdan iborat.

O‘quv jarayonini tashkil qiluvchi o‘qituvchilar uchun faoliyatning tuzilishini bilish muhim sanaladi. Uning asosiy tarkibiy qismlari: motivlar, maqsad, vazifalar, mazmun, vositalar, shakllar, usullar va natija. Demak, o‘qituvchi turli vositalar o‘quvchilar shaxsining emotsional-motivatsion, aqliy, amaliy sohasiga ta’sir qilishi kerak. Shuningdek, o‘qituvchilar maktab o‘quvchilari faoliyat olib boradigan asosiy faoliyat turlarini bilishlari ahamiyatli hisoblanadi. Ular quyidagilar: o‘quv-kognitiv, ijtimoiy, mehnat, o‘yin, estetik, sport va dam olish. Ushbu faoliyatni o‘zaro bog‘lash juda muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning kognitiv mustaqil faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi. Kognitiv ta’lim hozirgi vaqtda variant dasturlari, tabaqalashtirilgan usullar, ijodiy uy vazifalari, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishning sinfdan tashqari shakllari orqali amalga oshiriladi. Psixologlarning kognitiv ta’lim bo‘yicha zamonaviy izlanishlari, tadqiqot muammolarini hal qilishda o‘quvchilarning kognitiv faolligi standartlashtirilgan muammolarni hal qilishdan farq qilishini ishonchli isbotlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va vositalariga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim jihatlardan biri o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida ahamiyat qaratish kerak. Ma’lumki, ta’lim jarayoni ikki taraflama xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning teng bo‘lgan munosabatlaridan tashkil topgan. Bu jarayonga rahbarlik qiladigan o‘qituvchi ta’lim jarayonining to‘g‘ri hamda maqsadli tashkil etilganligi, ta’lim vazifalarining tizimli amalga oshirilishi va ta’lim natijalari uchun mas’ul shaxs hisoblanadi. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos bilim, ko‘nikma va malakalar yigindisiga, shuningdek, xarakter, qiziqish, dunyoqarash va qobiliyatning individual xususiyatlariga ega hisoblanadi. Har bir o‘quvchining kasbiy kompetentligi uning individual ehtiyojlari, dunyoqarash omillari, rivojlanish darajasi va ta’lim maqsadlari hamda o‘qish malakasiga muvofiq ravishda shakllanadi. Bu o‘qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, uning kompetensiyalari va salohiyatini eng samarali yo‘nalishda rivojlantirish uchun individual o‘qitish yondashuvlarini qo‘llash kerakligini bildiradi[18].

Pedagogik voqelik har kuni isbotladiki, agar o‘quvchi kognitiv faol bo‘lsa, o‘quv jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Bu hodisa pedagogika nazariyasida “o‘quvchilarning bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi” tamoyili sifatida mustahkamlangan. Kognitiv faoliyatni rivojlantirish texnologiyalari ta’lim jarayonining faqat samarador bo‘lishini emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlariga moslashtirilgan shaklda tashkil etishga imkon yaratadi. Kognitiv faoliyatni rivojlantirish jarayonini tizimli va ilmiy asosda tashkil etish boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Mazkur jarayonning nazariy asoslarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish pedagogik faoliyatning sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kognitiv faoliyat kichik yoshdagi o‘quvchilarning yangi bilim, ko‘nikma, ichki maqsadga muvofiqlik va bilimlarni to‘ldirish, bilimlarni kengaytirish va ufqlarini kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanishga doimiy ehtiyojini aks ettiradi[1].

Yuqorida bayon etilgan nazariy va amaliy yondashuvlar kognitiv faoliyatning rivojlanishi boshlang‘ich ta’lim jarayonida qanchalik muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Kognitiv jarayonlarni tushunish va ularni faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, o‘quv motivatsiyasining ortishiga va bilim olish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish nafaqat individual, balki jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, bu boradagi tadqiqotlar va innovatsion metodlarni ta’lim jarayoniga joriy etish davom ettirilishi lozim. O‘qituvchi kognitiv jarayonlarni rivojlantirishni faqatgina vosita sifatida emas, balki ta’limning poydevori sifatida qabul qilishi kerak. Shundagina bilim olishning yuqori bosqichlariga erishish, ijodkor avlodni shakllantirish va o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqish mumkin bo‘ladi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish jarayonida shaxsiy yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Har bir o‘quvchining bilish qobiliyatlari va individual o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda, moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt asosida tuzilgan ta’lim resurslari kognitiv jarayonlarni faollashtirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, madaniy-gumanitar yondashuvlarni rivojlantirish ham ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Bolalarda o‘zini anglashi va ijtimoiy muhitni idrok etishi uchun interfaol muhitni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda guruh faoliyat va kollegial qaror qabul qilish texnikalari kognitiv ko‘nikmalarni kengaytiradi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish faqat ta’lim tizimining ichki masalasi bo‘lib qolmasligi kerak. Ijtimoiy hamkorlik, oilaviy ta’limning faol ishtiroki va madaniyat bilan bog‘liq jarayonlar o‘quvchilarning kognitiv imkoniyatlarini yanada oshiradi. Oilada shakllangan o‘rganish madaniyati va o‘quv motivatsiyasi kognitiv jarayonlarning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Kelajak istiqbollaridan biri sifatida ekologik ta’limni kognitiv faoliyatni rivojlantirishga integratsiya qilish ko’zda tutilishi mumkin. Tabiiy muhit bilan bevosita bog’liq bo’lgan loyihaviy ta’lim dasturlari bolalarning idrok qilish va ijodiy yondashuvlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

**Xulosa.** Mazkur yondashuvlar ta’lim jarayoniga innovatsion yutuqlarni tatbiq etish va o’quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan g’oyalar boshlang’ich ta’limda kognitiv faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini va amaliy yondashuvlarini ochib beradi. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonini zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg’unlashtirish imkonini yaratadi va natijada, o’quvchilarning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirishga zamin hozirlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Ahmedova, M., Yo’ldoshev, S. Boshlang’ich ta’lim nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O’qituvchi, 2015.
2. Anderson, J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. New York: Worth Publishers, 2005.
3. Gippenreiter, Yu. B. Vvedenie v obshchuyu psikhologiyu. Moskva: Izdatel’skiy Tsentr “Akademiya”, 2002.
4. G.I. Shukin, Talabalarning kognitiv qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik muammolari: darslik - M.: Pedagogika, 2008. - 296 b.
5. Kognitiv faoliyat darajalari: darslik / T.I. Shamov. - M.: Ta’lim, 2005. - 286 b.
6. Solso, R. L., Maclin, M. K., Maclin, O. H. Cognitive Psychology. Boston: Allyn & Bacon, 2008.
7. Turdiev, S. Pedagogik texnologiyalarni boshlang’ich ta’limda qo’llash. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Vishnevetskaya Z.P. Kichik yoshdagi maktab o’quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirish usullari. - M., 2007.
9. Мухина, В. С. Возрастная психология [Текст] / В. С. Мухина. - М. : Академия, 2002. - 456 с.
10. Эриксон Э.Г. Детство и общество. /Э.Г.Эриксон-СПб.: Речь, 2000.- С. 416.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

*Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti  
Shahrisabz, O'zbekiston  
nilufarxod1yeva@gmail.com*

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi, ularning intellektual va kognitiv sohasini shakllantirish, intellektual rivojlanishda texnologiyadan foydalanish, raqamli axborot texnologiyalari haqida qisqacha tushunchalar, raqamli axborot texnologiya vositalari, raqamli axborot texnologiyalardan foydalanish usullari va imkoniyatlari, bolalarni raqamli texnologiyalar asosida intellektual rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish kabi muhim amallar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, bolalar psixologiyasi, raqamli ta'lim texnologiyalari, ta'limiy faoliyat, intellektual rivojlanish.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*В данной статье рассмотрены психология детей дошкольного возраста, формирование их интеллектуально-познавательной сферы, использование технологий в интеллектуальном развитии, краткие понятия о цифровых информационных технологиях, инструментах цифровых информационных технологий, методах и возможностях использования цифровых информационных технологий, а также значимость таких действий, как совершенствование механизма интеллектуального развития детей на основе информации о цифровых технологиях.*

**Ключевые слова:** дошкольная образовательная организация, детская психология, цифровые образовательные технологии, образовательная деятельность, интеллектуальное развитие.

## IMPROVING THE MECHANISM OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

*This article provides information on the psychology of preschool children, the formation of their intellectual and cognitive sphere, the use of technology in intellectual development, brief concepts of digital information technologies, digital information technology tools, methods and opportunities for using digital information technologies, and important actions such as improving the mechanism for the intellectual development of children based on digital technologies.*

**Keywords:** organization of preschool education, child psychology, digital educational technologies, educational activity, intellectual development.

**Kirish.** Hozirgi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanish shiddat bilan rivojlanib boryapti va o'zining ijobiy samaradorligini ko'rsatib kelmoqda. Shu boisdan ushbu maqolada raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirish metodikasi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini tubdan o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini yaratadi.

**Asosiy qism.** Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari sezilarli darajada osonlashmoqda hamda qulay imkoniyatlarni yaratmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum. Masalan, televideniya, telefon orqali berib borilgan onlayn darslarni raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi hozirgi raqamli asrda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’limiy faoliyatini unumli va samarali rejalashtirish maqsadida raqamli ta’lim texnologiyalariga bo’lgan ehtiyoj oshib bormoqda. "Ta’limni rivojlantirish" Davlat dasturida belgilanilishicha, ta’lim tizimining har bir bosqichlarida o’zini o’zi tarbiyalash va o’zini o’zi rivojlantirish uchun qiymat shakllanishini ta’minlaydigan raqamli ta’lim muhiti yaratilishi lozim. Davlat ta’lim to’g’risidagi qonuniga muvofiq hozirgi vaqtda ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlar faol rivojlanmoqda, shu jumladan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ham kirib bormoqda. Ta’lim sohasidagi yangilangan normalar o’qituvchi-tarbiyachilar uchun kasbiy darajasini muntazam ravishda oshirish, kasbiy kompetensiyaning o’sishini loyihalash zarurligiga olib keladi. Bunday ishlarning asosi normativ hujjatlarni tahlil qilish muammoni aniqlashga imkon berdi: raqamlashtirishga bag’ishlangan ta’lim sohasidagi talablar va huquqiy normalarga qaramay, maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarini raqamli ta’lim texnologiyalarini o’zlashtirishga tayyorlash bo’yicha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta’limda bolalarni aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik omillari, didaktik tamoyillarini zamonaviy kontekstda tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli ta’lim texnologiyalari muhitida intellektual rivojlantirishga yo’naltirilgan yondashuv asosida shakllantirish ularni maktab ta’limiga tayyorlashning didaktik ta’minoti hamda axborotli muhitini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O’RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarori, 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ 4312-son “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarorini amaliyotga joriy qilish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyada maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini rivojlantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan,

- maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;
- maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog’lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlashni o’zida aks ettirgan.

T. V. Zinovyev, O. Filatov asarlarida raqamli ta’lim texnologiyalarini amalga oshirishning nazariy asoslari o’rganilgan. Asosiy muammolar esa A. I. Rakitov, E. Toffler, M. Kastels asarlarida ko’rib chiqiladi. Tarbiyachi uchun ta’lim faoliyatida raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanish birinchi navbatda quyidagilarga e’tibor qaratilgan:

- maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim faoliyatida raqamli dizayn formati, ya’ni taqvim-tematik va uzoq muddatli rejalarni loyihalash;
- maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish uchun didaktik va tanlangan qo’llanmalarni ishlab chiqish bo’yicha uslubiy ishlar;
- rivojlanish muhiti (didaktik, syujet-rol va boshqalar) va loyihalarni amalga oshirish.

Tadqiqotning dolzarbligi maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli texnologiyalar, axborot muhitida intellektual rivojlantirish, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvga asoslangan zamonaviy ko’p madaniyatli jamiyatning munosib fuqarolari sifatida bolalarda shaxsni rivojlantirishning eng samarali shakllari va usullarini berish zaruratidir.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi sohasidagi innovatsion yondashuvlar ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy metodik jihatdan samarali tashkil etish hamda bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni ta'minlashga intellektual yondashishga oid bilim va ko'nikmalarga egallashi, ulardan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik vaziyatlar bilan bog'liq jarayonlarni tashkil etish imkoniyatlari, muayyan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, samarali shakl va vositalarga oid bilimlar maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosini tashkil qiladi. Buning uchun dastlab maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirishning nazariy metodologik asoslari haqidagi ma'lumotlar taqdim etilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilinishi bolalarni har tomonlama yetuk va intellektual ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularning aqliy qobiliyatini rivojlanishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyalanuvchilarni innovatsion texnologiyalar asosida intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishda tarbiyachi va pedagoglar mazkur jarayonning ob'ekti va sub'ekti sifatida namoyon bo'lishi, ushbu jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi. Buning uchun tarbiyachi-pedagoglar maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar va zamonaviy ta'lim usullarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi va kasbiy faoliyatdan samarali foydalanishni bilishi lozim. Bolalarni innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida intellektual qobiliyatini rivojlantirishda dastlab ularning aqliy va ruhiy rivojlanishini tashxis qilishning turli metodikalarini yaxshi bilishlari va o'z vaqtida ulardan samarali foydalanishlari talab etiladi. Har bir tarbiyachi va pedagog bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishga kirishar ekan ular zamonaviy insonparvarlik konsepsiyalarni bilishlari va bola shaxsini tarbiyalash metodikasini egallagan bo'lishlari muhimligini taqazo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni raqamli ta'lim texnologiyalar asosida shakllantirish bo'yicha yurtimiz pedagog olimlaridan maktabgacha ta'limda innovatsiyalarning o'rni, ularning savodxonligini rivojlantirish tadqiq etilgan. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, ruhiy, aqliy va intellektual jihatdan har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalari darajasiga ko'tarilgan. Shu nuqtayi nazardan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni samarali raqamli texnologiyalar, axborot muhitida intellektual rivojlantirishga oid ushbu tadqiqot ishi dolzarb sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida bolalarni intellektual rivojlantirish darslarida ishlatiladigan raqamli ta'lim texnologiyalarni multimediya taqdimotlari, dasturiy mahsulotlar ishlatiladigan texnologiyalar deb ta'riflash mumkin. Mazkur maqolada biz "multimediya taqdimoti" tushunchasini ko'rib chiqamiz, bu o'qituvchiga video segmentlar va ko'rinishlardan foydalangan holda ta'lim faoliyatini tashkil etishga imkon beradi, kompyuter dasturiy mahsulotlari ta'lim faoliyati mavzularini vizual ravishda namoyish etishga yordam beradi.

Ta'lim faoliyatida bolalarning nutqini, aqliy faolligini rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalardan foydalanganda bolalar tanasining quyidagi fiziologik va morfologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar tez charchash va mushak-suyak tizimining nisbatan zaifligi tufayli uzoq muddatli mushaklarning kuchlanishiga qodir emasligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, raqamli ta'lim texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim faoliyatida bolalarning aqliy faolligini rivojlantirishni tashkil qilishda maktabgacha ta'lim tashkilotiga kiritilgan o'zgarishlar bilan tavsiflangan gigiyena talablarini hisobga olish kerak.

Raqamli ta'lim texnologiyalardan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning tashkil qilishda ushbu yoshdagi bolalarga xos bo'lgan psixologik nuanslarni ham hisobga olish kerak, jismoniy kuch ishlatishni targ'ib qiluvchi dasturiy mahsulotlardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlantirish uchun raqamli ta'lim texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim faoliyati ikki turga bo'linadi: multimedia va kompyuter sinfidan foydalangan holda.

Multimedia yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirish bo'yicha ta'lim faoliyati bitta kompyuter (noutbuk), multimedia ekrani va proektor mavjudligini aniqlaydi. Microsoft Office PowerPoint dasturi sizga raqamli axborot mahsulotlarini yaratishga imkon beradi.

Raqamli ta'lim texnologiyalari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirish bo'yicha o'quv faoliyati kompyuter o'yinlaridan (o'quv, diagnostika, rivojlanish) foydalanishdan iborat.

Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim faoliyatida bolalarni intellektual rivojlantirish uchun asosan o'quv o'yinlari qo'llaniladi, shuning uchun rivojlanayotgan dasturiy mahsulotlarga qo'yiladigan asosiy talablarni tavsiflash kerak, ya'ni:

- bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak;
- amaldagi o'yinlar bolalarning yoshiga mos kelishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlarini tayyorgarlik qismida qo'llash bolani faol faoliyatga jalb qilishni o'z ichiga oladi: tanlovlar, kuzatuvlar, o'yin muhiti,

kompyuter o'yiniga tayyorgarlik ko'rish uchun suhbatlar. Asosiy qism to'g'ridan-to'g'ri kompyuter bilan mustaqil ishlashga qaratilgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bola har bir kalitning maqsadini, algoritmi yordamida dasturiy mahsulotni boshqarish usullarini (diagramma kartasi) allaqachon bilishini anglatadi. Yakuniy qism natijalarni sarhisob qilishga, ko'zning kuchlanishini yengillashtiradigan mashqlarga (jismoniy mashqlar) qaratilgan. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu vazifalar bolalar bog'chasining barcha yosh guruhlarida hal qilinadi va bolalarning yosh imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan aniq tarkib har bir bola uchun alohida hal qilinadi.

Yuqoridagi vazifalar asosida biz o'qituvchining raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish bo'yicha o'quv faoliyatidagi maqsadlarini shakllantirdik, shuningdek amalga oshirilayotgan dasturga muvofiq bolalar bog'chasi tomonidan taklif qilingan haftaning mavzulariga taqsimlanadigan bolalar faoliyatining mazmuni va turlarini ko'rib chiqdik. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bolalarga taklif qilingan mavzularga muvofiq tushunchalarni o'zlashtirishga, faol va passiv lug'atni to'ldirishga, yozish va o'qishni o'zlashtirishga imkon beradi va bolalar faoliyatining ishlab chiqilgan mazmuni va turlari maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchilariga raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda taqvim va tematik rejalashtirishni amalga oshirishga imkon beradi.

**Xulosa** sifatida shuni aytish mumkin, ota-onalar va bolalar, ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari bolalarni har qanday qobiliyatlarini bevosita shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi raqamlashtirilgan davrda bolalarning innovatsion va raqamli texnologiyani o'rganishlari ularning aqliy va eslash qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022-y, 06/22/113/0330-son.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y, 03/21/721/0952-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori, // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y, 09/22/153/0266-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyunda 487-son “Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y, 09/22/153/0266-son.
5. Toxtasinova G.R, Ormonova T.I. (2005). Bolalar bog'chasida intellektual psixologik o'yinlar T.:(4-5)
6. Tarbiyachining kasbiy kompetentligi va mahorati: o'quv qo'llanma / Tuzuvchi mualliflar: X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova. – Toshkent: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda PF-152- sonli Farmoni.
8. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. – T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”, 2020. – 226 b.
9. Xayitov J.X Texnologik ta'lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi // Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari. Mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz, 2022. -B. 389-392.
10. Nurmamatov Z.Sh. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash. Fan, ta'lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari. - Andijon. 2022 - y. B. 31-34.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING TASVIRIY SAN‘AT DARSLARIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*Musiq va tasviriy san‘at kafedrasi dotsenti*

*shaxnozaibadullaeva23@gmail.com*

*Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tasviriy san‘at ta‘limi va uning o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tasviriy san‘at sohasida ijodiy muhit yaratish, o‘quvchilarning badiiy-estetik saviyasini oshirish hamda ularning ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqolada san‘atning inson ruhiyati va ma‘naviy olamining rivojlanishiga ta‘siri, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar, olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Ijodiy qobiliyatlarning yoshga xos xususiyatlari, ularni rivojlantirishning usul va vositalari, ta‘lim jarayonida o‘quvchilardagi ijodiy salohiyatni ochish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Maqola ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi va ularning ijtimoiy ahamiyatiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *ijodiy qobiliyat, ta‘lim jarayoni, shaxs ijodkorligi, tasviriy san‘at, ijodiy tasavvur, pedagogik muammo, tasviriy faoliyat.*

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*В данной статье анализируется значение преподавания изобразительного искусства в общеобразовательных школах и его роль в формировании творческих способностей учащихся. Особое внимание уделено вопросам создания творческой среды в области изобразительного искусства, повышения художественно-эстетического уровня учащихся, а также стимулирования их творческой активности. В статье рассматривается влияние искусства на развитие человеческой психики и духовного мира, а также анализируются научные исследования и работы ученых, посвященные развитию творческих способностей. Освещены возрастные особенности творческих способностей, методы и средства их развития, а также направления раскрытия творческого потенциала учащихся в процессе обучения. Статья служит основой для научно-практических исследований, посвященных развитию творческих способностей и их социальной значимости.*

**Ключевые слова:** *творческие способности, образовательный процесс, личная творческая деятельность, изобразительное искусство, творческое воображение, педагогическая проблема, изобразительная деятельность.*

## DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*This article analyzes the significance of teaching visual arts in general secondary schools and its role in the formation of students' creative abilities. Special attention is given to the creation of a creative environment in the field of visual arts, the enhancement of students' artistic and aesthetic level, and the stimulation of their creative activities. The article examines the impact of art on the development of human psychology and spiritual world, as well as analyzing scientific research and works of scholars related to the development of creative abilities. The article discusses the age-specific characteristics of creative abilities, methods and tools for their development, as well as directions for uncovering students' creative potential in the educational process. This article serves as a foundation for scientific and practical research dedicated to the development of creative abilities and their social significance.*

**Keywords:** *creative abilities, educational process, personal creativity, visual arts, creative imagination, pedagogical problem, artistic activity.*

**Kirish.** Har bir sohaning o‘ziga xos qonuniyatlari, amal qiladigan tendensiya, qo‘llaniladigan texnologiya hamda yondashuvlari mavjud bo‘lib, tasviriy san‘at sohasi ham bundan mustasno emas. San‘atning barcha turlari kabi tasviriy san‘atda ham o‘zining xususiyatlarini tavsiflovchi omillar hamda parametrlar mavjud. Bu jihatlar uning tur va janrlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham umumiy

o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning fanga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarini shakllantirish, ularning badiiy-estetik saviyasini oshirish fanning sifat va samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda “uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, uni dunyo tajribalariga asoslangan holda takomillashtirish borasida talaygina amaliy islohotlar olib borilmoqda. Shu jumladan, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish, atoqli O'zbekiston xalq rassomlarining namunali hayoti va ijodini keng targ'ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish, O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini xalqaro darajada ommalashtirish, ushbu yo'nalishlarida yetuk mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsad qilib qo'yildi[1].

Ma'lumki, shaxsning ijodkorligi bu jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri hisoblanib, kichik yoshdan boshlab har bir shaxsda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish ijtimoiy jamiyat oldida turgan vazifalardan biri bo'lib kelgan. Ayni shu qatorda, ta'lim jarayonida maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyati bilan bog'liq aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va bunga ta'sir qiluvchi vositalarni topish muammosi ham dolzarb bo'lib kelmoqda. Biz yuksak ma'naviyatli, san'at va madaniyat sohasida bilimdon yoshlarni tarbiyalashni xohlar ekanmiz, avvalo ularning ijodiy qobiliyatlarini topish, ochib berish va sayqallash bilan shug'ullanishimiz lozim. San'at rivojlanishi uchun avvalo ijodiy muhit yaratilishi kerak Yuqoridagilarni ko'zda tutgan holda, maktablarda “Tasviriy san'at” darslariga yangicha ko'rinish va xarakter berishga, tasviriy faoliyat jarayonlari orqali ijodiy muhit yaratish va buning natijasida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, shu bilan birga, bunga oid metodikalarni ishlab chiqish va ularni yanada takomillashtirishga e'tibor qaratilishi lozim. Insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jamiyatning eng muhim pedagogik muammolaridan biridir. Bu muammo so'nggi o'n yilliklarda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar tufayli ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi.

**Asosiy qism.** Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga javoban ta'lim tizimi ham o'zgarimoqda. Maktab oldiga o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash va qo'llash qobiliyatini rivojlantirish vazifasi qo'yildi. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtda o'qituvchilarning diqqat-e'tibori o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usullarini izlash va amalga oshirishga qaratilgan. San'at bilan rivojlangan inson o'zini o'rab turgan dunyoning go'zalligini his qiladi. Aynan san'at ijodiy qobiliyatni ko'p jihatdan shakllantiradi va rivojlantiradi, butun ma'naviy olamiga ta'sir qiladi. U ko'z va barmoqlarni rivojlantiradi, his-tuyg'ularni chuqurlashtiradi va boshqaradi, tasavvurni qo'zg'atadi, fikrlashni amalga oshiradi, dunyoqarashni kengaytiradi va axloqiy tamoyillarni shakllantiradi. Shu munosabat bilan san'at nafaqat ijodiy, balki umuminsoniy qobiliyatlarni rivojlantirishda ham ishtirok etadi. Hozirgi global rivojlanish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish ta'lim jarayonining asosi hisoblanib, doimiy diqqat va e'tiborni talab qiladigan, o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan pedagogik muammo hamdir.

Ko'pgina tadqiqotchilar bolalarning tasviriy faoliyatiga qiziqish bildirishgan: arxeologlar, san'atshunoslar, rassomlar, psixologlar va o'qituvchilar. Ushbu muammoni hal qilib, ular quyidagi savollarga javob izladilar: bolalar nima uchun rasm chizishadi, bu jarayonlar bolalikning qaysi davrlarida sodir bo'ladi, bolaning ijodini qanday tushunish kerak, uni o'rgatish kerakmi va agar shunday bo'lsa, unda qanday usullar bilan? Insonning har tomonlama, barkamol rivojlanishi, ruhi va jismoniy kamol topishi uchun ijodiy qobiliyatning ahamiyatini ta'kidlab, ularni bolalikdan boshlashni muhim deb hisobladilar. Markaziy Osiyoda ta'lim metodlarining rivojlanish tarixi o'rganilganda ta'limda turli usullarning amaliyotda qo'llanilganini ko'rish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino “Tadbir al - ma'nozil” asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetgunigacha ma'lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini aytadi. U bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tartibida o'qitishni afzal deb biladi va bu uslub bolalarning turli iqtidori va qobiliyatini ro'yobga chiqarish haqida shunday deb yozadi: “O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar.

O'quvchilar birga bo'lganlarida doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z tasavvuri va nutqlarini rivojlantiradilar” [7]. Ijodiy qobiliyat mavzusi mashhur psixolog olimlar diqqat doirasidan chetda qolmagan. L.S.Vigotskiyning “San'at psixologiyasi”, V.S. Kuzin “Tasviriy san'at psixologiyasi”, B.M. Teplov, N.N.Volkovning “Rang va rasm”, “Predmet va rasmni idrok etish” asarlari yuqoridagi fikrning isbotidir. L.S. Vigotskiyning "San'at psixologiyasi" nomli fundamental asarida nafaqat badiiy ijodning o'ziga xos qonuniyatlari, balki ijodiy qobiliyatlarning tabiati va mexanizmi, ijodiy faoliyat va ijodkorning shaxsiyati bilan bog'liq umumiy qonunlarni ham belgilaydi. Ushbu hodisalar turli yosh davrlarida ularning rag'batlantirishi va rivojlanishini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. L.S. Vigotskiyning fikricha, ijodiy qobiliyatning mahsuli sifatida san'at psixologiyasining markaziy g'oyasi "san'atni his qilishning ijtimoiy texnikasi" deb tan olishdir[8]. Ijodiy qobiliyat muammosiga B.M. Teplovning ham katta hissasi bor. B.M. Teplov qobiliyatlar doimiy rivojlanish jarayonidan tashqari mavjud bo'lishi mumkin emasligiga ishongan.

Rivojlanmaydigan inson amalda qo'llashni to'xtatadigan qobiliyat vaqt o'tishi bilan yo'qoladi, deb ta'kidlagan. Hozirda uning “Qobiliyat va iste'dod” (1941), “Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi” (1940), “Qo'mondon ongi” (1943) asarlari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Olim qobiliyatlarning rivojlanishiga asos bo'lgan faqat anatomik va fiziologik moyilliklar tug'ma bo'lishi mumkin, ijodiy qobiliyatlarning o'zi esa doimo rivojlanish natijasidir, deb hisoblagan. "Hech qanday qobiliyat tegishli faoliyatdan tashqarida paydo bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas; gap qobiliyatlarning faoliyatda namoyon bo'lishida emas, balki ular ushbu faoliyatda yaratilishidadir".

Shunday qilib, ijodkorlik uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan pertseptiv xususiyatlarni ma'lum moyilliklarning individual rivojlanishining mahsuli deb hisoblash mumkin; ular ushbu rivojlanishning yo'nalishi va darajasining xususiyatlarini ochib beradi, bu esa pertseptiv jarayonlarning muayyan xususiyatlarini shaxsning individual psixologik rivojlanishining ko'rsatkichlari sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. B.M. Teplovning eng yaqin hamkasbi - taniqli olim, bolalar iqtidori va ijodiy qobiliyatini o'rganish sohasida mutaxassis N.S. Leites XXI-asrda samarali faoliyatini davom ettirdi. Asosiy g'oyalar uning "Umumiy aqliy qobiliyatlarning yoshga bog'liq va tipologik shartlari" (1970) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida taqdim etilgan. N.S. Leites fanga "yoshga bog'liq ijodiy qobiliyat" tushunchasini kiritdi, uning mohiyatini, tabiatini va mexanizmlarini uchta maktab yoshida va yoshga bog'liq rivojlanish kursining notekisligining turli xil variantlarini o'rganish kontekstida ochib berdi. Maktab o'quvchilarining ijodiy va aqliy qobiliyatlaridagi sifat farqlarini tahlil qildi va iqtidorli bolalarning psixologik xususiyatlarini solishtirishning o'ziga xos usulini ishlab chiqdi. Tasviriy san'atda ijodiy qobiliyatlarni V.I. Kireyenko, N.N. Volkov, V.S. Kuzinlar o'z ilmiy izlanishlarida o'rganishgan. Kireyenko quyidagi badiiy va ijodiy qobiliyatlarni sanab o'tadi:

- idrokning yaxlitligi;
- vertikal va gorizontaldan chetlanishlarni baholash;
- yengillik munosabatlarini baholash;
- nisbatlarni baholash;
- perspektiv qisqarishlarni baholash;
- vizual xotira.

O'z navbatida, ijodiy qobiliyatning tuzilishida asosiy va yordamchi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish kerak. V.S. Kuzin fikricha ijodiy qobiliyatlarning asosiy xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

kompozitsiya, undagi munosabatlar, voqelikdagi ko'rinishlardagi asosiy va xarakterli jihatlarni ilg'ay olishni ta'minlaydigan badiiy ijodiy tasavvur;

rassom ongidagi yorqin obrazlarni yaratish va uni badiiy obrazga aylantirishni ta'minlaydigan ko'rish xotirasi xususiyati;

ko'rayotgan va tasvirlanayotgan ko'rinishga nisbatan hissiyotning kuchliligi;

irodaning kuchliligi.

V.S.Kuzin ijodkorlikka quyidagicha ta'rif beradi: “Ijodkorlik – shunday faoliyatki, natijada inson ijtimoiy ahamiyatga ega yangi original asarlar yaratadigan faoliyatni ifodalaydi. Ijodkorlikning eng yaxlit turini hisobga olib, V.S.Kuzin uning uch bosqichini belgilaydi:

1) Tayyorgarlik bosqichi, shu jumladan muammoni shakllantirish;

gipoteza va tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish.

2) Tadqiqotning o'z bosqichi (gipotezani tekshirish bosqichi).

3) Muammoni yakuniy hal qilish bosqichi (qabul qilinganlarni umumlashtirish

natijalar). V.S.Kuzin qobiliyatlarning ta'rifini shunday shakllantiradi: "Qobiliyatlar - bu insonning aqliy xususiyatlari va fazilatlarini, yuqori sifatli ishlash uchun zarur shart bo'lib xizmat qiladigan muayyan faoliyat turi."

V.S. Kuzin va N.N.Volkov o'z tadqiqotlarida rassomlarning asarlari bilan tanishish –metodik tizim tarkibidagi ish shakllaridan biri deb hisoblab, tasviriy san'atda suhbat orqali yosh o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda diqqatni, mushohadani, badiiy obrazga nisbatan sezgirlikni oshirishdan boshlash kerak, deb ta'kidlaganlar.

Tasviriy san'at darslarida ijodiy qobiliyat muammosini ko'rib chiqib, S.P. Lomov o'z tadqiqotlarida badiiy ehtiyojlarni shakllantirish va amalga oshirish, o'quv jarayonini takomillashtirish muammosi sifatida ko'rsatdi.

Tabiiyki, bu muammo olim va psixologlarning e'tiborini tortmay qolmasdi. Mashhur psixolog B.F.Lomov to'g'ri ta'kidlaganidek[10]: “Aytish kerakki, ijodiy qobiliyat badiiy, ilmiy va ixtirochilik faoliyatining alohida holati emas, har qanday faoliyat ijodkorlik momentini ham o'z ichiga oladi”.

N.S. Bogolyubov[4] fikricha, ijodiy qobiliyatlar turli yosh davrlarida turlicha namoyon bo'ladi, o'ziga xos xususiyatlarga ega va ularning tarkibiga kiradigan turli tarkibiy qismlarning shakllanishida alohida

bosqichlarni talab qiladi. Ijodiy qobiliyatlar turli asoslarga asoslanadi. Ijodiy individuallikni shakllantirish maxsus va ijodiy qobiliyatlar tarkibiga kiruvchi rivojlangan tarkibiy qismlarni birlashtirish orqali sodir bo'ladi. Tasviriy san'at darslarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish muammosining psixologik, pedagogik, metodik tomonlarini ilmiy tadqiq etishga uzoq va yaqin mamlakat olimlaridan biri N.S.Bogolubov (1993) umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida tasviriy san'at namunalari vositasida ijodiy qobiliyatni shakllantirish muammosini o'z doktorlik dissertatsiyasida tadqiq etgan. Ushbu tadqiqotda N.S.Bogolubov tomonidan tasviriy san'at faoliyatida o'quvchining individual va umumiy qobiliyati ifoda etilishi, ular orasidagi nisbat, qobiliyatning namoyon bo'lishida tug'ma layoqat, ijtimoiy omillar, maxsus yo'naltirilgan ta'lim, tarbiya va rivojlanish bilan bog'liqligi o'rganilgan. Tadqiqotchi badiiy ijodiy qobiliyatning turli yosh bosqichlari (boshlang'ich sinflar yoshi, o'rta va yuqori sinf yosh bosqichlari)da rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashni ilmiy vazifa sifatida belgilab, ma'lum ilmiy natijalarni qo'lga kiritgan. Olingan natijalar asosida bolalarni maxsus va ijodiy qobiliyatlarni ayrim tomonlarni tashxis qiluvchi psixodiagnostik metodikalar yaratilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida 1-4-sinf o'quvchilari tanlab olingan. O'tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni bergan:

- umuman ta'limda, shu jumladan, tasviriy san'at ta'limida badiiy ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda o'quvchilardagi individuallikni o'stirishga alohida ahamiyat berish zarurligi, chunki u umumiy badiiy qobiliyatning tarkibiy qismi ekanligi;

- maxsus va ijodiy qobiliyatning psixofiziologik asosi har xil ekanligi;

- badiiy ijodiy qobiliyat turli yosh bosqichida turlicha ifoda etilishi;

- tadqiqotda qo'llanilgan tashxis metodikalari orqali o'quvchidagi individuallikning turli qirralarini aniqlash;

- tashxis metodikalaridan umumiy rivojlanish darajasi, tasviriy san'at faoliyati uchun zarur bo'lgan, ammo o'quvchida yetarli rivojlanmagan tomonlarni aniqlash va shu asosda tegishli rivojlantiruvchi, korreksion dastur ishlab chiqib, o'sha asosda maqsadli faoliyat olib borish;

- bilim, ko'nikma va malakalar ta'limning yakuniy maqsadi bo'lmasdan ular o'quvchi shaxsidagi individuallikni rivojlantirish vositasi ekanligi, ijodkor shaxs kelgusida barcha faoliyatda ijodiy yondashuvni namoyon qilishi tadqiqotda aniqlangan.

I.L.Levinning[11] dissertatsion tadqiqoti tasviriy san'at chuqurlashtirib o'tiladigan sinflarda badiiy qiziqishlarni rivojlantirish asosida ijodkor o'quvchi shaxsni shakllantirish mavzusida bo'lib, muallif ushbu sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarni maktab bosqichida tasviriy san'at bo'yicha bo'lajak kasb faoliyatiga tayyorlashni maqsad qilib oladi.

I.L.Levin o'z tadqiqotida tasviriy san'at chuqurlashtirilib o'qitilayotgan sinflardagi o'quvchilarni uch guruhga (grafik, manzarachi, kompozitsioner) bo'lib, har biriga shaxsiga xos psixologik-pedagogik, ijodkorlik, individual tavsifnoma bergan.

Ushbu tadqiqotning qimmatligi shundaki, maxsus sinfda tahsil olayotgan bolalarning tanlagan sohasi – tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini ortib borishiga erishish, shaxsdagi motivatsiyani kuchaytirish, bolalar ijodiy faoliyatini guruhlariga (o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-jamoa, o'quvchi-ustoz, pedagog) bo'lib, ularning bo'lajak kasb faoliyatiga mehrini kuchaytirish, tasviriy san'at faoliyatida kreativlikni oshirib borish, ijodiy intuitsiyani rivojlantirish maqsad qilib olingan. Shu bilan birga ta'limda turli metodlarni qo'llab, o'quvchilarda ijodiy izlanish faoliyatini yuzaga keltirish, o'quv faoliyatida mavzu, uslub, noan'anaviy yondashuv, ko'rgazma qurollar, noan'anaviy materiallar qo'llashda yangiliklar kiritilishi, ijodiy muhit yaratilishi, o'quvchilarning ijodiy ishlarini an'anaviy ballar bilan baholamaslik, har bir o'quvchini individual-psixologik xususiyatlari, tasviriy san'atdagi uslubi, potensial imkoniyatlari, iqtidorini hisobga olish va boshqalar tufayli yuqori natijalar olingan.

G.A. Gorbunova[5] ta'kidlashicha, zamonaviy maktab boshlang'ich sinflari quyidagilarni shakllantirishi kerak: badiiy va ijodiy faoliyat sharoitida ijodiy qobiliyat, bilim va ko'nikmalarni, tasviriy san'at sohasidagi ijodiy faoliyat tajribasini; maktab o'quvchilarining shaxsiy badiiy moyilliklari va qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish; o'rganish uchun tizimli motivatsiya asosida, darslarga qiziqishni shakllantirish; tasviriy san'atga ijobiy munosabatni tarbiyalash; badiiy ta'limni tashkil etishda maktab o'quvchilari zamonaviy innovatsion o'qitish texnologiyalariga tayanishi zarur.

S.A. Amanjolov [3]o'zining tadqiqot ishida qator fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha, dars jarayonida, bir tomondan, yosh o'quvchilarga malakali tasvirlash asoslari o'rgatilsa, ikkinchi tomondan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish amalga oshiriladi. O'qituvchi barcha maktab o'quvchilarining rasmlari, farqlarni hisobga olgan holda, nafaqat savodli, balki ifodali bo'lishini ta'minlashga harakat qilishi kerak. O'quvchi ishlagan rasm ifodali bo'lishi uning individual xususiyatlariga, g'oyalariga va ijodiy qobiliyatiga bog'liq bo'lib, qismlarning shakli, materiallari va ma'lum obyektlar rangining xarakterli xususiyatlariga urg'u

berishda namoyon bo'ladi. S.A. Amanjolov tomonidan aytilganlarning barchasidan kelib chiqadiki, o'qituvchi kuchli bolalar tomonidan chizilgan rasmlarning ifodaliligini diqqat bilan kuzatib, barcha boshlang'ich sinf o'quvchilarida ushbu fazilatlarini rivojlantirishga harakat qilishi kerak, ta'lim jarayonida bolalarning aqliy va fiziologik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlarning noaniqligini, shaxsiy xususiyatlarning murakkabligini, maktab o'quvchilarining aqliy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerakligini tushunish mumkin. Shu munosabat bilan tasviriy san'at darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga individual yondashuvni tatbiq etish zarurati paydo bo'ldi. Individual yondashuv barcha bolalarning ijodiy salohiyatini faollashtiradi va o'qituvchilarga imkoniyat beradi, deb fikr yuritadi olim.

Z.A. Stepanchuk [6] o'zining ilmiy tadqiqot ishida mavjud ilmiy-pedagogik bilimlar o'quvchilar uchun o'zlashtirish jarayonini samarali loyihalash imkonini bermaydi, degan fikrni ilgari surdi. Shu sababdan maktab o'quvchilarining badiiy va ijodiy faoliyati tajribasi va uni amalga oshirishning eng samarali vositalarini tanlash haqida o'zining ilmiy ishida aniqlab beradi.

Tadqiqotchi Ye.A. Xripunova ham o'z ilmiy tadqiqot ishini tasviriy san'at darslarida ijodkorlikni oshirish mavzusiga bag'ishlagan. Uning fikricha, o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishning eng muhim muammolaridan biri bu ijodiy muhitni yaratishdir. Atrof-muhit - bu insonni o'rab turgan va u bilan organizm va shaxs sifatida o'zaro ta'sir qiluvchi sharoitlar to'plami hisoblanadi. Ijodiy atrof-muhitni tashkil qilish - bu uchta komponentning kombinatsiyasi: xona (interyer), darsning o'zi va aloqa. Maktabning ichki qismi moddiy va ma'naviy madaniyatning elementi sifatida shaxsni shakllantirish va takomillashtirishga hissa qo'shish uchun mo'ljallangan, chunki ta'lim muhiti va o'rganish shaxsiy rivojlanishda asosiy rol o'ynaydi, deb fikr yuritadi tadqiqotchi.

Ye.P. Kabkova tadqiqotining asosiy mazmuni shundaki, tadqiqot materiallarini nazariy umumlashtirish va tahlil qilish, nazariy modellarni ishlab chiqish, olingan ma'lumotlarni tasniflash, shuningdek, ko'p yillik pedagogik mehnat natijasida maktab o'quvchilarining turli yosh bosqichlarida badiiy umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanildi. Shuningdek, ko'p yillik pedagogik ish natijasida maktab o'quvchilarining turli yosh bosqichlarida badiiy umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyati aniqlab, turli xil san'at asarlaridan taassurotlar okish va atrof-dagi voqelikka ta'sir qilish usullarini o'rgangan. Tadqiqotchi maktab o'quvchilarining badiiy umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish bo'yicha ko'p ish olib borgan.

Tasviriy san'atni hamma umumta'lim maktablarida o'qitilishining foydali ekanligi buyuk chex pedagogi Y.A.Komenskiy tomonidan uning «Buyuk didaktika» asarida rivojlantirildi. Umumiy ta'lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining «Emil ili vospitaniye» nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo'ynida narsalarni haqiqiy rangi, perspektiv ko'rinishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar. Umumiy ta'lim maktablarida rasm ishlashda natural metoddan ko'ra geometrik metodni afzalliklarini N.Pestalotssi, P.Shmidt va I.Shmidt kabi pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo'ldi.

Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini Y.A. Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlagan bo'lsalar, geometrik metodni ko'proq I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P.Shmidt, F.Dyupyular asoslashga harakat qildilar. Lekin, XIX asrning ikkinchi yarmidan geometrik metod Yevropaning ko'p mamlakaglarida qo'llanila boshlandi. Shunday qilib, XIX asr o'rtalariga kelib, Yevropada rasm chizish fan tarzida umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishi ancha rivoj topdi. Bu sohada rassom va muallimlardan tashqari san'atshunoslar, pedagog, psixologlar, vrachlar shug'ullana boshladilar. Rasm chizishni o'qitish metodologiyasiga doir bir qator adabiyotlar nashr etila boshlandi. Bu borada Kulman, Prang, Elsner, Baumgart, Ausberg, Braunshvig, Tedd kabilar jonbozlik ko'rsatdilar. Bular tomonidan yaratilgan adabiyotlarda rasm chizish qoidalari, uning metodikasida qarama-qarshi fikrlar bo'lsa-da, biroq natural metod borasida bunday qarama-qarshi fikrlar ro'y bermadi.

XX asr boshlarida bolalar tasviriy ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G.Kershenshteyner, rus san'atshunosi .Bakushinekiy, amerikalik J.Dyuilar faollik kursatdilar. Ularning fikriga Karaganda bolalar badiiy ijodiga aralashmayelik kerak. Ular erkin ijod kilishlari lozim. Ularning ijodiga aralashib ta'limni tezlashtirib bulmaydi. Chunki, dar bir bola yoshiga mos ravishda avvaldan belgilab qo'yilgan bosqichlarni bosib o'tadi.

Ta'limni ijodiy tashkil etishning pedagogik jihatlarini B.R.Adizovning “Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida ijodiy ta'limni tashkil etish – bu o'quv faoliyati bilan o'quv materiali o'rtasidagi aloqalarni yuzaga chiqarishdir deb yoritilgan.

**Xulosa.** Demak, ta’limda ijodiy faoliyatni olib borishda “o’qituvchi o’quv materiali” sifatida tahlil qilish mumkin. Bu o’qituvchi ta’sirida o’quv materialining bir holatdan ikkinchi holatga – o’quvchilar hali o’zlashtirib ulgurmagan bilimlardan o’rganilgan, atroflicha tahlil qilingan, to’liq o’zlashtirilgan bilimlar shakliga o’tishi ijodiy faoliyat hodisasi sifatida tahlil qilinadi.

Respublikamizda ijodiy qobiliyat, ijodkorlik masalalari bo’yicha o’tgan yillar davomida U.A.Usmonova, R.Sh.Sharofutdinova, M.M.Rustamova, F.T. Exsonova, G.Z.Yusupova, Sh.T.Boltayeva, M.S. Achilovalar bir qator izlanishlar olib borganlar.

U.A. Usmonova boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishi olib borgan bo’lib, ilmiy ishida sinfdan tashqari o’qishda o’quvchilarning ijodiy tasavvurini “Tasavvurni rivojlantiruvchi alifbe”si orqali rivojlantirish mexanizmlari o’qitishning kreativ texnologiyalari asosida takomillashtirilgan. Tadqiqotchi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang’ich sinf o’quvchilarini savodga o’rgatish mashg’ulotlari orqali ijodiy tasavvur rivojlantirishga erishgan.

R.Sh. Sharofutdinova esa sinfdan tashqari mashg’ulotlarda boshlang’ich sinf o’quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi ustida ish olib borgan bo’lib, sinfdan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik-psixologik imkoniyatlar muammoli topshiriqlarni yecha olish, o’zaro erdam, o’z-o’zini baholash, o’zaro musobaqalashish kabi kreativlik mezonlarini o’qituvchining innovatsion faoliyati mazmuniga o’quvchilar bo’sh vaqtini maqsadli nazoratga olishga yo’naltirilgan shaxsiy namuna muhitida singdirish asosida aniqlashtirilgan, hamda o’quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari sinfdan tashqari mashg’ulotlarni axborotli muhitda tashkil etishga mo’ljallangan "Tez hisobla" kompyuter mashqlari hamda manfaatli ijodga undaydigan haetiy vaziyatlarni erkin ifodalashga motivatsiyalovchi o’quv keyslari, blits so’rov, modellashtirish, ijodiy ish kabi interfaol usullarga davriy o’zlashtirish progresini ta’minlagan holda ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Yuqorida keltirib o’tilgan ilmiy-metodik izlanishlar ta’limning turli bosqichlarida ijodiylikni, ijodkorlikni, tasavvurni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan izlanishlardir.

#### Adabiyotlar:

1. Adizov B.R. Boshlang’ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.: Ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2003. – 280 b.
2. Амонжонов.С.А. Индивидуальный подход в обучении младших школьников изобразительному искусству. : автореф.дис.канд.пед.наук. – Москва, 2004. – 22 с.
3. Боголюбов Н.С. Формирование творческих способностей учащихся средней школы средствами изобразительного искусства с учетом индивидуального подхода: автореф.дис.канд.пед.наук. – Москва, 1993. – 30 с.
4. Горбунова Г.А. Инновационные технологии дифференцированного и индивидуального подхода к развитию художественно-творческих способностей младших школьников. автореф.дис.канд.пед.наук. – Москва, 2010.– 14 с.
5. Степанчук З.А. Формирование опыта художественнотворческой деятельности младших школьников на уроках изобразительного искусства автореф.дис.канд.пед.наук. – Волгоград, 2008. – 11 с.
6. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiya haqida. – T.: O’qituvchi, 2001.
7. Выготский Л.С. Психология искусства. – Минск: Современное слово, 1998. – 474 с.;
8. Лейтес Н.С. Возрастная одаренность школьников. – М.: Academia, 2001. – 320 с.;
9. Ломов Б. Ф. Вопросы общей педагогической и инженерной психологии. — М.: Педагогика; 1991. 259 с.
10. Левин И.Л. Формирование творческой личности школьника на основе развития художественных интересов в классах с углубленным изучением изобразительного искусства. Автореф.дис.канд.пед.наук, Нижний Новгород -2003 г., 24 стр.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING KICHIK JANRLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

*Azimova Nodira Xikmatovna,  
Zarmed universiteti o'qituvchisi,  
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan foydalanish texnologiyasi tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim bolalarning ma'naviy-axloqiy va ijodiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi, jumladan, ertaklar, tez aytishlar, maqollar va boshqa kichik janrlar bolalarning nutqini boyitish, tasavvurini kengaytirish, hamda axloqiy va milliy qadriyatlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv yondashuvlar orqali xalq og'zaki ijodining ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligi ko'rsatilgan. Shuningdek, pedagoglarning malakasini oshirish, individual yondashuvlar va multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Maqolada maktabgacha ta'limda xalq og'zaki ijodi vositalarining o'rni va ahamiyati batafsil yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, xalq og'zaki ijodi, kichik janrlar, ertaklar, tez aytishlar, maqollar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik metodlar, ijodiy rivojlanish, ma'naviy tarbiya, interaktiv yondashuv, multimedia vositalari, milliy qadriyatlar.

## ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАЛЫХ ЖАНРОВ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В ОРГАНИЗАЦИЯХ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*В данной статье анализируется технология использования малых жанров устного народного творчества в организациях дошкольного образования. Дошкольное образование считается важным этапом духовно-нравственного и творческого развития детей. Устное народное творчество, включая сказки, скороговорки, пословицы и другие малые жанры, служит для обогащения речи детей, расширения их воображения, а также усвоения нравственных и национальных ценностей. В исследовании показана эффективность интеграции устного народного творчества в образовательный процесс с помощью современных педагогических технологий и интерактивных подходов. Также даны рекомендации по повышению квалификации педагогов, использованию индивидуальных подходов и мультимедийных средств. В статье подробно освещена роль и значение средств устного народного творчества в дошкольном образовании.*

**Ключевые слова:** дошкольное образование, устное народное творчество, малые жанры, сказки, скороговорки, пословицы, инновационные технологии, педагогические методы, творческое развитие, духовно-нравственное воспитание, интерактивный подход, мультимедийные средства, национальные ценности.

## TECHNOLOGY OF USING SMALL GENRES OF FOLKLORE IN PRESCHOOL EDUCATION INSTITUTIONS

*This article analyzes the technology of using small genres of folklore in preschool education institutions. Preschool education is considered an important stage in the spiritual, moral, and creative development of children. Folklore, including fairy tales, tongue twisters, proverbs, and other small genres, serves to enrich children's speech, expand their imagination, and assimilate moral and national values. The study demonstrates the effectiveness of integrating folklore into the educational process through modern pedagogical technologies and interactive approaches. Recommendations are also provided for improving teachers' qualifications, applying individual approaches, and utilizing multimedia tools. The article elaborates on the role and importance of folklore in preschool education.*

**Keywords:** preschool education, folklore, small genres, fairy tales, tongue twisters, proverbs, innovative technologies, pedagogical methods, creative development, moral upbringing, interactive approach, multimedia tools, national values.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim bolalar hayotida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bola shaxsining dastlabki rivojlanish omillari shakllanadi, dunyoqarashi kengayadi, hayotga bo'lgan munosabatlari asoslanadi. Shu bilan birga, bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi

uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar ham aynan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari orqali yaratiladi. Maktabgacha ta‘lim jarayonida turli pedagogik va psixologik usullarni qo‘llash orqali ta‘limning samaradorligini oshirishga katta e‘tibor beriladi. Xalq og‘zaki ijodi kichik janrlari esa, bolalarning tasavvurini boyitish, qiziqishini kuchaytirish va milliy qadriyatlarini o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi muhim manba sifatida qaralmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi kichik janrlari, jumladan, ertaklar, tez aytishlar, maqollar, matallar, topshiriqlar, bolalarning nutqini boyitish va tasavvurini kengaytirishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu janrlar orqali bolalarga hayotiy saboqlar beriladi, ular qadriyatlar, axloqiy tushunchalar bilan tanishtiriladi. Shu bilan birga, xalq og‘zaki ijodi orqali o‘tkazilgan mashg‘ulotlar bolalarda eslab qolish, xotirani rivojlantirish, qiziqish uyg‘otish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida xalq og‘zaki ijodi elementlarini ta‘lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkoniyati maktabgacha ta‘lim muassasalarida yanada kengaymoqda.

Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodining kichik janrlardan foydalanishda interaktiv ta‘lim texnologiyalari, loyihaviy faoliyat, rol‘li o‘yinlar, multimedia vositalari keng qo‘llanmoqda. Bunday texnologiyalar bolaning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, jamoaviy hamkorlik va ijodkorlikni oshirishda samarali usul bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, ertaklarni sahnalashtirish orqali bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, mavzuni chuqurroq anglash va o‘zaro kommunikatsiya qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta‘lim jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi.

**Asosiy qism.** Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida xalq og‘zaki ijodining kichik janrlaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish uchun, avvalo, pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar uchun xalq og‘zaki ijod janrlarini to‘g‘ri tanlash, ularni bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda qo‘llash usullari bilan tanishtirish zarur. Innovatsion yondashuvlar yordamida bu jarayonni tashkil qilish orqali, ta‘lim sifatini oshirish hamda bolalarda milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirishga erishish mumkin.

Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi kichik janrlaridan foydalanish texnologiyasida bolalarning faoliyat turi va individual qobiliyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Masalan, ba‘zi bolalar uchun tez aytishlar qiziqarli bo‘lsa, boshqalar ertaklarni eshitish orqali o‘rganishni afzal ko‘rish mumkin. Shu sababli, pedagoglar har bir bolaning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda, ularni ta‘lim jarayoniga jalb qilish texnologiyalarini qo‘llashlari zarur [2].

Zamonaviy maktabgacha ta‘limda xalq og‘zaki ijodi kichik janrlaridan foydalanish jarayonida multimediya va raqamli vositalarning o‘rni tobora oshib bormoqda. Masalan, audio va video materiallardan foydalanish orqali bolalar xalq og‘zaki ijodidan namunalarni yanada jonliroq tasavvur qilishlari mumkin. Bu nafaqat ularga ma‘lumotni o‘zlashtirishda yordam beradi, balki ularning tasavvur doirasini kengaytiradi va yangi bilimlarni qiziqarli shaklda taqdim etadi. Shu bilan birga, multimediya vositalaridan foydalangan holda bolalar xalq og‘zaki ijodiga oid mashqlarni bajarishda o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini ko‘rsata oladilar.

Ushbu mavzuda xalq og‘zaki ijodining kichik janrlaridan foydalanish texnologiyasining zamonaviy innovatsion yondashuvlarini tahlil qilish orqali, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar, ma‘naviy bilim va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Shu sababli, xalq og‘zaki ijodining kichik janrlarini ta‘lim jarayoniga keng miqyosda integratsiya qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida bu jarayonni yanada takomillashtirish zaruriyatga aylanmoqda [2].

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida xalq og‘zaki ijodining kichik janrlaridan foydalanish texnologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar O‘zbekiston, MDH davlatlari va xalqaro miqyosda keng o‘rganilgan.

O‘zbekistonda. O‘zbekistonda xalq og‘zaki ijodi maktabgacha ta‘limda bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Joniyeva T.B. maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy sifatlarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalarning o‘rni va ta‘sirini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda xalq pedagogikasi namunalarning aynan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan janrlarini tanlab olib, axloqiy sifatlarini shakllantirishda foydalanish mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, Raximova Nafisa Azamat qizi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarni axloqiy sifatlarini shakllantirish masalalarini o‘rgangan. Uning tadqiqotida xalq og‘zaki ijodi kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularning xulq-atvorlariga, muomala madaniyatiga, kattalarni hurmat qilishga va insoniy fazilatlarini shakllantirishga qanday ta‘sir ko‘rsatishi yoritilgan [4].

MDH davlatlarida. MDH davlatlarida ham maktabgacha ta‘limda xalq og‘zaki ijodi elementlaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Rossiyada xalq og‘zaki ijodi janrlarini boshlang‘ich sinflarda innovatsion o‘qitishni optimallashtirish yo‘llari o‘rganilgan. Ruzikulova Nigora Kudratovna o‘z tadqiqotida boshlang‘ich ta‘limda xalq og‘zaki ijodi janrlarini o‘qish savodxonligi darslarida krossvord usuli yordamida onlayn va tarqatma materiallar ko‘rinishida olib borish bolalarning baholarini yuqori darajaga ko‘tarilishiga olib kelganini ta‘kidlaydi [3,4].

Xorijda. Xalqaro miqyosda xalq og'zaki ijodi elementlaridan maktabgacha ta'limda foydalanish bo'yicha tadqiqotlar asosan folklor va pedagogika sohalarida olib borilgan. Biroq, ushbu mavzuga doir aniq tadqiqotlar haqida ma'lumotlar cheklangan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, maktabgacha ta'limda xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan foydalanish texnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar O'zbekiston va MDH davlatlarida keng o'rganilgan bo'lib, bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda ushbu janrlarning ahamiyati ta'kidlangan. Xalqaro miqyosda esa ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar nisbatan kamroq bo'lishi mumkin.

**Al-Farobiy (IX asr)** – Al-Farobiy bolalarning axloqiy tarbiyasi va ma'naviy kamolotini rivojlantirishda san'at va ijodning, jumladan xalq og'zaki ijodining ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikricha, ertaklar va hikoyalar bolalarda qiziqish uyg'otib, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish uchun qulay vosita bo'lib xizmat qiladi [1].

**Ibn Sino (Avicenna)** – Ibn Sino bolalarning erta yoshdagi tarbiyasida xalq ijodining ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularning ijodiy fikrlash va axloqiy tushunchalarini rivojlantirishda foydalanish zarurligini ko'rsatgan. Ibn Sinoning fikricha, xalq og'zaki ijodi bolalar uchun o'ziga xos ma'naviy-axloqiy darslik hisoblanadi.

**Ahmad Yassaviy** – Ahmad Yassaviy o'z hikmatlari orqali bolalarning ma'naviy rivojlanishiga xizmat qilgan. U xalq og'zaki ijodini o'z asarlari orqali bolalar tarbiyasida qo'llashning samarali usuli sifatida ilgari surgan [2].

**Jean Piaget (1896–1980)** – Piagetning rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolalar ertak va hikoyalar orqali ma'naviy va kognitiv rivojlanishni amalga oshiradilar. Xalq og'zaki ijodining kichik janrlari bolalarning tasavvurini kengaytirishga va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

**Lev Vygotsky (1896–1934)** – Vygotskiy bolalar rivojlanishida madaniyat va ijtimoiy tajribaning ahamiyatiga e'tibor qaratib, xalq og'zaki ijodining bolalarning nutq va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o'ynashini ta'kidlagan. Uning fikricha, xalq ertaklari va hikoyalari bolalarning ijtimoiy o'zaro aloqalari va muloqotini kuchaytiradi.[3]

**Bruno Bettelheim (1903–1990)** – Bettelheim o'z tadqiqotlarida ertaklarning bolalar uchun psixologik jihatdan muhimligini ta'kidlagan. U xalq ertaklarining bolalarning ichki dunyosini tushunishga, qo'rquv va tashvishlarni yengishga yordam berishini qayd etgan.

#### Tahlil va natijalar.

#### Maktabgacha ta'limda xalq og'zaki ijodi texnologiyasi

1-jadval.

Aspects	Tavsif (Description)	Amaliyotga tatbiq qilish bosqichlari (Implementation stages)
Maqsad (Purpose)	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-axloqiy va ijodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.	1. Maqsadlarni belgilash 2. Tegishli janrlarni tanlash 3. Resurslarni tayyorlash
Kichik janrlar (Small genres)	Ertaklar, tez aytishlar, maqollar va boshqa xalq og'zaki ijodi janrlari.	1. Ertaklar va maqollarni o'rganish 2. Mashg'ulotlarga moslashtirish
Qo'llash usullari (Application methods)	O'yinlar, dramatisatsiya, guruh mashg'ulotlari, multimedia vositalaridan foydalanish.	1. Interaktiv o'yinlar 2. Multimedia vositalaridan foydalanish
Pedagogik texnologiyalar (Pedagogical technologies)	Innovatsion texnologiyalar, interaktiv yondashuvlar, individual yondashuvlar.	1. Pedagogik strategiyalarni aniqlash 2. Innovatsion metodlarni qo'llash
Natijalar (Outcomes)	Nutq boyishi, tasavvur kengayishi, milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatning shakllanishi.	1. Bolalarning rivojlanishini baholash 2. Yakuniy natijalarni tahlil qilish
Pedagoglar uchun tavsiyalar (Recommendations for teachers)	Malaka oshirish, kichik janrlarni kreativ usullarda taqdim etish, multimedia vositalarini o'zlashtirish.	1. Seminar va treninglarni tashkil qilish 2. Amaliyotdagi tajribalarni almashish

**Tadqiqot obyekti.** Ushbu tadqiqotning obyekti – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ma'naviy-axloqiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlashda xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan foydalanish texnologiyasi. Tadqiqot davomida bolalarning tasavvur qilish qobiliyati, nutq rivoji, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish darajasi, ijodiy fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarning shakllanishi tahlil qilinadi.

Tadqiqot usullari. Pedagogik eksperiment: Maktabgacha ta'lim guruhida pedagogik eksperiment o'tkazilib, xalq og'zaki ijodining kichik janrlari (ertaklar, maqollar, tez aytishlar) bilan tanishtirilgan va bu jarayon zamonaviy texnologiyalar orqali qo'llab-quvvatlangan. Eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasida solishtirma tahlil amalga oshirilgan.


Anketali so'rovnomasi: Bolalarning axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish darajasini baholash uchun otalar va tarbiyachilar o'rtasida anketali so'rovnomasi o'tkazilgan. Anketa natijalari bolaning tarbiyaviy rivojlanishiga xalq og'zaki ijodi elementlarining ta'sirini baholashda ishlatilgan.

Kuzatish: Bolalarning ertak va hikoyalarga bo'lgan qiziqishi, ularni o'zlashtirishi va ijodiy ishtiroki kuzatilgan. Kuzatish natijalari asosida bolalar faolligining oshishi va ularda qiziqishning rivojlanishi baholangan.

Ushbu jadval va diagrammalar eksperiment natijalarini tasvirlaydi. Eksperimental guruh va nazorat guruhidagi bolalarning "ertakni eslab qolish" va "hikoya qilish ko'nikmasi" bo'yicha natijalari keltirilgan.

2-jadval.

